Bilamizki, barmoq tizimida bo‘g‘inlarning muayyan guruhlarga ajratilishi natijasida ritmik bo‘lak – turoq hosil bo‘ladi. O‘z vazifasiga ko‘ra barmoqdagi turoq aruzdagi ruknga yaqin turadi. Agar misradagi bo‘g‘inlarning guruhlanishidan turoqlar paydo bo‘lsa, misra yo baytda turoqlarning miqdori va uyushuv tartibidan turkum yaratiladi. Barmoq vaznidagi she’r turoqlari bo‘g‘inlarning miqdoriga, aruzdagi she’r ruknlari esa hijolarning ham miqdoriga, ham sifatiga qarab farqlanadi. Xo‘sh, qasida janri va “O‘zbegim” qasidasining janr xususiyati bilan chambarchas bog‘lanuvchi bu kabi vazn xususiyatlarini 5-sinf o‘quvchisi tushuna oladimi? Afsuski, o‘quv dasturini tuzishda masalaning bu tomoniga yetarli e’tibor berilmaganga o‘xshaydi.

O‘quvchilar she’riyatning nazariy qonun-qoidalari bilan ko‘p hollarda yuzaki tanishtirilishi tufayli tahlilda hamisha oqsaydilar. Eng achinarlisi, bu hol hatto oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalar faoliyatida ham ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, she’r “Ohang jihatdan ma’lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq” (5) hisoblanadi. Lekin she’riy nutq ham muomala tili va muomala qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Nasriy nutqning ham o‘z tabiatidan kelib chiqadigan, amal qilinishi lozim bo‘lgan qo‘shimcha qonuniyatlari borki, o‘qituvchi tahlil jarayonida bundan ko‘z yummasligi kerak. Bu holatni bartaraf

etish uchun oʻqituvchi bolalarni adabiyot, jumladan, sheʼriyat bilan chuqur tanishtirish metodlarini izlashi lozim. Bola sheʼriyatning inson baxti, quvonch-u shodliklari, gʻam-gʻussasi, qalb iztiroblari bilan chambarchas bogʻliqligi, shu hildagi kechinmalarning badiiy ifodasi ekanligini tushunib yetgandagina soʻz sanʼatining bu turiga nisbatan faol munosabatda boʻladi. Aks holda oʻquvchida sheʼriyatga nisbatan loqaydlik tugʻiladi va bu narsa uning nafaqat soʻz sanʼati, balki goʻzallik haqidagi umumiy tushunchalariga ham salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Oʻzining baxti ham, baxtsizligi ham umuminsonga xosligini anglab yetgan kishigina yirik harflar bilan yoziladigan Shaxs darajasiga koʻtariladi.

6-sinf uchun oʻquv dasturida Zulfiyaning “Baxtim bor, ajoyib kishilar aro...”, “Bogʻlar qiygʻos gulda”, “Nevara” sheʼrlarini oʻrganish uchun 3 soat ajratilganligi koʻrsatilgan. Ushbu sheʼrlarni oʻrganish orqali ularning badiiy jozibasini oʻquvchiga his qildirish vositasida muallif ruhiy olamini anglashga yoʻllash bosh taʼlimiy maqsadni tashkil etadi. Shoira sheʼrlarida hayotdan zavq tuyish hissi oʻziga xos shaklda ifodalanganligini bevosita tahlil orqali yoritib berish mumkin.

“Nevara” sheʼrini ifodali oʻqib berish orqali oʻquvchi shoiraning tuygʻular olamiga olib kiriladi. Xonaga quyunday otilib kirgan nevaraning shoʻx-shodon harakatlari, oʻt chaqnayotganday otilib, yelib-yugurib hislarini boshqara olmayotganligidan zavq tuygan ona – shoira kechinmalari sheʼrda gʻoyat taʼsirchan ifodalangan. Bu tuygʻular:

“Ayrilib qogʻozdan, sheʼrdan va hushdan
Boqaman varrakboz insonga baxtiyor”

misralariga singishgan. Nevaraning qiyofasini gavdalantirishda shoira qanday badiiy tasvir vositalaridan foydalangan?

“Naq bobosi siyoh zihinday tiyrak,
Koʻkish alangada yonar sochu qosh.
Borligʻi ezgu bir oʻt boʻlsa kerak,
Tomirlarda qonmas, kezadi quyosh”

misralariga jo boʻlgan maʼnolarni qanday izohlaysiz? Tiyrak – kerak; qosh– quyosh soʻzlari qanday vazifani bajargan? Sheʼrga xos ichki ohangni his qildingizmi? Bu ohang shoira kechinmalariga mos yoqimli musiqa ohangini eslatadi – a? Ana shu ohangni yaratishda ishtirok etgan sheʼr unsurlari - shakl komponentlariga nimalar kiradi? Bu savollarga javob berish uchun sheʼrni turoqlarga ajratamiz:

Ne - va - ram qu - yun - day o - ti - lib ki - rib (11 boʻgʻin)
Qa - la - mim ta - gi - dan qo - gʻoz - ni yu - lar (11 boʻgʻin)
Dam - da var - rak ya - sab koʻk - ka u - chi - rib, (11 boʻgʻin)
I - zi - dan qop - qo - ra koʻz - la - ri yu - rar (11 boʻgʻin)

Koʻrinadiki, sheʼr misralarining muayyan tartibdagi boʻgʻinlar uyushuvidan (har misrada 11 boʻgʻin) turoq tartibidan uning ichki ohangi yuzaga kelgan. Bu ohang va qofiyadagi soʻzlar vositasida shoira sheʼr misralarining taʼsirchanligini yuzaga keltirib, salmoqli poetik maʼnolarni ifoda etmoqda: avlodlar timsolida shu avlod qonida joʻsh urgan ezgu hislarning umriboqiyligini anglash mumkin. Bobosiga oʻxshab ketadigan (Naq bobosi siyoh zihinday tiyrak, koʻkish alangada yonar sochu qosh ...) bolakay –

nevara shoiraga uning iqbolini namoyon etganday tuyuladi. Avlodlar timsolida shoira bu hayotga kelib “kashf etilgan” baxtdan zavqlanmoqda.

“Tiniq zangori fazo” tubiga intilayotganday sho‘ng‘ib uchayotgan varrak timsoli bolaning beg‘ubor orzu-tilaklarini ifoda etmoqda. Ezgu tilaklarning bepoyon osmon qadar yuksalishi esa ezgulikning buyukligidan darak beradi.

Shu murg‘ak qalb, shu pokiza, beg‘ubor va jajji vujudda nish urgan ezgu tuyg‘ular hayotning ranginligini, ezgulik yaratish va undan zavqlanish hissi avlodlardan avlodlarga o‘tuvchi bebaho tuyg‘u ekanligini yana bir karra ayon etayotir. Shoira ana shu hayot haqiqatini anglab, “qog‘ozdan, she’rdan va hushdan ayrilganligini” e’tirof etmoqda. “Bog‘lar qiyg‘os gulda” she’riga xos poetik fikr ham rang-barang ma’nolarni ifoda etadi. Qiyg‘os gullagan bog‘ni shoira yaxlit bir chamanga o‘xshatmoqda:

“Har daraxt anvoi bir tarovatda,
Bir kaft bog‘ mehnatu hosilga vatan,
O‘zga ko‘rk, o‘zga rang har bir daraxtda ...”

Manzara tasviriga o‘quvchilar diqqatini tortib, quyidagicha tahlilga yo‘naltiruvchi savollar berish mumkin:

1. Qiyg‘os gullagan bog‘ timsolida shoira nimalarni tasavvur etgan?
2. “Har daraxt bargi bir dunyo hikoya” misrasiga jo etilgan ma’nolarni izohlay olasizmi?
3. “Har bir daraxt hosili o‘zgasi uchun ko‘rk, qudrat, himoya” ekanini ta’kidlash orqali shoira qanday poetik fikrni ifoda etmoqda?
4. Shoiraning o‘z Vataniga mehr-muhabbati ta’sirchan ifodasini topgan misralarni o‘qib, ma’nosini tushuntirib bering. “Vatanim ko‘zimda” mubolag‘ali ifodami yoki poetik ko‘chimmi?
5. Qiyg‘os gullagan bog‘ bilan Vatan timsollari qaysi jihatlari bilan umumlashma ma’noga ega?

Har bir savolga javob berish chog‘ida o‘quvchining mustaqil fikrlashiga imkon berish, aytilgan fikrlarni boshqa o‘quvchilar to‘ldirishi, muayyan nazariy tushunchalarni esa o‘qituvchi matn tahliliga bog‘lab tushuntirib o‘tishi lozim.

O‘quvchilarning mustaqil amaliy ishlari yakunlangach, Zulfiyaning tahlil qilingan asari misolida lirik she’riyatga xos xususiyatlar haqida yakuniy xulosani bayon etish joiz:

**Tadqiqot metodologiyasi.** Siz bilib oldingizki, lirik asarlar orqali kitobxon – o‘quvchi tuyg‘ulariga, hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatiladi. Lirik qahramon timsoliga ko‘chgan muallif kechinmalari she’rxonning ham ruhiyatiga ko‘chib, uning kechinmalariga aylanib ketar ekan. Shu tariqa, lirik asarlar bizni o‘zga insonlarni his qilishga, ularni qalbini, hayajonu iztiroblarini tushunishga o‘rgatar ekan. Natijada, boshqalarga hamdard, hamfikr, tuyg‘udosh insonga aylanib borar ekanmiz. Bu – badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanidan dalolat beradi. Badiiy ijod namunalari esa inson ma’naviyati, dunyoqarashi va ruhiyatini boyituvchi qudratli vositadir. Shuning uchun kitobxonlik darajasi yuksak bo‘lgan o‘quvchilarning estetik didi ham yuqori bo‘ladi, mustaqil ijodiy fikrlash salohiyatlari ham boshqalardan ustunlik qiladi. Zero, ijodiy fikr

kishisi u qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, hamisha yaratish, kashf etish istagi bilan yashaydi, jamiyatimizning eng faol, yaratuvchi shaxslari qatorida e'zozlanadi.

6-sinfda Zulfiya ijodini o'rganish jarayonida ana shu ta'limiy va tarbiyaviy maqsad boshqa usullarga tayanib amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchi "Shoiraning hayoti va ijodi haqida" nomli adabiy-badiiy albomdan foydalanib, o'quvchilarga ma'lumotlar berishi mumkin. Darslikda berilgan she'rlarni o'qib o'rganish hamda tahlil qilishdan oldin quyidagi mulohazalar orqali ijodkor uslubining o'ziga xosligi haqida muayyan tushuncha berish o'rinli bo'ladi.

She'riyat qanday olam? Ayrim shoirlar she'r yurakni larzaga solgan hislardan dunyoga keladi deb hisoblasalar, ba'zi ijodkorlar she'r – qalb iztiroblari-yu dardlarini, armonu quvonchlarini badiiy bo'yoqlarda tasvirlash, deb ta'rif beradilar. Siz-chi, siz she'riyatga qanday ta'rif bergan bo'lardingiz? Ha, juda to'g'ri, she'riyat insonning fikr o'ylarini, his-tuyg'ulari, olam go'zalliklariga munosabatini badiiy tarzda yaratadi, ko'z o'ngimizda badiiy so'z orqali jonlantiradi.

Shoira Zulfiyaning qator lirik she'rlarini o'qir ekanmiz xilma-xil kechinmalarni qalbdan his etamiz, chunki bu she'rlarda fikr va tuyg'u harakati jo'shqin, his hayajon salmog'i yuksak. Shu sababli mayin musiqiylikka uyg'un ruhiyat manzralarini qalb ko'zimiz orqali ko'rganday bo'lamiz. Nafis bo'yoqlarda berilgan tabiat chizgilarida oq, nim pushti ranglar yetakchilik qiladi. Tabiat tasviriga uyg'un insoniy kechinmalarni kechirayotgan lirik qahramon ko'z o'ngimizda jonladi, uning qalbi iliqlikka to'la, go'zallikka tashna ekanini his qilamiz.

Shoiraning Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlab yozgan she'rlari ayniqsa hayajonli, dardchan. Tabiat tasviriga singdirilgan mayin ohanglar oq bo'yoqlarda tasvirlanadi; insoniy dardga yo'g'rilgan faryod nolalari, dardu alam, armonu iztirob tuyg'ulari asta-sekin sarg'ish ranglar yoki to'q ranglarga ko'chadi. Lirik qahramon qo'lidagi dasta gul, yorug'likni to'sib kelgan qora bulut, ayol iztiroblariga chidolmasdan duv yosh to'kkan osmon, oq bulutlar-bari ramziy ma'nolarni tashiydi.

"Biz yig'ladik tepangda shu kun
Keldingmi deb ko'tarmading bosh"
misralari lirik kechinma yakunini tashkil etadi.

Demak, Zulfiya she'rlarida hayotning murakkab sinovlaridan o'tib borayotgan inson qiyofasi, uning o'y-kechinmalari, his-tuyg'ulari, dardu iztiroblari tasvirlanadi va kitobxonni ayol, ona, yor qalbining mushtarak tuyg'ulari zamiridagi ma'nolarni anglashga undaydi. O'qituvchi darslikdagi Zulfiya hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarning ma'lum qismini o'qib berishi, shoiraga zamondosh ijodkorlardan Mirtemir, Abdulla Qahhorning fikrlarini eslatishi, darsda bayon etilgan fikrlarga tayanib, ijodkor qiyofasini o'quvchilar ko'z o'ngida to'la jonlantirishga erishishi mumkin. Shoiraning yozuv taxtasiga ilingan portretiga qarab unga xos sifatlarni payqash mumkinmi? Shoira nigohiga cho'mgan horg'inlik qanday ma'nolarni ifoda etadi? O'quvchilarning savollarga bergan javoblari tinglangach, "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rini o'qib berish mumkin. She'r tahlili davomida esa muammoli savollar yechiladi. She'rning birinchi bandidagi bahor tasviri olamning go'zalikka burkanganidan darak beradi. Ko'z o'ngimda baxmal vodiylar, qirlarning bahoriy qiyofasi jonlanadi. Ammo bahor shaydosi, shoiraning sevimli yori qani? Uni mayin

shabada ham tinmay izlamoqda, topolmagach, boshini tog'larga urib, soylarga qulatdi toshlarni.

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan za'far yotog'imga yonoq
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

E'tibor bering: shabboda ranggo-rang jilolarga yo'g'rilgan holda xonaga kirdi. Ammo yonog'ida hijron dardidan to'kilgan yoshlar va za'faron yonoq ranglariga singishib, sarg'imtir tusga kirdi. Bu ko'z yoshlari oddiy emas, balki ayol qalbining iztiroblarini anglatuvchi, achchiq qismat nolalariga aylangan, kuydirguvchi ko'z yoshlardir.

Go'yo shamolning etagidan tutib, yelday uchib, yorining qabri tomon ketayotgan shoira uning hayotdan ko'z yumganiga ishongisi kelmaydi. Qabr toshiga boqib, achchiq haqiqat oldida bosh eggan shoira holati shabbodaning aftoda kezishiga, beqaror yelishiga qiyoslanadi. Lirik qahramon ko'z yoshlari bilan vujudini chok-chok etib yig'lagan bo'lsa, shabboda har tarafga bosh urib, "gullar g'unchasini etdi chok-chok". Natijada Shoira holati, uning iztiroblari bahor holatiga ko'chadi, go'yo osmon ham, daraxtlar, gullar, sayroqi qushlar ham lirik qahramon holatiga mutanosib g'amnok, dardchan holatni ifodalovchi to'q ranglarga burkanadi, yosh to'kadi.

O'qituvchi she'r misralarida qo'llangan o'xshatishlar, murojaat usuli, jonlantirish ("Qishning yoqasidan tutib so'radi seni..."), o'ziga xos badiiy bo'yoqlarda berilgan tasvirlar, holatlar tasvirini o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilib darslikdagi savol va topshiriqlar ustidagi amaliy ishni yakunlaydi.

Demak, shoirning his-tuyg'ulari va kechinmalarini aks ettiradigan badiiy asarlar lirik asarlar deyiladi. Badiiy ifodani his-hayajonlarga yo'g'irishda lirika so'zga, she'riy shakllarga tayanadi. Tashbeh (o'xshatish), tajnis (omonim so'zlardan foydalanish), tashxis (jonlantirish) ana shunday she'riy san'at turlari sifatida shoirga shaxs, predmet, hodisaning o'ziga, insonlarga xos xususiyatlarini ochishda, uni biror narsaga qiyoslashda, predmetlarga ko'chirib, jonlantirib tasvirlash, yoxud so'zlarning ma'no tovlanishlari vositasida yangi-yangi poetik ifodalar va tasvir qirralarini yaratishda keng imkoniyatlar beradi. Shoir tunni qorong'ulikka, oyni yorqinlikka, gul bargidagi shudring tomchisini ko'z yoshiga, yashillikni navqironlikka o'xshatib, jonlantirib, jozibali va ta'sirchan misralar yaratadi.

Qofiya radifli bo'lganda radif u bilan mazmunan aloqador bo'ladi. Radif klassik g'azal va muxammaslarda keng qo'llaniladi. Turli misralarda so'z yoki so'zlar birikmasining aynan takrorlanishi. Radifdan XX asr o'zbek she'riyatida Hamza, Cho'lpon, H.Olimjon, Oybek, Mirtemir singari shoirlar keng foydalanganlar.

Band – she'rning alohida qofiyalanish tartibga ega bo'lgan ritmik bo'lagi. Band – qofiya va ohang birikuvidan yuzaga kelib, tugal fikr yo hissiyotni ifodalaydi. Fikr va tuyg'u banddan bandga ko'chadi, mantiqan o'zaro bog'lanishni hosil qiladi. Demak shoir ritm, vazn, qofiya va bandlar vositasida badiiy fikrni ifoda qiladi. Xo'sh, biz tahlil qilgan "Yo'lchi" she'rida ifoda qilingan poetik g'oyani yoritishda badiiy unsurlar qanday vazifani bajargan? Bu vositalar avvalo she'rning kompozitsion yaxlitligini

yuzaga keltirishga xizmat qilgan. Ayni chog'da, har bir unsur poetik g'oyani ta'sirchan ifodalashga, she'rga xos poetik tafakkur tarzini anglashimizga yo'naltirilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ana shunday tahlilga yo'llovchi savollardan so'ng o'quvchilar lirik turga mansub asarlarda, xususan, she'rlarda shaxsning ichki tuyg'ulari, hissiyoti, ruhiy kechinmalari asosiy o'rinda bo'lishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Endi o'quvchining she'rga xos xususiyatlarni o'rganib, nazariy tushunchalarga tayanib, tabiat lirikasiga mansub asarlarda insonning tabiat go'zalligi ta'sirida uyg'ongan hissiyoti ifodasi yetakchilik qilishini tushunib olishlari oson kechadi. Bunday asarlarda tabiat tasviri nechog'lik keng qamrab olinmasin, u hamisha tasvir markazidagi qahramon (yoki shoir) ruhiyatini ochish vositasi bo'lib qoladi. Chunki, badiiy ijod talabiga ko'ra tabiat tasviri vositasida ifodalangan ruhiy holat inson ma'naviyatining yangi bir jihatini namoyon qilgandagina estetik qimmat kasb etadi. Shu jihatdan 7-sinfda Shavkat Rahmonning "Urush suvrati", "Chaqin bo'lma", "Yosh tog'lar" she'rlari qatorida "Oy sinig'i", "Hamal" she'rlarini ham o'rganish mumkin. Adabiy tahlil jarayonida esa zarur nazariy tushunchalarni shakllantirishga quyidagi tartibda erishishni loyihalashtirish lozim:

1. SH.Rahmon ijodi haqida umumiy tushuncha berish.
2. Shoir uslubiga xos xususiyatlarni "Yosh tog'lar", "Chaqin bo'lma", "Tungi manzara", "Oy sinig'i", she'rlari tahlili jarayonida belgilashga erishish.
3. Tabiat tasviri orqali inson shaxsini tadqiq etishda shoir qanday estetik maqsadni ko'zlaganligini tahlil orqali yoritish.

'ladi", inson qalbi ham, orzu-tilaklari, tuyg'ulari ham oqlikka yo'g'riladi.

Bunga erishish uchun uzluksiz adabiy ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilim darajalari va qiziqishlarini inobatga olgan holda matn ustida ishlashga tayyorlab borish taqazo etiladi. Negaki, adabiy ta'limning bosh vazifasi o'quvchilarning adabiyot namunalarini shunchaki o'qib qo'ya qolmasdan, balki ularning ruhiyatiga sehrli olamiga kirish, his etish va anglashlariga erishishdan iboratdir.

Chunki, kitobxonga shoir tuyg'ulariga uyg'un lirik qahramon kechinmalarini his qilgandagina tahlilda poetik ma'no mohiyatiga yetib bora oladi. Hissiy idrok orqali biz lirik qahramon timsolida mujassam topgan his-hayajonlar, tuyg'ular, ma'no mohiyatini anglab, qalbimizga tuyamiz. Ayrim she'rlarda shoir obrazi bilan lirik qahramon timsoli alohida-alohida tasvirlangan bo'ladi. Ammo ular kechirayotgan tuyg'ular bir-birini boyitib, to'ldirib, biri ikkinchisining mazmun mohiyatini yanada yorqin ochilishiga ta'sir ko'rsatgan holda "ko'rinishi" ham mumkin. Ko'pincha, lirik she'rning qahramoni shoir obrazi tarzida gavdalanadi, voqelik uning nazari bilan kuzatiladi.

O'quvchilar, e'tibor bering-chi, kuz manzaralari tasvirlangan ushbu rasmlar bu faslning qaysi jihatlarini aks ettirgan? Nima uchun xalqimiz "Oltin kuz", "Kuz–pishiqchilik fasli", "So'lg'in kuz" degan tasviriy iboralarni ko'p qo'llaydi? Kuz fasliga taalluqli qanday xalq maqollarini bilasiz?

O'quvchilar javobi tinglangach, o'qituvchi fanlararo aloqadan foydalanib, tabiatda kuz chog'i ro'y beradigan o'zgarishlar haqida ham savol-javob uyushtirishi mumkin.

**Xulosa va takliflar**. O'quvchilar she'rda tasvirlangan manzarani ko'z oldilariga keltirib, uni badiiy ranglar orqali qanday tasvirlanganini yanada to'la tasavvur qilishlari uchun adabiyot daftarlariga kuz manzarasini ranglar orqali tasvirlab kelishlarini topshirish mumkin. Bu yo'l bilan ularni badiiy ranglarni his qilish qobiliyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga kuz mavzusida tasviriy ijodiy insho yozishni ixtiyoriy vazifa qilib, topshirish ham mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. – 631 b.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish kursi bo'yicha o'quv metodik qo'llanma. ("She'r tuzilishi" bobi). – T.: O'qituvchi, 1979. – 82 b.
3. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: O'qituvchi, 1996. 24-35 b.
4. Boboyev T. Oliy o'quv yurtlarida o'zbek she'riyati poetikasi asoslarini o'rganish. Ped.fan.dok.yozilgan.diss. avtoref. – T.: 1998. – 54 b.
5. Zunnunov A., Xotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992. – 329 b.
6. Yo'ldoshev Q. O'qituvchi kitobi.(Metodik qo'll. 7-sinf "O'zb. Adabiyoti" darslik – majmuasi uchun.) – T.: O'qituvchi, 1997. – 230 b.
7. Usmon Nosir. She'rlar. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – 66 b.
8. Jamol Kamol. Lirik she'riyat. – T.: Fan, 1986. – 144 b. Jumaboyeva J. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati. Fil.fan.nom….yozilgan.diss.avtoref. – T.: 1999. – 22 b.
9. Jo'rayev K. Maktabda Oybekning hayoti va ijodini o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1974. – 148 b.
10. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001. – 120 b

## BO'LAJAK HUNARMANDLARNING IJODKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

**Muhamadiyeva Nargiza Qudratovna**
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori
Email: nargizamuhammadiyeva84@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Maqolada maktab o'quvchilarining hunarmandchilikka oid bilimlarini "Texnologiya" fanini o'qitish misolida o'quvchilarning kasbiy hunarmandchilikka oid ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish orqali bo'lajak hunarmandlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish yo'llari yoritilgan.*

***Tayanch so'zlar***: *o'qitish, ta'lim, tarbiya, bo'lajak, kasbiy, muhandis, kompententlik, takomillashtirish, loyihalash, integrasiya, innovatsiya, ijodiy, kognitiv, qobiliyat, ijodiy, natija.*

## МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ МАСТЕРОВ

**Мухамадиева Наргиза Кудратовна**
Старший преподаватель Термезского государственного университета, доктор философии по педагогическим наукам
Email: nargizamuhammadiyeva84@gmail.com

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются пути развития профессиональной подготовки будущих мастеров путем развития у школьников знаний о ремеслах на примере преподавания предмета «Технология» и формирования у учащихся творческих навыков в профессиональных ремеслах.*

***Ключевые слова:*** *обучение, образование, воспитание, будущее, профессионал, инженер, компетентность, совершенствование, проектирование, интеграция, инновация, творческий, познавательный, способность, творческий, результат.*

# METHODOLOGY FOR FORMING CREATIVE SKILLS OF FUTURE CRAFTSMEN

**Muhamadiyeva Nargiza Kudratovna**
Senior lecturer at Termez State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences
email: nargizamuhammadiyeva84@gmail.com

***Annotation.*** *The article discusses ways to develop the professional training of future craftsmen by developing their knowledge of crafts in schoolchildren on the example of teaching the subject "Technology" and forming students' creative skills in professional crafts.*

***Keywords:*** *teaching, education, upbringing, future, professional, engineer, competence, improvement, design, integration, innovation, creative, cognitive, ability, creative, result.*

**Kirish.**Bugungi kunda Respublikamizda ko'p asrlik tarixga ega hunarmandchilik buyumlarini asrab-avaylashga qaratilgan qonuniy mexanizmlar mavjud va ular bilan bevosita shug'ullanadigan qator davlat va jamoat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

Bu borada Shveytsariya hamkorlik va taraqqiyot byurosi, YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi va YUNESKOning Milliy komissiyasi faol ishlar olib bormoqda. YUNESKOning eng yirik aksiyalaridan biri 2002-yil Surxondaryo viloyati Boysun tumanini insoniyat og'zaki va nomoddiy merosi durdonasi deb e'lon qilinishi. Hozirgi paytgacha xalq madaniyati, jumladan, hunarmandchilik ham asl holida saqlangan ushbu noyob maskanning bunday e'tirof etilishining kelgusida yanada ravnaq topishi uchun asos yaratadi. Ushbu voqea tumanda xalq hunarmandchiligini rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni yanada amalga oshirilishini rivojlantirishga asos bo'ldi. Natijada, har yili Boysun zaminida Boysun bahori xalqaro folklor festivalini o'tkazish an'anaga aylantirildi.

Boysun tumanining an'anaviy madaniyatini o'rganish maqsadida ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyasi tashkil etildi. Ushbu ekspeditsiya jarayonida shu paytga qadar ma'lum bo'lmagan sopol buyumlar ishlab chiqarish markazi, yangicha bezakli kashta va gilamlar to'qilishi aniqlandi. Ekspeditsiya olib borgan ishlar natijasida tumanda hunarmandchilikning o'sishiga erishildi. Boysun tumani markazida hunarmandchilik markazi tashkil etildi. Mahalliy ustalar Markaziy Osiyo (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston), Janubiy Osiyo (Bangladesh, Hindiston, Maldiva, Nepal, Pokiston va Shri-Lanka), Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Mo'g'uliston, Shimoliy va Janubiy Koreya) davlatlarini qamragan hunarmandchilik mahsulotlariga YUNESKO sifat belgisi dasturida ishtirok etishmoqda va tumanning hunarmandchilik mahsulotlari xalqaro miqyosda e'tirof qilinmoqda. 2006-yilda Boysun janda matosi va oq enli gilami YUNESKOning sifat belgisi bilan taqdirlandi va shunday belgi olgan boshqa g'oliblar qatorida YUNESKOning Bankok, Pekin, Nyu-Deli va Almatidagi ofisi saytlariga joylashtirildi. YUNESKO va Yaponiyaning – "O'zbekiston sirli sopoli" trast jamg'armasi loyihasi asosida O'zbekistonda an'anaviy kulolchilik san'ati rivojlantirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida Respublikaning taniqli ustalari va san'atshunoslari, tajriba almashish maqsadida taklif etilgan, YUNESKOning sifat belgisi dasturida zamonaviy hunarmandchilik mahsulotlari:

yuksak sifat, innovatsiya, ekologiya, bozor talablariga moslik, mehnat to‘grisidagi qonunlarga muvofiqlik talablariga javob berish zarurligi ko‘rsatilgan.

Denov kulolchiligi va avval mashhur bo‘lgan Nurota kashtachiligini tiklashga qaratilgan loyihasini ham shu yo‘nalishdagi ishlar sirasiga kiritish mumkin. Birinchi loyiha natijalari mutaxassislarni qanoatlantirmadi va ikkinchisi esa ikkita loyiha Nurota an’anaviy kashtachiligini tiklashni yo‘lga qo‘yish hamda bir guruh yosh kashtado‘zlarni o‘rgatish va ish bilan ta‘minlashni hal qildi [1].

9-sinf o‘quvchilarining xalq hunarmandchiligiga oid ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantish metodikasini takomillashtirish maqsadida “Detaldan buyumgacha”, “Smart step – aqlli qadam”, “My creativity - Mening ijodim”, “loyiha” metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarga hunarmandchilik turlari va mahsulot tayyorlash texnologiyalari haqidagi bilimlar berildi. Berilgan bilimlar asosida o‘quvchilar hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasini amalda bajaradilar, shunungdek ushbu ta’lim texnologiyalar o‘quvchilarni kasb-hunarga qiziqish uyg‘otib, hunarmand tadbirkor bo‘lishlariga ko‘maklashadi [2].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Texnologiya fani dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarida xalq hunarmandchiligiga oid ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo‘llash samarali natija beradi. Zamonaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlarning ta’lim jarayoniga kirib kelishini taqoza etadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikirlaydigan, erkin, izlanuvchan faol tarbiyalash jarayonida bir qancha afzalliklarga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ta’lim bu o‘qituvchi (o‘rgatuvchi) va o‘quvchi (o‘rganuvchi) o‘rtasidagi munosabatdir. Ta’limda o‘qituvchining faolligi ustun bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy ta’limda esa o‘quvchining faolligi ustun o‘ringa chiqadi. Ta’lim jarayonida o’quvchilar va o’qituvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol metodlarni qo‘llashda ta’limning asosiy mezonlari quyidagilar:

norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish;

o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati;

ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi;

o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi;

kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriqlar berish;

yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish keng qo‘llaniladi. Xorijiy pedagogik olilardan M.K.Klarin, V.P.Bezpal’ko, N.F.Talizina, G.A.Bardoviskiylar ilmiy qarashlarini nashr ishlarida bayon qlganlar.

Mamlakatimiz olimlaridan O‘.Tolipov, B.Ziyomuhammedov, U.Nishonaliyev, R.J.Ishmuhammedovlar interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni faollashtirishi, ularni sub’ekt sifatida harakat qilishga ijodkor bo‘lishiga zamin deb hisoblanadi [3].

**Muhokama.** Ushbu tadqiqot ishida qo'llanilgan interfaol metodlar boshqa interfaol metodlardan farqli tomoni, bu metodlar aynan amaliy fanlar uchun mo'ljallangan bo'lib, mahsuli esa ijodkorlik qobiliyatiga namoyon etish. O'quvchi detaldan to buyumgacha jarayonni bajarishda, o'zining buyumda sodir etgan yangiliklarini ko'rsata olish vazifasi bilan qurollanadi.

Demak, interfaol metodlarni ta'limda qo'llash, o'quvchlarning ijodkorlik ko'nikmalarini shaklalantirishida amaliy yordam berishini inobatga olib, ijobiy natijalar olish maqsadida foydalandik va samarali natijalarga erishdik. Quyida takomillashtiilgan interfaol metodlarni amalga oshirish texnologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.

"Detaldan buyumgacha" deb nomlangan ushbu metod amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan bo'lib, mahsulotni tayyor holatga keltirishga yordam beradi. O'quvchilarning mavzuni bajarishida faolligini va ijodkorligini oshiradi. Yakka va jamoa bo'lib, bajarishga mo'ljallangan. Ushbu metod quyidagicha amalga oshiriladi:

1. o'quvchilar buyumning ko'rinishi, vazifalari, ishlatilish maqsadi va buyumni tayyorlash uchun kerakli asbob va moslamalar, mahsulotlar tarkibi va xususiyatlari haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'ladilar;

2. buyumni tayyorlashda o'quvchilarning ijodkorligi asos sifatida baholanadi. O'quvchilar buyumni tayyorlashning texnologik xaritasi asosida ishni bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Avvalo buyumning mayda detallari tayyorlab olinadi;

3. buyumning tayyorlangan mayda detallarini buyumning yirik qismlariga o'rnatib buyumni tayyor holatga keltiradi;

4. tayyor holatga keltirilgan buyumga oxirgi ishlov berib, oxirgi ishlov berish ishlari amalga oshiriladi;

5. "Detaldan buyumgacha" ushbu metodi orqali bajarilgan ishlarni baholashda o'quvchilarning ijodkorligi asosida amalga oshiriladi [4].

"From theory to practice-nazariydan amaliyotgacha" – bu metodda esa amaliy mavzular uchun mo'ljallangan bo'lib, bu metod quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. o'qituvchi bu metodni bajarish bo'yicha o'quvchilarga ko'rsatmalar beradi. Texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalari va mavzu bo'yicha kerakli asbob, uskuna, moslamalar bilan tanishtiradi;

2. o'qituvchi mavzuga oid nazariy ma'lumotlar beradi. Mavzuni bajarilish bo'yicha texnologik xaritaning bajarilishini tushuntiradi. Mavzuga oid buyumning namunasini o'quvchilar ko'rishiga qulay bo'lgan joyga o'rnatadi;

3. o'qituvchi mavzuning bajarilishi bo'yicha tayyorlangan texnologik xaritani o'quvchilarga tarqatadi. O'quvchilar buyumni tayyorlashda ijodiy yondoshib yakka tartibda (individual) o'zlari model tanlaydi, loyhalashtiradi, andoza yoki qolip asosida buyum holiga keltiradilar, buyumga oxirgi pardozlash ishlarini bajaradilar va kreativ qobiliyatini namoyon etadi;

4. o'quvchilar tayyorlagan buyumlarining kamchiliklari va yutuqlarini o'qituvchi tahlil qiladi va baholaydi.

"Smart step-aqlli qadam" ta'lim metodi bu musobaqa usuli bo'lib, asosan amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladi. Bu usulda o'quvchilarga beriladigan vazifalar soda

echimdan boshlanib, keyingi echim va vazifalar murakkablashib boriladi. Keyingi beriladigan vazifalarga bittadan element qo'shilib boriladi. Natijada bir necha qadamdan keyin murakkab masala va muommolarni yechish ko'nikmasi hosil bo'lib, o'quvchining kreativligi rivojlanadi.

"Smart step-aqlli qadam" metodini qo'llash ketma-ketligi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. o'qituvchi o'quvchilarni darsda beriladigan bir necha bosqichli nazariy va amaliy topshiriqlarni bajarish texnologiyasi bilan tanishtiradi;
2. o'quvchilar vazifalarni guruhda yoki individual ko'rinishda birin-ketin bajaradilar;
3. barcha natijalarni va ularning xulosalarini o'quvchilar daftariga yozib boradilar;
4. dars oxirida topshriqlar bo'yicha berilgan javoblar yoki amaliy ishlar tahlil qilinadi, yutuqlar va kamchiliklar ko'rsatiladi, o'quvchilar baholanadi.

"My creativity-mening ijodim" metodi bu mening san'atim yoki mening ijodim ma'nolarni anglatadi. Bu ta'lim metodi o'quvchilarning yashirin iqtidorini namoyon qilish va bu iqtidorni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ta'lim mexanizmidan ijodiy ishlarni bajarishda qo'llaniladi va iqtidorligi namoyon bo'ladi.

"My creativity-mening ijodim" metodini qo'llash ketma-ketligi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. o'quvchilarga asbob-uskuna va moslamalar yordamida amallarni xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilgan holda bagarish ketma-ketligi tushuntiriladi va misollar keltiriladi;
2. o'quvchilar bu misollarning namunalarini bajarib, asbob-uskuna va moslamalar bilan ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi;
3. o'quvchilarga ijodiy vazifa namunalari yoki ixtiyoriy mavzudagi vazifani bajarish bo'yicha ko'rsatma beriladi;
4. o'quvchilar o'quv ustaxonasida ijod qiladilar va baholanadilar.

"Loyiha" metodi- bunda yakka tartibda (individual), juftlik va kichik guruhlarda o'quv loyihalari tayyorlanadi. Ta'lim oluvchilarning reja asosida belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborotlar yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlaridan iborat bo'ladi. Bu metodda ma'lum bir amaliy mashg'ulotlarni bajarishda yakka tartibda yoki guruh bilan ishlashda ularga beriladigan mavzuning erkinligi, loyhalashtirish, biror muammo ustida izlanish olib borib, bilim va ko'nikmalari orqali uni himoya qilish jarayonidir. Bu jarayonda o'qituvchi tashkilotchi, nazoratchi, ba'zan maslahatchi sifatida qatnashadi. O'quvchilar esa faqat izlanish olib boradilar.

O'qituvchi bu jarayonni tashkil qilish uchun oldindan mavzularni yoshiga moslab tanlab tayyorlaydi. O'quvchilarga yoshdan kelib chiqib, mavzularni qiziqishidan kelib chiqib, o'zlari tanlash huquqiga ega bo'ladilar. O'quvchilar tanlagan mavzusi bo'yicha izlanishlar olib borishadilar va loyiha ishlarini himoya qilishadilar.

"Loyiha" metodining bajarilish ketma-ketligi quyidagicha olib boriladi:

1. mavzular yakka hamda guruh bilan ishlashga mo'ljallangan va dolzarb, hayotiy masalalarni qamrab olgan bo'lishi lozim;

2. bu metodda ixtiyoriy mavzu tanlanadi;

3. o'quvchilarga loyhani amalga oshirishda avvalo muammo, so'ngra muammoning echimini ochadigan ishlarni bajarish tartibini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan echimida mahsulot yoki mexanizmda yangilik bo'lishi lozim;

4. tanlanga loyihadan kelib chiqqan holda amaliy ish jarayoni tashkil etiladi va amalga oshiriladi;

5. loyiha yakunida taqdimot o'tkaziladi. Taqdimotda butun jamoa qatnashishiga va loyihalarini himoya qilishga sharoit yaratiladi. Baholash o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida turli nominatsiyalar asosida amalga oshiriladi.

"Texnologiya fanidan 8-9-sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari" mavzusida electron dars ishlanma tayyorlandi va tadqiqot jarayonida qo'llanildi. Ushbu electron dars ishlanma 8-9-sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirib, o'quvchilarga milliy hunarmandchilik haqida ma'lumotlar, 8-9-sinf texnologiya fanining o'quv rejasi asosida mavzular haqida bilimlar, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, texnologik xaritalar zamonaviy texnologiyalarni qo'llash haqida ma'lumotlar beradi.

"Texnologiya fanidan 8-9-sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari" mavzusidagi elektron dars ishlanmaning maqsadi:

1. umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-9-sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ta'lim texnologiyalari, o'quv reja asosida mavzular haqida ma'lumotlar, milliy hunarmandchilik va ularning turlari haqida axborotlar berish;

2. o'quv reja asosida berilgan amaliy darslarni bajarish texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berish;

3. o'quvchilarninig vaqtdan unumli foydalanishlari uchun smart kutubxona vazifasini bajarib, kerakli bilimlarni berish;

hunarmandlarning tajribalarini va ish faoliyatlarini o'rganib, malakasini oshirish lozim.

**Xulosalar.** Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda electron dars ishlanmalarni texnologiya fani o'quv faoliyatining quyidagi turlarida qo'llash mumkin:

-yangi nazariy materiallarni o'rganish va bayon etishda;

-nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda;

-o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlashda, nazorat qilish va tekshirishda;

-o'quvchilarning mustaqil ishlarida;

-ochiq darslar, telekonferensiyalar, audiokonferensiyalar, namunaviy mashg'ulotlarni o'tkazishda;

-amaliy mashg'ulotlarda;

-darsdan tashqari mashg'ulotarda.

Axborot asrida ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olish va amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagoglar o'quvchilarga bilim berish jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini o'stirishdan iborat. Ta'limda shaxsiy natijalarga erishish, ta'lim

oluvchilarning ta'limga moslashish resurslarini rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini amalga oshirishni, har bir o'quvchi uchun alohida ta'lim dasturlari hamda yo'l xaritalarini tuzishni talab etadi [5].

Ta'lim jarayonining sube'ktlari sifatida ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar sanaladi. Obyektlari sifatida esa o'qitish vositalari va o'quv faoliyati instrumentlari, metodikalari, moddiy bazasi, pedagogik faoliyatni boshqarish sohalari, kommunikatsiya usullari (tashkiliy-boshqaruv, tushuntirish-motivatsion, javob-muomala, texnik, hissiy) hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.L.Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri. 2021.– 220 b.

2. Muhamadiyeva N.Q. Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini integrativ takomillashtirish. // Monografiya. © TerDU NMM nashriyoti, 2022-y. B. 111. UO'K: 373.5.026:379.826. KBK: 74.200.M 93 ISBN: 978-9943-8897-4-3.

3. Muhamadiyeva N.Q. Milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillastirishning ilmiy-nazariy asoslari // Uslubiy qo'llanma. © TerDU NMM nashriyoti, 2022y – 92 bet.

4. Muhamadiyeva N.Q. Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillashtirish texnologiyalari // Uslubiy qo'llanma. © TerDU NMM nashriyoti, 2022y – 92 bet.

5. Zaripova N.A. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida kasb ta'limi yo'nalishi talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Diss.. p.f.f.d. (PhD) – T.: 2020. – 137 b.

# KOGNITIV FAOLIYAT TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA UNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

**Abdiraimova Gulrux**
Qarshi xalqaro universiteti "Ijtimoiygumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi
https://orcid//0009-0007-7766-6336
e-mail: gulruhabdiraimova@gmail.com

***Annotatsiya:****Ushbu maqolada pedagogik jarayonda o'quvchilarning kognitiv (bilish) faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida motivatsiya, psixologik muhit, o'qituvchining yondashuvi va metodik vositalar kabi omillarning ta'siri ochib berilgan. Shu bilan birga, kognitiv rivojlanishni faollashtirishda samarali hisoblangan interaktiv metodlarning – aqliy hujum, konseptual xarita, debat, klaster, holatli tahlil kabi usullarning amaliy qo'llanilishi yoritilgan. Maqola zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslanib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tafakkur qilish va muammoni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishni ko'zlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *kognitiv rivojlanish, interaktiv metod , pedagogik jarayon, fikr yuritish, bilish faoliyati, motivatsiya, mustaqil fikrlash, o'qituvchi roli, holatli tahlil, debat, metakognitiv ko'nikmalar, o'quv muhit, fasilitator, interfaol yondashuv*

# СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ КОГНИТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЕЁ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

**Абдираимова Гулрух**
старший преподаватель кафедры социальных и гуманитарных наук
Каршинский международный университет
https://orcid//0009-0007-7766-6336

Эл. почта: gulruhabdiraimova@gmail.com

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются основные факторы, влияющие на когнитивную (познавательную) активность учащихся в педагогическом процессе. В ходе исследования раскрыто влияние таких факторов, как мотивация, психологическая среда, подход преподавателя и методические средства. Также показано практическое применение эффективных интерактивных методов, таких как мозговой штурм, концептуальная карта, дебаты, кластер и кейс-анализ, в активизации когнитивного развития. Статья направлена на развитие у студентов навыков самостоятельного мышления, рефлексии и решения проблем на основе современных педагогических подходов.*

***Ключевые слова:*** *когнитивное развитие, интерактивный метод, педагогический процесс, мышление, познавательная деятельность, мотивация, самостоятельное мышление, роль преподавателя, кейсовый анализ, дебаты, метапознавательные навыки, учебная среда, фасилитатор*

---

# THE CONCEPTUAL ESSENCE OF COGNITIVE ACTIVITY AND ITS PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS

**Gulrukh Abdiraimova**
Senior Lecturer,Department of Social and Humanitarian Sciences
Qarshi International University
https://orcid//0009-0007-7766-6336
E-mail: gulruhabdiraimova@gmail.com

***Abstract:*** *This article explores the key factors influencing students' cognitive development in the educational process. The research identifies the impact of motivation, psychological environment, teacher's approach, and methodological tools. The practical application of interactive teaching methods – such as brainstorming, concept mapping, debates, clustering, and case analysis – is examined for their effectiveness in enhancing cognitive activity. The study is grounded in modern pedagogical approaches aimed at fostering students' critical thinking, reasoning, and problem-solving skills.*

***Keywords:*** *cognitive development, interactive method, educational process, thinking, cognitive activity, motivation, independent thinking, teacher's role, case analysis, debate, metacognitive skills, learning environment, facilitator*

---

**Kirish.** Kognitiv rivojlanish — bu o'quvchining bilim olish, eslab qolish, muammoni hal qilish, mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish jarayonidir. Bugungi kunda bilimlar iqtisodiyotida aynan kognitiv kompetensiyalar o'quvchining muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va kasbiy rivoji uchun zarur hisoblanadi. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogikada kognitiv rivojlanishni faollashtiruvchi omillar aniqlanib, ularni rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni yoritiladi.

XXI asrda inson kapitali, tafakkur salohiyati va raqamli bilimlar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaralmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimining asosiy vazifasi – shaxsning intellektual, aqliy va kognitiv qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishdan iborat bo'lib bormoqda. Inson tafakkurining eng yuqori bosqichi sifatida e'tirof etiladigan kognitiv faoliyatni tizimli shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy pedagogikada dolzarb ilmiy-tadqiqot yo'nalishiga aylanmoqda. Ayniqsa, bu jarayonda uzviylik va izchillik prinsiplari asosida yondashish kognitiv rivojlanishning samaradorligini ta'minlovchi muhim metodologik asoslardandir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”[1]gi Farmonida ilgʻor xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda ta’lim standartlarini joriy qilish, oliy ta’lim muassasalarida oʻquv jarayonining mazmun-mohiyatini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, bakalavriat yoʻnalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari boʻyicha oʻquv dasturlarini nazariy bilim berishga yoʻnaltirilgan modeldan amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga asoslangan tizimga bosqichma-bosqich oʻtish, shuningdek, xalqaro va mahalliy mehnat bozori talablariga javob bera oladigan, jamiyat va iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotiga munosib hissa qoʻsha oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning samarali tizimini yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Respublikaimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar barcha soha singari ta’lim tizimida ham jadal sur’atlarda oʻsib bormoqda va bu jarayonda ta’lim sohasini tubdan modernizatsiya qilish ham bir qator qonun hujjatlarida aks ettirilmoqda, “Ta’lim toʻgʻrisida”[2]gi Qonunda ham ta’lim tizimini uzluksiz davom ettirish borasida qator bandlar keltilgan.Ya’ni, “ta’limning uzluksizligi va izchilligi” [2] – bu shaxsning umrbod oʻqib-oʻrganish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, turli bosqichlar va shakllarda  amalga oshiriladigan ta’lim jarayonlarining uzviy bogʻliqligi va mantiqiy ketma-ketligi hisoblanadi.  Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish doirasida esa ta’lim, fan va ishlab chiqarish oʻrtasidagi uzviy integratsiyani ta’minlovchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa sifatida ilgari surilgan. Qoʻyilgan maqsad va vazifalarni toʻliq amalga oshirish yoʻlida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini va axborot infratuzilmasini mustahkamlash, oʻquv-tarbiya jarayonini sifatli oʻquv adabiyotlari hamda ilgʻor pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Oʻzbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning global raqobatbardoshligini ta’minlash va oʻquvchilarga sifatli ta’lim berish maqsadida doimiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ta’lim standartlarini takomillashtirish muhim oʻrin tutadi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martda qabul qilgan 157-sonli qarori “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi toʻgʻrisida”[3]gi qarori ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ushbu qarorda kognitiv, jismoniy, ijtimoiy va emotsional koʻnikmalarni yagona shaklda rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan. Bu ta’limning nafaqat bilimlarni oshirish, balki oʻquvchilarning umumiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilganligini anglatadi hamda davlat ta’lim standartlari va talablarini ishlab chiqish va joriy etish jarayonida ta’limning uzluksizligini, sifatini, samaradorligini ta’minlashni maqsad qiladi. Kognitiv, jismoniy, ijtimoiy va emotsional koʻnikmalarni yagona shaklda rivojlantirish orqali ta’lim tizimi jamiyatdagi barcha talablar va ehtiyojlarga mos keladigan ravishda rivojlanadi. Bu qaror ta’limni yanada zamonaviylashtirishga, xalqaro standartlarga

[1] Lex.uz sayti. PF-5847-сон 08.10.2019. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida

[2] Lex.uz sayti.OʻRQ-637-сон 23.09.2020. Ta’lim toʻgʻrisida

[3] Lex.uz sayti. 157-сон 27.03.2024. Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida

moslashtirishga va ta'lim oluvchilarni muvaffaqiyatli fuqarolar bo'lishiga xizmat qiladi.

Mazkur tendensiyalar ta'lim tizimida tinglovchilarning kognitiv qobiliyatlarini uzviylik va izchillik asosida shakllantirish metodikasini ilmiy asoslash va takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Kognitiv faoliyatni rivojlantirishda psixologik, pedagogik va metodik yondashuvlar bir butun tizimda qaralishi zarur. Afsuski, mavjud pedagogik amaliyotda bu yo'nalishda metodik bir xillik, izchillik va bosqichma-bosqichlik yetarli darajada ta'minlanmagan. Bu esa o'quvchilarning fikrlash, xotira, diqqat va muammoli vaziyatlarda yo'l topish qobiliyatining sust rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, uzviylik va izchillik prinsiplari o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning kognitiv salohiyatini doimiy va tizimli rivojlantirish imkonini beradi. Bu prinsiplarga tayangan holda ishlab chiqilgan metodika o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, shaxsiy rivojlanishni rag'batlantiradi hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlangan holatlar mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi va "Kognitiv faoliyatni uzviylik va izchillik prinsiplari asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" masalasini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kognitiv faoliyat tushunchasi bu (lot. cognitio – bilish, anglash) – bu insonning axborotni qabul qilish, saqlash, tahlil qilish, qayta ishlash va ulardan foydalana olish qobiliyatini o'z ichiga oluvchi aqliy faoliyat turi hisoblanadi. Kognitiv jarayonlar inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridir va quyidagi psixik jarayonlar orqali namoyon bo'ladi:

- Idrok – tashqi dunyoni sezgi organlari orqali qabul qilish;
- Diqqat – aqliy energiyani muayyan obyektga yo'naltirish;
- Xotira – axborotni saqlash, eslab qolish va qayta tiklash;
- Tafakkur – tushunchalar, munosabatlar asosida fikrlash;
- Tasavvur – ongda real bo'lmagan obrazlar yaratish;
- Nutq – fikr almashinuvi va ma'lumot uzatish vositasi.

Kognitiv faoliyat inson intellekti, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda yechim topish, tanqidiy va ijodiy yondashuv kabi yuqori darajadagi bilim faoliyatini ta'minlaydi.

Psixolog olimlar – I.A. Zimnaya, I.I. Ilyasov, I. Lingart va D.B. Elkonin – kognitiv faoliyatni tahlil qilgan holda, uning quyidagi besh asosiy xususiyatini ajratib ko'rsatganlar [4]:

1. Kognitiv faoliyat, avvalo, o'quv materiallarini o'zlashtirish hamda o'quv muammolarini hal etishga yo'naltirilgan;
2. Ushbu faoliyatda bilim va harakatlarning umumlashgan usullari o'zlashtiriladi;
3. Kognitiv faoliyat o'z tarkibida bir nechta turli faoliyat turlarini mujassamlashtiradi: idrok (masalan, tovushli yoki vizual idrok orqali o'quv materialini qabul qilish), mnemonik (materialni yodlab olish), aqliy (tahlil, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish va boshqalar), hamda amaliy (masalan, masalalarni yechish, tajriba

oʻtkazish, grafik chizmalar yaratish, hisob-kitob ishlarini bajarish, kompyuter bilan ishlash va hokazolar);

4. Kognitiv faoliyat natijalariga qarab, oʻquvchining individual psixologik xususiyatlari – ya'ni xarakteri, qobiliyati, tafakkuri, xotirasi, hissiyoti, irodasi va xatti-harakatlarida oʻzgarish yuz beradi;

5. U shaxsiy taraqqiyot nuqtai nazaridan qaralganda, subyektning oʻzini-oʻzi rivojlantirishiga xizmat qiladi.

D.B. Elkonin oʻquv faoliyatining ijtimoiy xususiyatlarini uch jihatdan ajratib koʻrsatadi[4]:

- Mazmuniy jihatdan – oʻquv jarayoni insoniyat tomonidan yaratilgan ilmiy, madaniy va ma'naviy boyliklarni oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan;
- Ma'noviy jihatdan – bu faoliyat ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlib, jamiyat tomonidan baholanadi;
- Tashkiliy-shakliy jihatdan – u ijtimoiy jihatdan rivojlangan aloqa va muloqot me'yorlariga mos holda, rasmiy ta'lim muassasalarida (maktab, litsey, kollej, oliy ta'lim) amalga oshiriladi.

Kognitiv faoliyat har qanday faoliyat turi kabi quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: obyektivlik, maqsadlilik va mahsuldorlik. U ma'lum bir tuzilish va tarkibiy birlikka ega boʻlib, oʻzining qat'iy tuzilmalari orqali namoyon boʻladi.

Oʻquv faoliyatining *predmeti* – bu oʻzlashtirilishi zarur boʻlgan oʻquv materiali boʻlib, unga oʻrganilayotgan fanlar doirasida taqdim etilgan tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, prinsiplari, masalalar, algoritmlar, usullar va jarayonlar kiradi. Oʻquv faoliyatining *asosiy maqsadi* esa – aynan shu bilimlar va usullarni oʻzlashtirish orqali shaxsiy rivojlanishni ta'minlashdan iboratdir.

Shu bilan birga, oʻquv faoliyati *motivatsion jihatdan* ham muhim boʻlib, u talabaning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, qiziqish doiralari va qadriyat yoʻnalishlari bilan uzviy bogʻliqdir. Mazkur faoliyat jarayonida talabaning bajaradigan harakatlari markaziy oʻrin egallaydi. Bu harakatlar ta'lim mazmuni, ta'lim jarayonining tashkiliy shakli, oʻquv materialining oʻzlashtirilish mantigʻi va oʻqitish metodlari bilan bevosita bogʻliqdir. Masalan, oʻqituvchi yoki talabaning ogʻzaki ma'ruzalarini tinglash, darslik va oʻquv adabiyotlarini oʻrganish, koʻrgazmali vositalarni idrok etish, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, laboratoriya mashgʻulotlarini bajarish – bularning barchasi kognitiv faoliyat tarkibiga kiradi.

Oʻquv faoliyatining vositalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: talabada mavjud asosiy bilimlar va koʻnikmalar, ogʻzaki va yozma nutq, oʻquv adabiyotlari, eslatmalar, koʻrgazmali va metodik qoʻllanmalar, shuningdek, elektron nashrlar, laboratoriya uskunalari, oʻquv televideniyesi va boshqa vositalar.

Ta'lim faoliyati usullari esa – bu mazkur vositalardan foydalanish yoʻllaridir. Ular, odatda, oʻqituvchi tomonidan dars davomida tanlab olinadigan oʻqitish metodlariga bogʻliq. Bular qatoriga: oʻquv materialining qisqacha mazmunini tuzish, adabiyotlar bilan ishlash, matematik masalalarni yechish, laboratoriya ishlarini bajarish va hisobot tuzish, individual yoki guruhiy muammolarni yechish, ilmiy hodisalarni oʻrganish usullari kiradi.

Ta'lim faoliyatining natijasi – bu o'quvchining o'zlashtirgan yangi bilim, ko'nikma va malakalaridir. Bu jarayonda kognitiv faoliyatning asosiy komponenti o'quv vazifasi bo'lib, u boshqa vazifalardan farqli o'laroq, talabaning ichki o'zgarishini – ya'ni uning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. O'quv vazifalari bir nechta funksiyani bajaradi: tushunish va yo'naltirish, muayyan qonuniyatni aniqlash, o'zgartirish va moslashtirish, qo'llash, yangi vaziyatga ko'chirish, vazifalarni mustaqil yaratish va o'zini-o'zi nazorat qilish.

L.M. Fridman va E.I. Mashbitz[4] o'z tadqiqotlarida o'quv vazifasining quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlashgan:

- Mavzu maydoni – muayyan obyektlar sinfi;
- Vazifa talablari – muammoni hal qilish maqsadidagi ko'rsatmalar;
- Obyektlar o'rtasidagi munosabatlar – bu vazifani tushunishga asos bo'ladi;
- Muammoni hal qilish operatsiyalari – ya'ni, vazifa shartlaridan kelib chiqib bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar majmuasi.

E.I. Mashbits o'zining «Психологические основы управления учебной деятельностью» [4] asarida ta'kidlaydi: "O'quv faoliyatini boshqarish – bu nafaqat tashqi ta'sirni tashkil etish, balki shaxsning ichki kognitiv mexanizmlarini faollashtirish jarayonidir." Bu fikr dissertatsiyada kognitiv faoliyatni faollashtirishda metakognitiv strategiyalar (o'z fikrlash faoliyatini anglash va boshqarish) qanday ahamiyatga ega ekanligini ilmiy asoslashda muhim hisoblanadi. Mashbits fikriga ko'ra, ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil rejalashtirishi, nazorat qilishi va o'z xatolarini tahlil qila olish qobiliyati uning tafakkur darajasini belgilaydi. Shuningdek, o'quv motivatsiyasi kognitiv jarayonlarning kuchayishiga asos bo'lishini ta'kidlaydi va *"Shaxsning o'quv faoliyatiga ichki qiziqishi, tashqi rag'batlardan ko'ra kuchliroq kognitiv natijalarga olib keladi."* [4]- deydi.

E.I. Mashbits o'zining pedagogic tadqiqotlarida axborot texnologiyalarining roli haqida shunday deydi: - "Axborot texnologiyalari o'quvchi tafakkurining tuzilmasiga yangi o'zgarishlar kiritadi: ko'proq analiz, sintez va algoritmik fikrlash faol bo'ladi."

L.M. Fridman esa o'zining «Активизация познавательной деятельности учащихся в обучении» [5]asarida shunday yozadi:

"O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun muammoli o'qitish vositasida ular o'zlari bilimga intiladigan sharoitni yaratish kerak." Bu g'oya kognitiv faoliyatni rivojlantirishda muammoli o'quv topshiriqlaridan foydalanishning samaradorligini asoslashda muhim ekanligini namoyon etadi. Ya'ni, bilimni tayyor shaklda berish emas, balki o'quvchini izlanishga, shubhalanishga va o'z fikrini ifodalashga undovchi muhit yaratish — kognitiv yuksalishga olib keladi.

**Xulosa.** Kognitiv rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilish va interaktiv metodlarni to'g'ri tanlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarishi va real hayotga mos qarorlar qabul qilishini rag'batlantiradi. Har bir pedagog o'quv muhitini kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishi zarur.

---

[4] «Управление познавательной деятельностью школьников в процессе обучения» "  Москва. "Педагогика"- 1988

[5] Коротаева, Е.В. Активизация познавательной деятельности учащихся. – Екатеринбург, 1995. – 83с.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-сон 08.10.2019. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
3. Vazirlar Mahkamasining 157-сон 27.03.2024. " Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori
4. «Управление познавательной деятельностью школьников в процессе обучения» "  Москва. "Педагогика"- 1988
5. Коротаева, Е.В. Активизация познавательной деятельности учащихся. – Екатеринбург, 1995. – 83с.
6. Зимняя И.А. "Педагогическая психология" Москва. "Логос". 2005
7. Ausubel, D. (1968). Educational Psychology: A Cognitive View. New York: Holt, Rinehart & Winston.
8. Gagné, R. (1985). The Conditions of Learning and Theory of Instruction. New York: CBS College Publishing.
9. Gardner, H. (2006). Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. Basic Books.
10. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
11. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
12. Shodmonov Sh.Sh. (2022). Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
13. Norkulov, B. (2020). Oliy ta'limda interfaol ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
14. OECD (2021). The Future of Education and Skills – 2030 Framework.
15. Marzano, R. J. (2007). The Art and Science of Teaching. ASCD.
16. Shokirova, D. (2023). "Kognitiv yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari", O'zbekiston pedagogik axborotnomasi, №2.
17. Uzviylik va izchillik prinsiplari asosida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI http://mamun.uz/uz/page/56. 2022
18. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining "O'zbekiston til va madaniyat " jurnali **ISSN 2181-922X**. 2023
19. Nurturing critical thinkers: approaches and activities for building critical thinking skills in primary students. International journal of artificial intelligence vol. 4 no. 02 (2024): volume 04 issue 02 nurturing critical thinkers: approaches and activities for building critical thinking skills in primary students | international journal of artificial intelligence (academicpublishers.org). 2024-05-04

UO'K 378.147:331.45:004

# TALABALARGNING TEXNIKA XAVFSIZLIGIGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHDA KREDIT-MODUL TIZIMINING O'RNI

**Abduraxmonov Jahongir Sherali o'g'li**
Termiz davlat universiteti Texnologik ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
jahongirabduraxmonov13@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada talabalargning texnika xavfsizligiga oid bilimlarini rivojlantirishda kredit-modul tizimining o'rni haqida so'z boradi. Kompetensiya nima, qanday paydo bo'lganligi, rivojlanish bosqichi va A.G.Bermus, M.A.Choshanov, M.Aronov, O.Ye.Lebedev, I.A.Zimnyaya, A.V.Xutorskiy, L.T.Xurvalievalarning bu boradagi fikrlari va qarashlari taxlil qilindi. Olimlarning qarashlari baxolandi. Shuningdek, mazkur maqolada kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig'ini yagona tizimga birlashtirishi aniq misollar asosida aniqlandi. Kompetnsiya va kompetentlik o'rtasidagi farq ko'rib chiqildi va mavzu yuzasidan xulosa chiqarildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Kompetensiya, kredit-modul, talaba, oliy ta'lim, qaror, qonun, o'qituvchi, lector, texnika vavfsizligi.*

УДК: 378.147:331.45:004

# РОЛЬ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В РАЗВИТИИ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ ПО ТЕХНИКЕ БЕЗОПАСНОСТИ

**Абдурахманов Джахонгир Шералиевич**
Преподаватель кафедры технологического образования Термезского государственного университета
jakhongirabdurakhmanov13@gmail.com

***Аннотация:*** *В данной статье речь пойдет о роли кредитно-модульной системы в развитии знаний учащихся по технике безопасности. Что такое компетенция, как она возникла, стадия развития и т. д.G.Бермус, М.А.Чошанов, М.Аронов, О. Е. Лебедев, И.А.Зимняя, А.V.Хуторский, Л.Т.Были проанализированы мнения и взгляды хурвалиевых на этот вопрос. Взгляды ученых были оценены.Также в данной статье на основе конкретных примеров установлено, что компетентность объединяет в единую систему все чувства, знания, опыт, вообще все существо совершенствующегося человека. Была рассмотрена разница между компетентностью и компетентностью и сделан вывод по теме.*

***Ключевые слова:*** *компетенция, кредит-модуль, студент, высшее образование, решение, закон, учитель, лектор, техника неверность.*

UDC 378.147:331.45:004

# THE ROLE OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS ' KNOWLEDGE OF TECHNICAL SECURITY

**Abdurakhmanov Jahongir Sheraliyevich**
Lecturer, Department of Technological Education, Termez State University
jakhongirabdurakhmanov13@gmail.com

***Annotation:*** *this article will talk about the role of the credit-module system in the development of students ' knowledge of technical security. What is competence, how it arose, the stage of development and a.G.Bermus, M.A.Choshanov, M.Aronov, O.Ye. Lebedev, I.A.Zimnyaya, A.V.Khutorsky, L.T.The opinions and views of the khurvalievas on this matter were considered. The views of scientists were appreciated. Also, in this article, competence was determined on the basis of specific examples of the fact that an improving individual combines all his senses, knowledge, experience, in general, his entire being into a single system. The distinction between competence and competence was considered and a conclusion was made on the subject.*

***Keywords:*** *competence, credit-module, student, Higher Education, decision, law, teacher, lecturer, technicality.*

**KIRISH**. Jahonda talabalarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg'unlashtirish metodikasini takomillashtirish, talabalarning o'zlashtirish darajasini baholashning xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) hamda talaba kompetensiyalarining shakllanganligini tashxislash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda[1, 279-b.].

Kompetensiya" so'zi tarjimada "layoqatli", "munosib bo'lmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha "competere" so'zi asosida hosil bo'lgan. "Kompetensiya" deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Ushbu uslubiy qo'llanmani yozishdan maqsad – talabalarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish dan iborat. Vazifalari esa:

- talabalarga pedagogik kompetentlikka doir manbalardan foydalana olishga o'rgatish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;
- bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri – ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid istiqbolli yo'nalishi bo'lgan pedagogik kompetentlik yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish;
- pedagogik kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan qurollantirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Pedagogik kompetentlik bir qator ya'ni pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik konfliktologiya, neyropedagogika, pedagogik imidjalogiya, innovasion pedagogik texnologiyalar, yosh davrlar psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik aksiologiya, pedagogik psixologiya fanlari bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabidir[2, 33-b.].

**METODLAR.** Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. A.G.Bermusning fikriga ko'ra, "Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning

barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig'ini yagona tizimga birlashtiradi"[3, 156-b.].

"Kompetentlik" bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o'z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassis ning ma'lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi. Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko'rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir, deydi O.Ye.Lebedev. Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi I.A.Zimnyaya[4, 258-b.].

A.V.Xutorskiy "kompetnsiya" va "kompetentlik" tushunchalarini quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi. Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishidir. Kompetenlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lishi demakdir. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya masalasi uning jamiyatdagi o'rni masalasidan qator bahslar davom etmoqda.

Ta'limtarbiya sohasida asosiy universal kompetensiya unsurlarini anglab olish zamonaviy pedagogikaning eng asosiy muammolaridan biridir. Asosiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an'anaviy o'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo'lib, hali yechilmagan masalalar talaygina. A.Avloniy nomidagi O'qituvchilar malakasini oshirish instituti pedagog olimasi L.T.Xurvalieva: "Kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati", – deb ta'riflaydi[5, 79-b.].

Pedagog olima T.L.Xurvalieva kasbiy kompetensiya tizimini besh guruhga ajratadi.

**Kasbiy kompetensiya:**

- pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- o'z ustida ishlash; - ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnata olish;
- talabalar ehtiyojini anglay olishi;
- talabalarda motivatsiyani shakllantirish;
- ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- o'z fanini mukammal bilishi;
- ingliz tilini yaxshi bilishi.

**Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:**

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash.
2. O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash.
3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

**Shaxsiy kompetensiya:**

- muloqotchanlik;
- bag'rikenglik;
- yetakchilik;

- faol,tashabbuskor;
- moslashuvchan;
- sog'lom turmush tarziga amal qilish;
- mas'uliyat;
- ishchanlik;
- insonparvarlik;
- umummadaniy;
- ma'lumotli;
- madaniyatli;
- umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- milliy madaniyatga ega bo'lish;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi.

**Maxsus kompetensiya:**

- talabalar ehtiyojini bilishi;
- turli yosh xususiyatlarini bilishi;
- ta'limni tabaqalashtirish;
- ta'limni individuallashtirish.

A.V.Xutorskiy ta'limda o'qituvchining yetti kompetensiyasini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asnosida ya'ni qadriyat va o'zini anglash - o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalar ning mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya - o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlari dagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi[6, 76-b.].

2. Umummadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlarga hurmat; ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish. Ilm- fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va talabalarga tushuntira olishi[7, 144-b.].

3. O'quv va bilish jarayoni - o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish - pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

7. O'z ustida ishlashi - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'zo'zini rivojlantirib borishi.

**NATIJALAR.** Kommunikativ kompetensiya – o'qituvchidan to'laqonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda talaba va jamoa a'zolari bilan ijobiy munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Ta'limiy mazmundan, vaziyatdan, holatdan

kelib chiqib, harqanday o'qituvchining maqsadi auditoriyada "Rivojlantiruvchi muhitni" yaratishdan iborat. Ya'ni:

- talabalarga faoliyatga undovchi motivatsiya berish;
- talabalarni mustaqil ishlatish, o'quv faoliyatiga undash orqali tushuncha va tasavvur va ko'nikmalarni shakllantirish. Kerakli ma'lumotlarni qidirish, o'z faoliyati loyihasi va uning amaliyotga tatbiq etish, ish maqsadini anglash va natijaga ma'suliyat bilan yondashish;
- talabalar tomonidan mavzuni, maqsad, vazifalarini murakkablik darajasini, shakl va usullarni mustaqil ravishda tanlash;

**XULOSA VA TAVSIYALAR.** Xulosa qilib aytganda hozirgi zamon o'qituvchisining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy, uslubiy va ixtisoslik bilimdonligi hamda bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq, tashkilotchilik, obro' orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish va diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari.

O'qituvchi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abduraxmonov J.Sh., Talabalarga bilim berishda ktedit-modul tizimining o'rni. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 2024. https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/download/9749/8903.
2. Abduraxmonov J.Sh., The Essence of Interactive Methods In The Development Of Students' Knowledge Of Technical Safety In The Credit-Module System. Progress Annals: Journal of Progressive Research. 2024. https://academiaone.org/index.php/8/article/view/576
3. To'raqulov, E. TALABALARDA EKOLOGIK TARBIYAGA OID KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. (2023). https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/9369
4. Xuramov I.P., Sun'iy intellektning o'zbekistonda rivojlanishi va professional ta'limda qo'llanilishi. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 2024. https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/9745
5. Safarov F.S., Future Technological Education Innovative Technologies Used in The Training of Teachers. Progress Annals: Journal of Progressive Research. 2024. https://academiaone.org/index.php/8/article/download/506/416
6. Eshaliyev U.S., The Effectiveness of Improving Training Using Digital Technologies in Modern Education of the Future it Teacher. International journal of inclusive and sustainable education. 2023. https://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/1608
7. Abdusalomov O., Dasturlashtirilgan ta'lim vositasida texnologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. 2023. https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/9367

# DASTURLASHTIRILGAN TA'LIMNING TEXNOLOGIYA FANIDA TUTGAN O'RNI VA AFZALLIGI

**Abdusalomov Oxunjon Abdusalomovich**
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi O'zbekiston
ORCID ID: https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0000-2191-7254
e-pochta: oxunjonabdusalomov78.gmail.com
Tel:+998993760551

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola dasturlashtirilgan ta'lim vositalari orqali texnologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:*** *dasturlashtirilgan ta'lim, rivojlanish bosqichlarini, Virtual, LMS tizimlari, Gamifikatsiya va interaktivlik, metodika.*

# РОЛЬ И ПРЕИМУЩЕСТВА ПРОГРАММИРУЕМОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНОЛОГИИ

**Абдусалямов Охунжон Абдусаламович**
Преподаватель Термезского государственного университета, Узбекистан
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-2191-7254
Электронная почта: oxunjonabdusalomov78@gmail.com
Телефон: +998 99 376 05 51

***Аннотация:*** *Статья посвящена совершенствованию методики обучения технологиям с помощью программных средств обучения.*

***Ключевые слова:*** *программированное обучение, этапы развития, виртуальный, системы управления обучением, геймификация и интерактивность, методология.*

# THE ROLE AND ADVANTAGES OF PROGRAMMED LEARNING IN TECHNOLOGY EDUCATION

**Abdusalomov Okhunjon Abdusalomovich**
Lecturer, Termez State University, Uzbekistan
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-2191-7254
Email: oxunjonabdusalomov78@gmail.com
Phone: +998 99 376 05 51

***Abstract:*** *This article is devoted to improving the methodology of teaching technology through programmed educational tools.*

***Keywords:*** *programmed learning, development stages, Virtual, LMS systems, Gamification and interactivity, methodology.*

**KIRISH.** Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning intellektual va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, unda texnologik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. XXI asrda ta'limni innovatsion texnologiyalar bilan boyitish, uning samaradorligini oshirish uchun dasturlashtirilgan ta'limdan foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Ushbu maqola dasturlashtirilgan ta'lim vositalari orqali texnologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga bag'ishlangan.

## 1. Dasturlashtirilgan ta'lim tushunchasi va uning rivojlanish tarixi

Dasturlashtirilgan[6] ta'lim – bu o'quvchilarga mustaqil ravishda o'zlashtirish imkonini beruvchi, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi va avtomatlashtirilgan ta'lim usuli hisoblanadi. Mazkur yondashuv ilk bor XX asrning o'rtalarida B.F. Skinner tomonidan taklif etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Ta'lim materialini kichik qadamlar asosida taqdim etish;

[6] Skinner B.F. (1954). "The Science of Learning and the Art of Teaching". Harvard Educational Review.

O‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash;

O‘zlashtirish jarayonining individual sur’atda amalga oshishi;

O‘quvchilarga doimiy fikr-mulohaza (feedback) berish.

Dasturlashtirilgan ta’lim rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1950-1970-yillar – dastlabki nazariy asoslar va mexanik o‘quv qurilmalari paydo bo‘ldi.

1970-1990-yillar – kompyuter texnologiyalari orqali interaktiv dasturlar ishlab chiqildi.

1990-2010-yillar – internet va masofaviy ta’lim tizimlari rivojlandi.

2010-yildan hozirgacha – sun’iy intellekt va virtual reallik asosida moslashtirilgan ta’lim tizimlari yaratildi.

**2. Texnologiya fanida dasturlashtirilgan ta’limning ahamiyati**

Texnologiya fanida dasturlashtirilgan ta’lim quyidagi afzalliklarni taqdim etadi: Interaktivlik – vizual va audio materiallardan foydalanish orqali bilimlarni osonroq o‘zlashtirish; STEM yondashuvi – texnologiya fanini matematika, muhandislik va informatika bilan bog‘lash; Talabalar mustaqilligi – har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatlariga mos ravishda ta’lim olishi; Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar – nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash imkoniyati.

**Dasturlashtirilgan ta’lim texnologiya fanida quyidagi metodik usullar bilan integratsiyalashgan:**

Gamifikatsiya – o‘yin elementlarini ta’lim jarayoniga kiritish;

Virtual va kengaytirilgan reallik – real tajribaga yaqin sharoitlarni yaratish;

Moslashtirilgan ta’lim tizimlari – har bir o‘quvchining ehtiyojiga moslashtirilgan dasturlar orqali o‘qitish.

**3. Zamonaviy dasturlashtirilgan ta’lim vositalari**

Bugungi kunda texnologiya fanida foydalanilayotgan dasturlashtirilgan ta’lim vositalari quyidagilar:

LMS tizimlari (Learning Management Systems) – Moodle, Google Classroom, Canvas kabi platformalar;

Simulyatsiya dasturlari – AutoCAD, SolidWorks, Tinkercad kabi injiniring va texnologiya fanlariga mo‘ljallangan dasturlar;

Onlayn resurslar – Coursera, Udemy, Khan Academy kabi ta’lim platformalari;

Robototexnika va dasturlash muhitlari – Arduino, Scratch, Python dasturlash muhitlari.

**4. Dasturlashtirilgan ta’lim asosida texnologiya fanini o‘qitish metodikasi**

Dasturlashtirilgan ta’lim vositalaridan samarali foydalanish uchun quyidagi metodik yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin:

4.1. Loyiha asosida ta’lim

Loyiha asosida ta’lim o‘quvchilarga real muammolarni hal qilish orqali bilim olish imkonini beradi. Masalan, Arduino bilan aqlli uy tizimi yaratish yoki 3D printerda muhandislik modellarini ishlab chiqish.

4.2. Gamifikatsiya va interaktivlik

Ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish o'quvchilarni rag'batlantirish va qiziqishini oshirishga yordam beradi. Masalan, dasturlash o'rgatishda Scratch yoki Code.org kabi vizual dasturlash muhiti qo'llaniladi.

4.3. Masofaviy ta'lim va LMS tizimlari

Masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchilar Moodle yoki Google Classroom orqali mustaqil ta'lim olishlari mumkin.

**5. Empirik tadqiqotlar va tajriba natijalari**

Dasturlashtirilgan ta'lim asosida texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini o'rganish maqsadida tajriba sinovlari o'tkazildi. Tadqiqot quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 30-40% ga oshdi;

O'quvchilarning amaliy ko'nikmalari sezilarli ravishda yaxshilandi;

Talabalar mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirdi;

STEM yondashuvi orqali fanlararo bog'liqlik oshdi.

**XULOSA.** Dasturlashtirilgan ta'lim vositalari texnologiya fanida zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu metodika orqali o'quvchilarning qiziqishi oshadi, mustaqil ta'lim olish imkoniyati kengayadi va innovatsion yondashuvlar amaliyotga joriy qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiya fanini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Skinner B.F. (1954). "The Science of Learning and the Art of Teaching". Harvard Educational Review.
2. Anderson, J. (2005). "Learning and Memory: An Integrated Approach". Wiley.
3. Khan Academy. (2023). "Online Education and Technology Integration".
4. Coursera. (2022). "Modern Teaching Techniques in STEM Education".
5. Moodle Documentation. (2023). "Using LMS for Distance Learning".

# TALABALARNI MA'NAVIY NAFOSATLI SHAXS QILIB TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Hakimova Muqaddas Hasanovna**
*Termiz davlat universiteti "Jismoniy tarbiya va sport o'yinlari" kafedrasi o'qituvchisi*
e-mail:muqaddashakimova@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu ilmiy ishda talabalarni ma'naviy nafosatli shaxs qilib tarbiyalash jarayonining psixologik va pedagogik xususiyatlari har tomonlama tahlil etilgan. Ma'naviy nafosat - bu shaxsning axloqiy poklik, estetik did, ichki intizom, ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan yuksak insoniy sifatlarini anglatadi. Tadqiqotda aynan shu fazilatlarni shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarining o'rni, pedagogik metodlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida tarbiya berishning dolzarb masalalari yoritilgan. Psixologik nuqtai nazardan, yoshlar ongida ijobiy e'tiqod va hayotiy pozitsiyani shakllantirish, emotsional barqarorlikni mustahkamlash, o'z-o'zini anglash va nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kabi jihatlar chuqur tahlil qilingan. Pedagogik jihatdan esa, interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ijtimoiy faoliyatga jalb etish, madaniy-ma'naviy muhit yaratish orqali talabalar shaxsini har tomonlama kamol toptirish strategiyalari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari pedagog-kadrlar, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va psixologlari uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Talaba, oliy ta’lim, o‘qituvchi, lector, o‘qitish, manaviyat, nafosat, kasbiy-ma’naviyat, estetik, psixologik.*

## ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ КАК ЛИЧНОСТЕЙ С ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКИМИ ЦЕННОСТЯМИ

**Хакимова Мукаддас Хасановна**
Преподаватель кафедры «Физическое воспитание и спортивные игры» Термезского государственного университета
Электронная почта: muqaddashakimova@gmail.com

***Аннотация:*** *В данной научной работе всесторонне проанализированы психологические и педагогические особенности процесса воспитания студентов как личностей с духовно-эстетическим мировоззрением. Духовная эстетика рассматривается как совокупность высоких человеческих качеств, включая нравственную чистоту, эстетический вкус, внутреннюю дисциплину и социальную ответственность. В исследовании раскрыта роль высших учебных заведений в формировании этих качеств, применение педагогических методов, личностно-ориентированного подхода, а также воспитание на основе гармонии национальных и общечеловеческих ценностей. С психологической точки зрения проанализированы такие аспекты, как формирование позитивных убеждений и жизненной позиции у молодежи, укрепление эмоциональной устойчивости, развитие навыков самопознания и самоконтроля. С педагогической стороны предложены стратегии всестороннего развития личности студентов через использование интерактивных образовательных технологий, вовлечение в социальную деятельность и создание культурно-духовной среды. Результаты исследования могут служить практическим пособием для педагогов, преподавателей вузов и психологов.*

***Ключевые слова:*** *студент, высшее образование, преподаватель, лектор, обучение, духовность, эстетика, профессионально-нравственные качества, психология.*

## PECULIARITIES OF EDUCATING STUDENTS AS SPIRITUALLY AND AESTHETICALLY DEVELOPED PERSONALITIES

**Muqaddas Khasanovna Hakimova**
Lecturer, Department of “Physical Education and Sports Games,” Termez State University
Email: muqaddashakimova@gmail.com

***Abstract:*** *This scientific paper comprehensively analyzes the psychological and pedagogical features of shaping students as spiritually and aesthetically refined individuals. Spiritual aesthetics is interpreted as the embodiment of such high human qualities as moral purity, aesthetic taste, internal discipline, and social responsibility. The study highlights the essential role of higher educational institutions in cultivating these attributes, the use of pedagogical methods, a student-centered approach, and the integration of national and universal values in the upbringing process. From a psychological perspective, the paper examines the formation of positive beliefs and life positions among youth, the strengthening of emotional resilience, and the development of self-awareness and self-regulation skills. Pedagogically, strategies are proposed for holistic student development through interactive teaching technologies, involvement in social activities, and the creation of a culturally and spiritually enriching environment. The research findings serve as a practical guide for educators, university lecturers, and psychologists.*

***Keywords:*** *student, higher education, lecturer, teaching, spirituality, aesthetics, professional ethics, psychology.*

**KIRISH**. Globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot oqimining kuchayishi insonning ichki dunyosi, ma’naviy olami va axloqiy qadriyatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir davrda yashayapmiz. Bugungi kunda yoshlar, ayniqsa talaba yoshlar hayotga o‘z qarashlarini shakllantirishda, jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishda turli ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va axboriy bosimlarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda

ularni ma'naviy nafosatli, ijtimoiy mas'uliyatli va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash oliy ta'lim muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi[1].

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining asosiy yo'nalishlaridan biri - shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini chuqur o'rganish, ularning ruhiy ehtiyojlarini aniqlash va tarbiyaviy jarayonlarni shu asosda tashkil etishdir (G.Allport, 1961; A.Maslow, 1970; Sh.Amonashvili, 2003). Talabaning shaxsiy kamolotida ma'naviy nafosat tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. U o'z ichiga axloqiy poklik, estetik sezgirlik, o'zini anglash, ichki madaniyat, ongli intizom, ijobiy e'tiqod va boshqalarning qadriyatlariga hurmat ruhida shakllangan ijtimoiy xulqni oladi.

Psixologik nuqtai nazardan olganda, shaxs rivojining muhim bosqichi sifatida yoshlik davri - ayniqsa 18–25 yosh oralig'i - insonda shaxsiy identifikatsiya, hayotiy maqsadlar, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashning shakllanish davridir (E.Erikson, 1968). Bu bosqichda ijobiy ijtimoiy muhit, samimiy muloqot, axloqiy idealga yo'naltirilgan tarbiya shakllari talabalarni mustahkam ichki tayanchga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jihatdan, talabalarda ma'naviy nafosatni shakllantirish - faqat ma'ruza, seminar yoki tarbiya soatlari bilan cheklanib qolmaydi. Bu - integratsiyalashgan, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali amalga oshiriladigan kompleks pedagogik faoliyatdir. UNESCO'ning 21-asr ta'lim tamoyillarida ta'kidlanganidek, "to be" (inson bo'lish), "to live together" (birga yashash) va "to learn to be" (shaxs sifatida kamol topish) kontseptsiyalari orqali ta'lim tarbiya bilan uyg'un holda olib borilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Milliy taraqqiyotning 2030 yilgacha bo'lgan strategiyasi"da ta'limning asosiy vazifasi - barkamol, ijtimoiy faol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalash ekani alohida ta'kidlangan. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarni faqat bilimli emas, balki ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, teran tafakkur egasi bo'lishga o'rgatish bugungi davr talabi hisoblanadi."

Ushbu ilmiy ishda talabalarni ma'naviy nafosatli shaxs sifatida tarbiyalashning psixologik omillari, pedagogik strategiyalari, ijtimoiy-madaniy muhit bilan o'zaro aloqador jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining tarbiyaviy salohiyati, milliy qadriyatlar va innovatsion yondashuvlar uyg'unligi asosida samarali tarbiya modeli ishlab chiqishga intilish ko'zda tutilgan[2].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.**

Talabalarni ma'naviy nafosatli shaxs qilib tarbiyalashning o'ziga xos psixologik–pedagogik xususiyatlari mavzusi O'zbekiston pedagogikasi, psixologiyasi, ma'naviyatshunosligi va tarbiya sohalarida dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Bu borada ko'plab taniqli olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Quyida ushbu mavzuga yaqin yo'nalishlarda ilmiy ishlar qilgan ba'zi olimlar va ularning faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan:

N.B.Asilbekov Dissertatsiya mavzusi: "Talaba shaxsining o'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalash metodikasi" Asosiy g'oya: Dissertatsiyada talaba shaxsining o'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalashining pedagogik-psixologik va jismoniy-fiziologik

omillari modeli takomillashtirilgan. Tadqiqotda talaba shaxsining o'zini-o'zi tarbiyalashining mazmuni, tamoyillari va metodikasi ishlab chiqilgan.

S.I.Abdunazarov dissertatsiya mavzusi: "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlari" asosiy g'oya: Tadqiqotda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Dissertatsiyada yoshlar tarbiyasida davlat siyosatining ma'naviy-mafkuraviy asoslari yoritilgan.

J.A.Mamanov dissertatsiya mavzusi: "Yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda milliy mentalitetning o'rni" asosiy g'oya: Dissertatsiyada yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayonida milliy mentalitetning ahamiyati va ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda milliy qadriyatlar asosida yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

O.T.Abduganiev dissertatsiya mavzusi: "Talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirish" asosiy g'oya: Tadqiqotda talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni va mohiyati tahlil qilingan. Dissertatsiyada pedagogik hamkorlik omillari orqali talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish yo'llari ko'rsatilgan.

Yuqorida tahlil qilingan PhD dissertatsiyalar talabalarning ma'naviy nafosatini shakllantirishda turli yondashuvlarni taklif etadi. Asilbekovning tadqiqoti talabaning o'zini-o'zi tarbiyalash metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lsa, Abdunazarovning ishi davlat siyosatining ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarini tahlil qiladi. Mamanovning dissertatsiyasi milliy mentalitetning yoshlar ma'naviy madaniyatiga ta'sirini o'rganadi, Abduganiev esa umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirish masalasini ko'taradi[3].

Ushbu dissertatsiyalar talabalarning ma'naviy nafosatini shakllantirishda psixologik, pedagogik, siyosiy va falsafiy yondashuvlarning muhimligini ko'rsatadi. Mavzuga oid ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar ushbu modelni yanada mukammallashtirish uchun mustahkam ilmiy poydevor yaratadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dasturlashtirish va raqamlashtirish modellari kabi metodlardan foydalanildi.

**NATIJALAR.**

Ma'naviy nafosat tushunchasining yangicha talqini ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar shaxsini ma'naviy nafosatli qilib tarbiyalashda ushbu tushuncha faqat estetik did va axloqiy normalarga amal qilish bilan cheklanmay, balki:

- ✓ ichki madaniyat,
- ✓ ijtimoiy mas'uliyat,
- ✓ insonparvarlik,
- ✓ axloqiy mustaqillik kabi ko'rsatkichlar bilan uyg'un holda namoyon bo'lishi aniqlangan.

Talabalarda ma'naviy nafosatni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi. Quyidagi psixologik–pedagogik omillar eng ta'sirchan deb topildi:

- ✓ shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhiti;
- ✓ ijtimoiy-madaniy makon va talabaga namuna bo'luvchi shaxslar (mentor, ustoz);
- ✓ talabaning o'zini anglash darajasi va axloqiy refleksiya qobiliyati;
- ✓ milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan ishonch.

Talabalar shaxsida ma'naviy nafosatni rivojlantiruvchi pedagogik model ishlab chiqildi. Bu model quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ **Axborotli-bilim beruvchi bosqich:** talabaga ma'naviy qadriyatlar haqida nazariy bilim berish.
- ✓ **Motivatsion–psixologik bosqich:** shaxsiy ehtiyoj va qiziqishlarni ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish.
- ✓ **Refleksiv–analitik bosqich:** talaba o'z axloqiy holatini baholaydi va uni tahlil qiladi.
- ✓ **Amaliy–ijodiy bosqich:** talabalar real hayotda ma'naviy fazilatlarni namoyon eta boshlaydi.

Pedagogik jarayonga innovatsion uslublarni joriy etish samaradorligi isbotlandi. Eksperimental guruhda interfaol metodlar (debat, dramatizatsiya, ma'naviy-estetik loyihalar) orqali olib borilgan ta'lim:

- ✓ talabalarining axloqiy baholash qobiliyatini 27% ga,
- ✓ ijtimoiy faolligini 34% ga,
- ✓ estetik sezuvchanligini 22% ga oshirgan.

Talabalarning o'z-o'zini ma'naviy tarbiyalashiga oid muayyan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ "Ichki dialog" texnikasi orqali o'zini baholashni shakllantirish;
- ✓ shaxsiy qadriyatlar reyestrini tuzish;
- ✓ mustaqil o'z-o'zini tarbiyalash rejasini ishlab chiqish;
- ✓ san'at, adabiyot, falsafa orqali ruhiy tarbiyani kuchaytirish.

Oliy ta'lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. – "Ma'naviy muhit" indikatorlarini yaratish;

- ❖ tarbiyaviy ishlar strategiyasini "shaxsga yo'naltirilgan tarbiya" konsepsiyasi asosida qayta ko'rib chiqish;
- ❖ talabalarni ma'naviy–ijodiy faoliyatga jalb qilish uchun loyihaviy yondashuvlarni keng joriy etish ("Talaba-axloqiy lider" tanlovi).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarni ma'naviy nafosatli shaxs sifatida tarbiyalash samaradorligi bevosita individual yondashuv, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tanitish, ijtimoiy muhitni optimallashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq. Bu esa oliy ta'lim tizimida tarbiya ishlarining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi.

**MUHOKAMA.**

Talabalarni ma'naviy nafosatli shaxs qilib tarbiyalash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar uyg'unligida amalga oshiriladi.

Farsaxonova Dilafro'z Rizaxonovnaning dissertatsiyasida ta'kidlanganidek, pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash

metodikasini takomillashtirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya texnologiyalari (trening, keys stadi, SWOT tahlil, muammoli ta'lim)ni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Suvanov Ilhom Abdixalilovichning tadqiqotida shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda milliy g'oya va o'zlikni anglash dialektikasi muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Djumaniyazova Dilfuza Kamolovnaning dissertatsiyasida esa shaxs ma'naviyatining shakllanishida insoniylik va ilohiylik uyg'unligining diniy-falsafiy va ilmiy jihatlari ochib berilgan.

Shuningdek, Mamanazarov Solijon Sherzodbek o'g'li va Muxammadiyev Jamshid Ilhom o'g'lining maqolalarida ta'limdan tashqari jarayonlarda shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari, ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligi yo'nalishlari, uzluksiz ta'lim tizimidagi shaxs ma'naviyatining shakllanganlik darajasi kabi masalalar tahlil qilingan.

Ushbu tadqiqotlar asosida quyidagi fikrlarga kelish mumkin:

1. **Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya texnologiyalari**: Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda shaxsga yo'naltirilgan metodlar (trening, keys stadi, SWOT tahlil, muammoli ta'lim) samarali hisoblanadi.
2. **Milliy g'oya va o'zlikni anglash**: Shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda milliy g'oya va o'zlikni anglash dialektikasi muhim rol o'ynaydi.
3. **Insoniylik va ilohiylik uyg'unligi**: Shaxs ma'naviyatining shakllanishida insoniylik va ilohiylik uyg'unligining diniy-falsafiy va ilmiy jihatlari muhim ahamiyatga ega.
4. **Ta'limdan tashqari jarayonlar**: Shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ta'limdan tashqari jarayonlar, oila va jamoatchilik hamkorligi muhim omillar sifatida ko'rsatiladi.
5. **Uzluksiz ta'lim tizimi**: Shaxs ma'naviyatining shakllanganlik darajasi uzluksiz ta'lim tizimi orqali yuksaltiriladi.

Ushbu xulosalar talabalarni ma'naviy nafosatli shaxs qilib tarbiyalashda pedagogik va psixologik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi[4].

**XULOSA.**

Talabalarni ma'naviy nafosatli shaxs sifatida tarbiyalash zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan ilmiy tahlillar, ayniqsa PhD dissertatsiyalar asosida olib borilgan chuqur o'rganishlar quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Ma'naviy nafosat – bu faqat axloqiy me'yorlarga rioya qilish emas, balki shaxsda ichki madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat, insonparvarlik, o'zini anglash va boshqalarni qadrlash kabi ko'p qirrali sifatlarning uyg'unligidir. Bu holat, ayniqsa, O'zbekiston ilmiy maktablarida keng yoritilgan.
2. Psixologik yondashuvlar (masalan, E. Erikson, A. Maslow, N. Batirovna va boshqalarning ishlari asosida) talabalarda o'zini anglash, ijtimoiy identifikatsiya, altruizm, motivatsiya va refleksiya mexanizmlarining ahamiyatini ochib berdi. Bu omillar shaxsning ichki barkamolligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

3. Pedagogik tadqiqotlarda (xususan, X.Botirovna, Z.Maratovna, D.Nozimaxon va boshqalar) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar (trening, keys-stadi, muammoli ta'lim) va tarbiyaviy muhitning sifati talabaning ma'naviy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy vositalar sifatida asoslab berilgan.

4. Milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy tarbiya modeli yoshlarning ma'naviy o'sishida barqaror poydevor bo'lib xizmat qilishi aniqlangan. Xususan, uzluksiz ta'lim tizimida bu qadriyatlar orqali ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, axloqiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirish mumkin.

5. Axborot muhitining ijobiy va salbiy ta'sirlarini hisobga olgan holda, ma'naviy tarbiya jarayonida raqamli savodxonlik va madaniy immunitetni shakllantirish ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni ma'naviy nafosatli shaxs sifatida tarbiyalash ko'p qirrali, tizimli va innovatsion yondashuvlarni talab qiladigan uzluksiz jarayondir. U psixologik barqarorlik, axloqiy mustahkamlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat asosida amalga oshirilgandagina samarali bo'ladi. Bu yo'lda pedagoglar, psixologlar, ota-onalar hamda jamiyatning boshqa institutlari o'zaro hamkorlikda harakat qilishi zarur.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov B. *Kasbga yo'naltirish pedagogikasi.* – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Abduraxmonov J. "Talabalarga bilim berishda ktedit-modul tizimining o'rni." *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali* (2024).
URL - https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/9749
3. Moyliyeva X. Talabalarda ma'naviy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarixiy pedagogik jarayonning mazmuni va mohiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. ISSN:2181-1784. 3(2), Feb., 2023. -B 848-852.
URL - https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-ma-naviy-sifatlarini-rivojlantirishga-yo-naltirilgan-tarixiy-pedagogik-jarayonning-mazmuni-va-mohiyati/viewer
4. Mutallibjonov M. Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish yuzasidan xorijiy tajribalar tadqiqi va uning kontekstual jihatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 7 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423. -B 308-312.
URL: https://cyberleninka.ru/article/n/talabalar-kasbiy-ma-naviyatini-rivojlantirish-yuzasidan-xorijiy-tajribalar-tadqiqi-va-uning-kontekstual-jihatlari/viewer

---

UO'K 373.2:371.13

# BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Ismoilova Shoxnoza Abdurashidovna**
*Terrmiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*
ishaxnoza17@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Maktabgacha ta'lim tizimida bolalar bilan ishlashda tarbiyachining shaxsiy va kasbiy fazilatlari, pedagogik madaniyati, kommunikativ ko'nikmalari va psixologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. Shuningdek, o'quv jarayonida amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot va reflektiv tahlillar orqali tarbiyachilik kasbiga oid zarur ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *bo'lajak tarbiyachi, maktabgacha ta'lim, kasbiy sifatlar, kompetensiya, ko'nikma, kasb, amaliyot, refleksiya, ta'lim sifati.*

**УДК 373.2:371.13**

## WAY ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Исмаилова Шохноза Абдурашидовна**
Независимый исследователь Термезского государственного университета
Электронная почта: ishakhoza17@gmail.com

***Аннотация:*** *В данной статье проанализированы вопросы формирования и развития профессиональных качеств будущих воспитателей дошкольного образования как в научно-теоретическом, так и в практическом плане. Особое место в работе с детьми в системе дошкольного образования занимают личностно-профессиональные качества воспитателя, его педагогическая культура, коммуникативные навыки, психологическая подготовленность. Также освещаются механизмы формирования необходимых навыков воспитательной профессии посредством практических занятий, педагогической практики и рефлексивного анализа в процессе обучения.*

***Ключевые слова:*** *будущий воспитатель, дошкольное образование, профессиональные качества, компетентность, умения, профессия, практика, рефлексия, качество образования.*

**UDC 373.2:371.13**

## STO DEVELOP PROFESSIONAL QUALITIES IN FUTURE PRESCHOOLERS

**Ismailova Shokhnosa Abdurashidovna**
Independent researcher, Termez State University
Email: ishakhoza17@gmail.com

***Annotation:*** *this article analyzes the issues of formation and development of professional qualities of future preschoolers in a scientific-theoretical and practical way. A special place in the work with children in the preschool education system is occupied by the personal and professional qualities of the educator, pedagogical culture, communicative skills and psychological training. Also, the mechanisms for the formation of the necessary skills in the profession of upbringing through practical training, pedagogical practice and reflective analysis are covered in the educational process.*

***Keywords:*** *future educator, preschool education, professional qualities, competence, skills, profession, practice, reflection, quality of Education.*

## KIRISH.

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining barqaror poydevorini shakllantirishda, bolalarning aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, bu sohada faoliyat yurituvchi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik saviyasi, kommunikativ madaniyati va psixologik barqarorligi ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

farmoni, shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bu soha xodimlarining malakasini oshirish va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, Prezidentning 2022-yil 11-avgustdagi PQ–362-sonli qarori bilan Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning uzluksiz malakasini oshirish tizimi mustahkamlab qo'yildi[1].

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaliy ijrosi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy sifatlarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tegishli qarorlarida bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik etikani shakllantirish, kommunikativ va innovatsion ko'nikmalarni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish kabi yo'nalishlarga alohida urg'u berilgan.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini har tomonlama yetuk, kasbiy saviyali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassis sifatida tayyorlash bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy sifatlarni shakllantirish yo'llari, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoitlar va ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Y.I.Xashimova "Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari" Ushbu dissertatsiya bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyaning psixologik omillarini, ya'ni emotsional barqarorlik, motivatsiya va pedagogik intizomni shakllantirish usullarini tahlil qiladi. Unda pedagogik shart-sharoitlar va psixologik treninglar orqali kasbiy kompetentlikning rivojlanishi asoslab berilgan.

N.I.Saydullayeva "Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (integrativ yondoshuv asosida)" Bu ilmiy ish kreativ pedagogik kompetensiyani shakllantirish uchun integrativ yondashuvni (san'at, psixologiya, didaktika kombinatsiyasi) qo'llash usullarini taklif etadi. Ushbu metodikalar tarbiyachining yaratuvchan fikrlashi, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi[2].

G.A.Kamalova "Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish" Ushbu PhD ishi ham integrativ yondashuvni targ'ib qiladi: kasbiy kompetensiya shakllanishi uchun nazariy bilim, amaliy ko'nikma va reflektiv tahlil uyg'unligini taklif etadi. Unda pedagoglarning malakasini oshirishda kombinatsion metodlar muvaffaqiyatli bo'lgani ko'rsatib o'tilgan.

N.G'iyasova maqolasi: "Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahoratni shakllantirish texnologiyasi" Bu maqolada pedagogik va psixologik shart-sharoitlar, didaktik bosqichlar va reflektiv texnologiyalar yordamida kasbiy mahoratni rivojlantirish bosqichlari (reproduktiv, produktiv, kreativ) batafsil tavsiflanadi. Ko'nikmalarni shakllantirishda bosqichma-bosqich yondashuv samaradorligi ko'rsatib o'tilgan

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik

kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dasturlashtirish va raqaamlashtirish modellari kabi metodlardan foydalanildi[3].

**NATIJALAR.**

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarda kasbiy sifatlarini rivojlantirish yo'llari mavzusi yuzasidan ilmiy asoslangan natijalar.

❖ Kasbiy sifatlar tushunchasi ko'p komponentli xarakterga ega ekanligi aniqlandi: Bo'lajak tarbiyachilarda shakllanishi zarur bo'lgan kasbiy sifatlar tarkibiga pedagogik madaniyat, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy faollik, kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarga moslashuvchanlik va kasbga bo'lgan barqaror motivatsiya kiradi.

❖ Psixologik tayyorgarlik kasbiy kompetensiyaning asosiy tayanchi sifatida namoyon bo'ldi: Emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, bolalar bilan muloqotga kirishishdagi ochiqlik va muloyimlik tarbiyachilarning amaliy faoliyatida muhim psixologik omil sifatida o'zini ko'rsatdi.

❖ Integrativ yondashuv asosida tayyorlangan ta'lim-metodik tizim kasbiy sifatlarni samarali rivojlantiradi: Pedagogika, psixologiya, san'at, kommunikatsiya va AKT fanlarining uyg'unlashuvi orqali tarbiyachilarda ko'p yo'nalishli kasbiy kompetensiyalar shakllanishi kuzatildi.

❖ Bosqichma-bosqich yondashuv kasbiy o'sishni ta'minlaydi: Reproduktiv (asosiy bilim va ko'nikmalarni egallash), produktiv (mustaqil qo'llay olish), va kreativ (yangilik yaratish, pedagogik muammoni ijodkorona hal etish) bosqichlar orqali kasbiy sifatlar izchil va tizimli ravishda rivojlanadi.

❖ Amaliyot va nazariyaning uyg'unlashuvi kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi: Pedagogik amaliyot davomida nazariy bilimlarni real pedagogik muhitda sinovdan o'tkazish orqali bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini baholash, refleksiya va mustaqil faoliyat olib borish ko'nikmalari shakllanadi.

❖ Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi kasbiy sifatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi: Multimedia vositalari, muammoli vaziyatlar tahlili, rolli o'yinlar, trening va interaktiv metodlardan foydalanish pedagogik kompetensiyani boyitadi va o'zini doimiy rivojlantirishga undaydi.

❖ Normativ-huquqiy asoslar kasbiy sifatlarni shakllantirishda tizimli yondashuvni ta'minlaydi: Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan standartlar tarbiyachilarning kasbiy tayyorligi sifatini oshirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

**MUHOKAMA.**

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik, psixologik va kommunikativ kompetensiyalarni uzviy rivojlantirish orqali tarbiyachining kasbiy salohiyatini oshirish mumkin. Integrativ yondashuvlar, amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan nazariy bilimlar, bosqichma-bosqich metodika kasbiy shakllanishda yuqori samaradorlik beradi. Bu yo'nalishda davlat siyosatining qo'llab-quvvatlanishi va ta'lim standartlarining yangilanishi jarayonni tizimli va barqaror qiladi. Kasbiy tayyorgarlik – sifatli tarbiyaning garovidir[4].

**XULOSA.**

Tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar asosida shunday xulosaga kelinadiki, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish – bu murakkab, ko'p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etadigan jarayondir. Pedagogik kompetensiya, psixologik barqarorlik, kommunikativ madaniyat, ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuv kabi sifatlar muvaffaqiyatli tarbiyachini shakllantiruvchi asosiy tarkibiy qismlardir.

Integrativ yondashuvlarga asoslangan ta'lim-metodik tizim, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, shuningdek, muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan metodlar orqali bu sifatlarni samarali rivojlantirish mumkin. Normativ-huquqiy asoslar – xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'limga oid farmon va qarorlari – ushbu jarayonga huquqiy va tashkiliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish yo'lida kompleks, bosqichma-bosqich va innovatsion yondashuvlardan foydalanish – zamonaviy maktabgacha ta'limning sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Xabilova S.T., Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024. -B 28-29.
URL: https://zenodo.org/records/13744197

2. Muxamadaliyeva M.X., Bo'lajak tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2992-9024 2025, №1. B 208-209.
URL: https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-tarbiyachilarning-shaxsiy-va-kasbiy-sifatlarini-rivojlantirishning-ilmiy-nazariy-asoslari

3. Sultonqulova G., Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglarini kasbiy kompitentligini takomillashtirish. Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirish nomli kanferensiyasi.2024. -B 625-626.
URL: www.kokanduni.uz

4. Abduraxmonov J. "The Essence of Interactive Methods In The Development Of Students' Knowledge Of Technical Safety In The Credit-Module System." *Progress Annals: Journal of Progressive Research* (2024).
URL - https://academiaone.org/index.php/8/article/view/576

## TALABALAR AKADEMIK MOBILLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Normurodova Adiba Alisher qizi**
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi
E-mailnormurodovaadiba90@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola "Talabalar akademik mobilligini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish" mavzusida talabalar o'rtasida akademik mobillikni oshirish va uning metodik tizimini samarali shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. Mualliflar akademik mobillikni ta'lim sohasidagi global integratsiya jarayonida talabalar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tahlil qiladi. Maqolada talabalar akademik mobilligini oshirish uchun yangi metodlar va yondashuvlar taklif etiladi, shu jumladan, zamonaviy*

*texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va interaktiv o'quv uslublarini qo'llash kabi chora-tadbirlar. Ushbu metodik tizim, talabalar o'rtasida o'qish, ilmiy izlanish va akademik almashinuvning sifatini yaxshilashni maqsad qiladi. Shuningdek, maqolada universitetlar va ta'lim muassasalarining global talablarga javob berish va o'quvchilarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashdagi roli muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Talabalar, Akademik mobillik, Ta'lim metodikasi, Ta'lim tizimi, Xalqaro hamkorlik, Global integratsiya, Zamonaviy texnologiyalar, Interaktiv o'quv uslublari, Ilmiy izlanish, Akademik almashinuv, Ta'lim sifatini oshirish, O'quv metodlari, Ta'lim innovatsiyalari, Universitetlar roli, Mutaxassislar tayyorlash, Ta'lim mobilizatsiyasi, Akademik aloqalar, O'quvchilarning malaka oshirish, Ta'limda integratsiya, Xalqaro tajriba almashinuvi, Innovatsion ta'lim texnologiyalari*

---

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ АКАДЕМИЧЕСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

**Нормуродова Адиба Алишер кизи**
Преподаватель Карши международного университета.
Электронная почта: normurodovaadiba90@gmail.com

***Аннотация:*** *Студенты, Академическая мобильность, Методология преподавания, Система образования, Международное сотрудничество, Глобальная интеграция, Современные технологии, Интерактивные методы обучения, Научные исследования, Академический обмен, Повышение качества образования, Методы обучения, Образовательные инновации, Роль университетов, Подготовка специалистов, Образовательная мобилизация, Академические связи, Повышение квалификации студентов, Интеграция в образовании, Международный обмен опытом, Инновационные образовательные технологии*

***Ключевые слова:*** *Студенты, Академическая мобильность, Образовательная методика, Образовательная система, Международное сотрудничество, Глобальная интеграция, Современные технологии, Интерактивные методы обучения, Научные исследования, Академический обмен, Повышение качества образования, Методы обучения, Образовательные инновации, Роль университетов, Подготовка специалистов, Образовательная мобилизация, Академические связи, Повышение квалификации студентов, Интеграция в образовании, Международный обмен опытом, Инновационные образовательные технологии*

---

## IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPING STUDENTS' ACADEMIC MOBILITY

**Normurodova Adiba Alisher qizi**
teacher of the Karshi international university.
Email: normurodovaadiba90@gmail.com

***Annotation:*** *Students, Academic mobility, Teaching methodology, Education system, International cooperation, Global integration, Modern technologies, Interactive teaching methods, Scientific research, Academic exchange, Improving the quality of education, Teaching methods, Educational innovations, The role of universities, Training of specialists, Educational mobilization, Academic relations, Improving the skills of students, Integration in education, International exchange of experience, Innovative educational technologies*

***Keywords:*** *Students, Academic mobility, Educational methodology, Educational system, International cooperation, Global integration, Modern technologies, Interactive teaching methods, Scientific research, Academic exchange, Improving the quality of education, Teaching methods, Educational innovations, The role of universities, Training of specialists, Educational mobilization, Academic relations, Improving the skills of students, Integration in education, International exchange of experience, Innovative educational technologies*

---

**Kirish.**Bugungi kunda ta'lim tizimlari o‘zgarib, global miqyosda akademik hamkorliklar kuchaymoqda. Akademik mobillik talabalarni turli ta'lim muassasalarida o‘qitish, tajriba almashish va ilmiy ishlarga jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Global iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar va xalqaro ta'lim tizimlarining o‘sishi talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda, ammo bularni amalga oshirish uchun o‘qituvchilar, talabalar va ta'lim muassasalaridan tizimli yondashuv va amaliy chora-tadbirlar talab etiladi. Ushbu maqolada talabalar akademik mobilligini rivojlantirishda joriy etilayotgan metodik tizimlar va ularni takomillashtirishga doir tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.

**Akademik mobillik tushunchasi va uning ahamiyati**

Akademik mobillik - bu talabalar va ilmiy xodimlarning turli mamlakatlar, universitetlar va ta'lim muassasalarida o‘qish va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatidir. Akademik mobillikni rivojlantirish talabalar uchun nafaqat yangi bilim va ko‘nikmalarni, balki xalqaro tajriba hamda yangi madaniyatlarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

- **Talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratish**: O‘qishning xalqaro tajribasi, yangi metodologiyalarni o‘rganish, boshqa tillarda muloqot qilish va o‘qish jarayonida xalqaro do‘stlar orttirish.
- **Ilmiy va amaliy rivojlanish**: Akademik mobillik orqali talabalar ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish, yangi texnologiyalar va metodlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.
- **Ijtimoiy va madaniy integratsiya**: Talabalar turli madaniyatlar va jamiyatlar bilan tanishish orqali o‘zlarining global raqobatbardoshligini oshiradilar.

Akademik mobillikning mohiyati talabalar va ilmiy xodimlarning boshqa ta'lim muassasalarida, hatto boshqa mamlakatlarda o‘qish va ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini anglatadi. Bu mobil imkoniyatlar talabalar uchun faqat ta'lim olishni emas, balki yangi madaniyatlarni, tilni, ijtimoiy tizimlarni o‘rganish va global ilmiy hamjamiyatga qo‘shilish imkoniyatini yaratadi. Akademik mobillikning rivojlanishi quyidagi asosiy omillar bilan bog‘liq:

- **Global iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlik**: O‘zbekistonning raqobatbardoshligini oshirish uchun talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va o‘qituvchilar xalqaro ta'lim tizimlariga integratsiyalashishi zarur.
- **Madaniy va tilga oid to‘siqlarni yengish**: Talabalar boshqa mamlakatlarda o‘qish orqali turli tillar va madaniyatlar bilan tanishadilar, bu esa ijtimoiy va madaniy to‘siqlarni yengishga yordam beradi.
- **Global tadqiqotlar va innovatsiyalar**: Akademik mobillik yordamida talabalar va ilmiy xodimlar yangi texnologiyalar va ilmiy metodlarni o‘rganadilar, bu esa o‘z navbatida ularning ilmiy-texnikaviy bilimlarini oshiradi.

**Akademik mobillikni rivojlantirishning metodik tizimlari**

Akademik mobillikni rivojlantirish uchun mavjud metodik tizimlar, bir tomondan, xalqaro miqyosda talabalar va ilmiy xodimlar uchun imkoniyatlarni yaratishni ko‘zda tutadi, boshqa tomondan, O‘zbekistonning o‘z ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy usullarni tatbiq etishni nazarda tutadi. Akademik mobillikni rivojlantirish uchun quyidagi metodik tizimlar kiritilishi mumkin:

**Oliy ta’lim dasturlarini interaktivlashtirish**

Oliy ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va universitetlar oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

- **Xalqaro kurslar va sertifikatlar**: Xalqaro miqyosda taniqli universitetlar bilan hamkorlikda oʻqish dasturlarini ishlab chiqish. Talabalar turli mamlakatlarda oʻqish imkoniyatiga ega boʻlishadi.
- **Uchinchi tomon oʻquv dasturlari**: Shuningdek, universitetlar oʻrtasidagi akademik aloqalarni kuchaytirish uchun talabalar oʻrtasida almashinuv dasturlarini yaratish zarur.
- **Oʻquv dasturlarini moslashtirish**: Talabalar oʻqish uchun boshqa universitetlarga tashrif buyurishi uchun zarur boʻlgan akademik tizimlarni va kurslarni moslashtirish. Oliy ta'lim dasturlarida xalqaro talablarga javob beradigan kurslarni joriy etish.

Akademik mobillikni rivojlantirishda talabalar uchun zamonaviy va global ta'lim tizimlariga moslashtirilgan oʻquv dasturlari muhim ahamiyatga ega. Talabalar koʻp hollarda oʻz oʻquv dasturlari va kurslari boʻyicha cheklangan imkoniyatlarga ega boʻlishadi, bu esa ular uchun xalqaro miqyosda ta’lim olish imkoniyatlarini kamaytiradi.

- **Xalqaro miqyosda ta'lim dasturlarining moslashtirilishi**: Talabalar uchun darslar va kurslar xalqaro akademik talablar asosida oʻqitilishi kerak. Bu esa ularga boshqa mamlakatlarda oʻqish imkoniyatlarini yaratadi va ular uchun ilmiy hamkorlikni rivojlantiradi.
- **Interaktiv va multidistsipliner oʻquv dasturlari**: Talabalar oʻquv jarayonida bir nechta sohalarni birlashtirgan interaktiv kurslarda ishtirok etishlari mumkin. Masalan, muhandislik, texnologiya, iqtisodiyot va boshqalar sohalarida integratsiyalashgan kurslar tashkil etilishi talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.
- **Xalqaro akkreditatsiya va sertifikatlar**: Oʻzbekiston universitetlari uchun xalqaro akkreditatsiya jarayonlarini qoʻllash, talabalar uchun ham xalqaro ta’lim sifatiga erishish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, xalqaro universitetlar bilan hamkorlikda oʻquv kurslarini tashkil etish talabalar uchun ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

**Raqamli platformalar va onlayn ta'lim**

Raqamli ta’lim platformalarini kengaytirish, onlayn kurslar va oʻquv materiallarini talabalarga taqdim etish orqali oʻqishning sifatini oshirish mumkin.

- **Masofaviy ta'lim va interaktiv kurslar**: Online ta’lim platformalari yordamida talabalar masofaviy kurslarda oʻqish, bilim olish va ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega boʻladi. Shu bilan birga, bunday kurslar talabalar uchun yurt ichidagi va tashqarisidagi oʻquv materiallariga kirish imkoniyatini yaratadi.
- **Vebinarlar va interaktiv darslar**: Talabalar uchun onlayn seminarlar va vebinarlar oʻtkazish, bu orqali ular xalqaro olimlar va mutaxassislar bilan bevosita aloqada boʻlish imkoniyatini oladi.

Onlayn ta’lim va raqamli platformalar oʻquv jarayonini engillashtiradi va akademik mobillikni rivojlantirishda katta rol oʻynaydi. Masofaviy ta'lim platformalari talabalar uchun oʻz bilimlarini global miqyosda rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

- **Onlayn ta'lim dasturlari va kurslari**: Talabalar uchun onlayn kurslar va sertifikatlar joriy etish orqali, ularning xalqaro miqyosda bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Shu bilan birga, onlayn platformalarda o‘qishning afzalliklari, masalan, masofaviy kurslar orqali xalqaro olimlar bilan muloqot qilish imkoniyatlari ham mavjud.
- **O‘quv materiallari va resurslarga kengaytirilgan kirish imkoniyatlari**: Talabalar uchun onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar va o‘quv resurslariga kengaytirilgan kirish imkoniyatlarini taqdim etish zarur. Bu, o‘z navbatida, ularning ta'limini yanada sifatli va samarali qilishga yordam beradi.
- **Massiv ochiq onlayn kurslar (MOOCs)**: MOOC dasturlari orqali talabalar dunyo bo‘ylab bir necha minglab kurslarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu platformalar ularga global miqyosda raqobatbardoshlikni oshirishda yordam beradi.

**Psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash**

Akademik mobillikni rivojlantirishda talabalar psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi muhim ahamiyatga ega. Bunda talabalar o‘qish jarayonida yuzaga keladigan psixologik bosimlar va qiyinchiliklarga qarshi yordam olishlari kerak.

- **Psixologik yordam**: Talabalarning akademik va shaxsiy muammolarini hal qilish uchun psixologik maslahatlar, stressni kamaytirish bo‘yicha treninglar tashkil etish.
- **Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash**: Talabalar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va global ta'lim tizimida integratsiya qilish, ijtimoiy faoliyatlar, seminarlar va madaniy tadbirlarni o‘tkazish.

Akademik mobillikni rivojlantirishda psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi zarur. Talabalar, ayniqsa, boshqa mamlakatlarda o‘qish uchun ketganida, yangi madaniyatga moslashish, stress va noaniqliklar bilan kurashishlari kerak.

- **Madaniy moslashuv**: Talabalar o‘qish uchun boshqa mamlakatlarga ketganida, yangi madaniyatni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli, madaniy moslashuv dasturlari va ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan treninglar tashkil etilishi zarur.
- **Psixologik maslahatlar va yordam**: O‘qish jarayonida talabalar psixologik bosimni his qilishlari mumkin. Shu bois, ta'lim muassasalarida psixologik yordam va maslahat xizmatlarini tashkil etish, talabalarni yanada samarali qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.
- **Ijtimoiy aloqalar va jamoaviy faoliyatlar**: Talabalar o‘rtasida ijtimoiy faoliyatlarni rivojlantirish, jamoaviy loyihalarda ishtirok etish va o‘zaro tajriba almashish imkoniyatlari ijtimoiy integratsiyani osonlashtiradi.

**Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bilan integratsiya**

Ilmiy tadqiqotlarda talabalarni faollashtirish, ularni yangi texnologiyalarni o‘rganishga undash va zamonaviy ilm-fan sohalarida faol ishtirok etishga rag‘batlantirish.

- **Ilmiy loyihalarda ishtirok**: Talabalar ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish va global ilmiy hamjamiyat bilan aloqada bo‘lishlari kerak. Bu orqali ularning o‘z sohalaridagi bilimlari kengayadi.

- **Innovatsion texnologiyalar va ilmiy metodlar**: Ta'lim tizimiga yangi texnologiyalar va metodlarni joriy etish, bu orqali talabalar ilmiy ishlarda va amaliyotda yangi yondashuvlarni oʻrganishlari mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda talabalarni faollashtirish, ularni global ilmiy hamjamiyat bilan aloqada boʻlishga undash, innovatsion texnologiyalarni oʻrganish – bu akademik mobillikni rivojlantirishning yana bir muhim yoʻnalishidir.

- **Ilmiy almashinuv dasturlari**: Talabalar va ilmiy xodimlar uchun ilmiy almashinuv dasturlari, konferensiyalar va simpoziumlar tashkil etish, bu orqali ular global ilmiy tadqiqotlar va innovatsion jarayonlarga jalb qilinadi.
- **Texnologik va ilmiy inkubatsiya markazlari**: Talabalar uchun ilmiy-texnologik inkubatsiya markazlari ochish, ularning yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin.
- **Xalqaro ilmiy tarmoq va hamkorlik**: Talabalar va ilmiy xodimlar uchun xalqaro ilmiy tarmoqlar va hamkorlik tizimlarini yaratish, bu orqali ular yangi ilmiy loyihalar va tadqiqotlar boʻyicha hamkorlik qilish imkoniyatiga ega boʻlishadi.

**Akademik mobillikni rivojlantirishda hamkorlik va infratuzilma**

Oliy ta'lim tizimida akademik mobillikni rivojlantirish uchun infrastruktura va hamkorlik muhim oʻrin tutadi. Universitetlar oʻrtasidagi doimiy aloqalar va xalqaro hamkorlik talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Akademik mobillikni rivojlantirishda infrastruktura va hamkorlik tizimlari muhim oʻrin tutadi. Bunda universitetlar oʻrtasidagi hamkorlik, global ilmiy tarmoqlarni yaratish va moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimlari talabalar uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.

**Universitetlar oʻrtasida doimiy hamkorlik**

Universitetlar oʻrtasidagi doimiy hamkorlik orqali talabalar ilmiy loyihalarda ishtirok etish, tajriba almashish va oʻqish imkoniyatlaridan kengroq foydalanishlari mumkin.

- **Xalqaro almashinuv dasturlari**: Universitetlar oʻrtasida akademik almashinuv dasturlari tashkil etish, bu orqali talabalar boshqa mamlakatlarda oʻqish imkoniyatiga ega boʻlishadi.
- **Ilmiy simpoziumlar va konferensiyalar**: Talabalar uchun xalqaro ilmiy tadbirlar, simpoziumlar va konferensiyalar tashkil etish, bu orqali ular global ilmiy jamiyatga qoʻshilish imkoniyatiga ega boʻlishadi.

**Moliyaviy va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash**

Akademik mobillikni rivojlantirish uchun talabalar uchun moliyaviy va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimi muhimdir.

- **Grantlar va stipendiyalar**: Talabalar uchun oʻquv jarayonini davom ettirishda yordam beradigan grantlar, stipendiyalar va boshqa moliyaviy imkoniyatlarni taqdim etish zarur.
- **Ijtimoiy dasturlar**: Talabalar uchun turli ijtimoiy dasturlarni tashkil etish, masalan, turar joy, oziq-ovqat, transport va boshqa kundalik ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan dasturlar.

**Xulosa.** Akademik mobillikni rivojlantirish – bu faqat talabalarni boshqa davlatlarda oʻqish uchun yuborishdan iborat emas. Bu jarayon tizimli yondashuvni talab qiladi, shu jumladan, oʻquv dasturlarining takomillashishi, raqamli platformalar

orqali o‘qishning kengayishi, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarni o‘rganish, hamkorlik va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish zarur. Bu omillarni integratsiya qilish talabalar uchun nafaqat o‘z bilimlarini kengaytiradi, balki ularning global miqyosda malakali va raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, akademik mobillikni rivojlantirishning metodik tizimlarini takomillashtirish, o‘qishning sifatini oshirish va talabalarni global ta'lim tizimiga integratsiyalashish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

**Adabiyotlar:**

1. N.B.Adizova, G.E.Saidova. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya – o‘quv-metodik majmua. Buxoro-2022(45-50-betlar)
2. S.N. Djurayeva, N.S. Turdiyeva, A.I. Baxronova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o‘quv qo‘llanma. Buxoro – 2021 (15-22-betlar), (25-38-betlar)
3. D.Babayeva. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2021
4. N.Ismatova va boshqalar. “1-2-3-4-sinflar uchun tarbiya fanidan darslik”. Toshkent-2020
5. R.M.Sarsenbayeva. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019 (179-201-betlar), (202-222-betlar), (295-317-betlar)

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA YOZUV SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YECHIMLAR

**Shodiyeva Muxlisa**
Qarshi xalqaro universiteti Pedagogika va Muhandislik fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
E-mail: muhlisashodiyeva220@gmail.com,
Tel: +998914525472

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yozuv savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy yechimlar to‘g‘risida fikr yuritilgan. Yozuvga o‘rgatish davrini qiziqarli va samarali tashkil qilish kabi masalaning yechimlari, ilmiy va nazariy bilimlarga tayangan holda fanlararo integratsiya qilishning foydali tomonlari yoritib berilgan. Yozuv o‘rgatishda duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlariga alohida to‘xtalgan. Zamonaviy AKT vositalaridan unumli foydalanib, dars jarayonini qiziqarli tashkil qilishning yangicha usullari ko‘rsatilgan. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning qiziqish va xohishlaridan kelib chiqib grafik metodlar, kreativ topshiriqlar, mantiqiy fikrlashga undovchi vazifalar, qo‘l motorikasini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, eng asosiy sifatli va to‘g‘ri yozishga o‘rgatuvchi usullar tavsiya qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Boshlang‘ich ta’lim, husnixat, yozuv, o‘qish, fanlararo integratsiya, AKT, kreativ pedagogika, kreativ topshiriqlar, ta’limning hayot bilan bog‘liqligi, ijodkorlik, mehnat samaradorligi*

## СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПИСЬМЕННОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

**Шодиева Мухлиса**
Студентка 3-го курса направления «Начальное образование»Факультет педагогики и инженерии, Каршинский международный университет
Электронная почта**:** muhlisashodiyeva220@gmail.com
Телефон: +998 91 452 54 72

***Аннотация:*** *В этой статье рассматриваются современные решения в развитии письменной грамотности у младших школьников. Освещаются такие решения вопроса, как интересная и эффективная организация периода обучения письму, преимущества*

*междисциплинарной интеграции с опорой на научные и теоретические знания. Особое внимание уделяется проблемам, с которыми сталкивается обучение письму, и их решениям. Показаны новые способы интересной организации процесса урока с эффективным использованием современных средств ИКТ. Молодые характеристики детей учитывают молодые характеристики детей, основываясь на их интересах и желаниях, основанных на их интересах, творческих заданиях и творческих задачах, обучении задачах, производителях ручной мотивации и методах, которые развиваются в руках, рекомендуются для качества и правильных методов.*

***Ключевые слова:*** *Начальное образование, письмо, чтение, междисциплинарная интеграция, ИКТ, творческая педагогика, творческие родственники, творчество, творчество, эффективность.*

## MODERN SOLUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF WRITING LITERACY IN THE ELEMENTARY GRADES

**Muxlisa Shodiyeva**
3rd-year student, Primary Education program
Faculty of Pedagogy and Engineering, Karshi International University
Email: muhlisashodiyeva220@gmail.com Phone: +998 91 452 54 72

***Annotation:*** *This article discusses modern classes in the development of recording literacy of primary school.The benefits of intercessional integration based on the solutions, scientific and theoretical knowledge, such as interesting and effective organization of the record organization of the record organized. The problems and their solutions were discussed in the teaching teaching. Effective use of modern ICT tools, new methods of interesting organization of the learning process. Given the young characteristics of children, based on their interests, creative tasks, creative assignments, encouraging tasks, hand motivation workouts, and the most importantly teaching methods to write in quality and proper writingmade.*

***Keywords:*** *Primary education, writing, reading, interdisciplinary integration, ICT, creative pedagogy, creative assignments, and education related to life dependence, creativity, productivity.*

Yozuv murakkab psixologik va fiziologik jarayon turi hisoblanadi. Sababi yozishni o'rganish uchun bola ham jismonan ham ruhan tayyor bo'lishi, bu davr qiyinchiliklariga ko'nikishi va aqliy mehnat faoliyati
ilan shug'ullanishga tayyor bo'lishi lozim. Yozuv o'rganish uchun bolalarga eng qulay davr bu 6-7 yosh hisoblanadi, chunki bu yoshga kelib bolalarda atrof-muhitga moslashuv va bir qancha ko'nikmalar shakllangan bo'ladi. Chuqur tahlil va o'rganishlardan so'ng bu yosh eng ma'qul deb topilib, maktab yoshi deb tayinlandi. Chunki bu yoshda ko'rish, eshitish, gapirish kabi fiziologik ko'nikmalar, diqqat, xotira, nutq, tafakkur kabi psixologik xususiyatlari yaxshi shakllangan bo'ladi. Yozuvga o'rgatish o'rgatuvchidan ham o'rganuvchidan ham maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Hozirgi kunga kelib yozuv, uning ahamiyati, husnixatning chiroyli yoki xunukligi haqida turli tomonlar fikri muhokamaga sabab bo'lmoqda. Chiroyli yozish muhim, bu savod chiqarishni osonlashtiradi va axborotlar to'g'ri sintezlanadi, bola yozganini ko'radi , ko'rganini anglaydi desa, boshqa tomon yozuv u darajada muhim emas, muhimi fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlansa, mantiqiy fikrlay olsa bo'ldi deyishadi. Lekin zamonaviy pedagog sifatida bu masalaga diqqat bilan yondashib, kreativ yechim topgan ma'qul. Aynan ko'tarilgan masalaga ham.

Globallashgan zamonda yashar ekanmiz, buning ijobiy tomonini ma'qullaganimizdek salbiy jihatlariga ham ko'nishga majburmiz. Tarixiy jarayonlarga nazar solsak yozuv, yozuvga o'rgatish ancha mushkul jarayon bo'lsada, axborot

almashinuvi kam bo‘lganligi sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sabr-toqat yetarli ekanligiga, uzoq davom etgan yozuv o‘rganish jarayonini boshdan o‘tkarganliklariga guvoh bo‘lamiz. Bilaks hozirgi kunda bilim va tajribalar ommalashgani sayin, yozuvga o‘rgatish jarayoni birmuncha yengillatilgani, yangidan-yangi metodlar tavsiya qilingani bilan bu jarayon haliyam oson emas. Lekin hozirgi rivojlangan davlatlarning ta’limdagi tajribalariga e’tibor bersak, ular yozuvni ham interfaol metodlar orqali, rolli o‘yinlar va rang-barang vositalar orqali o‘rgatishayotganinga guvoh bo‘lamiz. Ayni damda AKT vositalari kirib bormagan xonadon bo‘lmasa kerak, buning birqancha salbiy va ijobiy tomonlari bor, ayniqsa savod o‘rganish, yozuv jarayoniga ham. Chunki zamonaviy telefon, planshet, katta ekran televizorlar, noutbook, kompyuter, gadjetlardagi turli-tuman o‘yinlar, videolar, qisqa videoroliklar yosh bolalarni ham tez axborot olishga o‘rgatib qo‘ymoqda, holbuki ta’lim-tarbiya qisqa muddatli jarayon emas. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozuv savodxonligini oshirishda ham zamonaviy yechimlar muhim. Maqsadga muvofiq holda pedagoglar bir xillikdan qochib, o‘z sohalari bo‘yicha tinmay izlanishlari, yangi bilimlarni egallashlari lozim, kommunikativ va kognitiv qobiliyatlarini ishga solib yozuvga o‘rgatish davomida ijodiy yondashishlari kerak. Eng avvalo o‘zlari namuna bo‘lgan holda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilishlari zarur. Chiroyli va to‘g‘ri yozish nima uchun muhimligini bolalarga mavzuga mos ertak va spektakllar orqali tushuntirish mumkin. Pedagog olimlarning fikriga ko‘ra chiroyli yozish juda muhim sanaladi, sababi bu bolalarning kichik yoshlaridan o‘zlariga bo‘lgan ishonchni orttiradi, e’tibor va diqqatlarini rivojlantiradi, yozuv o‘rganish davrida bolalar kattalarning va ustozining diqqat e’tiborida bo‘lishadi, chiroyli yozgan bola olqish va maqtov eshitishi tabiiy holat, shuning uchun unda boshqalarga nisbatan o‘ziga ishonch paydo bo‘ladi. Kichik yoshidan obro‘ orttirishning bir usuli desa ham bo‘ladi.

Bunga teskari o‘laroq sinfda bir xil yoshli bolalar qabul qilinsada, yozishga qiynaladigan, bu jarayonda muammo va to‘siqlarga uchraydigan bolalar ham bo‘ladi. Aksar hollarda ularga to‘g‘ri yoz, chiroyli yoz degan tanbehning berilishi sababli tengdoshlari orasida izza bo‘lishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni va yozuv o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Shu kabi muammolarga ijobiy yechim topib hamma o‘quvchilarni bir xilda qamrab olish pedagoglarning mahoratiga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinflarda yozish va o‘qish parallel tarzda olib boriladi, chunki o‘qish uchun avval alifbe harflari o‘rganiladi. Alifbe harflarini o‘quvchilarga harflar va tovushlar ko‘rinishida o‘tib, harf va tovush tushunchasi tushuntiriladi. Ham ko‘rib, ham eshitib, ham talaffuz qilib, ham yozib, chuqur tahlil qiladilar. Shularning natijasi o‘laroq o‘qish va yozishni bir vaqtda o‘rganadilar.

Harf o‘rgatish analiz-sintez metodiga asoslanib o‘tiladi, shu metodga muvofiq avval unli harflar, keyin undosh harflar o‘rgatiladi, lekin bolalarning yosh xususiyatlarni hisobga olib yondoshsak ularga ilmiy tildagi qoidalar tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Fikrimcha harflarni bo‘g‘in hosil qilish o‘rni va sodda so‘zlarni hosil qilish jihatiga qarab o‘rgatgan ma’qul. Harflarni unli va undosh harflarga ajratib yodlatish yo‘li bilan o‘rgatsak, bu ancha samarasiz bo‘lishi mumkin, negaki unda harflar o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lmaydi. Masalan: a, e, i, o, u, o‘ unli harflarini olaylik. Ularni ajratib olib o‘rgatsak va yodlatsak, biz shunchaki yodlata olamiz, xolos. Bo‘g‘in

va so'z hosil qildira olmaymiz, bola bilgan ma'lumotga integratsiya qila olmaymiz. Bu harflarni o'zi bilan shunchaki taqlid tovushlarni chiqarish mumkin, bu esa avval harflarni alohida o'rganish, keyin so'z hosil qilishni o'rganish degani va bir qancha noqulaylik tug'diradi, xususan ortiqcha va ko'p vaqtning sarflanishi, lekin harflarni bo'g'in va so'z hosil qilish o'rniga ko'ra o'rgatsak ancha tushunarli va samarali bo'ladi va savod o'rgatish davri ham uzoq cho'zilmaydi. O'quvchilar harf o'rganish bilan birga ulardan foydalanib bo'g'in hosil qilishni va so'z tuzishni o'rganishadi. Aytaylik 5-6 ta harf o'rganilgandan keyin esa sodda gaplarni ham hosil qilish mumkin. Masalan: a, n,i,o,m,l harflarini olaylik. Unli va undosh harflarni aralash o'tib keldik va biz 5-6 ta harfdan keyin bo'g'inlar, so'zlar va gap ham tuzdira olamiz.

Bo'g'inlar: na, ni, no, la, li, lo, ma, mi, mo,

So'zlar: ona, ana, non, olma, lola, in, ilm, Ali, Omina, Naima, Olim

Gaplar: Imona ana olma.

Naima nonni ol.

Shu tariqa o'rgatish maqsadga muvofiq. Biz doim bolalar diqqatini jamlashga harakat qilamiz, lekin ba'zan diqqatni tarqatib turib mashq qildirish ham kerak, yozish va o'qishni o'rgatishda zamonaviy AKTdan foydalanib, "Asal yeymiz" deb nomlangan interfaol rolli o'yinni o'ynash ham mumkin. Bunda har bir o'quvchi 3 ta harfdan iborat bir bo'g'inli so'zni o'qishi va ma'nosi haqida fikr yuritishi kerak, ularning diqqatini chalg'ituvchi esa manzarali rasm va harflarning bir joyda bo'lmasligi. O'quvchilar navbat-navbat chiqib rasmdagi so'zni o'qib beradilar va shu so'zni yozadilar. Vazifani uddalagan o'quvchi esa rag'batlantiruvchi asalarimizni asalidan yeydi tariqasida mukofotlanadi. Bu jarayon ham amaliy ham nazariy bilim olishni ta'minlaydi, harakatli va maqsadli tarzda olib borilgani eslab qolishni yanada oshiradi, boshlang'ich sinfga yangi kelgan o'quvchilar uchun ta'lim jarayoniga qiziqish uyg'otadi. " Asal yeymiz" metodi bir bo'g'inli so'zlarni o'rgatish uchun mo'ljallangan.




1-rasm. " Asal yeymiz" metodi.







Yozuv ko'nikmasini shakllantirish uchun biz doim husnixat va yo'lli daftardan foydanib kelganmiz. Zamonaviy pedagog sifatida an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolmay, yangi usullardan ham foydalanishni tavsiya qilaman. O'quvchilarni chiroyli va to'g'ri yozishlari uchun faqat husnixat daftariga o'rgatilib, katak daftarga esa asosan raqam yozdirish va misol yechtirish uchun foydalaniladi. Shu shakldа qolipga solingan bola husnixat va yozuv daftariga chiroyli yozsada, matematika darsida, ayniqsa masala yozguncha yozuv elementlarini qo'pol darajada buzishi mumkin. Odatda biz harflarni faqat yozma shakldagi ko'rinishini yozdiramiz, bosma ko'rinishini esa yo'q. Shuning uchun aynan bir xil qolipga solib qo'ymasdan, ijodkorlik bilan yondashib, kreativ vazifalar berib, yo'qni bor qilib emas, boridan unumli foydalansak, kelajagimiz egalari bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kelajakka asqotadigan ko'nikmalarni shakllantirgan bo'lamiz. Aynan davom etib keladigan ikki-uchta usulni qo'llab, umumjamoani qamrab olishga qiynalish mumkin, chunki hozirgi yosh bolalar ancha giperaktiv va tezkor, ularni qiziqarli va rang-barang vazifalar bilan o'qish va yozishga jalb qilish muhim. Tavsiya qiladigan metodim shuki: husnixat o'rgatish davrida ham yozuv daftariga ham katakli daftarga yozdirib o'rgatish. Yozuv daftarga harflarni yozma shaklini yozdirib, harfning to'la yozuvdagi elementlariga e'tibor berilsa va ayni shu jarayonda katakli daftarga shu harfning bosma shaklini yozdirsa, shu yozdirish bilan birga harfni tayyor rasmli ko'rinishini daftar varag'i chetiga yopishtirib, bir varaqni to'rt qismga bo'lib shu harf bilan boshlanadigan to'rtta predmet rasmini chizish va bo'yash topshirilsa, bolalar uchun kreativ topshiriq bo'ladi. Fanlarni o'zaro integratsiya qilish olinayotgan bilimlarni umumlashtirib, har xil vaziyatda qo'llash uchun kerakli xulosa chiqarilishiga olib keladi.

Savol tug'ilishi mumkin, bosma harfni yozdirish bolaga nima beradi, undan baribir yozuvda foydalanmaydi-ku, bu boladan ko'p energiya sarflashni talab qilmaydimi deb? Yo'q, ularda ham yozish ham o'qish ko'nikmasini

tezroq avtomatlashgan bosqichga chiqishiga yordamlashadi. Kuzatishlarimiz natijasida shuni bildikki aksar oʻquvchilar 1-sinfning 3-4 choragida ham boʻgʻinlab soʻzni qoʻshib oʻqishga qiynalib, elementi oʻxshash harflarni adashtirib talaffuz qilib, ba’zida harf qaysi harf ekanligini eslolmay qiynalishadi ( masalan: b va d, g va gʻ, m va n, k va h kabi harflarda). Ammo maktabgacha ta’lim muassasasi tayyorlov guruhiga borgan bolada bosma harf koʻnikmasi  yaxshi shakllangan boʻladi (shu sababli aytilayotgan fikr ularga tegishli emas). Bu esa harflarni yaxshi oʻzlashtirmaganliklarini anglatadi. Biz taklif qilayotgan usulda bola harfni har ikki tomondan ham oʻrganib, uning ustida vazifa bajarib bilimini mustahkamlaydi. Husnixat daftarida chiroyli yozishni oʻrgansa, katakli daftarda bosma harfni yozib harfni bu koʻrinishini ham esda saqlab qoladi va kitobda oʻqish jarayonida tez esga oladi.

Shu harf bilan boshlanadigan predmet rasmini chizish esa atrof-muhitni tahlil qilishga undaydi, bola ongida savollar paydo boʻla boshlaydi, shu harfdan boshlanadigan nimalar bor? Rasmini chizguncha esa u qanaqa, shakli qanday, koʻrinishi qanday? Boʻyaguncha esa rangi qanaqa, qanday turlari bor, kabi. Xuddi shu jarayonda unda tahlil qilish koʻnikmasi shakllanadi, olayotgan bilimini oʻz tasavvurlari bilan uygʻunlashtiradi. Bu usulni biz “Husnixat+Alifbe” metodi deb nomladik.

Yozuvga oʻrgatish davrida harflarni oʻrgatib boʻlganimizdan keyin, an’anaviy dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash uchun odatda diktant olinadi va oʻquvchilarga kichik matnlar koʻchirtiriladi. Bu usul ham samarali hisoblanadi, lekin mohir ustoz bu davrni ham shunchaki oʻtkazib yubormaydi. Ayni shu davrda ham turli-tuman kreativ topshiriqlar bajartirib oʻquvchilarning oʻqish va yozishga boʻlgan ishtiyoqlarini oshirish mumkin. Buning uchun boshlangʻich taʻlim oʻqituvchilaridan oʻz kasbiga mehr va samimiy, vijdonli boʻlish talab etiladi. Yozuv nima ekanini yaxshi bilganimiz uchun unga alohida toʻxtalmaymiz, uning bir qancha turlari borligi ham barchamizga ma’lum. Biz aynan yozuvning eng qadimgi turi piktografik yozuv turiga toʻxtalamiz. Piktografik yozuv eng qadimgi yozuv turi boʻlib, unda insonlar fikrlarini rasmlar orqali ma’lum qilishgan. Maqsadi esa hammaga tushunarli boʻlishida belgilangan. Piktografik yozuvlarning ahamiyati shu darajada muhimki u bizga tarix qandayligi haqida xabar beradi. Qadimgi davr odamlari bir-birlari bilan ma’lumot almashish uchun toshlarga, gʻorlarga, daraxtlarga rasmlar chizish orqali muloqot qilishgan va ma’lumot almashishgan, toʻgʻri u davrdagi piktografik yozuvlar juda chuqur ma’no anglatmagandir, lekin hamma uchun tushunarli boʻlgan. Sizningcha bu yozuv turi bugun eskirdimi? Yoʻq! bugun ham mavjud, dunyoning istalgan davlatida hali ham bu yozuv oʻz oʻrnida eng muhim hisoblanadi. Masalan yoʻl belgilarini olaylik: piyodalar oʻtish joyidagi rasm, piyoda kesib oʻtmasligi shart boʻlgan joylarga qoʻyilgan rasmli belgi, aholi zich joylarga qoʻyiladigan rasmli belgi, toʻxtash belgisi , yuqori tezlikni taqiqlovchi belgi, yaqin hududda maktab va shunga oʻxshash ommaviy binolar (bozor, market, mehmonxona, stadion, oshxona, basseyn, xojatxona) borligini bildiruvchi rasmli belgilar. Siz qayerda boʻlmang, oʻsha hudud tilini bilmasangiz ham oʻzingizga kerakli boʻlgan joyni shu belgilar orqali topib olishingiz mumkin. Biz tavsiya qiladigan usul aynan piktografik yozuvga qaytish emas, uning ayrim koʻrinishlarini hozirgi yozuv turi bilan uygʻunlashtirib, yozuvga oʻrgatishda uchraydigan muammolarga zamonaviy kreativ yechim sifatida taklif qilish. Buning

uchun harflarni o'rganib bo'lgach, yoki o'rganish davomida faqat diktant va matn ko'chirish bila cheklanib qolmay turkum lug'at so'zlar yozdirish mumkin. Aytaylik o'quvchilarga yangi mavzu o'tilganda, aynan bir turkum so'zlar olinadi. Masalan gullar, daraxtlar, buyumlar, mevalar, oziq-ovqat mahsulotlari, predmetlar, ranglar, shakllar kabi. Savol tug'ilishi mumkin piktografik yozuvni qanday qo'llaymiz deb, shu o'rinda o'qituvchining mehnatsevarligi muhim ahamiyatga ega. Turkum lug'at so'zni yozuv daftariga har bir qator boshiga bitta so'z yoziladi va undan pastki qator bo'sh qoldirib har keyingi qator boshidan yana bir yangi so'z yoziladi va shu tartibda davom etiladi.




2.1-rasm. “Husnixat+Alifbe” metodi.

Yozuv uchun mo'ljallangan daftarni har bir joyidan unumli foydalanamiz. Daftar varog'i chetidagi hoshiya chizig'idan so'ng bo'sh qoladigan joyga aynan yozgan so'zimizni anglatuvchi rasmli belgi chizamiz va so'zni chiroyli yozib rasmni bo'yatamiz. Aynan shu so'z yoki shu predmetni rasmli ko'rinishini birga tasavvur qildiramiz, ranglarni esa bolalarning o'z tasavvurlari va xohishlariga qo'yib beramiz. Bir so'zni yozib tugatib, orada bo'yashni bajarishadi. Quyidagicha:




2.2-rasm. “Husnixat+Alifbe” metodi

Bu esa bolaga nima beradi:
- rang bilan ishlash boladagi toliqishni oldini oladi;
- zerikishiga yo‘l qo‘ymaydi;
- tasavvuri boyiydi, qiziqishi ortadi;
- qo‘l motorikasi rivojlanadi;
- diqqati jamlanadi;
- estetik zavq beradi;
- ijodkorlik qobiliyati shakllanadi;
- yozuv jarayonini osonlashtiradi;
- kuzatuvchanlik va tahlil qilishga o‘rgatadi;
- mehnat samaradorligi ortadi. Olayotgan bilimlarini hayot bilan bog’laydi.

Hozirgi ta’lim tizimi ham aynan fanlarni alohida tushuncha tarzida emas umumiy xulosa chiqarishga olib keluvchi integratsion shaklda o‘tilishini bosh maqsadga aylantirgan. Ushbu “Turkum lug‘at so‘zlar” metodida istalgan turkumdagi so‘zlarni yozdirib, piktografik ko‘rinishini ya’ni shu so‘zni anglatuvchi rasmini hoshiyadan keyin chizdirish mumkin. Hattoki yo‘l belgilarigacha ham. Erishiladigan natija esa bolalar yo‘lda, ko‘chada shu va shunga o‘xshash belgilarni ko‘rishganda uni anglashga harakat qiladilar, dunyoqarashlari shakllanadi, endi bu narsa ularga begona emas, darsliklarda keladigan rebuslarni oson yechadilar va albatta buni klaster shaklda bog‘lash ham muhim. Bu esa yozuv savodxonligini o‘rganishni “Tarbiya” fani bilan integratsiyasida namoyon bo‘ladi. Ayni shu vazifani davomi sifatida uyga vazifa qilib yozilgan turkum lug‘at so‘zlardan gap yoki kichik matn tuzib kelishni berish ham mumkin.

Yozuvga o‘rgatish ta’kidlaganimizdek murakkab jarayon, o‘yin faoliyatidan dars faoliyatiga kirib kelgan bolaga buni o‘rgatish uchun imkon qadar ijodkorona yondashib, ilmiy asosga ega usullardan foydalanib, bu muammoga kreativ yechimlar qilish lozim.

Yozuvga o‘rgatishni faqat yozdirib o‘rgatishdan qochgan holda turli usullar bilan yondashishni taklif qilganimizdek, yana bir matematika fani bilan integratsiya qilingan usulni qo‘llashni tavsiya etamiz. Bu usul yana bir muhim ko‘nikmani shakllantiradi. O‘quvchilar tayyor so‘zni o‘qimay endi o‘zlari berilgan jumboqni yechib, so‘z hosil qiladilar, buning uchun sanashni bilishlari muhim. Ana shu jarayonda yozuv va matematika fanlari integratsiyasi namoyon bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar berilgan harflarni yuqorisida ko‘rsatilgan raqamlardan foydalanib, to‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘shib yozishlari va hosil bo‘lgan so‘zni o‘qishlari shart. O‘qituvchi esa ularni nazorat qilib vazifa to‘g‘ri bajarilganini tekshiradi. Bu metodda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari harflarni bir-biriga to‘g‘ri qo‘shishni ham o‘rganishadi. Bilamizki, bolalar dunyoni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari kuchli va buni savollar berish orqali amalga oshiradilar. Aynan ushbu metod ham ularni o ‘zlarini o ‘zlariga savol berishga undaydi, qanaqa so‘z chiqar ekan deb, va bu muammoli vaziyatga faqat o‘zlarining vazifani to‘g‘ri bajarishlari yechim bo‘lishini anglashlariga sabab bo‘ladi. Albatta, har bir bola o‘z savoliga javob olishni xohlaydi va bu usul ham o‘z samarasini beradi. Sinfda a’lo darajada o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun ham mos. Xuddi shu usulni o‘quvchilarning ma’naviy – axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yo‘lida ham

foydalanish mumkin. Xat-savodi chiqqan o‘quvchilarga maqollarni ham shu ko‘rinishda berish va chiqqan gap shaklidagi maqolni to‘g‘ri hosil qilishi va o‘qib izohlab berishini talab qilish ham mumkin. Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng yetuk, g‘oyat mukammal va pand -nasihatga yo‘g‘rilgan tarbiyaviy shaklidir. Shuning uchun ulardan bolalar tarbiyasida foydalanish juda o‘rinli va samarali. Maqollarni o‘rgatish alohida ajratmasdan vazifalar bilan birga, ko‘p va chuqur o‘rgatilishi nur ustiga nur.




**2.3,4,5-rasm. “Husnixat+Alifbe” metodi.**

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, yozuv jarayonini tashkil qilishda uni atrof-muhit va boshqa fanlar bilan integratsiya qilib oʻrgatish, yozuv jarayonida uchraydigan muammolarga zamonaviy va kreativ yechimlar qilish, oʻquvchilarda kelajak uchun muhim koʻnikmalarni shakllantirish zarur. Buning uchun esa bolalar adabiyotining yetuk vakili Tursunboy Adashboyev aytganidek: " Bolalar bilan ishlaydigan, ularga ta'lim - tarbiya beradigan odam - bolafe'l, bolaqalb, bolatabiat boʻlishi kerak". Bolalar bilan ishlash uchun vijdonan yondashish va ularga ertangi kun deb qarab sabr-toqat bilan ta'lim berish lozim. Xuddi shu jarayonning boshlanishi boshlangʻich sinf oʻquvchilariga yozuv koʻnikmasini shakllantirish davrini ham oʻzi qisqa boʻlsada puxta reja asosida samarali tashkil qilish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" Toshkent". O'qituvchi" 1970.
2. G'ulomov M. "Husnixat metodikasi" Toshkent "O'qituvchi". 1976.
3. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish". Toshkent. 2002.
4. Doniyorov M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida chiroyli yozuvga o'rgatish. 2020

UO‘K:894.375:808(045)

# SHE’RIYATNING SUBYEKTIVLIK ASOSIDAGI SOTSIOANTROPOLOGIK DOMINANTLIGI BADIYATI

**Abdullayeva Umida Abdukadirovna**
Qarshi xalqaro universiteti“Filologiya“ kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
QarDU doktoranti
abdullayevaumida792@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6554-8712

**Annotatsiya:** *Hozirgi adabiy jarayon, ijtimoiy voqelik, tafakkurning o‘zgarib borayotganligi, qolaversa, shoirlarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan badiiy-estetik izlanishlar mohiyati xilma xil ifoda shakllarini yuzaga chiqarmoqda va bu shakllarni ilmiy asosda o‘rganish talab etiladi. O‘zbek adabiyotshunosligida subyekt hissiyoti ifodasiga ko‘ra tasnif qilinadigan ijroviy lirika nazariyasi masalalari tizimli va har tomonlama o‘rganilmagan. Mazkur maqolada subyektning ikkilanishi natijasida kechinma ifodalanadigan ijroviy lirikada sotsioantropologiyaning dominantlik xususiyati ochib berilgan bo‘lib, nazariy tuhunchalar dalili uchun Cho‘lpon, Usmon Azim, Mirzo Kenjabek, Eshqobil Shukur she’rlari tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *subyektivlik, ijroviy lirika, sotsioantropologiya, dominantlik, obraz, xarakter.*

УДК:894.375:808(045)

# ПОЭТИКА СОЦИОАНТРОПОЛОГИЧЕСКОГО ДОМИНИРОВАНИЯ НА ОСНОВЕ СУБЪЕКТИВНОСТИ В ПОЭЗИИ

**Абдуллаева Умида Абдукадировна**
PhD, преподаватель кафедры филологии Каршинского международного университета,
докторант Каршинского государственного университета
abdullayevaumida792@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6554-8712

**Аннотация:** *Современный литературный процесс, меняющаяся социальная реальность, трансформация мышления, а также художественно-эстетические поиски наших поэтов порождают разнообразные формы выражения, которые требуют научного осмысления. В узбекском литературоведении вопросы теории ролевой (перформативной) лирики, классифицируемой по степени выраженности субъективных переживаний, до сих пор не были всесторонне и системно изучены. В данной статье рассматривается доминирование социоантропологических характеристик в перформативной лирике, в которой переживания выражаются через внутреннее раздвоение субъекта. В качестве материала для теоретического анализа рассматриваются стихи Чулпана, Усмана Азима, Мирзо Кенжабека и Эшкабила Шукура.*

***Ключевые слова:*** *субъективность, исполнительская лирика, социоантропология, доминантность, образ, характер.*

UDC:894.375:808(045)

# THE AESTHETICS OF SOCIO-ANTHROPOLOGICAL DOMINANCE BASED ON SUBJECTIVITY IN POETRY

**Abdullayeva Umida Abdukadirovna**
PhD, Lecturer at the Department of Philology,
Qarshi International University,
Doctoral student at Karshi State University
abdullayevaumida792@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6554-8712

***Abstract:*** *The current literary process, the changing dynamics of social reality and thinking, as well as the artistic-aesthetic explorations undertaken by our poets, are generating diverse forms of expression. These forms require scientific analysis. In Uzbek literary studies, the theory of*

*performative (role-based) lyric poetry, classified according to the expression of the subject's emotions, has not been systematically or comprehensively studied. This article explores the dominance of socio-anthropological features in performative lyrics, where emotions are expressed as a result of the subject's internal duality. To substantiate the theoretical concepts, the works of Cho'lpon, Usmon Azim, Mirzo Kenjabek, and Eshkabil Shukur are analyzed.*

***Key words**: subjectivity, performance lyrics, socioanthropology, dominance, image, character.*

**Kirish.**

O'zbek adabiyoti, xususan, lirikada badiiylik, peyzaj, ruhiyat, badiiy tasvir usullari va yo'llari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ammo, sotsioantropologiyaning tasviri muammosi yuzasidan yirik planda deyarli tadqiqotlar olib borilmagan. She'rda subyekt hissiyoti ifodalanishini hisobga olib, she'riyatda sotsioantropologiyani o'rganish masalasi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ijroviy lirika xarakter xususiyatiga ko'ra, adabiy asar mazmunini birinchi shaxs, hikoyachi, bosh qahramon tomonidan aytiladigan lirik hikoya. Ijroviy lirikada hikoyaning mavzusi ko'pincha xayoliy belgi bo'lib, uning xususiyatlari va fazilatlari tasvirlangan davrga, vaqtning janr an'analariga mos keladi. Muallif o'zida boshqa personajlarning rolini sinab ko'radi, boshqalarning tasvirlari va rollariga sho'ng'iydi. Ijroviy lirikada muallif va ijroviy qahramonning qalbi "ochiladi" har bir insonga xos bo'lgan va o'z navbatida bir-biridan tubdan farq qiladigan his-tuyg'ular, fikrlar, hissiyot va kechinmalar tasvirlanadi.

Maqolada lirikaning subyektivligi nuqtayi nazaridan ajratilgan ijroviy lirika turida sotsioantropologiyaning dominantlik masalasi ilk bor tadqiq qilinmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Antropologiya atamasini birinchi bo'lib Aristotel qo'llagan bo'lib, ushbu fan insonni o'rganish yoki inson to'g'risidagi fan bo'lib hisoblanadi. Antropologiya terminiga olimlar turlicha ta'rif berishgan. Oksford lug'atlarida: "Insoniyat jamiyati va uning urf-odatlari, kelib chiqishini tadqiq qilish; insoniyat evolyutsiyasi va strukturasini tadqiq qilish" deb izohlanadi.

Antropologiyaning bir turi bo'lgan sotsioantropologiya ijtimoiy tashkilotlar va ijtimoiy institutlarning paydo bo'lishi va insonning ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Antropolog olim Fert: "Ijtimoiy antropologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri ijtimoiy jarayonlarni taqqoslash bo'lishi lozim" [2;b 5] deb ta'kidlaydi. U antropologiyaning muhim bir yo'nalishi hisoblanadi va boshqa yo'nalishlardan farqli ravishda insoniyat hayotini ijtimoiy jihatdan tahlil etib berishi bilan farqlanadi.

S.Dyubening ta'kidlashicha: "Ijtimoiy antropologiya – madaniy antropologiyaning bir qismi bo'lib, birinchi navbatda madaniyatning moddiy ko'rinishlarini emas, ijtimoiy struktura va diniy e'tiqod bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etishga e'tibor qaratadi" [2;5-b]. Tabiiy antropologiya va madaniy antropologiya bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Tabiiy antropologiyadagi ba'zi faktlar ijtimoiy antropologiyadagi jumboqlarni yechish uchun yordam beradi. Bundan tashqari, arxeologiyadagi topilmalar esa, tabiiy antropologiyaning ba'zi bo'limlaridagi tadqiqotlarda foydali bo'lishi mumkin. Ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, ijtimoiy, ya'ni sotsioantropologiya insonning ijtimoiy hayotdagi o'rni, shaxs sifatidagi xususiyatlarini o'rganadi. Ijroviy lirika

qahramonlarining ijtimoiy jihatdan turli qatlam vakillari orasidan ekanligi ijodkorning qobiliyati, mahorati va dunyoqarashi darajasini belgilaydi.

Ijroviy lirikani sotsioantropologik jihatdan tahlil etishda she'r mazmunidan kelib chiqib, tasvirlangan obrazlar (insonlar)ning xulq-atvori va ijtimoiy hodisada ishtirokini bir-biri bilan taqqoslash muhim mezon hisoblanadi. Bu jarayonda etnografiya (insoniyat irqini tahlil etib, ularga oid ijtimoiy-madaniy farqlanishni aniqlaydi) hamda oila antropologiyasini, shuningdek, ijroviy qahramonlarning, asosan, ijtimoiy hayotda tanilgan mashhur shaxslardan tanlanishi bu turkumdagi she'rlarda sotsioantropologiya dominantligini koʻrsatadi.

Dominant ta'limoti 1923-yilda ichki fiziolog A.A.Uxtomskiy (1875-1942) tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, **(**dominantis) ustunlik degan ma'noni bildiradi. Hayajonning ustuvor, dominant turgʻunligini ifodalab, kuchli xarakter, oʻziga ishonch, qat'iyatlilik, mustaqillik kabi xususiyatlarni koʻrsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mavzuni yoritish jrayonida ijroviy lirika namunalarida sotsioantropologik dominantlik subyektning jamiyatdagi kurashuvchan va taniqli shaxslar, badiiy asarlardagi tipik obrazlar orasidan tanlangani, shuningdek, unda gender munosabatlar ifodalangani biografik, analitik, tarixiy-tipologik, psixoanalitik usullardan foydalangan holda yoritib beriladi.

**Natijalar va muhokama**

She'riyatda dominantlik asosiy belgi, hukmron gʻoya hisoblanadi. Ijroviy lirikada sotsioantropologik dominantlik qahramonlarning ijtimoiy guruhlardagi ishtiroki, ijtimoiy holati, milliy va madaniy qadriyatlarida, milliy va mahalliy muammolarida, siyosiy faoliyatida, intellektual salohiyatida koʻrinadi. Shunga koʻra, ijroviy lirikada ijroviy qahramon, asosan, jamiyatning kurashuvchan qatlami vakillaridan tanlanadi. Nozim Hikmat – "Nozimning sadosi", Siyovush – "Siyovush faryodi", Muktibodh Madhav –"Muktibodh duosi" (Rauf Parfi), Zardusht – "Zardusht soʻzi", Furqat – "Furqat nidosi", (Abdulla Oripov), Usmon Nosir – "Usmon Nosirning soʻnggi tushi", Brut –"Brut", Goʻroʻgʻli–"Goʻroʻgʻli" (Usmon Azim) kabi.

Adabiyotshunos olimlar M.M. Baxtin, V.V. Vinogradova, O.B. Kormanlar tomonidan antropologik yoʻnalish nazariyasi mukammal ishlab chiqilgan. Savelyevaning ta'kidlashicha, adabiy (badiiy) antropologiya quyidagi komponentlar bilan belgilanadi: "obraz – xarakter", "muallif – shaxs" turli koʻrinishdagi "oʻzi yaratgan badiiy dunyoda mavjudlik" va "oʻquvchi" [2;15-b]. Badiiy asar mazmunini tahlil qilish asosida shaxsiy qadriyat, irodaviy munosabatlarga ahamiyat qaratiladi. Fan uchun an'anaviy boʻlgan bu tushuncha qahramon va muallifning poetikasini oʻrganishni hamda oʻquvchining she'rni tushunishi va tahlil qila olishini anglatadi. Adabiyotni, xususan, lirikani bunday tahlil qilish muallif tomonidan obyektivlashtirilgan real, aniq va tarixiy voqelikni ochib berishga xizmat qiladi. Ijroviy lirikada qahramonlarning tarixiy shaxslardan tanlanishi buning yaqqol dalilidir.

Ijroviy lirikada sotsioantropologik tadqiqot oʻtkazish jarayonida siyosiy ta'limotga ham e'tibor qaratdik. Sababi, bizningcha, bunday she'rlarning yaratilishi jamiyatning ijtimoiy holati bilan uzviy bogʻliq. Siyosiy ta'limotning vujudga kelishi uzoq tarixiy oʻtmishga ega boʻlib, u jamiyatning rivojlanishi bilan birga takomillashib,

tadqiqot doirasi kengayib boradi. Siyosiy nazariyaning rivojlanish g‘oyalari tarixi, g‘oyalarning o‘rin almashinuvi va g‘oyalar kurashi tarixini ko‘rsatadi. Har bir tarixiy davrning, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning tub tabiatini, asl maqsad-manfaatlarini, unda sodir bo‘layotgan turli yo‘nalishdagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy harakatlarni aynan va unga yaqin tarzda ifoda eta oladigan siyosiy g‘oyalarning mazmuni shakllanadi va amaliyotga tatbiq etiladi. Ko‘pincha biror obyektiv xususiyatli siyosiy g‘oyalar va uning zaminida yotgan ijtimoiy-siyosiy tuzumning o‘ziga xos va o‘ziga mos keladigan, uning mohiyatini anglatadigan siyosiy g‘oyalarga amal qilinishini kuzatamiz. Ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda, qadimgi Sharq va G‘arb mamlakatlarining jamiyat va inson, siyosat va davlat to‘g‘risidagi nazariy qarashlariga e’tibor qaratiladi. Sharqda davlat boshqaruvida boshqaruvchi va xalqning o‘zaro munosabati itoatkorlik shaklida bo‘lib, jamiyatning a’zolari hukmdorlar qaramog‘ida bo‘lib, ularga bevosita bo‘ysunishga majbur.

Konfutsiy insonlarni ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra 4 qatlamga ajratadi:
1) aslzodalar (har qanday bilimga tug‘ilishdan ega);
2) bilimlarga o‘qish-o‘rganish jarayonida ega bo‘lganlar;
3) bilimlarni qiyinchilik bilan o‘zlashtiruvchilar;
4) bilim olishga intilmaydiganlar [4;24-b].

Shu tariqa odamlar o‘rtasida tengsizlik mavjudligi va omi odamlar, quyi tabaqalar, kichik oliynasab aslzoda, kattalarga bo‘ysunishlari zarurligi belgilab beriladi.

Konfutsiy hokimiyatning adolat va mehr-shafqatga asoslanishi, fuqarolar esa isyonlardan o‘zlarini tiyishlarini uqtiradi: ”Davlat hokimiyati xalq ishonchisiz mavjud bo‘la olmaydi, ammo hukmdorlar hammaga o‘rnak bo‘lishlari lozim. Hukmdor xalqni o‘z farzandidek sevishi, fuqarolar esa hukmdorni o‘z otasidek hurmat qilib, e’zozlashi lozim. Odamlarning “najib” va past kishilarga bo‘linishini o‘zgartirib bo‘lmaydi” [4;24-b]. Ijroviy lirika namunalarida shoirlar qiyosiy-tipologik uslubga ko‘ra, Konfutsiy aytmoqchi, aslzodalar qatlamidan qahramon tanlaganligini ko‘ramiz. Xususan, temuriy shahzodalardan bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq she’r Abdulla Oripov ijodida ham, Usmon Azim ijodida ham borligi aniqlandi. Har ikkala shoirning ijroviy qahramoni bitta bo‘lsa-da, ijodiy niyatdan kelib chiqib, o‘zgacha mazmun kasb etadi.

| **№** | **Muallif** | **She’rning nomi** | **G‘oyaviy-badiiy mazmuni** | **She’r tuzilishi** |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Abdulla Oripov | Ulug‘bek faryodi | Padarkush farzanddan norizo ota dardi | 4 baytdan iborat, Masnaviy shaklida, qofiyalanishi: a-a, bb, d-d, ye-ye |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Usmon Azim | Mirzo Ulug'bekning o'kinchi | Ilmi qadrlanmagan olim dardi | 8 banddan iborat, erkin vaznda |

Amir Temur sulolasining so'nggi vakillaridan biri Zahiriddin Boburning tarixi va taqdiri barchaga ayon. Eduard Xolden ta'biri bilan aytganda, "Fe'li-sa'jiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevimli" bo'lgan shoh va shoir Boburga yoshligidan hukmdorlik qismati berildi. U "Boburnoma" asarining muqaddimasida (1494-yilda) "Tengri taoloning inoyati bilan ...o'n ikki yoshta podshoh bo'ldum" [5;5-b]– deb yozadi. Tabiatan shoir va nozikta'b ijodkor umrining so'ngiga qadar podshohlik qilib Hindistonda Boburiylar imperiyasini yaratdi. Hayoti davomida xiyonatlar, dard-u alamlar ko'rgan Bobur ijodida hasb-u holini bayon etdi. Qiynalgan paytlarida Allohdan madad olib, ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Mirzo Kenjabekning "Bobur so'zi" ijroviy lirikasi shu mavzuda. To'rtlik shaklida yozilgan mazkur she'r barmoq vaznida bo'lib, har bir misrasi 11 bo'g'indan tashkil topgan, a-a-b-a shaklida qofiyalangan.

Yo falak! G'aroyib bir ish qilmishsan,
Boshimga mangulik tashvish qilmishsan;
Ayt, mening o'zimni shoh etib nechun,
Nechun yuragimni darvesh qilmishsan?

Ijroviy qahramon o'z taqdirini bilgani holda, Yaratganga nido qiladi. Bu o'rinda shoir (M.Kenjabek) tajohuli orif san'ati orqali Bobur nutqida shoirlik qismatini ifoda etadi.

Ijroviy lirikada ifodalangan obraz va motivlar semantikasi – erk, ozodlikka intilish, Vatan va xalq tinchligi, ravnaqi uchun kurashish, sevgi dardi, hijronini yengib o'tishdan iborat. Har bir insonda kechadigan bunday holatlar tasviri she'riyat va sotsioantropologiya uyg'unligini isbotlaydi.

Xalqda ayol olam gultoji, mehvari deya ulug'lanadi. O'rganishlar natijasida ijroviy lirika namunalarida gender mavzusiga ham alohida ahamiyat qaratilganligining guvohi bo'ldik. Xalq ruhi timsoli sifatida ayol qiyofasi, ijtimoiy portreti ochib beriladi. Bunday tasvir jarayonida zamon va makon kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ot bog'ladim xariga,
Xaridan ham nariga.
Otam meni erga berdi
O'zidan ham qariga. (Xalq og'zaki ijodidan)

Otasining xohishi bilan turmushga uzatilgan qiz so'zida o'tmishda xotin-qizlar hech qanday haq-huquqqa ega bo'lmagani, taqdiri o'zgalar qo'lida bo'lgani aks etgan. Cho'lponning "Sharq qizi" she'rida ham davr ruhi o'z ifodasini topgan.

Faqat, men bir o'zim, Sharqning bir qizi,
Bahor kelganini ko'rmay qolamen;
Uzun qora qishning ketmasdan izi,
Uning "do'sti" kuzni kutib olamen [6;24-b].

1922- yilda yozilgan mazkur she'rda sharq xalqlarining bandi ekanligi o'sha davr xotin-qizlarining ahvol-ruhiyasi tasviri keltiriladi. Bahorga yetish – tiriklik belgisi, hayotning davomiyligiga umid uyg'otuvchi tasvir. Erksizlik, jaholat qurboni

bo'lgan sharq qizi bahor, yozni ko'rmay, qishdan kuzga chiqayotgan umidsiz tutqun. *"Menim uchun dunyo rohati – To'rt devor ichida ko'zlar o'ynatmoq / Menim uchun ulug' shodlik soati – Telba ko'kragimda "o'ylar" uyg'otmoq..."* O'z erki qo'lida emasligini bilib tursa-da, ozodlikka chiqishni niyat qilib kutayotgan qiz savoliga javob izlaydi:

*Aytalarkim, yozda har bir joni bor,*
*Erkin nafas olar, shodlanar, yayrar...*
*Aytmaylarkim, Sharqda bog'liq xotinlar*
*Ul yorug' dunyoga ne zamon kirar?*.. [6;25-b].

XX asrning 90-yillariga kelib, ayollar ijroviy qahramoni bo'lgan she'rlarda ijtimoiy voqelikdan kelib chiqib, erk, ozodlik motivlari o'rnida ayol dardi, ijtimoiy-maishiy muammolar tasvirlana boshlandi. Eshqobil Shukurning "Sog'in. Befarzand ayol" she'ri buning misolidir. Shakl jihatidan xalq qo'shiqlarini eslatadigan mazkur she'r barmoq vaznida yozilgan bo'lib, a-a-b-a, b-b-v-b... tarzida qofiyalangan. She'rning nomlanishidan g'oyaviy-badiiy mazmuni anglashiladi. O'zbek tilida "sog'in" so'zi "sut beradigan", "sog'iladigan" [8;562-b] degan ma'noni bildiradi.

*Ho'o'sh-ho'o'sh... Ho'o'sh...*
*Govmishim iysin, suting,*
*Bag'rimda bo'g'ma tutun,*
*Oq siynamning ostida*
*Qobirg'alarim o'tin.*

Farzandsizlik – ayol uchun buyuk dard, armon. Sigir sog'ish jarayonida farzandsiz ayol dardi yangilanadi va shu qadar alangalanadiki, uning olovida qovurg'alar yonishga shaylangan o'tinga aylanadi. *"Bir tirnoqqa zor bo'ldim, Egasiz mozor bo'ldim / Baxti toshga boylangan, Tosh kabi nochor bo'ldim".* Islom dini qoidalariga ko'ra, ayol kishi vafot etsa, turmush o'rtog'i ham nomahram hisoblanib, faqat o'g'li unga mahram bo'larkan va qabrga qo'yishga haqli ekan. Farzand ko'rmagan ayol bu dunyodan o'tganidan keyin qabri ham egasiz qolishidan zorlanadi. She'rning xulosasida dunyodan izsiz o'tayotgan qalb iztiroblari hayotiy voqelikka oid metaforalar bilan ifodalanadi.

Quyun o'ynar izimni,
G'am qovurar ko'zimni.
Govmishim, seni emas,
"Ho'sh-ho'sh"layman o'zimni.
Ho'o'sh... Ho'sh... Ho'o'sh...[7;89-b]

Usmon Azimning 2012-yilda yozilgan "X asr. Cholg'uvchi ayol" she'ri ayol sevgisini ifodalaydi. She'rning sarlavhasi Alisher Navoiy "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor"dagi Diloromni yodga soladi. Garchi oradan asrlar o'tsa-da, haligacha ayol ibosi, hayosi va g'ururi sevgisini oshkor qilishga yo'l qo'ymaydi. Sozanda ayol yurak izhorini sozi orqali aytadi. *"Yong'in hayotimda Ohang behudud...Barmoqlarim tegdi –Zor qaqshadi ud! / Udni bo'zlatgancha, bag'rimga bosdim / Aqldan ozdim men, Aqldan ozdim".* Sevgani bilan xayolan suhbatlashish, "Seni "sevaman" deb xayolda aytish ayollarga xos xususiyat. Ijroviy qahramon sevganining sukutidan ham uning ovozini eshitadi.

“Men ham...Men ham...” – sukut
Aytadi rozing.
Bir dunyo sukunat
Sening ovozing [1;144-b].

Ana shu sukunatni quchib uxlash ham baxt beradi, ayol zotiga. *“U juda sog‘ingan – Charchamas – uchib... / Bu kecha uxlayman, Sukutni quchib”.*

**Xulosa va takliflar**

Tahlillardan kelib chiqib, aytish mumkinki, davr o‘zgarishi bilan ijtimoiy obrazlar va she’rlar mavzusi ham o‘zgarib boradi.

Mashhur rus shoiri Y.Yevtushenko ijodida sotsioantropologik dominant masalasini o‘rgangan O.V.Kravsova: “Y.Yevtushenko lirikasining sotsial-antropologik dominantini rivojlantiruvchi motiv va obrazlar semantikasida sovet tuzumidan keyingi davrda dunyoning chuqur his qilingan “yo‘qotish”, “parchalanish” xususiyati aks ettirilgan. Bu yerda asosiy maqsad millatning baxtsizligi motividir [3;8-b]”–deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, erksiz, birovga qaram bo‘lgan millat o‘zligini anglamasa, albatta, yo‘qlikka mahkum.

O‘zbek adabiyotidagi ijroviy lirikaga oid she’rlarning ham aksariyatida milliy “erk” mifologemi (Furqat, Usmon Nosir, Yegishe Charens, Raskolnikov, Basyo kabi ) millat ravnaqi, erki uchun kurashgan shaxslar subyektida yoritiladi.

She’riyatda sotsioantropologiya subyektning axloqiy asosida, ijtimoiy voqeliklarga munosabati va hamdardligida, estetik qolip sifatidagi “Men-Biz-Odamlar” syujet tasvirida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday she’rlarda asosan “inson / jamiyat” antitezasi vositasida ijtimoiy munosabatlar oydinlashadi. Jamiyat a’zolarining davr voqeligiga munosabati shoir nigohida ijroviy qahramon tilidan ifodalanadi. Misralarda qo‘llangan badiiy tasvir vositalari hamda metaforalar she’rning mafkuraviy va estetik mazmunini ifodalaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azim U. Kollaj. – Toshkent: Sharq, 2018. – B.144.
2. Kalanov K, Sabirova U. Ijtimoiy antropologiya. –Toshkent, 2020. – B. 5.
3. Кравцова О.В. Социоантропологическая доминанта лирики Е.А.Евтушенко 1950-1990-х годов. – Автореф.Дисс. кан.фил.наук. – 2009. С. 8.
4. Konfutsiy. Hikmatlar. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B.24.
5. Z.M.Bobur. Boburnoma. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. –B.5.
6. Cho‘lpon. Asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994. – B.24.
7. Eshqobil Sh. Hamal ayvoni. – Toshkent: Sharq, 2002. – B.89.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Madvaliyev A tahriri ostida. –Toshkeht: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.562.
9. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986. – 408 b.
10. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2022. – 252 b.
11. To‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot (majmua): akademik litseylar ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Bayoz, 2018. – 207 b.
12. Hamdamov U. Yangi o‘zbek she’riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – B. 303.

13. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – 365 b.

14. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovasiya – Ziyo, 2020. – 309 b .

# ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАИМСТВОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СРЕДСТВАХ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

**Мейлиева Мохидил Одил кизи**
Преподаватель кафедры «Филологии и обучения языкам»
Каршинского международного университета
mohidilmeyleva9@gmail.com
ORCID-0009-0000-3013-8519

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются лингвистические особенности употребления заимствованной лексики в современных русскоязычных и узбекоязычных средствах массовой информации. На основе сопоставительного анализа выделяются основные источники заимствований, способы адаптации иностранных слов в каждом языке, а также функциональные особенности употребления заимствованной лексики в медийном дискурсе. Исследование выявило как общие закономерности, связанные с глобализацией и англоязычным влиянием, так и культурно-специфические стратегии языковой адаптации, отличающие русскую и узбекскую медийную практику. Представленные данные основаны на корпусном анализе 200 медийных текстов.*

***Ключевые слова:*** *заимствованная лексика, СМИ, русско-узбекское сопоставление, англицизмы, медийный дискурс, адаптация*

# RUS VA O‘ZBEK OAV DA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

**Meyliyeva Moxidil Odil qizi**
Qarshi Xalqaro Universiteti “Filologiya va tillarni o‘qitish” kafedrasi o‘qituvchisi
mohidilmeyleva9@gmail.com
ORCID-0009-0000-3013-8519

***Annotatsiya*** *Maqolada zamonaviy rus va o‘zbek OAV tilida uchraydigan o‘zlashma leksikaning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xorijiy so‘zlarning asosiy manbalari, har bir tilga moslashuv mexanizmlari va ularning OAV matnlaridagi funksional vazifalari solishtirma yondashuv orqali ochib beriladi. Analiz natijalari globalizatsiya va ingliz tili ta’siri tufayli yuzaga kelgan umumiy tendensiyalar bilan bir qatorda, rus va o‘zbek OAV tiliga xos bo‘lgan madaniy-tipologik farqlarni ham namoyon etdi. Empirik asos sifatida 200 ta axborot matni tanlab olindi va korpusli yondashuv asosida o‘rganildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *o‘zlashma leksika, ommaviy axborot vositalari, rus-o‘zbek taqqoslash, inglizcha so‘zlar, media diskurs, til moslashuvi*

# LINGUISTIC FEATURES OF BORROWED VOCABULARY USAGE IN RUSSIAN AND UZBEK MASS MEDIA

**Moxidil Odil qizi Meyliyeva**
Lecturer at the Department of Philology and Language Teaching
Karshi International University
mohidilmeyleva9@gmail.com
ORCID-0009-0000-3013-8519

***Abstract*** *This article analyzes the linguistic features of borrowed vocabulary in contemporary Russian and Uzbek mass media. Through a comparative approach, the study identifies the main*

*sources of borrowings, their linguistic adaptation mechanisms in both languages, and the functional roles such lexical items play in media discourse. The findings reveal both shared global tendencies—primarily driven by English influence—and culture-specific strategies of lexical integration. The analysis is based on a corpus of 200 media texts selected from leading Russian and Uzbek news portals.*

***Keywords:*** *borrowed vocabulary, mass media, Russian-Uzbek comparison, anglicisms, media discourse, linguistic adaptation.*

## ВВЕДЕНИЕ.

Современное информационное пространство формируется под влиянием глобализационных процессов и межкультурной коммуникации в результате чего наблюдается активное проникновение иноязычной лексики в различные функциональные стили языка особенно в язык средств массовой информации СМИ как наиболее динамично развивающийся тип дискурса представляет собой богатую почву для анализа заимствованной лексики поскольку отражает как лингвистические так и социокультурные изменения происходящие в обществе заимствования в медиатексте выполняют не только номинативную но и стилистическую прагматическую и экспрессивную функции. Объектом данного исследования являются заимствованные слова в русском и узбекском медиадискурсе Предметом – их лингвистические особенности включая источники заимствования способы адаптации и функционирование в текстах новостных и аналитических публикаций. Цель исследования – выявить и сопоставить лингвистические особенности использования заимствованной лексики в русских и узбекских СМИ определить основные тенденции и направления влияния иностранных слов на национальные языки в медийной сфере. Методы исследования включают лексико-семантический анализ сравнительно-сопоставительный метод дискурсивный анализ а также количественный подсчет частотности лексем на основе корпусных данных

## МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ.

Эмпирическую базу составили тексты ведущих русскоязычных и узбекоязычных новостных порталов за период 2023–2024 годов В выборку вошли материалы следующих изданий: «РИА Новости» «Коммерсантъ» «Газета.ру» «Дарё.уз» «Газета.уз» и «Kun.uz» Всего было проанализировано 200 новостных статей по 100 из каждого языка объемом более 300000 слов для каждого корпуса. Методологическую основу составили положения лингвистической типологии медиатекста теории языковых контактов концепции культурной и лингвистической глобализации

Таблица 1 (иллюстрирует количественное распределение заимствованной лексики по тематическим рубрикам в обоих языках)

| **Тематика публикации** | **Русские СМИ (кол-во заимствований)** | **Узбекские СМИ (кол-во заимствований)** |
|---|---|---|
| Политика | 184 | 127 |
| Экономика | 239 | 210 |
| Технологии | 312 | 284 |

| | | |
|---|---|---|
| Культура | 94 | 101 |
| Спорт | 165 | 193 |

**РЕЗУЛЬТАТЫ.**

Анализ показал что в обоих языках наибольшее количество заимствований приходится на сферу технологий и экономики что связано с необходимостью обозначения новых реалий понятий и процессов русские СМИ чаще используют англицизмы особенно в контексте информационных технологий маркетинга и финансов Узбекские СМИ также демонстрируют высокую степень адаптации англоязычной лексики но часто подвергают заимствования орфографической и фонетической трансформации. В русском медиадискурсе наблюдается преобладание неконнотированных заимствований с нейтральной стилистической окраской в то время как в узбекском языке значительная часть заимствованных слов подвергается морфологической адаптации и получает локальную окраску в том числе посредством добавления национальных суффиксов и аффиксов. Кроме того было зафиксировано различие в источниках заимствований если русские СМИ в основном ориентированы на английский язык то в узбекском медиадискурсе наряду с англицизмами сохраняются заимствования из турецкого русского и арабского языков.

**ОБСУЖДЕНИЕ.**

Полученные результаты свидетельствуют о существовании как универсальных так и специфических тенденций в процессе заимствования лексики в русских и узбекских СМИ универсальными являются доминирование англоязычных заимствований их распространение в высокотехнологичных и экономических сферах а также стилистическая нейтральность в большинстве случаев. Специфика узбекского медиадискурса проявляется в активной морфологической адаптации заимствованных лексем что свидетельствует о стремлении сохранить структурную целостность языка в условиях интенсивного внешнего влияния дополнительно наблюдается стилистическое варьирование и дифференциация заимствований в зависимости от целевой аудитории и жанра публикации. Важно отметить что заимствования в медийной сфере не только отражают уровень языкового контакта но и выполняют идеологические и прагматические функции способствуя глобализации лексикона и формированию нового типа медиакоммуникации.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.**

Таким образом лингвистический анализ заимствованной лексики в русских и узбекских СМИ позволил выявить как общие закономерности языкового заимствования обусловленные глобализацией так и культурно-специфические особенности отражающие различие в стратегии адаптации заимствований в двух языках проведенное сопоставление показало что несмотря на активное заимствование оба языка стремятся к сохранению своей внутренней структуры и культурной идентичности в условиях современной медиакоммуникации. Дальнейшие исследования могут быть направлены на изучение прагматических функций заимствований в социальных медиа анализ

восприятия заимствованной лексики среди носителей языка а также на разработку типологии медийных заимствований в кросскультурной перспективе.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Алексеева Л. А. Иноязычные заимствования в современном русском языке: причины, типы, тенденции // Вестник МГУ. Серия 9. Филология. – 2021. – №3. – С. 18–27.

2. Бабаева Е. М. Языковая адаптация англицизмов в русском языке. – М.: Языки славянской культуры, 2019. – 215 с.

3. Бахриддинов З. У. Ўзбек тилида сўз ўзлаштириш жараёнлари ва уларнинг типологик хусусиятлари // Филология масалалари. – Тошкент, 2020. – №1. – Б. 45–52.

4. Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 212 p.

5. Давлятшина Л. М. Иноязычные вкрапления в текстах российских СМИ: функции и восприятие // Журнал социолингвистики. – 2020. – №4. – С. 89–97.

6. Каримова М. К. O'zbek tilida so'z o'zlashtirishning lingvistik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 168 b.

7. Крейдлин Г. Е. Медийный дискурс: язык, жанры, контексты. – М.: ЛКИ, 2020. – 304 с.

8. Мамажонова Ш. К. Англицизмы в узбекском языке: адаптация и функционирование // O'zbek tili va adabiyoti. – 2022. – №2. – Б. 75–81.

9. Попова Т. В., Стернин И. А. Лингвокультурология. – М.: Аспект Пресс, 2021. – 287 с.

10. Шарипова Г. Н. Сравнительный анализ англицизмов в русских и узбекских СМИ // Журнал сравнительного языкознания. – 2023. – №1(7). – С. 33–41.

---

# КЛАССИФИКАЦИЯ ФИТОНИМОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

**Якубова Гулчехра Зиятовна**
Преподаватель кафедры «Филологии и обучения языкам»
Каршинского международного университета
gyakubova@gmail.com
ORCID:0009-0005-8706-2785

***Аннотация*** *В статье рассматриваются фитонимы как отдельная категория лексики в русском и узбекском языках Фитонимы отражают этнокультурные особенности и мировоззрение носителей языка. Цель исследования — выявить лексико-семантические и этимологические особенности фитонимов и провести их сопоставление Анализ показал, что в обеих языковых системах фитонимы классифицируются по функциональным признакам, но имеют разное происхождение и культурную нагрузку. Результаты исследования могут быть полезны при составлении двуязычных словарей, в переводоведении и межкультурной коммуникации.*

***Ключевые слова:*** *фитонимы, лексика, этимология, семантика, сопоставительный анализ, русский язык, узбекский язык.*

---

# RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI FITONIMLARNING TASNIFI: LEKSIK-SEMANTIK VA ETIMOLOGIK TAHLIL

**Yakubova Gulchexra Ziyotovna**
Qarshi Xalqaro Universiteti
"Filologiya va tillarni o'qitish" kafedrasi o'qituvchisi
gyakubova@gmail.com
ORCID:0009-0005-8706-2785

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada rus va o'zbek tillaridagi o'simlik nomlari — fitonimlar alohida leksik toifa sifatida o'rganiladi Fitonimlar til egalarining dunyoqarashi va etnomadaniy xususiyatlarini aks ettiradi Tadqiqotning asosiy maqsadi — fitonimlarning leksik-semantik va etimologik jihatlarini aniqlash hamda ularni taqqoslashdir Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ikkala tilda ham fitonimlar funksional xususiyatlarga ko'ra tasniflanadi, ammo ularning kelib chiqishi va madaniy yuklamasi farqlidir. Mazkur tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, ikki tilli lug'atlar tuzish va madaniyatlararo muloqotda foydali bo'lishi mumkin.*

***Kalit so'zlar:*** *fitonimlar, leksika, etimologiya, semantika, taqqosloviy tahlil, rus tili, o'zbek tili.*

---

# CLASSIFICATION OF PHYTONYMS IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES: LEXICO-SEMANTIC AND ETYMOLOGICAL ANALYSIS

**Gulchekhra Ziyatovna Yakubova**
Lecturer at the Department of Philology and Language Teaching
Karshi International University
gyakubova@gmail.com
ORCID:0009-0005-8706-2785

***Abstract*** *This article examines phytonyms — plant names — as a separate lexical category in Russian and Uzbek languagesm Phytonyms reflect the worldview and ethnocultural characteristics of native speakers The aim of the study is to identify lexical-semantic and etymological features of phytonyms and compare them across the two languages The analysis shows that phytonyms in both languages are classified according to functional features, but differ in origin and cultural connotation The findings can be useful in bilingual lexicography, translation studies, and intercultural communication.*

***Keywords:*** *phytonyms, lexicon, etymology, semantics, comparative analysis, Russian language, Uzbek language.*

---

## ВВЕДЕНИЕ.

Лексика, связанная с наименованиями объектов живой природы, представляет собой значимый пласт языковой системы, отражающий не только природную среду, но и культурные, исторические и ментальные особенности носителей языка. Особое место в этой системе занимают фитонимы — лексические единицы, обозначающие растения, которые сопровождают человека с древнейших времён и играют важную роль в его жизнедеятельности, формируя устойчивые представления о флоре окружающего мира. Фитонимы выполняют в языке не только номинативную, но и когнитивную, культурологическую и символическую функции Они широко представлены в фольклоре, пословицах и поговорках, религиозных текстах, обрядах, а также в народной и научной медицине Формируясь под влиянием географических, исторических, экономических и этнокультурных условий, фитонимы становятся своеобразным зеркалом национальной картины мира Именно поэтому их исследование позволяет выявить особенности концептуализации растительного мира в

сознании представителей различных языковых и культурных сообществ. Актуальность настоящего исследования определяется возрастающим интересом современной лингвистики к вопросам лингвокультурологии, семантики и этимологии, а также необходимостью изучения способов языкового представления флоры в сопоставительном аспекте. Русский и узбекский языки, принадлежащие к разным типологическим группам — славянской и тюркской соответственно — обладают богатой системой фитонимов, которая отражает как универсальные, так и уникальные особенности номинации растений. На фоне активных межъязыковых контактов и процессов глобализации становится особенно важным выявление закономерностей и различий в формировании фитонимической лексики, её семантической структуре, способах словообразования и этимологическом происхождении. Такой подход позволяет не только углубить понимание внутренней организации лексической системы языка, но и содействует эффективному межкультурному взаимодействию, особенно в контексте перевода, составления двуязычных словарей, преподавания и сопоставительной лексикографии. Объектом настоящего исследования выступают фитонимы русского и узбекского языков, представляющие собой лексические единицы, используемые для наименования растений, как культурных, так и дикорастущих. Таким образом, работа направлена на всестороннее лингвистическое осмысление фитонимической лексики как важного элемента языковой картины мира в русском и узбекском языках

## МЕТОДОЛОГИЯ.

Настоящее исследование опирается на эмпирический материал, представленный лексическими единицами из авторитетных толковых и этимологических словарей русского и узбекского языков, что обеспечивает надёжную базу для лексико-семантического и этимологического анализа фитонимов. Основу корпуса составили данные из следующих источников: «Толковый словарь живого великорусского языка» В И Даля, «Русский этимологический словарь» М Фасмера, «Ўзбек тилининг изоҳли луғати», а также современные русско-узбекские и узбекско-русские лексикографические издания. Дополнительно был привлечён электронный материал из Национального корпуса русского языка и Узбекского национального корпуса, что позволило учитывать актуальные и контекстуализированные употребления фитонимической лексики в живом языковом потоке. Методологической основой исследования выступили положения сравнительно-типологической лингвистики, структурной семантики и этимологического анализа.В рамках теоретической парадигмы были применены описательный метод, метод сопоставительного анализа, компонентный анализ лексических значений, а также элементы корпусного подхода, ориентированного на выявление семантических и контекстуальных закономерностей функционирования фитонимов в двух языках. Процедура отбора материала основывалась на методе сплошной выборки, что обеспечило репрезентативность лексических единиц и их типологическую полноту в пределах заявленной темы. Фитонимы были

классифицированы по лексико-семантическим признакам с выделением следующих основных категорий: культурные растения, дикорастущие растения, лекарственные растения и декоративная флора. Кроме того, особое внимание уделялось выявлению заимствованных фитонимов, калькированных наименований, а также элементов, обладающих транскультурной природой.

**РЕЗУЛЬТАТЫ.**

Фитонимическая лексика русского и узбекского языков демонстрирует как универсальные, так и культурно-специфические черты, что отражает различия в природных условиях, типах хозяйственной деятельности и ментальных установках носителей этих языков Семантический анализ показал, что в обоих языках значительное место занимают названия лекарственных, пищевых и декоративных растений, однако лексический состав и происхождение этих названий различаются**.** Так, в русском языке, функционирующем в условиях умеренного климата, преобладают фитонимы, относящиеся к растениям лесной и луговой зоны — берёза, рябина, мать-и-мачеха, подорожник, пижма, крапива. В узбекском языке, отражающем культуру аридных и субаридных регионов, более частотны фитонимы, обозначающие растения, характерные для жаркого и засушливого климата — qora sedana (чернушка), dorivor piyoz (лекарственный лук), anor (гранат), na'matak (шиповник), yalpiz (мята)**.** Особый интерес представляет этимологический аспект фитонимической лексики В русском языке значительная часть фитонимов восходит к праславянским корням — «берёза» происходит от *berza, «малина» — от *malina Некоторые названия заимствованы из тюркских языков — например, «арбуз» из тюрк. *harbuz, «лук» (в значении растения) возможно имеет восточное происхождение.

Узбекская фитонимия, в свою очередь, богата заимствованиями из арабского, персидского и русского языков. Так, слово «anor» (гранат) восходит к арабскому *al-rummān, «sabzi» (зелень) — к персидскому *sabz, а «klyon» (клён) — заимствовано из русского языка. Сопоставительный анализ показал, что фитонимы, обозначающие одни и те же растения, могут быть не только лексически различными, но и содержать разные ассоциативные и культурные коннотации. Так, ромашка в русском языке часто символизирует нежность и простоту, а в узбекской традиции moychechak имеет ярко выраженную лечебную семантику. Подобные различия являются следствием расхождений в фольклорной и культурной репрезентации растительного мира.

Для наглядной демонстрации различий и сходств фитонимов в русском и узбекском языках приведена сравнительная таблица.

| **№** | **Русский фитоним** | **Узбекский фитоним** | **Этимология** |
|---|---|---|---|
| 1. | Берёза | Qayin | Праслав. *berza / тюрк. qayın |
| 2. | Мать-и-мачеха | Moychechak | Слав. метафора / узб. традиция |
| 3. | Арбуз | Tarvuz | Тюркское происхождение |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4. | Подорожник | Yo'lto'sar | Слав. *po + doroga / узб. калька: "дорогу преграждающий" |
| 5. | Крапива | G'ichir | Слав. корень / узб. диалектизм |
| 6. | Малина | Malina | Общее индоевропейское корневое происхождение / заимств. из рус. языка |
| 7. | Мята | Yalpiz | Слав. *mēta / перс. *faliza > yalpiz |
| 8. | Пижма | Bargizub | Слав. / образовано от узб. barg – лист, zub – зуб |

**Таблица1**

**ОБСУЖДЕНИЕ.**

Результаты проведённого сопоставительного анализа фитонимов в русском и узбекском языках позволяют выявить ряд закономерностей, демонстрирующих как лексико-семантическую, так и культурную значимость данной группы лексики. Фитонимы оказываются не просто номинативными единицами, обозначающими растительные объекты, но и своеобразными маркерами культурной памяти, отражающими историко-этнические контакты, ментальные установки и экологическую специфику среды обитания.

Одним из наиболее показательных результатов исследования является то, что в обоих языках наблюдается структурное сходство в классификации фитонимов по функциональным признакам. К ним относятся группы, обозначающие лекарственные, съедобные, декоративные и дикорастущие растения. Однако внутри этих групп обнаруживаются значительные различия, связанные с особенностями национальной картины мира, традиционного земледелия и климата. Так, растение с аналогичными лечебными свойствами может носить разные наименования, происходить из разных этимологических источников и ассоциироваться с различными культурными коннотациями. Характерным примером является соотнесение русского фитонима «ромашка» и узбекского «moychechak». Несмотря на то, что оба обозначения относятся к одному и тому же растению, их лексическая структура, этимологическая природа и культурное восприятие различаются. Если в русском языке ромашка чаще символизирует чистоту, простоту и природную красоту, то в узбекской традиции moychechak воспринимается как универсальное лекарственное средство, активно используемое в народной медицине. Интерес представляют также случаи семантического расхождения и сдвига. Слово «тюльпан» в русском языке прочно ассоциируется с декоративной функцией и используется преимущественно в художественном и праздничном контексте В то же время узбекский фитоним lalazor представляет собой более широкое понятийное поле, охватывающее не только цветок как таковой, но и культурный пласт, связанный с фольклором, весенними обрядами, а также символикой женской красоты и юности.

Таким образом, сопоставительный анализ фитонимов не только углубляет понимание структурных и семантических характеристик лексических единиц, но и раскрывает многослойную взаимосвязь языка с культурной и природной действительностью. Исследование подтверждает, что фитонимы представляют собой особый тип лексем, в которых сплетаются объективное наименование, субъективное восприятие и культурный контекст, формируя уникальную языковую репрезентацию растительного мира в разных этнолингвистических традициях.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.**

Фитонимы представляют собой особую лексическую категорию, обладающую высокой информативной и культурной нагрузкой. Они отражают не только ботанические характеристики растений, но и многовековой опыт народа, особенности этнокультурной среды, а также специфику языкового мировосприятия. В ходе сопоставительного исследования фитонимов в русском и узбекском языках было установлено, что обе языковые системы демонстрируют сходные подходы к классификации растительных наименований по лексико-семантическим признакам, включая деление на лекарственные, съедобные, декоративные и дикорастущие растения. Несмотря на структурное сходство, фитонимия каждого языка формируется в рамках своей национальной языковой картины мира, что обуславливает различия в составе, этимологии и ассоциативной нагрузке лексических единиц. Русский язык характеризуется преобладанием фитонимов славянского и тюркского происхождения, тогда как в узбекском языке широко представлены заимствования из арабского, персидского и русского языков. Анализ также показал наличие калькированных образований, семантических сдвигов и культурно обусловленных значений, отражающих различные уровни языковых контактов и культурной интерпретации окружающей природы. Выявленные универсальные и уникальные особенности фитонимов свидетельствуют о тесной взаимосвязи между языком, культурой и средой обитания. Исследование подтвердило, что фитонимы не являются изолированной лексической группой, а находятся в тесной связи с фразеологизмами, паремиями, народной медициной и мифологией, что открывает перспективы для дальнейшего научного осмысления. Будущие направления исследований могут быть связаны с привлечением диалектных и исторических источников, анализом фитонимов в художественном тексте, а также их изучением в рамках когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. Расширение корпуса фитонимов и включение материалов других тюркских и славянских языков позволит углубить понимание типологических и культурно-исторических закономерностей в сфере номинации растительного мира.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Даль В И Толковый словарь живого великорусского языка
2. Фасмер М Этимологический словарь русского языка
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати Т I–III Тошкент

4. Назаров Ш Ўзбек тилида ўсимлик номларининг лексик-стилистик хусусиятлари Тошкент 2021
5. Большой академический словарь русского языка
6. Русско-узбекский и узбекско-русский словари под ред А Юсупова
7. Национальный корпус русского языка — ruscorpora ru
8. Узбекский национальный корпус — uzcorpus uz
9. Словарь символов — растения в культуре народов Востока
10. Камолова Д Антропоцентрические аспекты фитонимов в узбекском языке Ташкент 2019

## IZOHLI LUG'ATLARDA IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA TERMINLARI UCHUN ILLYUSTRATIV MISOLLARNING BERILISHI

**Ahmedova Mahliyo Toshtemirovna**
Shahrisabz davlat pedogogika instituti tayanch doktoranti
maxliyo.axmedova1985@mail.ru

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada mavjud o'zbek tilining izohli lug'atlarida irrigatsiya va melioratsiya terminlarining berilishi, ularga berilgan illyustrativ misollarni takomillashtirish va yangi illyustrativ misollarning berilishi masalalari haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Irrigatsiya, melioratsiya, izohli lug'atlar, illyustrativ misollar, termin, leksema.*

## ПРЕДОСТАВЛЕНИЕ ИЛЛЮСТРАТИВНЫХ ПРИМЕРОВ ДЛЯ ТЕРМИНОВ ИРРИГАЦИИ И МЕЛИОРАЦИИ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

**Ахмедова Махлия Таштемировна**
Базовый докторант Шахрисабзского
государственного педагогического института
maxliyo.axmedova1985@mail.ru

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются вопросы представления терминов ирригации и мелиорации в существующих толковых словарях узбекского языка, совершенствования предоставленных иллюстративных примеров и включения новых иллюстративных примеров.*

***Ключевые слова:*** *ирригация, мелиорация, толковые словари, иллюстративные примеры, термин, лексема.*

## ILLUSTRATIVE EXAMPLES FOR IRRIGATION AND MELIORATION TERMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES

**Ahmedova Mahliyo Toshtemirovna**
Foundation doctoral student of the Prince's
State Institute of pedogogy
maxliyo.axmedova1985@mail.ru

***Abstract.*** *This article discusses the presentation of irrigation and melioration terms in existing explanatory dictionaries of the Uzbek language, the improvement of provided illustrative examples, and the inclusion of new illustrative examples.*

***Keywords:*** *irrigation, melioration, explanatory dictionaries, illustrative examples, term, lexeme.*

**KIRISH.**

Illyustrativ misollar izohli lug'atlardagi lug'at maqolalarining asosiy va muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi. "Illyustratsiya" atamasi lotin tilidagi "illustrato" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yoritish" yoki "ko'rgazmali tasvir" ma'nolarini

anglatadi[1:117]. Illyustratsiyalar matn mazmunini aniqroq va tushunarli qilish uchun qoʻshimcha sifatida keltiriladigan tasvirlar, san'at asarlari, gravyuralar yoki boshqa vizual vositalarni oʻz ichiga oladi. Koʻpincha, illyustratsiyalar murakkab matnlar yoki tushunchalarni tushuntirish va ularning mohiyatini ochib berishda qoʻllaniladi. Ayniqsa, ilmiy va texnik sohalarga oid matnlarda illyustratsiyalar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yosh bolalar uchun moʻljallangan kitoblarda matn mazmunini yoritishda katta rol oʻynaydi. Bugungi kunda zamonaviy illyustratsiyalar kompyuter grafikasi yordamida yaratilmoqda. Masalan, harakatlanuvchi tasvirlar elektron matnlarga integratsiya qilinganda, obyektlarning xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Shunday qilib, illyustratsiyalar qadimdan matnlarning mazmunini ochib berishda yordam beruvchi vosita sifatida xizmat qilib kelmoqda[2]. XV asr oʻrtalarida I.Gutenberg tomonidan bosma nashr ixtiro qilinganidan soʻng, kitoblarda illyustratsiyalardan foydalanish keng tarqaldi. Bugunga kelib, illyustratsiyalarning asosiy vazifasi va mohiyati deyarli oʻzgarmaganligini aytish mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Izohli lugʻatlardagi lugʻat maqolalarida illyustrativ misollar bosh soʻzning izohini asoslash va isbotlash uchun ishlatiladi. Bu misollar bosh soʻzning oʻzbek tilidagi matnlarda izohda keltirilgan ma'noda qoʻllanilganligini koʻrsatishda muhim vosita hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, illyustrativ misollarni tanlash jarayoni oʻta murakkab boʻlib, izohdagi ma'noga toʻliq mos kelishi va belgilangan talablarga muvofiq matnlardan olinganligi kabi mezonlarga rioya qilishni talab qiladi. Izohli lugʻatning muqaddima qismida shunday fikrlar keltirilgan: "Lugʻatda berilgan soʻzlarning amalda qoʻllanishi XX asr hamda XXI asrning dastlabki davri oʻzbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan"[3]. Bu shuni koʻrsatadiki, illyustrativ misollar nafaqat izohning mohiyatini ochib berishi, balki zamonaviy va ishonchli manbalardan tanlanishi lozim. Terminlarning ma'nosini tushuntiruvchi matnlarga qoʻshimcha sifatida ishlatiladigan illyustrativ misollar, ayniqsa, ilmiy matnlarga tayanib talqin qilinishi zarur. Bu holat, xususan, koʻp funksiyali boʻlmagan va asosan ilmiy uslubda qoʻllaniladigan terminlarning leksikografik talqinida yaqqol namoyon boʻladi. "Oʻzbek tilining izohli lugʻatini tuzishga kirishishdan oldin katta tayyorgarlik ishlari olib borildi. Badiiy adabiyot namunalariga tayanib, lugʻatning leksik asos – lugʻat kartotekasi fondini toʻldirish va boyitishga alohida e'tibor beril"[3:9] ganligi illyustrativ misollarning izoh va bosh soʻz ma'nosiga mosligini ta'minlaydi. Bu esa illyustrativ misollarning bosh soʻz va izoh ma'nosiga toʻliq mos kelishini ta'minlaydi.

Irrigatsiya va melioratsiya sohasiga oid terminlarning izohlari ularning ilmiy soha bilan bogʻliqligini aniq koʻrsatadigan kontekstlarda tuzilishi lozim, bunda illyustrativ misollar ilmiy matnlardan tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, irrigatsiya va melioratsiya sohasida termin sifatida qaraladigan oʻzan leksemasi "vaqti-vaqti bilan yoki doimiy ravishda oqadigan tabiiy yoki sun'iy ravishda aniq ifoda etilgan gidrotexnika inshooti; ikki suv havzasi orasidagi bogʻlovchi aloqa" [4:131] kabi terminologik ta'rifga ega. Izohli lugʻatlarda esa oʻzan leksemasi "Suv oqib oʻtadigan

uzun chuqurlik; suv yo'li" [5:480-481] sifatida izohlanadi. Ushbu leksemaning ma'nosini tasdiqlash uchun keltirilgan illyustrativ misollar quyidagicha taqdim etilgan:

"*Endi o'zandan bu yoqqa ariq chiqarish va hovuz qazish kerak edi.* P.Qodirov, Qadrim. [*Jamolning*] *Ko'z oldida egri-bugri Chirchiq o'zani. Undan narida – Kattakon Toshkent.* S.Anorboyev, Mehr. *Zarafshon daryosining eski o'zanlari ko'p.* P.G'ulomov, Zarafshon etaklarida".

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Keltirilgan illyustrativ misollarning hammasi o'zan leksemasining qishloq xo'jaligi, ayniqsa irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi faol qo'llanilishini tasdiqlaydi. Masalan, P.Qodirovning "Qadrim" qissasida keltirilgan misolda mamlakat yoshlarining cho'l hududlaridagi konlarda olib borgan faoliyati tasvirlanadi. Muallif asar yozilishiga asos bo'lgan voqea haqida shunday deydi: "Bu voqea sodir bo'lgan joyga o'z mashinasida olib bordi, yong'in paytida oqar suv olib kelish uchun qazilgan ariq o'zanini, portlovchi moddani maxsus vagonchada yong'in tubiga yo'naltirish uchun qurilgan muvaqqat temiryo'l ko'tarmasini ko'rsatdi" [6:4]. Shundan xulosa qilish mumkinki, izohli lug'atlarda terminlarning talqini ularning terminologik ma'nosiga asoslangan holda tuziladi va buni tasdiqlovchi izohlar ham, illyustrativ misollar ham shu ma'nodan kelib chiqib tanlanadi.

Leksemaning ko'p funksiyaliligi va umumiy iste'mol so'zi sifatida ishlatilishi kabi omillar ba'zida illyustrativ misollarning ilmiy uslubga xos bo'lmasligiga sabab bo'ladi. Chunki terminning ma'lum bir soha bilan cheklangan birligi ekanligi uni boshqa soha vakillari uchun har doim tushunarsiz qilmaydi. Umumiy iste'mol birliklarining muayyan sohada terminologik ma'noda qo'llanilishi irrigatsiya va melioratsiya sohasiga ham xosdir. Umumiy iste'mol birliklari va terminlar o'rtasidagi farqlarga semiotik, funktsional, semantik, tarqalish darajasi, ommalashish, shakllanish yo'llari va vositalari kiradi[7:208]. Bu farqlar, albatta, faqat umumiy iste'mol birligi sifatida qo'llanadigan va termin bo'lmagan birliklarga nisbatan qo'llaniladi. Terminologik va umumiy iste'mol ma'nolarida ishlatiladigan so'zlarda esa bu farqlilik minimal darajada bo'ladi. Irrigatsiya va melioratsiya sohasi terminlari orasida umumiy leksika sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan birliklar sezilarli qismni tashkil qiladi. Masalan, yaxmalak leksemasining izohli lug'atlardagi leksikografik talqini uning etimologik ma'nosiga asoslangan holda shakllantirilgan. Izohli lug'atga ko'ra, yaxmalak leksemasi fors tilidan o'zlashgan. Hozirgacha tahlil qilingan etimologik lug'atlarda bu leksema haqida aniq ma'lumot berilmagan. Biroq, izohli lug'atda yaxmalak leksemasi "silliq, tekis muz: muzda sirpanib o'ynash" [8:151] kabi etimologik ma'noga ega ekanligi ko'rsatilgan. Tabiiyki, izohni tasdiqlash uchun keltirilgan illyustrativ misol ham terminologik ma'noga emas, umumiy ma'noga ishora qiladi:

"*Bolalar chana uchishgan bo'lsa kerak, anhor ustidagi ko'prik yaxmalak bo'lib ketibdi.* H.G'ulom, Toshkentliklar".

**TAHLIL VA NATIJALAR.**

Yaxmalak leksemasi ishtirokidagi qo'shma so'z, ya'ni "yaxmalak otmoq" iborasi, izohli lug'atda leksemaning yagona umumiy ma'nosi asosida shakllangan. Bizning fikrimizcha, leksemaning terminologik ma'nosi ham izohli lug'atga kiritilishi

zarur. Zero, "izohli lug'at ulkan amaliy, madaniy-ma'rifiy qimmatga ega. Unga o'z ona tiliga mehr-muhabbati bo'lgan, ona tilining, undagi so'zlarning sir-asrorlari, imloviy va uslubiy xususiyatlari bilan qiziqqan har qanday o'zbek ziyolisi, o'zbek tilini o'rganish ishtiyoqida bo'lgan har qanday o'zga til vakili murojaat qilishi mumkin" [9:12]. Umuman aytganda, izohli lug'atlar zamonaviy o'zbek leksikasini aks ettiruvchi muhim ko'zgu vazifasini bajaradi. Shu sababli, muayyan soha terminologik tizimini shakllantirish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar va soha mutaxassislari uchun izohli lug'atlar asosiy lingvistik manba sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham terminologik va umumiy iste'mol ma'nolariga ega leksemalarning terminologik ma'nolarini izohli lug'atda aks ettirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, yuqorida ko'rib chiqilgan yaxmalak leksemasining terminologik ma'nosi izohi quyidagicha shakllantirilishi mumkin:

"2 *q.x.* yomg'ir yoki quyuq tumandan keyingi sovuq natijasida muzlab qolgan yer yuzasi. Havo harorati 0º C dan pastga tushganda hosil bo'ladi".

Terminologik ma'no izohini tasdiqlovchi illyustrativ misol tanlashda matnning ilmiy uslubga mos kelishiga alohida e'tibor berish lozim. Albatta, har bir izoh uchun illyustrativ misol keltirish izohli lug'at tuzish qoidalarida majburiy talab sifatida belgilab qo'yilmagan. Bu haqda izohli lug'atlarda shunday qayd etilgan: "Illyustrativ misol, misol-sitata yuqoridagi talablar nuqtayi nazaridan, ehtiyoj bo'lgan hollarda berildi. Boshqa so'z bilan butunlay almashtirilgan so'zlar uchun (ma'nosi, ma'nolari qayd etilmasligi tufayli) ularning tilda qo'llanganligini tasdiqlash uchungina misol berildi"[3:26]. Biroq, yuqorida ko'rib chiqilgan kabi leksemalar uchun illyustrativ misol keltirish maqsadga muvofiqdir. Bunday misollar davriy matbuot manbalaridan olinishi mumkin. Shu sababli, yuqorida tuzilgan izohni asoslash uchun quyidagi illyustrativ misoldan foydalanish tavsiya etiladi:

""*O'zgidromet" xabariga ko'ra, qor yog'ishi paytida ba'zi joylarda ko'rinish 50-100 metrgacha yomonlashadi. Yo'llarni yaxmalak qoplaydi.* Gazetadan".

**XULOSA VA TAKLIFLAR.**

Terminlar va ularning sohaviy ma'nolari izohlanar ekan, ko'pincha birikma shaklidagi illyustrativ misollar izohni tasdiqlash uchun yetarli hisoblanadi. Terminlar, chegaralangan qatlam birliklari sifatida, sintagmatik munosabatlar nuqtayi nazaridan keng imkoniyatlarga ega bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, leksik birlik terminologik ma'no ifoda etsa, uning boshqa so'zlar yoki birikmalar bilan bog'lanish imkoniyati cheklangan bo'ladi, chunki terminlar asosan ilmiy uslubdagi birliklar bilan sintagmatik aloqaga kirishadi. "Chegaralanganlik" ularning valentlik xususiyatlariga ham bevosita ta'sir qiladi. Bu borada quyidagi fikrni keltirish o'rinli: "Har qanday soha terminlarining birikma hosil qilish uchun o'z semantik guruhlari bo'ladi. Terminologik birliklarda sintagmatik xoslanganlik boshqa birliklarga nisbatan yaqqolroq namoyon bo'ladi" [10:28]. Shundan kelib chiqadiki, ko'pgina terminologik birliklar uchun izohni asoslashda so'z birikmalaridan foydalanish yetarlidir. Yuqorida ko'rib chiqilgan leksema izohi uchun "yaxmalak yer", "yaxmalak joy" yoki "yaxmalak bilan qoplanmoq" kabi birikmalardan foydalanish mumkin. Bu birikmalar termin ishlatilgan gap bilan birgalikda lug'at maqolasiga kiritilsa, leksemaning terminologik ma'nosi haqida foydalanuvchida aniq tasavvur shakllanadi. Umuman olganda, illyustrativ

misollarning, hech bo‘lmaganda birikma shaklida bo‘lsa ham, terminologik tizim birliklari izohi uchun qo‘llanilishi leksikografik manbaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Иллюстрация [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 26.01.2025.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023. – 964 b.
4. Omonova M. O‘zbekcha-ruscha-inglizcha melioratsiyaga oid terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Intellekt, 2022. – 144 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 5-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023. – 964 b.
6. Қодиров П. Қадрим. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2007. – 168 б.
7. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977. – 246 с.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023. – 964 b.
9. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографяяси масалалари. – Тошкент: ЎзМЭ, 2017. – 384 б.
10. Теплова Л.И. Валентность основ в терминологическом словообразования: На материале медицинской терминологии в современном английском языке: Дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2002. – 202 с.

## O‘ZBEK TILIDA MUROJAAT SHAKLLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Ortiqov Ramazon Raxmat o‘g‘li**
Qarshi xalqaro universiteti,
“Filologiya va tillarni o‘qitish” kafedrasi o‘qituvchisi
ortiqovramazon644@gmail.com
ORCID: 0009-0008-6826-3460

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada “murojaat shakllari” deb nomlanayotgan til hodisasining asl mohiyati, o‘zbek tilidan tashqari boshqa tillarda ham bu til birligining mavjud ekanligi haqida fikr va mulohazlar yuritilgan. Bundan tashqari murojaat shallari o‘zbek tili tarkibiga kiruvchi uch lahja(qarluq, qipchoq va o‘g‘iz)da ham o‘ziga xos shakl va shamoyilda mavjud ekanligi ham ilmiy tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbek tili, o‘zbek lahjalari, qarluq, qipchoq, o‘g‘iz, murojaat shakllari, turkiy til, hitaplar, izohli lug‘at.*

## ОСОБЕННОСТИ ФОРМ ОБРАЩЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКЕ

**Ортиков Рамазон Рахмат огли**
Преподаватель кафедры филологии и преподавания языков Каршинского международного университета
ortiqovramazon644@gmail.com
ORCID: 0009-0008-6826-3460

***Аннотация***: *В данной статье рассматривается истинная природа лингвистического явления, называемого «формы обращения», и существование этой языковой единицы в других*

*языках, помимо узбекского. Кроме того, научно анализируется тот факт, что формы обращения существуют в своей собственной форме и формируются в трех диалектах узбекского языка (карлукском, кыпчакском и огизском).*

***Ключевые слова**: Узбекский язык, узбекские диалекты, карлуки, кипчаки, огузы, формы обращения, тюркский язык, адресаты, толковый словарь.*

# SPECIFIC FEATURES OF ADDRESS FORMS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

**Ortikov Ramazon Rakhmat ogli**
Teacher of the Department of Philology and Language Teaching, Karshi International University
ortiqovramazon644@gmail.com
ORCID: 0009-0008-6826-3460

***Annotation:** This article discusses the true nature of the linguistic phenomenon called "address forms" and the existence of this linguistic unit in languages other than Uzbek. In addition, the fact that address forms exist in their own form and form in the three dialects of the Uzbek language (Qarluq, Kipchak, and Ogiz) is also scientifically analyzed.*

***Key words**: Uzbek language, Uzbek dialects, Qarluq, Kipchak, Oghuz, forms of address, Turkic language, addressees, explanatory dictionary.*

## KIRISH.

Til jamiyat a'zolari o'rtasida komunikativ vazifa bajaradigan eng mukammal vositalardan biridir. Bu axborot almashinuvida insonlar o'zing ichki kechinmalari, maqsad-muddaolari, istak, orzu-xohishlari, qadiriyati va tabir joyiz bo'lsa, gendr xususiyatlarini ham ifoda etgan holatda ishtirok etadi. Bu kabi holatlar esa tilshunoslik ilmini yangi bosqichga chiqarish kerakligini, til va undan foydalanuvchi insonlar o'rtasidagi munosabatlar juda ahamiyatli, nozik payqalishi kerak bo'lgan jihatlarni ham o'rganishini kun tartibiga qo'ydi. Natijada, XX so'ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan antroposentirik paradigma ta'sirida yuzaga kelgan sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturalogiya va shu kabi zamonaviy tilshunoslik sohalari yuzga keldi.

Bu kabi zamonaviy yo'nalishlar bilan bir qatorda, jamiyat a'zolari, ya'ni adresant va adresat o'rtasida murojaat shakllari ham muhim bir lisoniy hodisa ekanligi ma'lum bo'ldi. Tilda mavjud bo'lgan, jamiyat a'zolari o'rtasida keng qamrovda iste'mol(ishlatilayotgan) qilinayotgan murojaat shakllar bu soha vakillari, ya'niy tilshunoslar e'tiborini tortishi tabiiy holatdir. Bu yo'nalish bo'yicha yozilayotgan maqola va dissertatdiyalar murojaat shakllarining har bir tilda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan hodisa ekanligining tasdig'idir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bugungi kunda turli tillar doirasida murojaat shakllari o'rganilmoqda. Jumladan, ingliz, rus, qozoq, turk, o'zbek va shu kabi tillarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu o'rganish darajasi har bir tilda turli xil darajani tashkil qiladi. Agar qilinayotgan tadqiqotlarga e'tibor berilsa, murojaat shakllarini o'rganish xilma-xil aspektlarda kechayotganligining guvohi bo'lamiz. Misol uchun turk tilshunos olimlari ham murojaat shakllari ustida talaygina tadqiqotlar olib borgan holda, bu hodisaga o'ziga xos munosabatlar, xulosalar bergan. Xususan, S.Alyilmazning fikriga ko'ra, "So'zlovchi-tinglovchi, adresant va adresat o'rtasidagi murojaatda qo'llaniladigan

so‘zlardir”[1] degan munosabatni bildiradi. Bundan tashqari murojat shakllari o‘rnida “hitaplar” jumlasini ishlatgan holatda Akindele H. Hitaplar suhbatdoshning e’tiborini jalb qilish vazifasini bajaradigan va suhbatdoshlar o‘rtasidagi yaqinlik, madaniy saviya, ijtimoiy maqom, o‘ziga xoslik jihatlarini hamda individual munosabalatlarini belgilovchi so‘zlardir.[2] degan tarifni beradi. Shuningdek, Özer N. turk tilidagi murojaat shakllarini so‘zlovchi nutqiga qanday imkoniyatlar berishi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tasniflashga harakat qilgan. Xossatan:

-*tinglovchilar diqqatini jalb qilish, hissiyotlarni yetkazish;*
-*tinglovchiga yondashuvni ko‘rsatish;*
-*nutqni boshlashda suhbatdoshga murojat qilish;*
-*nutq davomida tinglovchini diqqatini jamlash.*

kabilarni yozib[3], fikrini izohlaydi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Tadqiqotda **qiyoslash, tahlil qilish, umumiylashtirish, induksiya va deduksiya** kabi metodlardan foydalanilgan holatda maqola obyekti tahlilga tortilgan.

O‘zbek tilidagi murojat shakllariga to‘xtaladigan bo‘lsak, dastlab, murojaat aslida nima?, murojaat shakllarining tilimizdagi ahamiyati qay darajada? degan savollarni muhokamaga tortish o‘rinlidir.

**TAHLIL VA NATIJALAR.**

“Murojaat” so‘zi O‘zbek tilining izohli lug‘atida *“Birovga qarata aytilgan gap, qilingan da’vat, chaqiriq[4]”* deb izohlangan.

Nazarova N. o‘z tadqiqotida murojaat shakllarini izohlar ekan, “Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qo‘llaniladigan, o‘zaro aloqa almashinuviga xizmat qiladigan, so‘zlochining tinglochiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan, o‘zda turlicha konatativ ma’nolarni, semantik “ohanglarni” tashiydigan o‘tkir va ta’sirchan vositadir”[5] degan fikrni aytadi.

Bu kabi murojaat shakllarining o‘ziga xosligi, bu hodisa aslida qanday hodisa ekanligi borasida o‘z fikr va mulohazalarini keltirgan ko‘plab olimlarni aytib o‘tishimiz mumkin. Murojaat shakllarining adabiy tildagi holatlarni tahlilga tortar ekanmiz, bu hodisaning o‘zbek adabiy tilida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan til hodisalari ekanligini tasdig‘ini topib boramiz. Yuqoridida bildirilgan fikr va mulohazalarga e’tibor beradigan bo‘lsak, biz asosan ikki va undon ortiq insonlar o‘rtasidagi muloqat jarayonlarida so‘zlovchi va tinglovchi bir biriga qilgan murojatlarni izhohlashga haratakat qilinganini payqash mumkin. Negaki, murojaat shakllari daminanat holatda dastlab insonlar muloqati davomida ijtimoiy va nutqiy ehtiyojidan kelib chiqqan holatda qo‘llashga harakat qiladi va bu esa tadqiqotda aslida murojaat shakllari qanday jarayon ekanligini tushuntirishda tadqiqotchilarga qo‘l keladi. Shu kungacha maurojaat shakllari doirasida qilingan har qanday tadqiqotga e’tibor beradigan bo‘lsak, albatta, barcha o‘z ilmiy mushohadasini adrisat va adrisant o‘rtasidagi murjaat shakllarini vasila qilgan holatda tushuntirishga harakat qilganini, keltirgan misollari ham shu doiraga

[1] Ayyilmaz S. Ünlemlerın seslenmelerı kuvvet lendırıcı ışlevlerı. Erzurum; Atatürk Üniversitesi Türkiya Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 1998. – S. 34.
[2] Akindele H. Dele Ferni Sesotho Address Forms. – Türkiye; Linguistik online. 2013. -S. 34.
[3] Özer N. Address terms ın turkısh: a corpu-based study. -Mersin; Yüksek Lisans Tezi. Mersin Üniversitesi Sosya1 Bilimler Enstitüsü, 2019.
[4] https://izoh.uz/word/murojaat
[5] Nazarova N. Лингвистическое исследование антропоним в лесической системе. Центр научных публикаций: - https: buxdu.uz, 2022.-C.13.

tegishli ekanligini ko'rishimiz mukin. Endi biroz chuqurroq yondashgan holatda tahlil qilishga harakat qilamiz.

Murojaat shakllari haqida fikr va mulohaza yuritar ekanmiz, murojaat shakllari faqat insonlarga xos bo'lgan jarayon ekan degan tushunchaga borish biroz noto'g'ri eknaligini takidlash kerak. Murojaat shunday bir til hodisasiki, inson ijtimoiy hayotiga ta'sir qiladigan turli turkumlarni ham qamrab oladi. Inson nutqiy faoliyati davomida faqat insonlar haqida axborat almashmaganligi kabi, murojaat shakllari ham faqat insonlarnigina qamrab olmaganligiga asos bo'ladi.

N.Azapning "Türkiye Türkçesinde Hitap ve Ara Sözler(Duygu Sözleri)"[6] nomli tadqiqotida marojaatni ma'nosiga ko'ra guruhlarga bo'lish lozimligi, ularni alohida tur sifatida baholash kerakligini takidlaydi:

*-shaxsning ismlarini anglatadigan;*
*-boshqa tirik mavjudodlar nomini bildiradigan;*
*-jonsiz narsalarning nomini bildiradigan.*

Bu yerda ko'rishimiz mumkinki, insonni o'rab turgan va inson ijtimoiy hayotiga chuqur kirib kelgan barcha borliqdagi predmetlar qamrab olingan. Bu holatlar esa tilda akslanmay qolmaydi. Shu o'rinda shuni ham takidlash kerakki, turk olimining bu tasnifi turkiy tilda muloqat qiluvchi, turli lahjalarga ega bo'lgan barcha til egalariga tegishli holatdir. Faqat biroz farqliliklar mavjud. O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha o'zbeklar murojaat shakllarining qay biriga ko'proq ehtiyoj sezadi degan tabiiy savol tug'iladi. Barchamizga ma'lumki, o'zbek tili uchta(qarluq, qipchoq va o'g'iz) lahjani o'zida mujassamlashtirgan. Bu uchala lahcha vakillarida muraojaat shakllaridan foydalanish darajasi, o'ziga xos xususiyatlari turlicha. Bu lahja vakllarining turmush tarzi, tarixiy taraqqiyoti va bugungi rivojlanish evalutsiyasi turli xil ekanligi bilan bog'liq. Bu bir til doirasidagi lahjalar qamrovida izohlanishiga asos bo'ladi. Aynan shunday qonuniyat turkiy tilga mansub barcha tillarda o'ziga xos tarizda kechadi. O'sha biz takidlayotgan turkiy til egalari qayerda yashashi, qanday ijtimoiy muhitga ega ekanligi, atrofida qanday qo'shni xalqlar yashashi va til siyosatining qay darajada ekanligi va shu kabi ko'plab faktirlar murojaat shakllarining o'sha hududlarda va xalqlarda o'ziga xos tarizda shakllanishini ta'minlaydi.

M.Demirbaşnıng "Türkiye Türkçesi Ağızlarında Seslenme Sözleri"[7] nomli tadqiqotida Turkiya turkchasining to'rtta asosiy mintaqasi dialekti va har birida o'sha dialekt xususiyatlarini aniq aks etishi misollar asosida izohlangan. Hayvonlarga, jonsiz mavjudotlarga va ilohiy mavjudodlarga va shaxsning o'z-o'ziga murojaatlari haqida ham fikr-mulohazlar bildirilgan.

E.Yulduzning "Türkçede Sevgi Sözleri"[8] nomli ilmiy daqiqotida turk xalqining sevgi-muhabbatlarini og'zaki izhor qilishda ishlatiladigan murojaat shakllari haqidagi holatlarni muhokamaga tortadi. Tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz biz "murojaat shakllari" deb atayotgan til hodisasi inson nutqiy komunikatsiyasi jarayonida salmoqli o'rin tutadigan bir til birligi ekanligi nomayon bo'layveradi. Faqat bu hodisa turli

---

[6] Azap N., "Türkiye Türkçesinde Hitap ve Ara Sözler".-Sakarya, 2008.-S.79.
[7] Demirbash M. Türkiye Türkçesi Ağızlarında Seslerune Sözleri.-Eskişehir, 2017.-S.93.

xalqlarda turlicha nomlanishi, turli xil o'ziga xosliklarda nomoyon bo'lishi va turli darajada o'rganilganligi bilan bir biridan farq qilib turibdi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.**

Murojaat shakllari inson tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanib, so'zlovchi va tinglovchining nutqiy ehtiyoji tufayli, vaziyat taqazosi bilan voqeylangan til hosilasi hisoblanadi. Bugungi kunda turli tillarda o'rganilayotgan bu hodisa o'sha tilning ajralmas bir qismi ekanligi asoslanmoqda.

Biz ushbu maqolamizda murojaat shakllari aslida nima ekanligi, qay darajada o'rganilayotganligi va til tarkibidagi lahjalarda ham mavjudligini yuzga chiqarishga etibor qaratildi. O'zbek shevalarida ham bu hodisa o'ziga xos shakllarda saqlanib qolgan va sheva vakllari o'z nutqida bu hodisadan foydalanib kelinmoqda.

Bugungi kunda o'zbek adabiy tilda mavjud bo'lgan murojaat shakllarini shevalar kesimida ham o'rganish muhim tilshunoslik ishlaridan biri hisoblandi. Bu ishni amalga oshirish orqali o'zbek adabiy tili naqadar boy til ekanligini, serqirra va o'ziga xoslikka ega ekanligini yana-da mustahkamlash mumkin.

Shevalarimizda mavjud bo'lgan murojaat shakllarini barcha o'zbekzabon til vakillari nutqida yanada keng qo'llanishga erishish va ularni turli nuqtalardan turib o'rganish eng muhim vazifalardan birdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1.Samixon Ashirboyev "O'zbek dialektalogiyasi" Toshkent-2021.

2.Ro'ziqul Normurodov "O'zbek tilida ikkilamchi nominatsiya" Toshkent-2010.

3.Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent-1980.

4."O'zbek murojaat shakllarining ayrim ko'rinishlari", Atoyeva Sh.R. Maqola.

5.Ayyilmaz S. Ünlemlerın seslenmelerı kuvvet lendırıcı ışlevlerı. Erzurum; Atatürk Üniversitesi Türkiya Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 1998.

6. Akindele H. Dele Ferni Sesotho Address Forms. – Türkiye; Linguistik online.

7. Özer N. Address terms ın turkısh: a corpu-based study. -Mersin; Yüksek Lisans Tezi. Mersin Üniversitesi Sosya1 Bilimler Enstitüsü, 2019.

8. Nazarova N. Лингвистическое исследование антропоним в лесической системе. Центр научных публикаций: - https: buxdu.uz, 2022.

9. Azap N., "Türkiye Türkçesinde Hitap ve Ara Sözler".-Sakarya, 2008.

10. Demirbash M. Türkiye Türkçesi Ağızlarında Seslerune Sözleri.-Eskişehir, 2017.

**Internet saytlari**

1. www.literature.uz

2. www.genhis philol.ru

3. www.library.ziyonet.uz

4. www.google.com

5. https://izoh.uz/word/murojaat

6. https://docx.uz/document/o-zbek-va-turk-tillarida-murojaat-birliklari-dc110a7a?lang=ru.

# MUMTOZ ADABIYOTDA TASVIR VA RAMZLARNING ROLI

**Tursunova Dilso'z O'ralovna**
Qashqadaryo viloyati Qarshi xalqaro universiteti
Filologiya va tillarni o`qitish kafedrasi o`qituvchisi
tursunovadilsoz761@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8653-284X

***Anotatsiya.*** *Ushbu maqolada mumtoz adabiyotda tasvir va ramzlarning badiiy hamda falsafiy roli yoritilgan. Adabiy matnlar misolida tasviriylikning estetik ifoda vositasi sifatidagi o'rni, ramzlar orqali esa chuqur ma'naviy va ruhiy mazmunlarning ifodalanishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Bedil, So'fi Olloyor kabi mumtoz shoirlar ijodi misolida tasvir va ramzlarning o'zaro uyg'unligi, ularning g'azal janridagi badiiy yuklamasi ko'rsatiladi. Maqolada shuningdek, sufiyona tafakkurda ramzlar orqali ilohiy haqiqatning badiiy ifodasi o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *mumtoz adabiyot, tasvir, ramz, badiiy obraz, g'azal, sufiyona tafakkur, timsollar, estetik ifoda, ma'naviy mazmun.*

# РОЛЬ ОБРАЗОВ И СИМВОЛОВ В КЛАССИЧЕСКИОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

**Турсунова Дилсуз Ураловна**
Преподаватель кафедры филологии и преподования языков
Каршинского международнова университетаб Кашкадарьинская область
tursunovadilsoz761@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8653-284X

***Аннотация.*** *В данной статье освещается художественная и философская роль образов и символов в классической литературе. На примерах литературных текстов анализируется значение образности как средства эстетического выражения, а также раскрытие глубоких духовных и нравственных смыслов посредством символов. Особое внимание уделено творчеству таких классических поэтов, как Алишер Навои, Бедиль и Суфи Оллоёр, в чьих произведениях прослеживается гармония между образом и символом, а также их художественная нагрузка в жанре газели. В статье также рассматривается художественное выражение божественной истины через символику в контексте суфийского мировоззрения.*

***Ключевые слова:*** *классическая литература, образ, символ, художественный образ, газель, суфийское мышление, аллегории, эстетическое выражение, духовное содержание.*

# THE ROLE OF IMAGES AND SYMBOLS IN CLASSICAL LITERATURE

**Tursunova Dilso'z Uralovna**
Kashkadarya Region Karshi International University
Teacher of the Department of
Philology and Language Teacheng
tursunovadilsoz761@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8653-284X

***Annotation.*** *This article explores the artistic and philosophical role of imagery and symbolism in classical literature. Through examples from literary texts, it analyzes the function of imagery as a means of aesthetic expression and the representation of deep spiritual and moral meanings through symbols. Special attention is given to the works of classical poets such as Alisher Navoi, Bedil, and Sufi Olloyor, highlighting the harmony between imagery and symbolism and their artistic weight within the ghazal genre. The article also examines how divine truth is artistically expressed through symbolic language in the context of Sufi thought.*

***Keywords:*** *classical literature, imagery, symbolism, artistic image, ghazal, Sufi thought, allegory, aesthetic expression, spiritual meaning.*

**Kirish.** Mumtoz adabiyot – bu Sharq xalqlari, xususan o'zbek, fors-tojik, arab, turk adabiy an'analariga asoslangan yuksak badiiy va falsafiy merosdir. Ushbu

adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biri – tasvir va ramzlar (simvol) orqali mazmunni boyitish, ichki ma'nolarni berkitish, o'quvchini fikr va tafakkurga undash san'atidir. Mumtoz shoirlar har bir so'z ortiga chuqur ma'no yuklash, tashqi shakl orqali ichki mohiyatni anglatish bilan ajralib turadilar. Ayniqsa, g'azal janrida tasviriylik va ramziylikning tutgan o'rni beqiyosdir.

Mumtoz adabiyotda tasvir (tasviriylik) - voqeani, holatni yoki his-tuyg'uni badiiy obrazlar orqali ko'rsatish vositasidir. Shoir real hayotiy holatni emas, balki shu holatning estetik qiyofasini, badiiy in'ikosini yaratadi. Masalan, Alisher Navoiy, Hofiz, Sa'diy, Bedil kabi shoirlar gul, bulbul, shabnam, oy, yulduz, sahro, daryo kabi obrazlar orqali sevgining, hijronning, ma'naviy iztirob va ilohiy orzularning ramzini yaratadilar.

Misol uchun, Navoiy g'azallarida "gul" obrazining ikki qatlamli ma'nosi bor: u bir tomondan go'zallik timsoli bo'lsa, ikkinchi tomondan ma'naviy kamolot, ilohiy go'zallik timsolidir. Shu tariqa tasvir vositasida shoir o'z g'oyasini nafaqat tushunarli, balki estetik jihatdan nafis shaklda ifodalaydi.

Ramz – bu konkret obraz orqali mavhum (abstrakt) tushunchalarni ifodalovchi badiiy vositadir. Mumtoz adabiyotda ramzlar ko'pincha ko'p qatlamli, ya'ni bir nechta ma'noni anglatishi mumkin. Ramzlar diniy, falsafiy, ruhiy tushunchalarni poetik ifodalashda muhim o'rin tutadi.

Misol uchun:

- **Bulbul** – oshiq qalbning timsoli;
- **Gul** – mahbub (ya'ni sevgili), go'zallik;
- **Sahro** – dunyo hayoti, iztirob, yolg'izlik;
- **Zanjir** – ishq zanjiri, bog'liqlik, topshiriqlik;
- **Sharob** – ilohiy ishq, ma'rifat;

Bedil shunday yozadi:

*"Zohirda may, botinda haqiqat yashar,Ramz ichra sir, har harfda ma'nolar bor."*

Bu misralarda ramzlarning ikki qatlamli tuzilishi ko'rinadi: may – nafaqat ichimlik, balki ilohiy haqiqat, ruhiy sarxushlik ramzidir.

Tasvir va ramzning o'zaro uyg'unligi mumtoz adabiyotning estetik tizimini belgilaydi. Ramziy obrazlar ko'pincha tasviriy shaklda namoyon bo'ladi. Ya'ni bir ramzning o'ziyoq butun bir she'riy tizimda turli tasvirlar orqali ochib boriladi. Shoir o'zining badiiy maqsadiga qarab, tasvir va ramz vositasida ko'p qatlamli poetik makon yaratadi. Bunday uslub o'quvchidan ham fikrlash, tahlil qilish, anglashni talab etadi. Tasvir va ramzlar orqali mumtoz shoirlar o'z davrining ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muammolarini ham ifoda etganlar. Ayniqsa, sufiyona adabiyotda bu vositalar orqali ilohiy haqiqatni anglash, ruhiy poklanish, dunyodan kechish g'oyalari ilgari suriladi. Masalan, Ahmad Yassaviy, Navoiy, So'fi Olloyor kabi mutasavvif shoirlar ramzlar orqali insonning Allohga intilishi, dunyoviy nafsdan voz kechish kabi yuksak g'oyalarni badiiylashtirganlar.

Mumtoz adabiyotda tasvir va ramzlar faqatgina bezak emas, balki badiiy fikrning asosiy ifoda vositalaridir. Ular orqali shoir o'zining estetik, falsafiy, ma'naviy

qarashlarini chuqur va ko'p qatlamli shaklda bayon qiladi. Tasvir va ramzlarning uyg'unligi esa bu adabiyotning betakror go'zalligi va ruhiy kuchini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada mumtoz adabiyotda tasvir va ramzlarning badiiy va ma'naviy funksiyasini o'rganish maqsadida tarixiy-adabiy manbalar, mumtoz shoirlar devonlari, zamonaviy adabiyotshunoslik ishlari tahlil qilindi. Asosiy maqola materiali sifatida Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Bedil, So'fi Olloyor kabi mashhur mumtoz shoirlarning g'azallari va nasriy asarlari tanlab olindi.

maqolada quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi:

- Matnshunoslik tahlili – mumtoz she'riy matnlardagi tasvir va ramzlar matndagi kontekst asosida o'rganildi;
- Semantik tahlil – tasviriy obrazlarning ichki mazmuni, ramzlar orqali ifodalangan falsafiy tushunchalar tahlil qilindi;
- Tarixiy yondashuv – tasvir va ramzlarning o'z davri adabiy-estetik qarashlari bilan bog'liqligi aniqlanib, ularning davriy o'zgarishi kuzatildi;
- Taqqosiy tahlil – turli shoirlar asarlarida o'xshash ramzlarning qanday ma'noda ishlatilgani solishtirildi;
- Sufiyona tafakkur tahlili – ramzlarning tasavvufiy ma'nolari va ularning ruhiy-ma'naviy kontekstda qo'llanilishi o'rganildi.

Shuningdek, aniqlanishicha, mumtoz adabiyotda tasvir va ramzlar nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki chuqur falsafiy va ruhiy mazmunni yetkazuvchi asosiy estetik elementlar hisoblanadi. Shoirlar real hayotiy voqealarni bevosita emas, balki ramziy tasvirlar orqali, o'quvchini fikr yuritishga undaydigan ko'p qatlamli poetik makonda ifoda etganlar.

Tasviriylikning funksional jihatlari o'rganilganda, ularning g'azal janrida emotsional holatni berish, ruhiy kechinmalarni jonlantirish va estetik zavq uyg'otish kabi vazifalarni bajarayotgani kuzatildi. Ayniqsa, Alisher Navoiy g'azallarida tasviriy ifodalar orqali nafaqat ishqiy tuyg'ular, balki sufiyona tafakkurga xos ma'naviy iztirob va ruhiy poklanish jarayoni tasvirlangan.

Ramzlar esa tasvirga nisbatan yanada murakkab va chuqur qatlamli ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Mumtoz shoirlar ko'pincha diniy, falsafiy, axloqiy tushunchalarni bevosita emas, balki ramzlar orqali anglatishni ma'qul ko'rganlar. Misol uchun, bulbul obrazining faqat go'zallik yoki ishq emas, balki ilohiy haqiqatni izlovchi ruhning timsoli sifatida ishlatilgani aniqlangan. Xuddi shunday, may obrazi ko'pincha jismoniy mastlik emas, balki ilohiy ishq va ma'rifatning ramzi sifatida tushuniladi.

Ko`rinadiki, tasvir va ramzlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham alohida e'tiborga sazovor bo'ldi. Har bir ramz ko'pincha badiiy tasvir shaklida ifodalanadi. Bu esa, ularning she'r tuzilmasida mustahkam semantik va ritmik tizim yaratishini ta'minlaydi. Bunday qatlamli ifoda shakli o'quvchini matn bilan ruhiy-intellektual muloqotga chorlaydi.

Shuningdek, mumtoz adabiyotdagi tasvir va ramzlarning sufiyona tafakkur bilan uzviy bog'liqligi tasdiqlandi. Jumladan, So'fi Olloyor va Bedil ijodida ramziy obrazlar orqali insonning nafsdan xalos bo'lishi, ruhiy kamolotga erishishi, Haq bilan

yagonalashishi kabi murakkab g'oyalar badiiy shaklda ifodalangan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, ramzlar orqali adabiy matnda nafaqat estetik, balki axloqiy-tarbiyaviy va diniy-falsafiy ta'sir ko'zda tutilgan.

Umuman olganda, mumtoz adabiyotda tasvir va ramzlar shoirning san'atkorlik mahoratini, poetik tafakkurini va ma'naviy olamini ifoda etuvchi eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qilgan. Ular orqali badiiy matn chuqurlashtirilgan, ko'p ma'noli kontekst yaratilgan va o'quvchi ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi kuchli estetik tizim shakllangan.

**Xulosa.** Mumtoz adabiyotda tasvir va ramzlar shoirning badiiy niyatini chuqur ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu vositalar orqali shoir o'z tuyg'ularini, falsafiy qarashlarini va ruhiy kechinmalarini o'quvchiga nafaqat ko'rinarli, balki his etiladigan tarzda yetkazadi. Tasviriylik she'rning estetik ohangini belgilovchi, obrazlar orqali mazmunni his etishga yordam beruvchi asosiy badiiy element bo'lsa, ramzlar esa bu tasvirlarning ma'naviy va falsafiy qatlamini ochuvchi kalitdir. Shu tariqa, tasvir va ramzlarning uyg'unligi mumtoz she'riyatning falsafiy chuqurligini, badiiy go'zalligini va ruhiy ta'sirchanligini ta'minlovchi eng muhim poetik mexanizmlardan biri sifatida qaraladi. Ushbu jihatlar mumtoz adabiyotni abadiy ahamiyat kasb etuvchi madaniy meros darajasiga ko'taradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy, A. (1992). *G'azaliyot*. Toshkent: O'zbekiston.
2. Bedil, A. (2005). *Devon*. Dushanbe: Irfon.
3. To'raev, S. (2010). *O'zbek mumtoz adabiyotida badiiy tasvir vositalari*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Shukurov, S. (2001). *Tasvir va ramz: Sharq poetikasida timsollar*. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Karimov, H. (2015). *Ramz va ma'no: Sufiyona adabiyot poetikasi*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
6. Sulton, A. *Mumtoz adabiyotda ramz va timsollar*. – Toshkent: Yozuvchi, 1997.
7. Axmedov, A. *Badiiy adabiyot va hayot*. – Toshkent: O'qituvchi, 1986.
8. Yusupov, Sh. *Mumtoz she'riyatda ramziy ma'no va obrazlar talqini*. – Toshkent: Fan, 2010.

# ESP KURSLARIDA PRODUKTIV TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: TALABALAR EHTIYOJLARI ASOSIDA YONDASHUV

**Ochilov Anvar Maxamad o'g'li**
*Qarshi xalqaro universiteti «Filologiya va tillarni o'qitish» Kafedrasi o'qituvchisi*
Anvarochilov013@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish (ESP) kurslarida talabalar ehtiyojlari asosida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqilgan. Produktiv til ko'nikmalari, ya'ni yozish va gapirish, kasbiy muloqotda samarali ishtirok etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar va differensial yondashuvlar asosida bu ko'nikmalarni shakllantirish strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ESP kurslarining samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:*** *ESP, produktiv ko'nikmalar, yozma nutq, og'zaki nutq, til o'rgatish strategiyalari, talabalar ehtiyojlari, differensial yondashuv*

# РАЗВИТИЕ ПРОДУКТИВНЫХ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ НА КУРСАХ ESP: ПОТРЕБНОСТИ СТУДЕНТОВ

**Ачилов Анвар Махамадович**
Преподаватель кафедры «*филология и преподавание языков*»
*Каршинского международного университета*
Anvarochilov013@gmail.com

***Аннотация***: *В данной статье рассматривается развитие письменных и устных навыков на основе потребностей студентов на курсах английского языка для специальных целей (ESP). Продуктивные языковые навыки, т. е. письмо и говорение, необходимы для эффективного участия в профессиональной коммуникации. В статье анализируются стратегии развития этих навыков на основе современных образовательных технологий, интерактивных методов и дифференцированных подходов. Результаты исследования имеют практическое значение для повышения эффективности курсов ESP.*

***Ключевые слова:*** *ESP, продуктивные навыки, письмо, говорение, стратегии обучения языку, потребности студентов, дифференцированный подход*

# DEVELOPING PRODUCTIVE LANGUAGE SKILLS IN ESP COURSES: A STUDENT NEEDS-BASED APPROACH

**Ochilov Anvar Maxamad o'g'li**
*Karshi International University*
Lecturer at the Department of «Philology and language teaching»
Anvarochilov013@gmail.com

***Abstract***: *This article examines the development of written and oral skills based on the needs of students in English for Special Purposes (ESP) courses. Productive language skills, i.e. writing and speaking, are essential for effective participation in professional communication. The article analyzes strategies for developing these skills based on modern educational technologies, interactive methods, and differentiated approaches. The results of the study have practical significance in improving the effectiveness of ESP courses.*

***Keywords***: *ESP, productive skills, writing, speaking, language teaching strategies, student needs, differentiated approach*

## Kirish.

Globalizatsiya va texnologik taraqqiyot zamonaviy kasb egalari uchun xorijiy, ayniqsa, ingliz tilida samarali muloqot qilish zaruratini keskin oshirdi. Ingliz tili bugungi kunda nafaqat xalqaro aloqalar, balki ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, tibbiy, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi ko'plab sohalarda asosiy kommunikatsiya vositasiga aylangan. Shunday sharoitda **maxsus maqsadlarda ingliz tili (ESP – English for Specific Purposes)** kurslariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. ESP kurslarining asosiy vazifasi – til o'rganishni ma'lum bir kasbiy kontekst bilan uyg'unlashtirishdir.

ESP ta'limi umumiy ingliz tili ta'limidan tubdan farq qiladi. Uning mazmuni talabaning kasbiy faoliyatidagi real ehtiyojlariga asoslanadi: tibbiyot xodimi bemor bilan qanday muloqot qilishi, muhandis texnik hujjatlarni qanday o'qishi va tushunishi, iqtisodchi esa hisobot va grafiklar asosida qanday taqdimot o'tkazishi kerakligi kabi vaziyatlar ESP kurslarining mazmunini belgilaydi. Bu esa nafaqat tilning leksik-grammatik jihatlarini o'zlashtirishni, balki real kommunikatsion ko'nikmalarni rivojlantirishni taqozo etadi.

ESP kurslarining markazida aynan **produktive ko'nikmalar — yozish va og'zaki nutq** turadi. Chunki bu ko'nikmalar kasbiy vazifalarni bajarishda, fikr

almashishda, muammoli vaziyatlarga yondashishda asosiy vositadir. Talaba yozma shaklda hisobot tayyorlay olmasa yoki og'zaki ravishda fikrini aniq ifoda eta olmasa, tilni bilish darajasi yetarli bo'lmay qoladi. Shuning uchun ESP kurslari doirasida aynan yozish (writing) va gapirish (speaking) ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha aniq yondashuvlar zarur.

Ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatadiki, an'anaviy metodlar produktiv ko'nikmalarni shakllantirishda yetarli darajada samarali emas. Shu bois zamonaviy ta'lim texnologiyalariga, kommunikativ yondashuvga va talabalar ehtiyojiga mos metodlarga asoslanish muhimdir. Shuningdek, ESP doirasida interfaol metodlar, rol o'yinlari, muammoli topshiriqlar, raqamli texnologiyalar (masalan, Flipgrid, Padlet, Google Docs) orqali mashg'ulotlarni tashkil etish produktiv ko'nikmalarning shakllanishiga kuchli turtki beradi.

Mazkur maqolada aynan **ESP kurslarida produktiv ko'nikmalarni talabalar ehtiyojlari asosida rivojlantirish** masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada mavjud metodik yondashuvlar, zamonaviy texnologik vositalar va ta'lim strategiyalarining o'rni o'rganiladi hamda ESP kurslari samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Adabiyotlar tahlili**: ESP (English for Specific Purposes) yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar til o'qitishning maqsadga yo'naltirilgan, kontekstual va kasbiy ehtiyojlarga asoslangan metodlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bu sohadagi ilmiy manbalarni tahlil qilish orqali ESP kurslarida produktiv til ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha samarali yondashuvlar shakllanmoqda.

Hutchinson va Waters (1987). Hutchinson va Waters tomonidan yozilgan "English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach" asari ESP metodologiyasining nazariy asoslarini belgilab berdi. Mualliflar ESPni o'rganishda til o'rganuvchining ehtiyojlarini markazga qo'yishni, o'quv jarayonini faqat til emas, balki kommunikatsiya konteksti bilan bog'lashni tavsiya etadi. Ularning yondashuvi ESP kurslarida yozma va og'zaki nutqni real hayotiy holatlar asosida rivojlantirishga urg'u beradi.

Dudley-Evans va St John (1998) Dudley-Evans va St John'ning "Developments in English for Specific Purposes" asari ESP'ni kasbiy va akademik kontekstda qo'llashga e'tibor qaratadi. Ular ESP kurslarini ikki bosqichda ko'rib chiqadi: ehtiyojlarni aniqlash va unga mos materiallar yaratish. Ayniqsa, og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda simulatsiyalar, rol o'yinlari va interfaol metodlarning ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Basturkmen (2010). Basturkmenning "Developing Courses in English for Specific Purposes" nomli asarida ESP kurslarini loyihalash jarayoni chuqur tahlil qilinadi. Unga ko'ra, yozma nutqni rivojlantirish uchun strukturaviy yozuv (structured writing), til funksiyalariga asoslangan topshiriqlar va reflektiv yozish (reflective writing) usullaridan foydalanish taklif etiladi. Bu yondashuvlar ayniqsa akademik yozuvni o'rgatishda foydalidir.

Flowerdew (2013) Flowerdew o'zining "Discourse in English Language Education" asarida ESP kontekstida nutq va yozuv janrlarini o'rganishga e'tibor qaratadi. Uningcha, yozma va og'zaki nutq turli kasbiy janrlarga mos bo'lishi lozim:

masalan, ilmiy maqola, biznes prezentatsiya, texnik hisobot. Bu yondashuv ESP talabalarining kasbiy faoliyatda muloqot qilish malakasini real kontekstda shakllantirishga xizmat qiladi.

Anthony (2018) Anthony tomonidan yozilgan "Introducing English for Specific Purposes" kitobida ESP doirasidagi zamonaviy yondashuvlar, jumladan, texnologiyalarning oʻrni keng yoritilgan. Muallif raqamli platformalar (YouTube, Flipgrid, Moodle, Padlet) orqali talabalar bilan yozma va ogʻzaki muloqotni mashq qilishni samarali deb hisoblaydi. Ayniqsa, video feedback va peer review tizimlari produktiv koʻnikmalarni rivojlantirishda ijobiy ta’sir koʻrsatishini koʻrsatadi.

Xulosa sifatida: Tahlil qilingan manbalar shuni koʻrsatadiki, ESP kurslarida produktiv til koʻnikmalarini rivojlantirish uchun talabalar ehtiyojlariga asoslangan, kasbiy kontekstda qurilgan, interfaol va texnologik yondashuvlar zarur. Yozma va ogʻzaki nutqni oʻrgatishda faqat grammatika va lugʻat bilan cheklanib qolmaslik, balki real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish — zamonaviy ESP kurslarining asosiy talabi boʻlib bormoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Mazkur tadqiqotda ingliz tilini maxsus maqsadlarda oʻqitish (ESP) kurslarida produktiv til koʻnikmalarini (yozish va ogʻzaki nutq) rivojlantirish boʻyicha mavjud metodlar va ularning samaradorligi oʻrganildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida kommunikativ yondashuv, ehtiyojga asoslangan ta’lim nazariyasi, konstruktivistik pedagogika va amaliy til oʻrgatish konsepsiyalari asos qilib olindi. **Tadqiqot turi.** Tadqiqot aralash metod (mixed-method) uslubda olib borildi, ya’ni sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tahlillar birgalikda qoʻllandi. Bu esa ESP kurslarining real ta’lim jarayonidagi ahvoli, talabalar ehtiyojlari va natijalarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

**Tadqiqot ishtirokchilari:** Tadqiqot Oʻzbekistonning turli oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 120 nafar talaba (tibbiyot, muhandislik, iqtisod yoʻnalishlari boʻyicha) hamda 10 nafar ESP oʻqituvchilari ishtirokida olib borildi. Talabalar 2-semestrdan 4-kursgacha boʻlgan bosqichlarda oʻqiydiganlar orasidan tanlab olindi. Tanlash tasodifiy tanlama (random sampling) asosida amalga oshirildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish usullari: Miqdoriy ma’lumotlar (soʻrovnoma natijalari) SPSS dasturi yordamida statistik jihatdan tahlil qilindi. Oʻrtacha qiymat (mean), dispersiya (variance), hamda korrelyatsiya (Pearson correlation) koʻrsatkichlari hisoblandi.

Sifat tahlili esa tematik tahlil (thematic analysis) asosida amalga oshirildi. Intervyular va yozma ishlardan asosiy mavzular ajratib olindi va kategoriyalar boʻyicha tizimlashtirildi.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar asos qilib olindi:

Konstruktivistik yondashuv – talabani faol ishtirokchi sifatida koʻrish, bilimni oʻzi qurishi gʻoyasiga asoslangan.

Kommunikativ metodika – til oʻrganishda real muloqot vaziyatlarini yaratish orqali oʻrgatish.

Ehtiyojga asoslangan ta’lim – talaba kasbiy faoliyatida qanday til koʻnikmalariga ega boʻlishi zarurligini aniqlab, oʻquv mazmunini moslashtirish.

**Tahlil va natijalar:** Mazkur tadqiqot doirasida olingan sifat va miqdoriy ma'lumotlar tahlili ESP kurslarida produktiv til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi dolzarb muammolar, samarali metodlar hamda talabalar ehtiyojlari bilan bog'liq muhim natijalarni yuzaga chiqardi.

1. So'rovnoma natijalari (miqdoriy tahlil)

Tadqiqotda ishtirok etgan 120 nafar talabaning javoblari asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Talabalar ehtiyojlari: 82% talabalar ESP kurslarida og'zaki muloqot (speaking) ko'nikmasini rivojlantirishni asosiy ehtiyoj sifatida ko'rsatgan. 67% talabalar **yozma nutq (writing)**da ayniqsa rasmiy matnlar — elektron xatlar, hisobot va taqdimot matnlarini tuzishda qiynalayotganini bildirgan.

O'qitish metodlari: 70% talaba o'qituvchi asosan grammatikaga e'tibor berishini, real muloqot vaziyatlari kam qo'llanilishini tan olgan. 76% talaba interfaol metodlar, rol o'yinlari, juftlikdagi mashqlar yetarli darajada qo'llanilmagani uchun darslar unchalik samarali emasligini bildirgan.

Raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi: Talabalarning 60 foizi Flipgrid, Padlet, YouTube kabi raqamli platformalarni faqat mustaqil o'rganishda foydalanganini, lekin ular o'quv darslarida sistematik tarzda ishlatilmasligini aytgan.

2. Intervyu tahlili (sifat tahlil**)**

ESP o'qituvchilari bilan o'tkazilgan yarim-strukturaviy suhbatlar quyidagi muhim mavzularni yoritdi:

Yondashuvlar: O'qituvchilarning aksariyati kommunikativ yondashuv zarurligini tan olgan bo'lsa-da, mavjud o'quv dasturlarining rigid (qat'iy va moslashuvchan emas)ligi sababli moslashtirilgan metodlarni amaliyotda doimiy qo'llashda muammolar mavjudligini ta'kidlashgan.

Muammolar: Ko'pchilik o'qituvchilar materiallar va topshiriqlarning kasbiy sohalarga to'liq mos kelmasligi, talabalar bilan og'zaki mashg'ulotlarni tashkil qilishda vaqt va texnik imkoniyatlar cheklanganini bildirgan.

Innovatsiyalar: Biroq ayrim ilg'or o'qituvchilar video taqdimotlar, fikr almashuv platformalari (Padlet), yozma ishlarga peer-review metodini joriy etish orqali talabalarda sezilarli rivojlanish kuzatilganini ta'kidlagan.

3. Kuzatuv natijalari va yozma/og'zaki ishlar tahlili

Bevosita kuzatilgan 6 ta ESP mashg'ulot va 24 nafar talabaning yozma va og'zaki ishlari quyidagi mezonlar bo'yicha baholandi:

Yozma nutq: O'rtacha talaba yozgan matnlarda strukturaviy kamchiliklar (kirish-xulosa qismlar yo'qligi), kasbiy leksikaning noto'g'ri qo'llanishi, va grammatik xatolar mavjud. Shu bilan birga, mustaqil fikr bildirish darajasi yetarli emasligi aniqlangan.

Og'zaki nutq: Talabalar og'zaki chiqishlarida talafuzdagi muammolar, pausalik (pauza qilish) va fikrni uzluksiz bayon qilishdagi qiyinchiliklarni namoyon etgan. Biroq, ilgari videoyozuv asosida mashg'ulot o'tkazilgan guruhda talafuz va ifoda qobiliyatining yuqoriligi qayd etildi.

Shu bilan birga, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi. Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, ishlari izchil davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

**Foydalangan adabiyotlar.**

1. "Ta'lim tag'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" 1997 yil avgust.

2. "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" № 5313-son farmon 2018 yil 25 yanvar

3. O'zR VMning 1998 yil 23 sentyabrdagi 406 sonli «1999-2005 yillarda akademik litsey va kasb-xunar kollejlarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi to'g'risida»gi qarori.

4.Boymurodov Sh "O'zbekistonda o'rta maxsus ta'lim sohasidagi islohatlari va uning ahamiyati" O'tmishga nazar jurnali jurnal 2021 y 3 son 4 jild

5. Matqurbonov Q. Kadrlar tayyorlash milliy modeli dunyo tajribasi va milliy xususiyatlarimizni o'zida mujassam etgan o'ziga xos noyob hodisa. // «Ma'rifat» gazetasi, 2013 yil 6 fevral.

---

# ETNIK NIZOLARNING GEOSIYOSIY MUNOSABATLAR TA'SIRI

**Omonov Baxodir Nurillayevich**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.d (DSc), professor
E-mail: bakhodiron@gmail.com
ORCID ID 0009-0000-7245-5600

***Annotatsiya:*** *Maqolada, etnik nizolarning Markaziy Osiyo davlatlari taraqqiyotidagi xavfi, mintaqada sobiq ittifoq davrida amalaga oshirilgan millatchilik kayfiyatini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy omillar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida etnik nizolarni bartaraf etishning geosiyosiy jihatlari ilmiy tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar.*** *Etnik nizo, yer resurslari, suv resurslari, millatchilik, umumjahon taraqqiyoti, maslahat kengashi, milliy qadriyatlar, demokratik tamoyillar, g'oyaviy yaqinlashish, ilg'or ziyolilar, geosiyosiy nazariya.*

# ВЛИЯНИЕ ЭТНИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ НА ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ

**Омонов Баходир Нуриллаевич**
Заведующий кафедрой социальных наук
Шахрисабзского государственного педагогического института,
доктор философских наук (DSc), профессор
Электронная почта: bakhodiron@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-7245-5600

***Аннотация:*** *В статье рассматривается опасность этнических конфликтов в развитии стран Центральной Азии, социально-политические факторы формирования националистических настроений, реализовавшихся в регионе в период бывшего союза. Также научно проанализированы геополитические аспекты устранения этнических конфликтов в Центральноазиатском регионе.*

***Ключевые слова.*** *Этнический конфликт, земельные ресурсы, водные ресурсы, национализм, глобальное развитие, консультативный совет, национальные ценности, демократические принципы, идеологическая конвергенция, прогрессивная интеллигенция, геополитическая теория.*

# THE IMPACT OF ETHNIC CONFLICTS ON GEOPOLITICAL RELATIONS

**Bakhodir Nurillayevich Omonov**
Head of the Department of Social Sciences,
Shahrisabz State Pedagogical Institute
Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Email: bakhodiron@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-7245-5600

***Annotation:*** *The article examines the danger of ethnic conflicts in the development of the countries of Central Asia, the socio-political factors in the formation of nationalist sentiments that were realized in the region during the period of the former union. The geopolitical aspects of eliminating ethnic conflicts in the Central Asian region are also scientifically analyzed.*

***Key words.*** *Ethnic conflict, land resources, water resources, nationalism, global development, advisory council, national values, democratic principles, ideological convergence, progressive intelligentsia, geopolitical theory.*

**Kirish**. Markaziy Osiyo mamlakatlarining taraqqiyot yo'li o'zaro mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish asnosida kechishi mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab aniqlik kasb etgan edi. Sobiq ittifoq davridan meros bo'lib qolgan etnik nizolar Yangi ming yillikda ham o'z kuchini ko'rsatmoqda. Etnik nizolarning mavjudligi ijtimoiy taraqqiyotga juda keskin ta'sir etmoqda. Shunga ko'ra, ushbu mavzuni ilmiy-amaliy jihatlarini har tomonlama o'rganishni yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Etnik nizolarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy jihatlari mamlakatimiz va xorijiy faylasuflar, siyosatshunoslar, adabiyotshunoslar va boshqa soha olimlari tomonidan o'rganilgan. Masalan, ijtimoiy-сиёсiy nuqtai nazardan, S.Mamashakirov, Q.Nazarov, A.Choriyev, S.Choriyev, A.Erkayev, J.Yaxshilikov, O.G'aybullayev, A.Aymatov, O'.Tilavov, S.Otamurodov, N.Qosimov, G.Ochilova, A.Muxtorov, B.Aliyev siyosiy va geosiyosiy tomonlari X.Odilqoriyev, D.Razzoqov, I.Ergashev, H.Azimov, M.Qirg'izboyev, B.Omonov, T.Jo'rayev va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan. Etnik

nizolar haqidagi ta'limotlar qiyosiy tahlil qilingan, siyosiy fikrlar umumlashtirilib geosiyosiy xulosalar berilgan.

**Tahlil va natijalar.** Markaziy Osiyoda ham geosiyosiy ziddiyatlar mavjud bo'lib, biri milliy etnik nizolar bo'lib, mintaqa davlatlarining barchasi polietnik guruh tipidpgi mamlakatlardir. Masalan, O'zbekistonda 130 dan, Qozog'istonda 130 dan, Tojikistonda 80 dan, Turkmanistonda 60 dan, Qirg'izistonda 100 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. Sobiq Ittifoq tuzimidan qolgan o'ta xavfli nizolarni keltirib chiqaruvchi va bugungi kunda ham keng ko'lamli ta'sir doirasiga ega bo'lgan etnik guruhlar va millatlar o'rtasida mintaqaviy xavfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi omillardan biri ekanligi o'z isbotini topgan. Chor Rossiyasi ham undan keyin tashkil topgan Ittifoq siyosatida ham o'z e'tiqodiga, xalqiga sadoqatli bo'lgan shaxslarni millatchilikda ayblab qatog'on qilgan edi. Mintaqaning milliy xususiyatlarini yo'qotib, majburiy baynalminallashtirish va ko'p millatli birlikni shakllantirishga intildi. Sun'iy ravishda xalqlar va millatlarni yaqinlashtirishga qaratilgan siyosat yashirin "millatchilik" g'oyalarini kuchayishiga zamin yaratdi. Stalin tomonidan amalga oshirilgan ko'chirish siyosatida ham mustamlaka respublikalarni doimiy boshqarishga qaratilgan reja mujassamlashgani sir emas. Aynan mayda millatlarni mahalliy xalq orasida shakllantirib ularga juda katta imkoniyatlar (yaxshi yashash joylari, normal ish o'rinlari, mahalliy aholini nazorat qilish va Markazga ma'lumot barishga undash va h.klar)ni berish orqali o'zaro tiyib turish jarayonlariga e'tibor qaratildi. Bu holat boshqaruvda yengillikni keltirsa-da, keyinchalik milliy etnik nizolar va mahalliychilikni kuchaytirib yubordi. 1920-1930 yillardagi sanoatlashtirish, xalqlarni deportatsiya qilish va majburiy ko'chirish, urbanizatsiya jarayonlarining faollashuvi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatdi. 1980 yillarning oxirlarida milliy etnik nizolar sobiq Ittifoqda shu jumladan Markaziy Osiyoda ham keng qamrovli tus oldi. Natijada 1989 yilda Farg'ona viloyatining Quvasoy, Marg'ilon va Qo'qon shaharlarida, Toshkent viloyatining Parkent va Bo'ka tumanlarida, Namangan viloyati, Qirg'izistonning O'sh, Tojikistonning tog'li Badaxshon viloyatlarida bir-biriga bog'liq bo'lgan etnik nizolarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi mintaqaning mustaqil davlatlariga meros bo'lib qoldi.

Mustaqillikni ilk yillarida Tojikistonda etnik nizolar fuqarolik urushini keltirib chiqardi. Buning ta'siri butun Markaziy Osiyo mintaqasini keng qamrab ola boshladi. O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston davlatlarida ham bu jarayonlarning ziddiyatli tus olishi kuzatildi. Natijada mintaqa davlatlari integratsion jarayonlarida muammoli vaziyatlarni keltirib chiqardi. Mintaqaning barcha davlatlarida ochiqcha qarama-qarshilik yuzaga kelmasada, etnik nizolar pishib yetilgan edi. 2010 yilda Qirg'izistonda ro'y bergan etnik nizolarni xavfli tus olishida ham mana shu ziddiyatlarning natijasi deb qarash mumkin.

Markaziy Osiyoda ro'y berishi mumkin bo'lgan etnik nizolar haqida siyosiy tahlilchilar guruhi fikrlarida – mintaqa keng miqiyosli ixtiloflardan holi hudud, lekin chegaraviy nizolar va etnik ziddiyatlar unga begona emasligini – bildiradilar. Jorj Vashington universitetida tadqiqot olib borayotgan Qirg'izistonlik Diana Mamatovaning xulosasiga ko'ra – ixtiloflar so'ngi yillarda odatiy xolga aylangan, 2010 – 2013 yillar orasida tojik-qirg'iz chegarasida 60 dan ortiq, qirg'iz-o'zbek chegarasida ularning soni 100 dan oshganligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi nizolarni keltirib

chiqarayotgan omillarni: mintaqada chegaralarni aniq belgilanmaganligi bois xavfsizlik kuchaytirilganligi; suv va yer resurslari ustidan kurashning avj olishi; tobora avj olayotgan millatchilikni [2] – asosiy sabab qilib ko'rsatadi.

Bo'hronlarni o'rganish xalqaro guruhining Markaziy Osiyo dasturi rahbari Pol Kvin Jaj mintaqada etnik nizolar omili anchaligini, bunga sabab sifatida Qirg'izistonning O'sh viloyatidagi voqealarni misol tariqasida keltiradi. U O'zbekistonning Tojikiston, Tojikistonning Qirg'iziston, Afg'oniston hattoki Qozog'iston chegaralarida ham etnik nizolar chiqib turganligini ta'kidlaydi. Pol Kvin Jaj nizolarni avj olishini –mintaqada mavjud muammolarni to'g'ri va real hal qila oladigan liderlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik [2] - natijasi sifatida qaraydi. Xalqaro masalalar bo'yicha mustaqil tahlilchi Rashid G'ani Abdullo Markaziy Osiyoda nizolar etnik ozchilikni tashkil qiladigan millat vakillari manfaatlarining inobodga olinmasligini sabab sifatida ko'rsatadi. U – bunday davlatlarda yashayotgan milliy ozchilik vakillari manfaatlari albatta etiborga olinishi shart. Ko'p hollarda buning aksi kuzatiladi. Etnik ozchilik vakillarining son jihatini e'tiborga olgan holda, ularning davlat boshqaruvi tizimida ishtirokini ta'minlash lozim – degan xulosasini keltirgan. Tojikistonlik tahlilchi Farrux Umarov mintaqada ro'y berayotgan etnik nizolarni – chegaralarda delemitatsiya[6] va demarkatsiya[7] ishlarining paysalga solinayotganligini asosiy sabab qilib ko'rsatadi. Buning oqilona hal qilinishiga to'siq bo'layotgan – to'rtta omil: **birinchidan,** chegaradagi tarixiy yerlarning noto'g'ri taqsimlanayotganligi; **ikkinchidan,** mintaqadagi tabiiy boyliklar mavjud hududlarning ayrim davlatlar geosiyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlanishi; uchinchidan, odamlar milliy o'zlikni anglashning kuchayatganligi; **to'rtinchidan,** mintaqadan manfaatdor tashqi kuchlarning vaziyatdan foydalanishga urinishi [2] – asoslariga bog'likligida degan xulosaga keladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hududiga Afg'oniston chegaradosh davlat hisoblanadi. Afg'onistondagi notinchlik mintaqa xalqlari etnik nizolariga ta'sir ko'rsatishi yuqorilashayotgani ko'rinmoqda. Ayniqsa, 2024 yil oxirlaridan "Katta Afg'oniston" yangi xaritasining paydo bo'lishi va Tolibon hukumati tomonidan tez-tez namoyish etilishi Pokiston va Afg'oniston o'rtasidagi ziddiyatli geosiyosiy to'qnashuvlarni kuchaytirib yubormoqda. Aslida "Katta Afg'oniston" yangi xaritasi hududiy ekspansiyaga o'xshab ko'rinsada, ko'p qirrali maqsadlarga tayanayotgani bilan ajralib turadi. Shu jumladan, etnik nizolarni avj oldirishiga ham o'z ta'sirini o'tkazayotgani sir emas. Chunki, "Katta Afg'oniston" yangi xaritasi chorraxasida juda kup sonli etnik guruhlar istiqomat qilib, Markaziy Osiyo xalqlaridan tashqari Pokiston, Hindiston, Eron davlatlari manfaatlari kesishadi. Ushbu geosiyosiy harakatlar fonida Osiyo hududidagi xalqlar o'rtasida katta kelishmovchilikning yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas. Bunday hududiy davolar Afg'oniston, Pokiston, Eron, Hindiston, Turkmaniston o'rtasidagi kuchli to'qnashuvlarga sabab bo'lishi mumkin. Katta Afg'oniston" yangi xaritasida ham ushbu davlatlar hududiga egalik qilish tizimi aks ettirilgan bo'lib, Afg'onistondan tashqari Pokistonning to'liq hududi, Eronning sharqiy, Hindistonning shimoliy, Turkmanistonning kichik bir qismi ko'rsatilgan [6]. Bu kabi xatti-harakatlar Markaziy Osiyo davlatlari etnik nizolarini

[6] Chegaralarni bo'linishi.
[7] Chegaralarni aniqlash, belgilash.

avj oldirib yuborishi ehtimolini kuchaytiradi. Shunga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorligini kuchaytirish, ushbu muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Umuman yuqoridagi tahlillarga ko'ra, Markaziy Osiyoning bir xalqini boshqasiga qarama-qarshi qo'yish, milliy ustunlik mavjudligi to'g'risidagi afsonalarni tarqatish yo'lidagi har qanday urinishlarning oldini olish lozim. Aynan Markaziy Osiyo davlatlari faoliyati nazoratidan manfaatdor geosiyosiy kuchlar tomonidan amalga oshirilayotgan turli xil xurujlar asosida milliy etnik nizolarni chiqarish XXI asrda ham keskin avj olishi davom etmoqda. Bu hol nimalarga olib kelishi mumkinligini dunyo miqiyosidagi fojiali voqealar ko'rsatib turibdi. Afsuski, mintaqa xalqlari ham bu sohada achchiq tajribaga ega.

Mintaqa davlatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarning mazmuni va sur'atlaridagi ayrim farqlar ham millatlar va elatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi o'z-o'zidan ayon. Bu esa, etnik siyosatni puxta o'ylab amalga oshirishni talab qiladi. Shunisi quvonalarliki, mintaqadagi hamma davlatlar millatidan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlarini ta'minlash hamda bu mamlakatlarda yashayotgan xalqlarning milliy madaniyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish yuzasidan o'zaro majburiyatlar olgan [1;78-79].

Markaziy Osiyoda milliy etnik nizolarni oldini olishga qaratilgan 2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning beshinchi yo'nalishida ilgari surilgan ilmiy-amaliy dasturlar mintaqada yakdil taraqqiyotni amalga oshirishning yangi bosqichini boshlab berdi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "O'zbekiston – 2030" davlat dasturlarida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan alorqalarni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar rejasi yanada takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017 – 2018 yillar davomida mintaqa mamlakatlari bilan yaqin qo'shnichilik va o'zaro hamkorlik tizimini rivojlantirish borasida keng qamrovli faoliyat olib borilmoqda. Uzoq tanaffusdan keyin O'zbekiston-Tojikiston, O'zbekiston-Qirg'iziston, Tojikiston-Qirg'iziston munosabatlarida iliqlik siyosati faollashmoqda. 2018 yilga kelib O'zbekiston-Qirg'iziston chegarasida kuniga 30 mingdan, Tojikiston-O'zbekiston chegarasida 20 mingdan ortiq kishi o'tib qaytishiga erishildi va bugungi kunda ularning soni ikki barobarga ortdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy Osiyo raxbarlari Maslahat kengashi"ni tashkil etish haqidagi taklifi Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev tomonidan maqullandi va 2018 yil 15-martda birinchi yig'ilishida Qozog'iston davlati mezmonlik qildi. Qozog'iston Respublikasi Prezidentlik saroyida Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeyenbekov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon va Turkmaniston Majlisi rahbari Akja Nurdiberdiyeva ishtirok etdi. Ilk majlis uchrashuvida Markaziy Osiyoda kechayotgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda, o'zaro integratsiyani rivojlanishida, madaniy va xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik, birodorlik munosabatlarini saqlab qolish va mustahkamlash haqida qaror qabul qilindi. 2019 yil 29-noyabr oyida navbatdagi yig'ilish O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrida o'tkazildi. Uchinchi yig'ilish 2021 yil 6-avgustda Turkmaniston davlatining Ashxobod shahrida, to'rtinchi yig'ilish, 2022 yil 21-iyulda Qirg'iziston davlatining Beshkek shahrida

o'tkazildi. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat kengashining beshinchi yig'ilishi 2023 yil 14 sentabrda O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrida bo'lib o'tdi va unda strategik ahamiyatga molik 5 ta hujjat imzolandi. Oltinchi yig'ilish esa, 2024 yil 6-avgustda Qozag'iston poytaxti Ostona shahrida o'tkazilib, unda ham ko'plab hujjatlar imzolandi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro ko'p tomonlama aloqalar ancha rivoj topib borayotgani qayd etildi. Ushbu kengash mintaqa rahbarlari uchrashuviga doir har qanday tashabbusni amalga oshirilishi, davlatlar hamkorligi va xalqlar o'rtasidagi birdamlikni mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR**

1. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: "Ўзбекистон" 1997.-Б.78-79.)

2. http://www.ozodlik.org/content/article/24108742.html.

3. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.21 (2024): 529-535.

4. Очилова, Гўзал Араловна. "Чучук Сув Танқислиги Муаммосининг Марказий Осиёга Хавфи. Омонов Баходир Нуриллаевич."

5. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." Gospodarka i Innowacje. 44 (2024): 235-242.

6. https://www.instagram.com/hurfikr.uznews/p/DEcDMYHuV0U/

7. Nurillaevich, Omonov Bahodir, et al. "Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 984-989.

8. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.1S (2023): 5000-5006.

9. Omonov, Bahodir. "Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia." *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry* 12.8 (2021).

10. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go'zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." *World of Scientific news in Science* 1.3 (2023): 15-28.

---

# IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN O'ZBEKISTON MILLIY ZIYOLILARIGA QARSHI QATAG'ONLIKLAR TARIXIDAN

**Ergasheva Yulduz Alimovna**
Qarshi davlat texnika universiteti professori,
tarix fanlari doktori
e-mail: yuae63@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda O'zbekiston ziyolilariga qarshi g'oyaviy zug'um va qatag'onliklar hamda sovet tuzumining madaniy sohadagi siyosatining xalqimiz ma'naviy hayotiga ta'siri tahlil qilingan. Sovet hokimiyatining madaniy siyosatidagi*

*konseptual-g'oyaviy yondoshuvning milliy ma'naviyatga ta'siri va qatag'onliklarga uchragan milliy ziyolilar, olimlar, adabiyot va san'at vakillarining fojiaviy taqdiri ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *g'oyaviy zug'um, qatag'onliklar, ma'naviy hayot, ziyolilar, fan, olimlar, adabiyot, san'at, milliy madaniyat.*

## ИЗ ИСТОРИИ РЕПРЕССИЙ ПРОТИВ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

**Эргашева Юлдуз Алимовна**
Профессор Каршинского государственного технического университета,
доктор исторических наук
Электронная почта:yuae63@gmail.com

***Аннотация:****В статье рассматриваются вопросы политических гонений и идеологический прессинг на творческую интеллигенцию Узбекистана, воздействие политики репрессий советской власти на культурную жизнь общества. Анализируются проблемы концептуально-идеологической взаимозависимости репрессивной природы советской власти и антинациональной направленности советской культурной политики, разрушающего воздействия репрессивной политики на духовную жизнь народа, а также рассматривается трагическая судьба подвергшихся гонениям и репрессиям представителей национальной творческой интеллигенции, деятелей науки, литературы, искусства.*

***Ключевые слова:*** *политические гонения, идеологический прессинг, репрессии, духовная культура, наука, литература, искусство, творческая интеллигенция, ученые, национальная культура*

## FROM THE HISTORY OF REPRESSIONS AGAINST THE UZBEK NATIONAL INTELLIGENTSIA AFTER WORLD WAR II

**Yulduz AlimovnaErgasheva**
Professor, Karshi State Technical University
Doctor of Historical Sciences
Email:yuae63@gmail.com

***Abstract:****The article examines the issues of political persecution and ideological pressure on the creative intelligentsia of Uzbekistan, the impact of the policy of repression of Soviet power on the cultural life of society. The problems of the conceptual and ideological interdependence of the repressive nature of the Soviet power and the antinational orientation of the Soviet cultural policy, the destructive impact of the repressive policy on the people's spiritual life are analyzed, and the tragic fate of the persecuted and repressed representatives of the national intelligentsia, scientists, literature, and art is considered.*

***Key words:*** *political persecution, ideological pressure, repression, spiritual culture, science, literature, art, creative intelligentsia, scientists, national culture.*

Mamlakatimizda milliy mustaqillikni qo'lga kiritilishi, bir tomondan mustabid sovetlar tuzumi davrida shakllangan salbiy holatlarni bartaraf etishga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan esa demokratik huquqiy davlat va insonparvar fuqarolik jamiyati qurishuchun shart-sharoit yaratdi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda olamshumul ahamiyatga loyiq voqealar ro'y berdi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot, madaniy-mafkuraviy sohada jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jamiyatdagi o'zgarishlarga mutanosib ravishda mamlakatimizda milliy o'zlikni anglash va milliy istiqlol g'oyalari asosida yanada mustahkamroq jipslashish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Jamiyatning har bir a'zosining ijtimoiy faolligi, ijtimoiy-siyosiy voqeliklarga munosabatini to'g'ri tanlashda tarixiy xotira muhim ahamiyat kasb etadi. Yaqin o'tmishdagi tarixiy voqea va jarayonlarni o'rganish, ularning mohiyatini anglash va xolisona baho bergan holda xulosalar chiqarish o'zlikni anglash jarayonida

muhim o‘rin tutadi. Darhaqiqat, hozirgi kunda davlatimiz va uning rahbariyati tomonidan milliy qadriyatlarimizni tiklash, boy tariximizni, madaniy merosimizni o‘rganish, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarida sobiq sovet tuzumi davrida buzib ko‘rsatilgan yoki yoritilmagan juda ko‘p ijtimoiy-tarixiy hodisa va voqealar qaytadan ko‘rib chiqildi va bu jarayon hozirda ham davom etmoqda. Shu bois, mustabid sovet hokimiyatining o‘ta murakkab va ziddiyatli kechgan hukmronligi yillarida xalqimiz tarixini, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayotini, shu jumladan, respublikada ulug‘davlatchilik siyosati, shovinistik yondoshuvlar oqibatida milliy ijodkor ziyolilarni tahqirlanishi va qatag‘on qilinishi, milliy adabiyot, tarix, madaniyat asossiz qoralanishi bilan bog‘liq voqealarga to‘xtalmoqchimiz.

Stalinizmning O‘zbekiston ijodkor ziyolilariga zarbasi urushdan keyingi o‘n yilliklarda sodir bo‘lgan siyosiy voqealar bilan bog‘liq. Darhaqiqat, bu davrda repressiv zarbaning ikkinchi to‘lqini o‘zbek madaniyatiga katta talofat yetkazdi. Urushdan ilgarigi sovet davrida taniqli madaniyat arboblarining quvg‘in qilinishi va ular ijodiga asossiz, xo‘rlab baho berilishi undan keyingi adabiy–badiiy ijodga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

40-yillarning oxiri va 50-yillarning boshlarida ziyolilarning peshqadam qismi repressiyaga uchradi, O‘zbekistondagi ko‘pgina yozuvchilar, shoirlar, olimlar va madaniyatning boshqa arboblari boshiga qora kunlar tushdi. Urush tamom bo‘lishi bilanoq ilm-fan, ma’rifat va madaniyat xodimlariga nisbatan qatag‘onliklarning maqsad-muddaosi urushdan holsizlanib chiqqan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot qiyinchiliklariga nisbatan xalqning ko‘zini ochadigan ziyolilarni qo‘rquv va itoatkorlikda tutish hamda ularga “markscha-lenincha to‘g‘ri yo‘lni” ko‘rsatish edi. Shu bois VKP(b) Markaziy Komitetining 1946 yilda “Zvezda” va “Leningrad” jurnallari haqida”, “Dramatik teatrlarning repertuarlari va uni yaxshilash choralari haqida”, “Katta hayot” kinofilmi haqida”, 1948 yilda “V. Muradelining “Ulug‘ do‘stlik” operasi haqida” va boshqa bir qancha qarorlari e’lon qilindi. Ushbu qarorlarda hamda ulardan keyin e’lon qilingan rasmiy maqolalarda adabiyot, san’at va madaniyatnig boshqa sohalarida bir qator yutuqlar bilan birga “jiddiy kamchiliklar” sodir bo‘layotganligi, badiiy jihatdan past va hatto “umidsizlik”, kelajakka ishonchsizlik ruhi bilan “sug‘orilgan, g‘oyaviy jihatdan “zararli” asarlar paydo bo‘lganligi ko‘rsatiladi, madaniyatning taniqli arboblari sha’ni bo‘lg‘andi, guyo ularning asarlarida “g‘oyasizlik”, “siyosiy ko‘rlik”, “hayot haqiqatining buzilishi”, “g‘arbning burjuaziya madaniyatiga sajda qilish” va hokazolar ayon sezilib turibdi deb tanqid qilinadi.

Bunday mafkuraviy “karnay navosi”ga, tarkib topgan an’anaga ko‘ra, joylardagi maddohlar bajonidil jo‘r bo‘ldilar. Respublika, viloyat, tuman partiya tashkilotlari ana shu “rahnamo” qarorlarga darrov “labbay” deb javob berdilar. Asosiy qarordan keyin shosha-pisha joylarda qabul qilingan qarorlar qo‘g‘irchoqbozlik o‘yinini eslatar edi: yozuvchilar, shoirlar, jurnallarning tahririyatlari badjahllik va omillik bilan tanqid qilina boshlandi. Bu o‘rinda xalq ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ahloq–odobi sira inobatga olinmadi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XIV

plenumi 1946 yilning avgust oyida qabul qilgan qarorida quyidagilar ta'kidlangan edi: "Ayrim yozuvchilar ijodidagi g'oyasizlik va siyosatdan chetda turish, respublika teatrlari repertuar siyosatidagi g'oyasizlik, ba'zi ijodkorlarning zamonaviy dolzarb mavzulardan chetda turishi hollari zarur tarzda zarbaga uchramayapti". [1]

Ana shunday "zarur zarba"ni berish hamda O'rta Osiyo Respublikalari partiya-davlat idoralari faoliyatini cheklab qo'yish uchun 1947 yilda Toshkentda yana qaytadan VKP(b) Markaziy Komitetining O'rta Osiyo byurosi tuzildi, xolbuki bunday byuro ilgari, ya'ni 1934-yilda tarqatib yuborilgan edi. Ushbu mahkamaning talabi bilan 1948-1950 yillarda mintaqadagi respublikalardagi kompartiyalarining markaziy komitetlarining byurolari va sekretariyatlari yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar uyushmalarining, ko'pgina olimlarning faoliyatini qattiq tanqid qildilar va qoraladilar. G'oyasizlikning "o'ziga xos" sabablari ham topildi: "millatchilik bobida xali ham tag-tomiri bilan quritilmagan adashishlar hamda markscha-lenincha nazariyani o'rganishda beparvolik bilan karash ayrim ijodiy xodimlarga unumli ishlashga jiddiy xalaqit bermoqda"deb asoslandi. "Millatchilik"da ayblash milliy respublikalardagi stalincha qatag'onlarni ruyobga chiqarish uchun o'ziga xos "hususiyat" va "qulay" shakl edi. O'zbekiston xalq shoiri Shukrullo hikoya qiladi: "Urushdan keyingi paytda Oybek uyushma raisi, men esa maslahatchi edim. Mamarasul Boboyev, Homil Yoqubovlar "Sharq yulduzi"da mehnat qilishardi. Kunlardan bir kun ular mendan oynomada e'lon qilish uchun she'r so'rab qolishdi. 1939 yilda Qoraqalpog'istonda o'qituvchilik qilgan kezlarimda Orolga bag'ishlab yozilgan "Dengizda bir tun" sarlavhali she'rimni berdim. Baxtga qarshi u e'lon qilinishi bilan naq baloga qoldim. Ayrim siyosatdonlar uchun bu asar "g'oyasizlik va kosmopolitizm" haqidagi qarorga mos kelib qoldi. Ular unda mehnat ko'rsatilmay, quruq dengiz manzarasi maqtalgan deb ayb qo'yishdi. Qarorning joylardagi "ijro"si uchun o'sha paytda mening asarimga o'xshagan she'rlar kerak bo'lgan. Bu 1948-1950 yillarda yana asossiz qamoqqa olishlari uchun tayyorgarlikning debochasi ekan"[2].

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti 1949 yilning iyun oyida yozuvchilar uyushmasining ishini muhokama qilib, qo'yidagilarni ta'kidladi: "Sunggi davrda yozilgan asarlarda millatchilik, milliy manqurtlik, feodal o'tmishni ideallashtirish hamda eski feodal madaniyat oldida qullarcha sajda qilish holatlariga yo'l qo'yildi" [3].

O'zbek adabiyoti va san'atida o'rni-tagida bo'lmagan illatlarni "fosh" etishga ittifok markazi bosh bo'lib turgani kunday ravshandir. O'sha vaqtda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining mafkura masalalari bo'yicha kotibi bo'lib ishlagan N.Muxitdinov o'z xotiralarida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "O'sha kunlar Moskvadan bir katta guruh fan va madaniyat xodimlari, ular bilan birga esa VKP(b) Markaziy Komitetining vakillari kelishdi. Ular O'zbekistondagi xar bir yirik olim va madaniyat arbobining ijodini sinchiklab o'rganishdi. Faollarning yig'ilishlari o'tkazildi, bu yig'ilishlarda guruhlarning rahbarlari partiyaning "milliy siyosatini soxtalashtirayotgan", "arxaizmlarni ommalashtirayotgan", "saroy poeziyasi va musiqasini" yoyayotgan kishilarni, "o'zbek madaniyatini tanholashtirib, ittifokdan ajratib olishga"- go'yo o'rinayotganlar deb qattiq tanqid qilindi. Birin-ketin o'zbek adabiyotinig atoqli vakillariga yasama tuhmat va bo'htonlar yog'dirilib, ular yomon

otlig' qilinib siquv va hibsga olina boshladilar". N.Muxitdinov bergan ma'lumotlarga qaraganda "qora ro'yxat"ga tushgan adiblar soni 60 kishidan iborat edi [4].

Partiyaning qarorlari va "ko'rsatmalari"ni "ijro etish" chog'ida ko'p yozuvchilar va milliy madaniyat arboblari xor-zor qilindi, mafkurani pesh qilib, badnom etildi, lavozimlaridan olib tashlandi. Atoqli o'zbek yozuvchilari - Oybek, A. Qahhor, M. Shayxzoda, Shukrullo, Shuhrat, Hamid Sulaymon, Said Ahmad, Mirzakalon Ismoiliy va boshqa anchagina adiblarga nisbatan, shuningdek "Sharq yulduzi" va "Zvezda Vostoka" jurnallariga nisbatan asoslab berilmagan g'oyaviy va siyosiy ayblar qo'yildi.

40-yillarning oxiri va 50-yillarning boshlarida respublika matbuotida ketma-ket ijodiy xodimlar ayblanib, yer bilan yakson qilinadigan maqolalar bosildi. Agar bu maqolalar xususida xolis fikr aytadigan bo'lsak, milliy ziyolilarga zo'r berib hujum qilinganini ko'ramiz. Masalan, "Pravda Vostoka" gazetasining 1951 yil 10 avgust sonida V. Kostirya, K. Fayzulin "Ayrim shoirlar ijodidagi mafkuraviy buzilishlar to'g'risida" degan maqola bilan chiqishib, sotsialistik realizm prinsipiga "qiroatxonlik" bilan suyanib, Turob To'la, Sobir Abdulla, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, Habibiy, A. Bobojonov singari shoirlarga turlicha ayblarni qo'ydilar. Aslida, mazkur maqola totalitar rejim maqsadlari ruhiga javob berar edi: "jilovni tortib turish" maqsadi va oqibatida adabiyot va she'riyat shunday ahvolga tushib qoldiki, bu sira-sira uning ravnaqiga xizmat kilmadi. Quyidagi baholardan bu ayon ko'rinib turibdi: "Mirtemir obidiyda qilib", "yor degan laparcha yozibdiki, bu tushkunlikning xuddi o'zidir. U tarixiy haqiqatni qo'pollik bilan buzgan. Shoir odamlarimizga behayolik bilan tuhmat toshini otgan" yoki yana bir misol: "Turob To'laning "O'zbekistonim" asarida sotsialistik O'zbekistonga xos bo'lgan alomatlarini qidirsanggiz ovora bo'lasiz. Muallif almisoqdan qolgan manzaralarni kuylaydi. "Balqigan kuyosh", "Gullagan bog'", "Bahor"ni tilga oladi-yu, lekin mamlakatimizdagi xalqlarning stalincha do'stligi, hayotbaxsh sovet vatanparvarligi xaqida bir og'iz ham gapirmaydi. T. To'laning bu zarvolli asari o'z ruhiga ko'ra burjuaziya millatchilarining baytlariga hamohangdir". Shunga o'xshash "izchil tanqid" millatga qarshi qaratilgani ayondir, bu esa sira shak-shubhasiz yakka hokimlik qilayotgan partiya kazo-kazolarining nuqtai nazari va pozitsiyasini aks ettirar edi. Bu maddohlarning fikricha "o'zbek xalqining paxta hosildorligini oshirish uchun ilhombaxsh kurashini, uning kommunistik partiyaga, buyuk Stalinga oliyjanob mehr-muhabbati"ni aks ettirgan asarlar "ommaning e'tiboriga molik" bo'layotgan ekan [5].

Akademik M. Oybek o'sha vaqtda bosh bo'lib turgan til va adabiyot instituti ishida ham "katta kamchiliklar" topiladi. Bu sohadagi ilmiy-tadqiqotlarning g'oyaviy darajasidan tashvishga tushgan partiya-davlat idoralari sovet davridan ilgarigi adabiy merosni tadqiq etayotgan olimlarni, ayniqsa qattiq tanqid kildilar.

1951 yilning 21 avgustdan "Pravda Vostoka" gazetasida M.Ivanov, V.Lavrov va F. Iskandarovlarning "O'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda" degan maqolasi paydo bo'ldi. Ushbu maqola o'zbek adabiyotshunosligi muammosiga bag'ishlangan edi. Maqolani tahlil etar ekanmiz, bir narsani ilg'ab olish qiyin emas: mualliflar o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini ajratib olishlarida sinfiy, partiyaviy-bolshevistik yondashuvlar jiddiy ta'sir o'tkazgan. Rasman bu maqolada Oybek, X.Zarifov, X.Yoqubov, I.Sultonov singari adabiyotshunoslik, adabiy tanqid va

filologiya sohasidagi taniqli olimlarning asarlari tanqid qilinadi. Aslida esa mazkur maqola inqilobdan ilgarigi oʻzbek xalqining adabiy me'rosini ijobiy yoritish va tahlil etishga qarshi qaratilgan edi. Bu quyidagi misollarda yaqqol koʻrinib turibdi: "M.Oybek "Sanobar" va "Malikai Dilorom" singari ochiq-oydin reaksion, islom fanatizmi ruhi bilan sugʻorilgan, xalqqa yot boʻlgan asarlarni xalq romanlari deb notoʻgʻri baholaydi. Yoki yana bir misol: "X.Yoqubov tarixiy voqealarni notoʻgʻri talkin etadi, Qoʻqon xonlarini ideallashtiradi, jumladan, qonxoʻr jallod Umarxonni XIX asr boshidagi adabiy xarakatning rahbari qilib koʻrsatishga oʻrinadi" [6].

Ijodkor ziyolilar Oʻzbekiston yozuvchilari uyushmasining 1951 yil avgust oyida boʻlib oʻtgan oltinchi plenumida yana ham qattiqroq tanqidga uchradilar. Yozuvchilar uyushmasi raisining ma'ruzasi boshidan oyoq "ayrim yozuvchilar va shoirlar ijodidagi mafkuraviy tusdagi kamchiliklarni tanqid" qilishga bagʻishlanadi. Jumladan, ma'ruzada Shayxzoda asarlarida "sotsialistik voqelik, sovet kishilarining obrazlari buzib tasvirlangan", deb takidlanadi. Uning asarlari tilida esa, "arabcha, eroncha, turkcha soʻzlar koʻp boʻlib, bular ham diniy ruhdadir". S. Abdullaning "Alpomish" pyesasi feodal oʻtmishni ideallashtiradigan zararli asar, deb e'lon qilindi. Ta'kidlash kerakki, bu asar tomoshabinlarga juda ma'qul boʻlgan edi, 1951 yilning uch oyi mobaynida Muqimiy nomli teatr sahnasida u 18 marta, Samarqand teatrida esa 22 marta koʻrsatilgan edi.

Plenumda T. Fattoh, Zulfiya, M. Boboyev, H. Gʻulomov, Uygʻun singari shoirlarning ham "boshida kaltak sindi", ularning ba'zi asarlarida "koʻhna gʻazallardagi" "gul va bulbul" soʻzlari va boshqa iboralar juda koʻp qaytarilgan" ekan. Oʻzbek yozuvchilari va shoirlari ijodidagi milliy oʻziga xoslikning har qanday koʻrinishlarini bachkanalik bilan ulugʻ millatchilik deb tanqid qilinishi adabiyotimiz taraqqiyotiga salbiy ta'sir koʻrsatdi.

Buning ustiga, totalitar tuzumning repressiv qilichi yana ishga tushdi. Bu jarayon, tobora kuchayib borib, asosan, ikki yunalishda kechdi: birinchidan, aholiga mafkuraviy jihatdan ishlov berish kuchaydi; ikkinchidan esa, xalqni doimo qoʻrquvda ushlash maqsadida toʻgʻridan-toʻgʻri qatagʻonchilik boshlandi. Milliy ziyolilarning atoqli vakillariga qarshi qatagʻonlar, ayniqsa 1951-1952 yillarda avj oldi. 1952 yilning boshlarida "sovetlarga qarshi" faoliyat uchun Shukrullo, Maqsud Shayxzoda, Mirkarim Osim, Said Ahmad, Mirzakalon Ismoiliy, Shuhrat va respublikaning boshqa bir qancha yozuvchilari, olimlari 25 yilga qamoq jazosiga hukm qilindi.

Mafkuraviy ishni kuchaytirish va "xalq dushmanlari"ga qarshi kurashishni rukach qilib, ijod erkinligini cheklash va ziyolilar faoliyatini rasmiy tarzda bir qolipga solish uchun chora-tadbirlar koʻrildi. Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1952 yil fevral oyida boʻlgan X plenumida "Respublikada mafkuraviy ishning ahvoli va bu ishni yaxshilash tadbirlari toʻgʻrisida"gi masala muhokama qilinib, yana bir marta nihoyatda behayolik bilan oʻzbek yozuvchilari, olimlari, kompozitorlari ijodidagi jiddiy kamchiliklar xususida gapirildi, shuningdek, mehnatkashlarni sovet vatanparvarligi va xalqlar doʻstligi ruhida, millatchilik sarqitlariga qarshi kurash, ayollarga feodal-boylarcha munosabatga qarshi kurash ruhida tarbiyalash ishini yaxshilash zarurligi oʻqtirildi. Ana shu plenumda Oybek va boshqa bir qancha yozuvchilar millatchilar deb e'lon qilindi. Xuddi oʻsha oyning

oʻzida yozuvchilar uyushmasining plenumi boʻlib oʻtdi, bu yigʻinda quyidagilar ta'kidlangan edi: "sovet davlatida yozuvchi mehnati shaxsiy va xususiy ish emas, balki davlat ishi, partiya va xalq ishidir", shu boisdan ham uyushma a'zolaridan "ularning asarlari oʻzining gʻoyaviy va badiiy darajasi bilan sovet oʻquvchilarining talablariga, kommunistik partiya qoʻygan vazifalariga javob berishi kerak"ligi talab qilindi [7].

Xullas, shunday siyosiy va mafkuraviy vaziyat vujudga keltirildiki, oʻz tabiatiga koʻra cheklab boʻlmaydigan va inson, tinchlik, axloq-odob singari abadiy mavzular bilan shugʻullanishi lozim boʻlgan adabiyot oʻziga xos boʻlgan ijodiy, oliy fazilatlardan mahrum boʻlib, jun kosibchilikka aylanishi kerak edi. Oʻsha yillari inson faoliyatining nihoyatda nozik sohasi boʻlgan adabiyot gʻoyaviy iskanjaga solinishi oqibatida 90-yillarga qadar adabiyotning bundan keyingi taraqqiyoti bir oʻzanga solindi va yozuvchilar davrasida zamonasozlik (konformizm) qaror topdi.

Milliy ziyolilarning badnom etilishi va qatagʻon qilinishi oqibatida koʻpgina iste'dodli yozuvchilar, shoirlar va olimlardan judo boʻldik va bu intellektual ijod, jumladan adabiy-badiiy ijodga nihoyatda salbiy ta'sir koʻrsatdi. Badiiy zaif, oʻrtamiyona asarlarning paydo boʻlishi, ularning sun'iy tarzda ishlab chiqarish mavzuiga yaqinlashtirilishi adabiyot, milliy tilning ravnaqiga jiddiy toʻsiq boʻldi. Vatanimiz tarixini oʻrganish va unga xolis baho berish oʻzoq yillarga choʻzilib ketdi. "Sotsialistik realizm" badiiy ijodning bosh fazilati boʻlib qoldi. Bu oʻrinda "realizm"ni "sotsialistik" deb atalgan beoʻxshov tosh bosib yotardi, xuddi ana shu "sotsialistik" iborasi gʻoyaning zugʻumini va siyosiy mazmunning hukmini aks ettirardi. Ijod erkinligi boʻlmasa, adabiyotning oʻzi ham boʻlmaydi. Demak, adabiyot rivojlana olmaydi ham. Oʻsha davrda xuddi ana shu ijod erkinligi bugʻib qoʻyilgan edi. Darvoqe, ijodiy, intellektual ruhning oʻzi zamonasozlik tafakkur tarzini ma'qul koʻrgan totalitar tizim bilan chiqisha olmas edi. Shuning uchun ham ziyolilarni oʻsha tuzumga xizmat koʻrsatuvchilar deb hisoblab keldi. Mabodo kimdir mustaqil yoʻl tutadigan boʻlsa, tahqir etilib, siyosiy ayblar chaplab tashlanar edi.

Stalincha qatagʻonlik davrida xalqimiz orasidan yetishib chiqqan ijodkor ziyolilar, iste'dodli madaniyat va san'at vakillarini, atoqli olimlar, adib va shoirlarni jismonan yoʻq kilinishi oʻzbek milliy madaniy taraqqiyotiga katta zarba berdi. Shuni ta'kidlash kerakki, rasmiy ma'lumotlarga koʻra faqat "uchlik"lar hukmi bilan Oʻzbekistonda 1937-1953 yillarda 18652 kishi qatagʻon qilingan, ulardan 6038 kishi otib tashlangan [8]. Tarixchi olim I.Tursunov 1939-1953 yillarda Oʻzbekiston ziyolilaridan jami boʻlib 61 ming 799 kishi qamalganligi, shulardan 56 ming 112 kishi turli muddat bilan ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganligi, 7 ming 100 kishi esa otib tashlanganligini yozadi [9].

Davlat va adabiy-badiy hayotdagi ana shunday murakkab sharoitda tajribali hamda endigina adabiyot maydoniga kirib kelayotgan yozuvchilar va shoirlar ijodi davom etardi. Ayni vaqtda shu yillar faqat koʻproq salbiy hodisalar bilan ajralib turdi desak joiz boʻlmaydi. Hayot taqozosi, estetik qonunlarning oʻziga xosligi va ularning shiddat bilan namoyon boʻlishi har qanday cheklashlar va yoʻl yoʻriqlardan koʻpincha ustun boʻlib chiqdi. Buning ustiga, "qarshilikni yengish" ham oʻz samarasini berdi: bu davrda oʻzbek adabiyoti haqiqatan ham kizikarli asarlar bilan boyidi, ularda mumtoz milliy an'analar davom ettirildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Эргашева Ю.А. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. – Ташкент: Фан, 1997, с. 146.
2. Усмонов И. Қатағон қурбонлари. – Тошкент, 1992, 205-206 бетлар.
3. ЎзМА, ф. 2356, р. 2, д. 460, б. 44.
4. Мухитдинов Н. Годы, проведенные в Кремле. - Ташкент, 1994, с. 48.
5. Правда Востока, 1951, 10 августа.
6. Правда Востока, 1952, 24 февраля.
7. ЎзМА, ф. 2356, р. 1, д. 311, б. 18.
8. Правда Востока, 1989, 21 мая.
9. Турсунов И. Истиқлолга интилган қалблар нидоси. - Тошкент, 1993, 33 бет.

## JANUBIY O'ZBEKISTON TARIXIY-ME'MORIY YODGORLIKLAR YURTI

**Samarov Faxriddin**
Qarshi xalqaro universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.
E-mail: samarovfaxriddin07@gmail.com, Tel: +99893-933-43-43
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-9339-0294

***Annotatsiya.*** *O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy-me'moriy obidalarga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgarib, qadimiy yodgorliklar davlat muhofazasiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Xiva, Qarshi, Shahrisabz, Termiz kabi ko'hna shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni qayta tiklash va ta'mirlash orqali asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.*

***Kalit so'zlar:*** *Qashqadaryo, Surxondaryo, masjid, madrasa, ziyorat turizmi, tarixiy-me'moriy yodgorliklar, arxeologik, qayta tiklash, ta'mirlash.*

## ЮГ УЗБЕКИСТАНА КРАЙ ИСТОРИКОАРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ

**Самаров Фахриддин**
Преподаватель кафедры «Социально-гуманитарные науки» Каршинского международного университета
Электронная почта: samarovfaxriddin07@gmail.com
Телефон: +998 93 933 43 43
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-9339-0294

***Аннотация.*** *После обретения независимости Узбекистаном отношение к историко-архитектурным памятникам, оставшимся от предков, коренным образом изменилось, и древние памятники были взяты под охрану государства. В годы независимости в таких древних городах, как Бухара, Самарканд, Хива, Карши, Шахрисабз, Термез, памятники, возведённые нашими великими предками с высоким мастерством, обрели своё подлинное значение. Восстановление и реставрация этих объектов с целью воссоздания их первоначального облика стали одним из приоритетных направлений государственной политики.*

***Ключевые слова:*** *Кашкадарья, Сурхандарья, мечеть, медресе, паломнический туризм, памятники истории и архитектуры, археологические, реставрасия.*

## SOUTHERN UZBEKISTAN – LAND OF HISTORICAL AND ARCHITECTURAL MONUMENTS

**Faxriddin Samarov**
Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences,

Karshi International University
Email: samarovfaxriddin07@gmail.com
Phone: +998 93 933 43 43
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-9339-0294

***Annotation.*** *After Uzbekistan gained independence, the attention given to historical and architectural monuments left by our ancestors changed fundamentally, and ancient landmarks were placed under state protection. During the years of independence, monuments built with the great skill of our illustrious forefathers in ancient cities such as Bukhara, Samarkand, Khiva, Karshi, Shakhrisabz, and Termez regained their true value. Restoring and repairing these monuments to revive their original appearance has become one of the priority directions of our state policy.*

***Keywords:*** *Kashkadarya, Surkhandarya, mosque, madrasah, pilgrimage tourism, monuments of history and architecture, archaeological, restoration.*

**Kirish.** O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgarib, qadimiy obidalar davlat muhofazasiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Xiva, Qarshi, Shahrisabz, Termiz kabi ko'hna shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni qayta tiklash va ta'mirlash orqali asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

"Ochiq osmon ostidagi muzey shaharlar" sifatida e'tirof etilgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi dovrug'i dunyoga mashhur bo'lgan shaharlarga tashrif buyuruvchilarning soni tobora oshib bormoqdaki, bu ziyorat va ichki turizmni yanada zamonaviy rivojlantirishni kun tartibi qo'ymoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tahqirlangan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar qayta tiklandi va ta'mirlandi. Imom Buxoriy, Imom Mansur al-Moturidi, Imom Termiziy Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband kabi ulug' allomalarimizning tabarruk me'moriy yodgorlik majmualari bunyod etildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi.

Yangi O'zbekistonda hozirgi paytda sakkiz mingdan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, shu jumladan 4000 dan ortiq tarixiy-me'moriy obidalar davlat muhofazasiga olingan. 1991 yildan Xivadagi Ichan qal'a qo'riqxonasidagi, 1993 yildan Buxoro shaxri markazidagi, 2000 yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar YUNESKOning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi.

Shahrisabz – Amir Temur, bu yerda hamma narsa u yoki bu tarzda uning nomi bilan bog'liq. Bu yerda uning otasi Muhammad Tarag'ay va ma'naviy ustozi Shamsuddin Kulol dafn etilgan, bu maskanda uning uning katta o'g'illari Jahongir va Umarshayx Mirzolarning qabrlari joylashgan. Ulkan Movarounnahr davlatini yaratgan va uning cheklanmagan hukmdori – amiri bo'lgan Amir Temur Samarqandni o'z davlatining poytaxti sifatida tanladi. Lekin o'zining tug'ilib o'sgan kichik vatanini ham hech qachon unutmay, doimo unga g'amxo'rlik qildi. Aslida Shahrisabz davlatning ikkinchi poytaxti edi. Temuriylar avlodi, boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning Kesh shahri Temurbekning tug'ilgan joyi bo'lgani uchun, u

shaharni taxt zaminiga aylantirish uchun ko‘p g‘amxo‘rlik qilganligi haqida yozgan edi.

Sohibqironning buyrug‘i bilan bu yerda eng mashhur me’morlar, quruvchilar, me’morchilik bezaklarining ustalari yuborilgan, mahalliy ustalar bilan birgalikda ular turli mamlakatlarning tajribasi va an’analarini uyg‘unlashtirib, ulug‘vor binolarni barpo etganlar. Ularning ijodiy bilimlari, tajriba, an’analar va yaratuvchilik urinishlarining yaxlitlashuvi tufayli ajoyib mevalar berdi, ular XIV asr oxiri XV asr boshi Markaziy Osiyo me’morchiligning xususiyatlarini belgilab bergan monumental uslubning asoslarini yaratdilar.

Oqsaroy saroyi bayramona hukumat binosi – rezidensiyaning namunasi bo‘lishi mumkin. Saroyning qurilishi 1380 yilda boshlangan, lekin 1404 yilda ham unda pardoz ishlari tugatilayotgan edi. Bu ulug‘vor inshootning o‘qsimon gumbazi oralig‘i 22 metrdan ortiq bo‘lib, temuriylar barpo etgan barcha inshootlar orasida eng antiqadir.

Muarrix Mahmud ibn Vali (XVII asr) shunday yozgan: “Kesh – Movarounnarh shaharlaridan uni jahonning eng go‘zal joylaridan biri, juda yaxshi va yoqimli iqlim bo‘lgan joy deb hisoblashadi. Uning dalalari va bog‘-rog‘lari juda jozibali va zavqli”. Albatta, bu so‘zlarga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q. Haqiqatan ham Shahrisabz o‘zining “Yashil shahar” ismiga juda monand shahar hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mustaqillik yillarida ko‘hna va hamisha navqiron Samarqandning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hayotida chin ma’noda tub burilish bo‘ldi. Shaharning kun sayin chiroy ochib, o‘tmishi, va buguni uyg‘unlashgan mo‘jizakor qiyofa kasb etishi jahon ahlini, ming-minglab sayyohlarning e’tiborini tortmoqda. Ha, o‘n-o‘n besh yil oldin bu yerda odam bugun uni taniyolmaydi. Bir-biridan go‘zal mahobatli binolar, zamonaviy turar-joylar, xushhavo xiyobonlar bar-barchasi ko‘rgan ko‘zni quvnatadi, dillarni yayratib, qalblarda g‘urur-iftixor tuyg‘ulariniuyg‘otadi.

Aytish joizki, Samarqand shahrini rivojlantirishning 2025 yilgacha bo‘lgan bosh rejasi ishlab chiqilgach, eng avvalo, qadimiy go‘shaning Eski shahar qismi hayratlanarli darajada fayzli, ko‘rkam maskanga aylandi. Amir Temur maqbarasidan to Ulug‘bek rasadxonasiga qadar qadar masofadagi barcha tarixiy inshootlar – Ruhobod maqbarasi, Ulug‘bek, Tillakori, Sherdor madrasalari, Bibixonim, Hazrati Xizr masjidlari, Shohi Zinda va Moturidiy yodgorlik majmualarining uyg‘unligi ta’minlandi.

Boy go‘zal shahar juda ko‘p marta turli-tuman dushmanlarning bosqinchilik hujumlariningmaqsadi bo‘lgan, mo‘g‘ul-tataralarning bosqini eng og‘ir, yer bilan yakson qiluvchi darajada bo‘lgan edi. Lekin Buxoro har gal qaytadan aynan o‘sha joyda tiklanib, o‘z zaminiyu an’analariga sodiq bo‘lib qaytadan barpo bo‘lar edi.

Buxoroga asos solinishi qadim-qadimgi asrlar tubiga borib taqaladi. 1997 yilda YUNESKOning qaroriga ko‘ra butun madaniy dunyo uning 2500 yilligini nishonlagan edi. Afsonalar shaharning paydo bo‘lishini tarixiy shaxs obrazi bilan bog‘liq Zardo‘shtiylik xudolaridan biri – Siyovush bilan bog‘laydi. Buxoroning eng qadimiy qismi uning qal’asi – Ark hisoblanadi, bu yerda arxeologlar tomonidan miloddan avvalgi IV – III asrlarga oid bo‘lgan ba’zi topilmalar borligini aniqlashdi. Bu balandligi 20 metr bo‘lgan katta tepalik bo‘lib, u yerda ilgari Buxoro amirining saroyi, uning

harami, hazinasi, qurol-yarog' saqlanadigan xonalari, o'ta xavfli jinoyatchilar uchun zindon bo'lgan edi. Hozirgi paytda ular tiklanioqda.

Shaharning asosiy va eng baland ko'tarilgan inshooti – 1127 yilda qurilgan Kalon minorasidir. Bu har tomonlama komil muhandislik inshooti, Buxoroning sathidan 47 metrga ko'tarilib turgan ulkan minoradir. O'zbekistonda eng baland bo'lgan ushbu minora tepaga chiqqan sari sal ingichkalashib boradi, uning dumaloq aylanasidan o'rab turgan xalqalar turli rangdagi sirlangan g'ishtchalar bilan bezatilgan. Shu bilan birga minoradagi naqshlarning turli-tumanligi va takrorlanib kelishi sodda va komil me'morchilik shakllarini boyitadi.

**Tahlil va natijalar.** O'rta asrlarda Buxoro Markaziy Osiyodagi barcha musulmonlarning muqaddas shaxri bo'lgan edi, bunda nafaqat diniy hurmat-e'tibor, balki estetik tuyg'ular ham ifodalanar edi. Buxoro shon-sharaf mujassam bo'lgan shahar deb hisoblanar edi, u yerda eng mashhur kishilar yig'ilar edi. Islomda Qur'ondan keyin ikkinchi o'rinda turadigan diniy kitob eng haqqoniy hadislarning to'plami bo'lgan "Al-jami as-sahih"ning muallifi Imom Buxoriy edi. Abu Ali ibn Sino (Avisenna) shaharga yaqin bo'lgan qishloqdan kelib chiqqan edi, u shaharda o'z faoliyatini boshlagan. Islomda eng muqaddas shaxslardan biri shayx Bahouddin Naqshband, so'filar ta'limotining asoschisi, Buxorolik misgar edi. Shayxning qabrini ziyorat qilish Makkaga borib bajarilgan haj marosimiga tenglashtirilar edi. Ushbu maqbara hozir ham shaharning eng muqaddas joyi deb hisoblanadi.

Xiva – muzey shahar lekin Rim shahri kabi aholi yashaydigan shahardir. Sharqning ko'pgina shaharlari kabi Xiva Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xeyvak nomli suv havzasi yonida barpo etilgan bo'lib, Xorazm vohasining sug'oriladigan yerlarida rivojlanib kelgan.

Arxeologlar tadqiqodlarining ko'rsatilishicha, shahar kamida 2500 yoshga kirgan. Bularning hammasi YUNESKO tashkilotiga Xivani qo'riqxona ahamiyatidagi shahar deb e'lon qilishiga, shaharning ichki qismi bo'lgan Ichan qal'ani esa jahon ahamiyatidagi tarixiy yodgorlik deb e'tirof etishiga asos bergan.

"Avesto" kitobi Xorazm to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar beradi. "Tarixning otasi" deb sanalgan Gerodot Xorazm va xorazmliklar to'g'risida gapirib o'tgan edi. Beruniy esa Xorazmdagi qadimiy dehqonchilik to'g'risida hikoya qilgan.

Xiva – tarixiy qurilish, butunligicha bino va inshootlar, aslida ochiq havodagi butun bir shahar amalda tarixiy holida saqlanib qolgan dunyoning bir nechtagina shaharlaridan biridir. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridagi Xiva shahrining monumental inshootlari go'yoki qaytadan barpo etilgan shaharni hosil qilgan bo'lib, u bizni bor-yo'g'i ikki-uch avlod ustalarning hayoti davomida qurilishi tezligi bilan hayratda qoldiradi. Lekin boshqa sharoitlarda halokali bo'ladigan holatlar – kichik yer bo'laklaridagi tasodifiy qurilishlar, o'ta siqiq sharoitlar va yer kamligi bu yerda me'morchilik inshootlarining benihoya go'zalligi, nafisligi va turli-tumanligiga sabab bo'ldi. Xivaning eng ko'p va siqiq holda inshootlar qurilgan qismi bo'lgan aynan shu Ichan-qal'a taqdir taqozosi bilan me'morchilik muzeyiga aylandi, uning yodgorliklarida bizga xalq ustalarining eng go'zal asarlari namoyon bo'ladi.

O'rta asrlar shaharlarini tashqi devorlar va minoralarsiz, shahar ichidagi ark qal'asisiz tasavvur qilish qiyin. Xiva shahri ham shunday. Ichan qal'a avvaldan uni

himoya qiladigan ulkan qal'a devorlari bilan o'ralgan edi. XIX asr o'rtasida esa Xivaning atrofida o'nta darvozasi bo'lgan yangi qal'a devorlari bunyod tilgan. Shundan e'tiboron shaharning ushbu kattaroq halqasi Dishan-qal'a yoki "tashqi qal'a" deb nomlanadigan bo'ldi.

**Xulosa va takliflar**. Xullas, Vatanimizdagi tarixiy-me'moriy obidalar, asori atiqalarni e'zozlash xalqimizning buyuk o'tmishi va kelajagi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu xususiyatlar millatimizning va xalqimizning milliy qadriyati bo'lib, azaldan ularning qon-qoniga singib ketgan. Shu bilan ham bu noyob javohirlarni tiklash, ta'mirlash yoki asl holatini saqlashga g'amxo'rlik qilish hozirgi davr talabi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Axmedov A. O'zbekiston tarixiy yodgorliklari. – T.: Sharq, 2005. – 362 b.
2. Mavlonova R. O'zbek me'morchiligi: Tarix va rivojlanish bosqichlari. – T.: Fan, 2010. -178 b.
3. Aliev B. Qadimgi Sug'diyona va uning madaniy merosi. – Samarqand.: -Afrosiyob, 2002. – 310 b.
4. Jalolov M. O'zbekiston me'moriy yodgorliklari ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 640 b.
5. Rahimov K. Qarshi va uning tarixiy obidalari. – Qarshi.: Nasaf nashriyoti, 2012. – 198 b.
6. Bobojonov A. Janubiy O'zbekiston madaniy merosi. – T.: Istiqlol, 2019. –232 b.
7. UNESCO. Cultural Heritage of Uzbekistan. Paris: UNESCO Publishing. 2011.
8. Hasanov D. O'zbekiston arxeologiyasi asoslari. – T.: O'zbekiston FA nashriyoti, 2014. – 186 b.
9. Sagdullayev A. Sharq me'morchiligi: An'analar va zamonaviylik. – T.: San'at, 2008. – 249 b.

---

**UO'K 908**

# MIRISHKOR TUMANI AHOLISING IQTISODIY AHVOLI VA RIVOJLANISHI

**Oromov Quvvatbek**
Qarshi xalqaro universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.
E-pochta: oromovquvvatbek@gmail.com ,Tel: +998904422233
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-5321-8914

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada muallif Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanining mustaqillik yillarida har tomonlama rivojlantirish, jumladan iqtisodiy rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi ma'lumorlarni ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida xolisona, Mirishkor tumanining joriy arxivi ma'lumotlari hamda Statistika boshqarmasi materiallari asosida tahlil qilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *oilaviy tadbirkorlik, kasb-hunar, mahalliy mutaxassislar, statistika boshqarmasi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, qayta ishlash zavodlari, trikotaj mahsulotlar, o'simlik yog'i, elektr energiya ta'minoti, korxona*

УДК 908

# ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И РАЗВИТИЕ НАСЕЛЕНИЯ МИРИШКОРСКОГО РАЙОНА

**Оромов Кувватбек**
Преподаватель кафедры «Социально-гуманитарные науки» Каршинского международного университета
Электронная почта: oromovquvvatbek@gmail.com
Телефон: +998 90 442 22 33
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-5321-8914

***Аннотация.*** *В данной статье автором на основе сведений из научной литературы, данных текущего архива Миришкорского района, материалов Управления статистики объективно проанализированы данные по комплексному развитию Миришкорского района Кашкадарьинской области за годы независимости, в том числе меры по развитию экономики.*

***Ключевые слова:*** *семейное предпринимательство, профессия, местные специалисты, статистическое управление, макроэкономические показатели, перерабатывающие предприятия, трикотажные изделия, растительное масло, электроснабжение, предприятие.*

UDC 908

# ECONOMIC CONDITION AND DEVELOPMENT OF THE POPULATION OF MIRISHKOR DISTRICT

**Quvvatbek Oromov**
Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences,
Karshi International University
Email: oromovquvvatbek@gmail.com
Phone: +998 90 442 22 33
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-5321-8914

***Abstract:*** *In this article, the author objectively analyzed data on the comprehensive development of the Mirishkor district of the Kashkadarya region during the years of independence, including economic development measures, based on information from scientific literature, data from the current archive of the Mirishkor district, and materials from the Department of Statistics.*

***Keywords:*** *family entrepreneurship, profession, local specialists, statistical office, macroeconomic indicators, processing plants, knitted products, vegetable oil, electricity supply, enterprise.*

**Kirish.** Mustaqillik yillarida Mirishkor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, ushbu jarayondagi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar va uning oʻziga xos xususiyatlari, shuningdek sohaga oid amalga oshirilayotgan tadbirlar yaxlit bir mavzu sifatida kompleks tadqiq etilib, 2021 yilda tumanda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 21 mlrd 784,0 mln soʻm ajratilgan. Ajratilgan resurslardan samarali foydalangan holda, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlashda avvalam-bor xotin-qizlar va yoshlarning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, ularni kasbhunar va tadbirkorlikka oʻqitish orqali kredit ajratish tizimi joriy etildi[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi bergan maʼlumotiga koʻra, 2022-yil 1-iyun holatiga Mirishkor tumani boʻyicha roʻyxatdan oʻtgan korxona va tashkilotlar soni 1657 tani tashkil etdi[2]. Jumladan, faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar – 1589 ta, yangi tashkil etilgan korxonalar – 231 ta, faoliyat korsatayotgan oilaviy korxonalar – 160 ta,

qo'shma korxonalar – 5 ta, xorijiy korxonalar – 3 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 982 tani tashkil etdi. Mirishkor tumanida 2022 yil yanvar – noyabr oylarida tumanda ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 1496 tani tashkil etdi.

**Natijalar va muhokama.** 2022-yil noyabr oyida "Mirishkor ko'zgusi" MCHJga qarashli "Sechan ko'l" tabiiy suv havzasida suvning o'ta sho'rligi laboratorik tahlildan o'tkazildi. Xorijiy va mahalliy mutaxassislarning xulosasiga ko'ra, mazkur tabiiy suv havzasida baliq yetishtirishning an'anaviy usuli qoniqarli natija bermasligi aniqlandi. Shu sababli "Mirishkor ko'zgusi" MCHJ tomonidan ushbu ko'l yaqinida 80-90 metrlik suv dambasi qurilib, 2 kmdan oshiq suv tarmog'i qazilib kelindi. Natijada havzaga toza suv kirishi yo'lga qo'yildi. Endilikda MChJ tomonidan Eron Islom Respublikasi investor va mutaxassislari bilan hamkorlikda O'zbekistonda innovatsiya hisoblangan artemiya, krevetka va osyotra baliqlari yetishtiriladi. 2022 yilning dekabr oyida loyiha bo'yicha ishlar boshlanib, kelgusi yil 5 tonna artemiya, 10 tonna krevetka va 10 000 dona osyotr baliqlari yetishtirildi.

2022-yilda Mirishkorda 500 nafar doimiy ish o'rni yaratilgan tekstil korxonasi ochildi. Mirishkor tumani "Mirishkor" MFY hudidagi 2,5 gektar yer maydonida "Mirishkor textile group cluster" MChJ tomonidan "Samo" brendi ostida tadbirkorning o'z mablag'i hisobidan umumiy qiymati 24 mlrd. so'm bo'lgan matodan trikotaj ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi. Bu orqali 500 nafar xotin-qizlar ishli bo'lgan bo'lsa, korxona yana kengaytirilib, ish o'rni soni 700 tagayetadi[1].

2022-yil noyabr oyida Qoraqalpog'istonlik hokim yordamchilari "Mirishkor textile group" MCHJ tomonidan "Samo" brendi ostidagi tayyor tikuv trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi bilan tanishdilar. Umumiy qiymati 35 mlrd so'mni tashkil etgan loyiha yaqin kunlarda ishga tushishi kutilmoqda. Fabrikaning ishga tushishi natijasida 400 ga yaqin ishni o'rni yaratiladi[2]. 2022-yil 9 oyda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 42,5 foizga o'sdi. Tumanda yilning o'tgan davrida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti 3,5 million so'mga yaqindir. Yaqin kunlarda yiliga 6 million dona trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish kuvvatiga ega fabrika foydalanishga topshirilgach, 400 ta ishchi o'rni yaratildi[4].

2023-yilning birinchi yarmida hududiy investitsiya dasturi doirasi joriy yil yanvar-dekabr oylarida umumiy qiymati 241 mlrd. so'mlik 42 ta loyihalar ishga tushishi natijasida 1410 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Mebelsozlik sanoati, Oziq-ovqat sanoati, Qurilish materiallari sanoati hamda tekstil sanoatida juda katta yutuqlarga erishdik, juda katta uzgarishlar yuzberdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, Guliston QFY da joylashgan "The Best Agroxim Cluster" MChJ tomonidan "ShOX" brendi ostida qiymati 27 mlrd so'm bo'lgan yillik 35 ming tonna quvvatga ega un mahsulotini ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi va 120 ta ish o'rinlari yaratildi. Pomuq shaharchasida esa "Original Cotton Mirishkor" MChJ tomonidan qiymati 95,0 mlrd so'm bo'lgan yillik quvvati 5 ming tonna ega bo'lgan zamonaviy ip-kalava ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi va 350 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

"Litai textile Overseas" MChJ tomonidan "LITAI" brendi ostida Paxtani qayta ishlash zavodi. Loyihaning yillik quvvati 25 ming tonna. Loyihaning umumiy qiymati

45 mlrd.so'mni tashkil etadi. Loyiha korxonaning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirildi. Yaratiladigan ishchi o'rni 300ta. Yillik budjetga tushum 2,5mlrd so'm. Loyiha doirasida yiliga 7,2mln doll mahsulot eksport qilinadi. Loyiha 2023 yil 1-chorakda ishga tushgan[5].

Chigitni chuqur qayta ishlash zavodi (Yog' ishlab chiqarish)ni tashkil yetish loyihasi. Loyihaning yillik quvvati 12 ming tonna. Loyihaning umumiy qiymati 41 mlrd.so'm. Loyiha korxonaning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirildi. Yaratiladigan ishchi o'rni 200ta. Yillik budjetga tushum 2 mlrd so'm. Loyiha doirasida yiliga 2,4mln doll mahsulot eksport qilinadi. Loyiha 2023 yil 1-chorakda ishga tushgan. Hozirgi kunda loyihalarning 70 % qurilish montaj ishlari amalga oshirilgan bo'lib Xitoy davlatidan 85 % uskunalar olib kelingan[6]. "Mirishkor Ratex Textile" MChJ tomonidan "RATEKS" brendi ostida Ip kalava ishlab ishlab chiqarish loyihasi. Loyihaning yillik quvvati 5 ming tonna. Loyihaning umumiy qiymati 8,0 mln.doll. Shundan o'z mablag'i 3,0 mln.doll bank kredit 5,0 mln.doll yaratiladigan ishchi o'rni 300 ta. Loyiha doirasida yiliga 1,4 mlrd so'm budjetga tushum amalga oshirildi. Loyiha doirasida yiliga 8 mln doll mahsulot eksport qilindi. Hozirgi kunda loyihaning 80 % qurilish montaj ishlari amalga oshirilgan bo'lib uskunalar olib kelish uchun Xitoy davlati bilan shartnoma qilingan. Loyiha 2023 yil 1- chorakda ishga tushirilgan[6]. "Temur Hamkor Plast" MChJ tomonidan "TMP" brendi ostida Tomat ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi. Loyihaning yillik quvvati 3000 tonna. Loyihaning umumiy qiymati 2,0 mln. dollar. Shundan o'z mablag'i 700 ming doll. bank krediti 1,3 mln AQSh dollar. Yaratiladigan ishchi o'rni 80 ta. Loyiha doirasida yiliga 1,3 mlrd so'm budjetga tushum amalga oshirildi. Loyiha doirasida yiliga 1,2 mln AQSh dollar. mahsulot eksport qilindi[7]. "The Best Agroxim Cluster" MChJ tomonidan "ShOX" brendi ostida Makaron ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi. Loyihaning yillik quvvati 10 000 tonna. Loyihaning umumiy qiymati 1,0 mln. dollar. Shundan o'z mablag'i 700 ming dollar. bank krediti 0,7 mln AQSh dolllar.Yaratiladigan ishchi o'rni 50 ta. Loyiha doirasida yiliga 1 mlrd so'm budjetga tushum amalga oshirildi. Loyiha doirasida yiliga 0,5 mln AQSh doll. mahsulot eksport qilindi. Loyiha 2023 yil 3-chorakda ishga tushirilgan[9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktabrdagi "2022-2023 yillarda mahallalar infiratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-408-sonli qaroriga asosan Mirishkor tumanining 25 ta mahallasi 49,39 km qismi ta'mirlandi, 45,39 km asfalt beton, 3 km sement-beton va 1 km toshli yo'lga o'tkazildi, 2 ta mahallaning elektr energiyasini yaxshilandi, 2 ta mahallaning ichimlik suv va 1 ta mahallaning qabristoni obodonlashtirildi.

2022 yilda umumiy qiymati 241 mlrd. so'mlik 42 ta loyihalar ishga tushishi natijasida 1410 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Jumladan, umumiy qiymati 27 mlrd so'm bo'lgan yillik 35 ming tonna quvvatga ega un mahsulortini ishlab chiqaruvchi "The Best Agroxim Cluster" un zavodi, umumiy qiymati 95,0 mlrd so'm bo'lgan yillik quvvati 5 ming tonna ega bo'lgan zamonaviy ip-kalava ishlab chiqaruvchi "Original Cotton Mirishkor" MChJ va umumiy qiymati 20 mlrd.so'm bo'lgan "Samo" brendi ostidagi paxtani qayta ishlash zavodi kabi yirik loyihalar ishga tushurildi[5].

2023-yil yakuniga qadar elektr energiya ta'minotini yaxshilash bo'yicha sektorda 318,0 mln.so'm mablag'ga 3 ta transformator, 120 dona beton ustun hamda 3,2km havo liniyasi tortildi. 5,2 mlrd. so'm mablag' evaziga 8,5 km ichki yo'llar asfaltlashtirildi. 4,5km yo'l shag'allashtirildi. 4,7 mlrd. so'mga 2 ta MFYda DMTT (Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti) va QVP (qishloq vrachlik puntkti) ta'mirlandi. 1,8 mlrd. so'mga 2 km ichimlik suv liniyasi tortildi 1 ta suv saqlash ombori qayta ta'mirlandi[9].

Soliq idoralarini nazorat funksiyalarini takomillashtirish hamda nazorat tadbirlari natijasida 2023-yil 3-chorakda 6 ta subyektga sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilib 22,5 mln.so'm jarima qo'llanilib byudjetga undirildib olindi. Bundan tashqari yil davomida tumanimizda faoliyat yuritayotgan 218 nafar tadbirkorlik subyektining 235 ta muammolari o'rganilib, dastlabki buxgalteriyasini yuritish, hisobotlarni to'ldirish va topshirish kabi 235 tadan ortiq masalalar bevosita soliq organlari xodimlari ko'magida hal etildi[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-sonli qaroriga asosanMirishkor tumanida o'z-o'zini band qilgan fuqarolar 5779 tani tashkil qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Xullas, so'nggi yillarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, hunarmandchilikni tashkil etish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha xotinqizlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga ko'maklashish borasida natijalar bo'y ko'rsatmoqda.  Bugun yurtimizda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni oshmoqda. Iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida, kichik biznes subyektlarida xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumoti
2. Mirishkor tuman hokimi Sherali Sanayevning 2022 yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda kelgusi yilgi rejalari yuzasidan xalq deputatlari Kengashi va tuman ahliga murojaatnomasidan
3. Mirishkor tumani hokimligi joriy arxivi ma'lumoti, 2022-yil.
4. Mirishkor tumani hokimligi joriy arxivi ma'lumoti, 2023-yil.
5. Sherqulova L., Norov Yu. Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlari yo'qlamasi: Mirishkor tumani azali g'azal, buguni go'zal, kelajagi hal-hal... // "Oltin zamin" gazetasi, 2022 yil 25 noyabr.
6. www.mirishkorpress.uz Qashqadaryo viloyati Mirishkor tuman hokimligining rasmiy veb-sayti ma'lumoti
7. Mirishkor tumani hokimi G'ulomov Fayzullo Qurbonovichning 2023 yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda kelgusi 2024-yilgi rejalari yuzasidan murojaatnomasidan

UDK 564.48.01

# SANOAT CHIQINDILARI ASOSIDA IONALMASHINUVCHI FUNKSIONAL POLIMERLAR OLISH

**Panjiyev Ulug'bek Rustamovich**
Qarshi xalqaro universiteti rektori "Iqtisodiyot va muhandislik" kafedrasi dotsenti,
p.ulugbek@mail.ru, +998904268393
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-2385-771X
**Turdiyev Jasurbek**
Qarshi davlat texnika universiteti "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" kafedrasi doktoranti,turdiyev_jasurbek_777@mail.ru , +998914677717

***Annotatsiya:*** *Maqolada poliakrilonitril chiqindisi asosida yangi ion-almashuvchi materiallarni ishlab chiqarish imkoniyatlari va qonuniyatlari aniqlangan. PAN tolasini Fridel-Krafts katalizatorlari bilan modifikatsiyalash jarayonining fizik-kimyoviy qonuniyatlari va ular asosida polikompleksonlar olishning amaliy usullari o'rganilgan. Yangi turdagi tolasimon ionit va polikompleksonlar olish, ularning xossalari va amaliy ahamiyati tadqiq qilinib, maxsus kompleks xossalarga ega bo'lgan polimer materiallar yaratish imkoniyati aniqlangan. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati shundaki, poliakrilonitril tolasi asosida olingan natijalar polimer yon zanjirlarini polikondensatsiyalanish orqali yuqori almashuv sig'imiga ega bo'lgan sorbentlarni olish imkoniyatlarini ochib beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Ionit, sorbent, polikondensatsiya, Fridel-Krafts katalizatorlari, statik almashish sig'imi, dinamik almashish sig'imi, poliakrilonitril, selektivlik, kompleks birikma.*

УДК 564.48.01

# РАЗРАБОТКА ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ИОНОБМЕННЫХ ПОЛИМЕРОВ НА ОСНОВЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОТХОДОВ

**Панжиев Улугбек Рустамович**
Ректор Каршинского международного университета, доцент кафедры «Экономика и инженерия»
Электронная почта: p.ulugbek@mail.ru
Телефон: +998 90 426 83 93
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-2385-771X
**Турдиев Жасурбек**
Докторант кафедры «Экология и охрана окружающей среды»
Каршинского государственного технического университета
Электронная почта: turdiyev_jasurbek_777@mail.ru
Телефон: +998 91 467 77 17

***Аннотация:*** *В статье рассмотрены некоторые возможности и закономерности синтеза новых ионообменных материалов на основе отходов полиакрилонитрила. Выявлены физико-химические закономерности процесса фосфорилирования волокон ПАН катализаторами Фриделя—Крафтса, а также прикладные методы получения на их основе поликомплексонов. Кроме того, исследование некоторых прикладных свойств волокнистых ионообменных материалов показало, что разработанные иониты обладают специфическими свойствами. Практическая особенность проведённых исследований заключается в том, что на основе фосфорилирования боковых цепей полиакрилонитрильных волокон методом поликонденсации можно разработать сорбенты с высокими сорбционными свойствами.*

***Ключевые слова:*** *Ионит, сорбент, поликонденсация, катализаторы Фриделя-Крафтса, статическая обменная ёмкость, динамическая обменная ёмкость, полиакрилонитрил, селективность, комплексное соединение.*

UDC 564.48.01

# DEVELOPMENT FUNCTIONAL IONCHENGING POLYMERS ON BASE INDUSTRIAL DEPARTURE

**Ulugbek Panjiyev Rustamovich**
Rector, Karshi International UniversityAssociate Professor,
Department of Economics and Engineering
Email: p.ulugbek@mail.ru
Phone: +998 90 426 83 93
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-2385-771X
**Jasurbek Turdiyev**
PhD Candidate, Department of Ecology and Environmental Protection
Karshi State Technical University
Email: turdiyev_jasurbek_777@mail.ru
Phone: +998 91 467 77 17

***Abstract:****The article reviews certain possibilities and regularities in the synthesis of new ion-exchange materials based on polyacrylonitrile waste. The physicochemical regularities of the phosphorylation process of PAN fibers using Friedel–Crafts catalysts, as well as practical methods for obtaining polycomplexones based on this process, are identified. Furthermore, the study of some practical properties of fibrous ion-exchange materials showed that the developed ion exchangers possess specific properties. The practical significance of the conducted research lies in the fact that, based on the phosphorylation of the side chains of polyacrylonitrile fibers by the polycondensation method, it is possible to develop sorbents with high sorption properties.*

***Keywords:*** *Ionite, sorbent, polycondensation, Friedel–Crafts catalysts, static exchange capacity, dynamic exchange capacity, polyacrylonitrile, selectivity, complex compound.*

**Kirish.** Ionalmashinuvchi va kompleks hosil qiluvchi funksional polimerlar olish, ion-almashuvchi ularni sintez jarayonlarini fundamental tomonlarini tadqiq qilish hamda rivojlantirish hozirgi zamon fizikaviy va yuqorimolekular birikmalar kimyosining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi [1]. Ionit va polikompleksonlar xossalarining hosil bo‘lishining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish ushbu muammoni yechishda asosiy vosita hisoblanadi hamda sintez jarayonlarini boshqarish orqali kerakli tarkib va kompleks xossaga ega bo‘lgan ion-almashuvchi polimer materiallar olish imkoniyatlarini yaratadi [2]. Kompleks xossali sorbentlar uchun, ayniqsa, selektivlik xossasi ahamiyatli. Selektivlikni oshirishning asosiy yo‘li esa ionalmashuv materiallarni tashkil qiluvchi polimer molekulalari tarkibiga yutilayotgan mahsulotga nisbatan moyilligi yuqori bo‘lgan, funksional guruhlarni maxsus ketma-ketlikda joylashtirish hisoblanadi.

Selektiv xossaga ega bo‘lgan sorbentlarni tolasimon materiallar asosida olish bir qator afzalliklarga olib keladi. Jumladan, ular katta solishtirma sirtga ega bo‘lgani uchun ularda sorbsiya va desorbsiya jarayonlarini yuqori tezlikda o‘tkazishda, hamda atrof muhitdagi nihoyatda oz miqdorda bo‘lgan zaharli moddalarni tozalashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ion almashuvchi materiallarni qo‘llovchi texnologiyalar yordamida suv o‘tlari, neft hamda gaz konlaridagi tabiiy tuzli eritmalardan yod va bromni 90 foizgacha ajratib olinadi. Ular biologik faol moddalar eritmalarini konsentrlashda, metall nanozarrachalari bilan katalitik sistemalar olishda ishlatiladi [3]. Bunday ion almashuvchi tolasimon materiallar olishda, Respublikamizdagi «Navoiazot» AJning mahsuloti hisoblangan poliakrilonitrilli «nitron» tolasi keng

miqyosda qo'llaniladi. Poliakrilonitril tolasi tarkibida reaksion faol nitril guruhi bo'lgani uchun kimyoviy o'zgarishlarga oson uchraydi va uning asosida turli xil ion-almashuvchi va kompleks hosil qiluvchi materiallar olinadi. Hozirgi vaqtgacha poliakrilonitril tolasi asosida sorbentlar olish bo'yicha tadqiqotlar asosan amaliy ko'rinishga ega bo'lib, sorbentlar sintezi jarayonining fundamental tomonlarini rivojlantirish ahamiyatlidir. Shu sababli bugungi kunda «nitron» tolasi asosidagi anionitlar va polikompleksonlar hosil bo'lishi va xossalarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazardan dolzarbdir.
Mamlakatimizda bunday sorbentlarga talab yuqoriligini hisobga olgan holda, mahalliy xomashyo asosida tolasimon sorbentlar olishning joriy etilishi hukumatimiz tomonidan yangi turdagi kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishni jadallashtirish, shu asosda respublikaning kimyo sanoati korxonalarini yanada barqaror rivojlantirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha muammolarni hal qilishning imkoniyatlarini yaratadi.

Bugungi kunda dunyoda ion-almashuvchi tolasimon sorbentlar olish kinetikasi va mexanizmini tadqiq qilish, ularning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish, afzalliklarini yoritish hamda metall ionlari analizi bo'yicha, ekologiya va gidrometallurgiyadagi texnologik muammolarni yechishga qaratilgan ustivor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, ilgaridan poliakrilonitril modifikatsiyasiga katta e'tibor qaratib kelingan. Jumladan, horij va o'zbek olimlari o'z ilmiy izlanishlarida poliakrilonitrilning nitril guruhlarini kimyoviy o'zgartirishga uchratib ion-almashuvchi polimerlar sintez qilish muammolarini yechishga katta xissa qo'shganlar [4-5]. Bunda, asosiy e'tibor poliakrilonitrilni gidroliz qilish yo'li bilan neft kimyosi sanoatida qo'llaniladigan suvda eruvchi polimerlar olishga qaratilgan.

Biroq, ayni polimerning, ayniqsa, Fridel-Krafts katalizatorlari bilan modifikatsiyalash jarayonining fizik-kimyoviy qonuniyatlari va ular asosida polikompleksonlar olishning amaliy usullari o'rganilmagan. Yangi turdagi tolasimon ionit va polikompleksonlar olish, xossalari fizik-kimyoviy qonuniyatlarini tadqiq qilish, maxsus kompleks xossaga ega bo'lgan polimer materiallar yaratish imkonini beradi [6].

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati poliakrilonitril tolasi asosida kuchli hamda kuchsiz asos tabiatiga ega bo'lgan ion almashuvchi va kompleks hosil qiluvchi polimer materiallarni yaratishning maqbul sharoitlarini aniqlashdan iborat.

Ilmiy izlanishlarda PAN- tolasini fosfor tutgan birikmalar bilan Fridel-Krafts reaksiyasi asosida kimyoviy modifikatsiyalashning fizik-kimyoviy qonuniyatlari aniqlangan.

«Nitron» tolasining Fridel-Krafts katalizatorlari bilan ta'sirlanishi 333-393K da olib borilgan, ammo ushbu sharoitda «nitron» tolasi xossalarida o'zgarish kuzatilmadi, ya'ni ushbu sharoitda «nitron» tolasi -CN guruhlari bilan $RS1_3$ orasida reaksiya bormagan. Shuning uchun modifikatsiyalash reaksiyasiga gidroksilamin (GA) bilan qisman ishlangan, ya'ni aktivlangan «nitron» ishlatildi. Bunda GA bilan modifikatsiyalangan tola HCI bo'yicha ion almashuv sig'imiga 1 mg-ekv/g ga teng

bo'lgan. Keyingi reaksiya 373K da 5 soat davomida olib borilgan, ushbu sharoitda $RS1_3$bilan modifikatsiyalangan polimer HSI bo'yicha 3,2 mg-ekv/g statik almashuv sig'imiga (SAS) ega bo'lgan. SASning ushbu qiymati SN- guruhlarni 36% amidofosfat guruhlariga aylanishidan dalolat beradi.

Fosforlash mahsulotining potensiometrik egri chiziqlarida ikkita $rK_\alpha$5,3 va 3,3 qiymatlariga mos bo'lgan sakrash kuzatiladi. $RS1_3$bilan modifikatsiyalangan namunalarning IQ- spektrlarida nitril guruhlarining valent tebranishlariga mos keluvchi 2240$sm^{-1}$ yutilish chizig'ining intensivligi kamayishi, >NH guruhlari valent va deformatsion tebranishlariga mos keluvchi 3200 - 3500 va 1580$sm^{-1}$ yangi yutilish chiziqlari paydo bo'lgan. >R-ON- guruhni valent tebranishlariga qarashli 1640$sm^{-1}$ dagi yutilish chizig'i kuzatilgan.

PAN ni $RS1_3$ bilan modifikatsiyalash bo'yicha tadqiqotlarning katta hajmga ega bo'lishiga qaramasdan jarayonning fizik-kimyoviy xususiyatlari yetarli o'rganilmagan. Yuqoridagi mualliflar ishlarida $RS1_3$ bilan modifikatsiyalash tola tuzilishining buzilishiga va polimerning erishiga olib kelgan. Shuning uchun modifikatsiyalash jarayonini tikuvchi agent gidrazin ishtirokida olib borildi va natijada polimer strukturasida uch o'lchamli to'rlar hosil bo'lishi bu esa sorbentning kimyoviy barqarorligini ortishiga olib kelishi aniqlandi.




**1-rasm. PAN tolasini** $RS1_3$ **bilan o'zaro ta'sirlanishida nitril guruhlar o'zgarish darajasining reaksiya davomiyligiga bog'liqligi.** *1, 2, 3, 4- reaksiya harorati mos ravishda 338, 348, 363, 373K (vanna moduli 1:50; [$RS1_3$]=5%, [$RS1_3$]=0,7%)*.

Reaksiya davomiyligi va harorati ortishi bilan olingan tolalarning -SN guruhlar o'zgarish darajasi ortadi. (-SN guruhlar o'zgarish darajasi dastlabki va modifikatsiyalangan tolani IQ- spektrlarini tadqiq qilish va NSI bo'yicha SAS ni aniqlash orqali aniqlangan). (1-rasm).

Reaksiyaning 365K haroratdan yuqorida olib borilishi o'zgarish darajasining pasayishiga olib keladi. Olingan natijaning eng qiziq tomoni shundan iboratki, 30 daqiqadan kamroq vaqtda olingan reaksiya mahsulotlari bo'kkan iviqsimon tizimga ega bo'lgan. Keyinchalik reaksiya davomiyligini ortishi esa mustahkam tolalar hosil bo'lishiga olib kelgani aniqlandi. Demak, boshlang'ich 30 daqiqada faqat fosforlash mahsulotlari hosil bo'lgan, so'ngra fosforlash reaksiyasi sodir bo'lib va tolaning mustahkamligi oshgan. Bu sharoitda SAS 5-5,5mg-ekv/g qiymatiga ega bo'lgan modifikatsiyalangan tola olingan.Choklovchi agent ishtirokida olingan modifikatsiyalangan tolalar kislota va ishqor eritmalariga, PAN erituvchilariga nisbatan barqaror ekanligi ko'rsatildi. Jarayon kinetikasini o'rganish orqali «nitron»

tolasining RS1$_3$ bilan ta’sirlanish reaksiya tezligi tenglamasi aniqlangan va u quyidagi ko‘rinishga ega:

$$V = K\left[PC1_3\right]^{1,3} \bullet [CN]^{1}$$

Ko‘rinib turibdiki, jarayonning geterogen tabiatiga qaramasdan reaksiya ham RS1$_3$, ham polimerning nitril guruhlari bo‘yicha birinchi tartibga ega. Kuzatilayotgan xolatni gomogen reaksiyalardagi kabi polimer nitril guruhlariga yetib borishini osonlashtiruvchi tolaning yuqori solishtirma sirtga egaligi bilan izohlash mumkin.

Olingan polimerning PAN erituvchilarida erimasligi uning tarkibida uch o‘lchamli tizimalar borligidan dalolat beradi.

PUR-3 ionitni funksional guruhlari asosliligini baholash maqsadida potensiometrik titrlash egri chiziqlarini Genderson – Gesselbax tenglamasi koordinatlarida ishlab chiqildi. Funksional guruhlar rK$_\alpha$ ning 4,2 va 6,2 ga teng bo‘lishi olingan ionitning kuchsiz asosli xossaga egaligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, tadqiqotlar natijasi «nitron» tolasini fosforli asoslar bilan modifikatsiyalash jarayoni gomogen reaksiyalarda kuzatiladigan qonuniyatlarga bo‘ysunishi ko‘rsatildi.

Choklangan ion-almashuvchi materiallar olish maqsadida PAN ni RS1$_3$bilan modifikatsiyalandi. Ta’sirlanish reaksiyasini RS1$_3$ bilan har qanday nisbat va haroratlarda gomogen eritmalar hosil qiluvchi suv va izopropanolda olib borildi.

2- rasmdan ko‘rinib turibdiki, reaksiya 373K haroratda, RS1$_3$ning 50% suvli eritmasida 6 soat davomida olib borilganda sorbentning NSI bo‘yicha SAS qiymati 2,0 mg-ekv/g dan oshmaydi, ya’ni bu o‘zgarish darajasining 34% ini tashkil etadi.




**2-rasm. PAN tolasini RS1$_3$ bilan ta’sirlanishida nitril guruhlari o‘zgarish darajasi-ning reaksiya davomiyligi bilan o‘zgarishi.**

*1, 2, 3- reaksiya harorati mos ravishda 353, 363, 373K (vanna moduli 1:50; [RS1$_3$]=50%).*

Reaksion aralashmaga 3% RS1$_3$ qo‘shish natijasida jarayon faollashib, olingan tolalarning SAS qiymati keskin ortdi va uning qiymati 3,5 mg-ekv/g ga teng bo‘ldi.

Olingan natijalar asosida RS1$_3$ + ortofosfor kislota va PANni SN- guruhlari bo‘yicha reaksiya tartiblari hisoblandi. «Nitron» tolasi bilan RS1$_3$ ta’sirlanishining reaksiya tezligi tenglamasi quyidagicha ko‘rinishga ega:

$$V = K\left[PC1_3 O\Phi K\right]^{1,2} \bullet [CN]^{0,75}$$

Olingan sorbent tuzilishini aniqlash maqsadida ularning funksional guruhlar miqdori analiz qilindi. Har bir funksional guruhga to‘g‘ri kelgan SAS qiymati 1-jadvalda keltirilgan.

**1- jadval**

**$RS1_3$ni suvli eritmasida modifikatsiyalangan PAN tolasining funksional tarkibini aniqlash natijalari**

*$[RS1_3]$=50%, [OFK]=3%, T=373K*

| SAS, mg-ekv/g | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| NSI bo‘yicha | 0,1n NaCI bo‘yicha | 10% NaCI bo‘yicha | birlamchi amino guruh | ikkilamchi amino gurux | uchlamchi amino guruh | $NSIO_4$ bo‘yicha |
| 3,7 | 1,6 | 1,6 | 0,4 | 1,6 | 3,4 | 5,4 |
| 3,9 | 1,8 | 1,8 | 0,5 | 1,5 | 3,9 | 5,9 |
| 4,4 | 2,0 | 1,9 | 0,5 | 1,7 | 4,6 | 6,8 |

PAN tolasini $RS1_3$ ning butanolli eritmasida modifikatsiyalash jarayoni o‘tkazish natijasida ham yuqoridagi kabi natijalar olingan. Osh tuzi bo‘yicha SASning mavjudligi, PAN tolasini $RS1_3$ bilan modifikatsiyalash natijasida hosil bo‘lgan ionitlar (PUR-3) faqat kuchsiz emas, balki kuchli asosli guruhlarga egaligini ko‘rsatadi. «Nitron» tolasini $RS1_3$ bilan organik muhitda modifikatsiyalash natijasida kuchli asosli guruhlar miqdori suvli eritmalardagi modifikatsiyalash reaksiyalarga qaraganda ko‘proq bo‘lishi aniqlandi.

PAN tolasini orto-fosfor kislotasi (OFK) bilan modifikatsiyalashda tolaning SAS qiymati 1,6mg-ekv/g dan oshmagan. Ma’lumki, sorbentlarning SASning qiymati ularga ionalmashuv xossasini beruvchi funksional guruhlar miqdoriga bog‘liq. Funksional guruhlar miqdorini modifikatsiyalangan polimerning yon zanjirlarini uzaytirish orqali ko‘paytirish mumkin. Bunday uzaytirishga «nitron» tolasini dixloretan (DXE) ishtirokida EDA bilan modifikatsiyalash orqali erishildi va u sorbentning (PUR-2) SAS ni 6,0 mg-ekv/g gacha ortishiga olib keldi.

**Tahlil va natijalar.** Ko‘rinib turibdiki, «nitron» tolasini orto-fosfor kislotasi bilan modifikatsiyalash jarayonida DXE qo‘shilishi komponentlar orasidagi polikondensatsiyalanish reaksiyasi sodir bo‘lishiga va oligomer zanjirlarning uzayishiga olib keladi. Olingan natijalar polimer yon zanjirlarini polikondensatsiyalanish orqali yuqori almashuv sig‘imiga ega bo‘lgan sorbentlarni olish imkoniyatlarini ochib berdi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgandek, nitril guruxlarining ba’zi bir azotli asoslar bilan reaksiyaga kirishish faolligi oddiy sharoitda juda ham sust bo‘ladi. Shuning uchun polimerlar nitril guruhlarini modifikatsiyalash jarayonida $RS1_3$ eritmalari bilan ishlash orqali faollashtiriladi. Ushbu kuzatilgan hodisaning mexanizmi ilgari taklif qilingan bo‘lib, u tolaning nitril guruhlari $RS1_3$ bilan ta’sirlashib amidofosfat guruhlar hosil qilishi, ular esa amin tutgan guruhlarga oson almashinishi va $RS1_3$ni reaksion eritmaga qaytishidan iborat. Ammo adabiyotlarda [6] ushbu mexanizmni to‘liq tasdiqlovchi isbotlar keltirilmagan. Taklif qilingan $RS1_3$ ning katalitik ta’sir mexanizmini isbotlash uchun oldindan faollashtirilgan PAN bilan $RS1_3$ta’sirlanishi o‘rganildi. «nitron» tolasini faollashtirish $RS1_3$ ning suvli eritmalari yordamida olib borildi. Ushbu usul

bilan modifikatsiyalangan tolaning ion almashuv sig'imi 1 mg-ekv/g tashkil etgan. Faollashgan «nitron» tolasi va $RS1_3$orasidagi reaksiya 373K da 5 soat davomida olib borildi. Ushbu sharoitda olingan polimerning SAS qiymati 3,2 mg-ekv/g ga teng bo'ldi (faollashmagan «nitron» ortofosfor kislota bilan ta'sirlashmaydi).

Reaksiya natijasida reaksion aralashma va sintez qilingan polimerlarning tarkibida $RS1_3$ bor yoki yo'qligi sifat reaksiyalari, $RS1_3$ bilan modifikatsiyalangan polimer tarkibida $RS1_3$ hosilalari yo'qligini, qolgan reaksion aralashma tarkibida $RS1_3$ borligini ko'rsatgan.

$RS1_3$ bilan faollashtirilgan va $RS1_3$bilan modifikatsiyalangan polimerni IQ-spektroskopik tekshirishlar namunada amidofosfat guruhlarga xos bo'lgan yutilish chiziqlari yo'qolishi ko'rsatildi.

**Xulosa va takliflar**. Shunday qilib, turli xil aminlar bilan $RS1_3$ ishtirokida «nitron» tolasining kimyoviy o'zgarishlari bo'yicha olingan natijalar ilgari taklif qilingan $RS1_3$ ning katalitik ta'siri mexanizmi isbotlandi.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan ion-almashuvchi materiallar va polikompleksonlar oqava suvlardan bixromat ionlarini ajratib olishda, tarkibida arsenazo (III) tutgan polimer reagentlar og'ir metallarni analiz qilishda, ilk bor yod tutgan ionitlar asosida olingan kombinirlangan bakteritsid materiallar asoratli nekrotik kasalliklarini davolashda samarali natijalarga erishish mumkinligi aniqlandi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yergojin Ye.Ye., Tausarova G.B. Ionitы novogo pokoleniya.//Jurnal "Vыsokomolekularnыe soedineniya. Seriya A.№4, 2015 g.-s.34-39.
2. Panjiyev U.R.,Kasimova F.B.Chikindi asosida okava suvlarni tozalash uchun ionitlarni olish.// Jurnal «Kompozitsionnыe materialы», №4,2015. S.17-19.
3. Panjiyev U.R. Izuchenie osnovnых zakonomernostey i optimizatsiya ravnovesiya ionita s vneshnim rastvorom.// Jurn.Neft i gaz Uzbekistana, №1,2016. S.35-39.
4. Saldadze K.M. Ionitы i ionoobmennыe smolы.-M.:Ximiya.1999.-s.367.
5. Leykin D.S. Disodium 1-(2-Pyridylazo)-2-oxynaphthalene-3,6-disulfonate: An Immobilized Reagent for Iron(III) Determination // Russian Journal of General chemistry. 2011.- Vol.81. - №4. -P.739-742.
6. Rusanov A.D. Sorption of Cr(VI) on the Anion-Exchange Fibrous Material Based on Nitron. // Russian Journal of Applied Chemistry. 2002. -Vol. 75, Issue 1, -R. 71-74.
7. https://jurnal.sambhram.uz/index.php/JOURNAL/article/view/96
8. https://elibrary.ru/item.asp?id=42466450
9. https://www.id-yug.com/images/id-yug/Bulatov/2018/5/PDF/V5-231-234.pdf
10. https://id-yug.com/images/id-yug/Bulatov/2020/5/PDF/2020-5-212-213.pdf

# IJTIMOIY VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA GEOGRAFIK YONDASHUVLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Fayzullayev Maqsud Abdullayevich**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi mudiri,
Geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent.
fayzullayev_maqsud08@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Maqolada barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda geografik yondashuvlarning rolini o'rganish, ijtimoiy va ekologik tizimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni va ularning barqaror rivojlanishdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan. Geografik axborot tizimlari (GIS), atrof-muhit monitoringi, resurslarni boshqarish va hududiy rejalashtirishda innovatsion yondashuvlar qo'llaniladigan asosiy vositalar sifatida ko'rsatiladi. Maqola ijtimoiy barqarorlikni, ekologik barqarorlikni va iqtisodiy rivojlanishni birlashtirishda geografik yondashuvlarning integratsiyasini taklif etadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Ekologik barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, geografik yondashuvlar, GIS texnologiyalari, atrof-muhit monitoringi, hududiy rejalashtirish.*

# ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

**Файзуллаев Максуд Абдуллаевич**
Заведующий кафедрой географии Шахрисабзского государственного педагогического института,
доктор географических наук (DSc), доцент
Электронная почта: fayzullayev_maqsud08@gmail.com

**Аннотация:** В статье рассматривается роль географических подходов в достижении целей устойчивого развития, а также анализируются взаимодействия между социальными и экологическими системами и их значение для устойчивого развития. Геоинформационные системы (ГИС), экологический мониторинг, управление ресурсами и территориальное планирование представлены как ключевые инструменты инновационного подхода. В статье предложена интеграция географических подходов для объединения социальной устойчивости, экологической стабильности и экономического развития.

**Ключевые слова:** экологическая устойчивость, социальная устойчивость, географические подходы, технологии ГИС, экологический мониторинг, территориальное планирование

# MAIN FEATURES OF GEOGRAPHICAL APPROACHES IN ENSURING SOCIAL AND ECOLOGICAL SUSTAINABILITY

**Maqsud Abdullayevich Fayzullayev**
Head of the Department of Geography, Shahrisabz State Pedagogical Institute
Doctor of Geographical Sciences (DSc), Associate Professor
Email: fayzullayev_maqsud08@gmail.com

***Abstract.*** *The article aims to study the role of geographical approaches in achieving sustainable development goals, to identify the interactions between social and ecological systems and their place in sustainable development. Geographic information systems (GIS), environmental monitoring, resource management and territorial planning are indicated as the main tools used in innovative approaches. The article proposes the integration of geographical approaches in combining social sustainability, ecological sustainability and economic development.*

***Keywords:*** *Ecological sustainability, social sustainability, geographical approaches, GIS technologies, environmental monitoring, territorial planning.*

Ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash zamonaviy geografik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv,

urbanizatsiya va iqlim o‘zgarishlari kabi jarayonlar insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun geografik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Geografiya tabiiy resurslardan foydalanish, hududiy rivojlanish, migratsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va antropogen ta’sirlarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yechimlarni taklif etish imkonini beradi. Ekologik va ijtimoiy barqarorlik muammolariga hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda yondashish zarur. Shu bois, har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va demografik sharoitlarini o‘rganish orqali barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ekologik barqarorlik deganda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muhitni muhofaza qilish va tabiiy ekotizimlarni degradatsiyadan saqlash tushuniladi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun tabiiy resurslarni asrash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va sanoat faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirish talab etiladi. Ijtimoiy barqarorlik esa, insonlarning yashash sharoitlarini yaxshilash, sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy tenglikni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Bu ikki tamoyil bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ekologik muvozanat buzilganda ijtimoiy barqarorlikka ham jiddiy tahdid paydo bo‘ladi. Shu sababli, hududiy xususiyatlarga asoslangan ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda geografik yondashuvlar bo‘yicha xorij olimlarining ilmiy qarashlari atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar hududiy ekologik barqarorlik va ijtimoiy tenglikni ta’minlash, urbanizatsiya jarayonlarini muvozanatlash hamda iqtisodiy faoliyatni ekologik mezonlarga moslashtirishni o‘z ichiga oladi.

***Alexander von Humboldt*** geografik tadqiqotlarida tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka e’tibor qaratgan. U ekologik tizimlarning hududiy xususiyatlarini o‘rganish orqali, antropogen faoliyat natijasida tabiiy landshaftlarda yuz beradigan o‘zgarishlarni bashorat qilish mumkinligini ta’kidlagan. O‘zbekiston sharoitida bu yondashuv ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish va iqlim o‘zgarishlariga moslashish strategiyalarini ishlab chiqishda muhimdir. Ayniqsa, Qashqadaryo va Farg‘ona vodiysi kabi ekotizimlarga kuchli ta’sir o‘tkazayotgan sanoat va qishloq xo‘jaligi faoliyatini ekologik jihatdan barqaror shaklda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

***Paul Ehrlich*** va ***John Holdren*** o‘zlarining *I-PAT modeli*da (Aholi soni, Farovonlik va Texnologiya o‘zgarishining atrof-muhitga ta’siri) inson omilining ekologik yuklamani oshirishini tahlil qilgan. Ularning fikriga ko‘ra, sanoatlashgan jamiyatlarda iste’mol va ishlab chiqarish jarayonlari ekologik izni oshiradi. O‘zbekistonda ushbu model bo‘yicha suv resurslaridan oqilona foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lishi mumkin.

***Gro Harlem Brundtland*** boshchiligidagi *Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi* global ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun iqtisodiy taraqqiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglik o‘rtasida muvozanatni ta’minlashni taklif etadi. O‘zbekistonda bu yondashuvni amalga oshirish uchun yashil energetikani rivojlantirish, shaharsozlikda ekologik me’yorlarga rioya qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish talab etiladi.

***David Harvey*** *Urbanizatsiya nazariyasi*da shaharlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muvozanatli rivojlanishini ta’minlash uchun ekologik infratuzilmani kengaytirish lozimligini ta’kidlaydi. O‘zbekistonning yirik shaharlarida havo ifloslanishining oldini olish, yashil zonalarni kengaytirish va jamoat transporti tizimini rivojlantirish ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omillardir.

***Jared Diamond*** o‘zining *"Collapse"* asarida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni noto‘g‘ri boshqarish oqibatida sivilizatsiyalar tanazzulga yuz tutganligini misollar orqali tahlil qiladi. Uzoq muddatli ekologik strategiyalar ishlab chiqilmasa, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarning zaiflashish ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida bu model cho‘llanish, suv taqchilligi va bioxilma-xillikning kamayishi kabi muammolarga yechim topishda dolzarbdir.

***E. W. Soja*** *Mintaqaviy adolat nazariyasi*da ekologik va ijtimoiy adolat muammolariga urg‘u berib, shahar va qishloq joylaridagi infratuzilma farqlarini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy imkoniyatlarni hududiy jihatdan adolatli taqsimlash muhimligini ta’kidlaydi. O‘zbekistonda bu yondashuv viloyatlar va tumanlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda, ayniqsa, qishloq hududlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu yondashuvlar asosida O‘zbekistonda ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun quyidagi strategiyalarni amalga oshirish mumkin:

***Ekologik monitoring va resurslarni boshqarish*** – Ekotizimlar barqarorligini ta’minlash uchun ekologik ma’lumotlarni yig‘ish va monitoring tizimlarini kengaytirish kerak. Masalan, Orolbo‘yi hududida ekologik monitoring markazlari faoliyatini kengaytirish tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

***Suv va yer resurslaridan barqaror foydalanish*** – Ehrlich va Holdren modeliga muvofiq, O‘zbekistonda suv resurslarini tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish va tomchilatib sug‘orish tizimlarini kengaytirish zarur.

*Shahar* ***ekologiyasi va yashil shahar loyihalari*** – Harvey va Brundtland yondashuvlariga muvofiq, shahar infratuzilmasini ekologik jihatdan moslashtirish, yashil hududlarni kengaytirish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish muhimdir.

***Hududiy ijtimoiy adolatni ta’minlash*** – Soja nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmani qishloq joylarda ham kengaytirish, ekologik muammolarni mintaqaviy adolat tamoyillariga asoslangan holda hal qilish lozim.

***Iqlim o‘zgarishiga moslashish strategiyalarini ishlab chiqish*** – Global ekologik muammolar kontekstida iqlim o‘zgarishining O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi va suv resurslariga ta’sirini kamaytirish uchun moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

Umuman olganda, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda geografik yondashuvlar tabiiy resurslarni samarali boshqarish, urbanizatsiyani muvozanatlash, ekologik xavflarni kamaytirish va hududiy ijtimoiy adolatni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq. Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida O‘zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirish orqali ekologik va ijtimoiy muvozanatni ta’minlash mumkin.

Geografik yondashuvlar hududiy farqlarni inobatga olgan holda muammolarni ilmiy asosda hal qilishga yordam beradi. Masalan, tog‘li hududlarda tuproq eroziyasi, o‘rmonlarning qisqarishi va suv resurslarining kamayishi asosiy ekologik muammolardan biri bo‘lsa, cho‘l zonalarida suv tanqisligi va shamol eroziyasi dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Shu boisdan, ekologik boshqaruv va hududiy rejalashtirish choralari har bir mintaqaning geografik xususiyatlariga mos holda ishlab chiqilishi lozim. Geografik yondashuvlar yordamida hududning tabiiy resurslari, aholi zichligi va antropogen ta’sirlarni o‘rganish orqali ekologik muammolarni oldindan prognoz qilish va ularning oldini olish imkoniyati yaratiladi (jadval).

Landshaft-geografik yondashuv hududlarning tabiiy muhitini har tomonlama tahlil qilishga asoslanadi. Har bir hudud tabiiy sharoiti, iqlim, tuproq va suv resurslari jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, tog‘li hududlarda tabiiy ofatlar xavfi yuqori bo‘lib, ular orasida yer ko‘chkilari, sel va qor ko‘chkilari mavjud. Dasht va cho‘l hududlarida esa qurg‘oqchilik, tuproq sho‘rlanishi va o‘simlik qoplamasining degradatsiyasi kuzatiladi. Shunday ekan, ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun har bir mintaqaning landshaft-geografik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarur. Landshaftlarning degradatsiyasini oldini olish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash ushbu yondashuvning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ekologik barqarorlikni ta’minlashda hududiy rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaharlarda sanoat korxonalari va transportdan chiqayotgan zararli gazlarning kamaytirilishi, yashil hududlarning kengaytirilishi ekologik barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Shu bilan birga, qishloq hududlarida tuproq unumdorligini saqlab qolish, suv resurslarini tejash va ekologik toza qishloq xo‘jaligi usullaridan foydalanish zarur. Hududiy rejalashtirish jarayonida har bir mintaqaning tabiiy-geografik sharoitlari va mavjud ekologik muammolari hisobga olinishi kerak. Shu yo‘l bilan ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

**.jadval**

**Geografik yondashuvlarning samaradorligi**

| Yondashuv | Tavsifi | Asosiy ustunliklari | Kutilayotgan natijalar |
|---|---|---|---|
| **Hududiy farqlarni hisobga olish** | Har bir hududning tabiiy, iqlimiy, demografik va iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda tadqiqot olib borish | Rivojlanishning hududiy xususiyatlarini aniqlash, resurslardan optimal foydalanish | Iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning har bir hudud uchun moslashuvi, hududlararo tafovutlarning kamayishi |
| **Ekologik muvozanatni saqlash** | Hududlardagi ekologik muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun ilmiy asoslangan | Atrof-muhit degradatsiyasining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash | Barqaror rivojlanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashash muhiti sifatining yaxshilanishi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | yondashuvlarni ishlab chiqish | | |
| **Hududiy rejalashtirish va urbanizatsiya** | Shaharlashuv jarayonlarini tahlil qilish va ularni ekologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan samarali boshqarish | Shaharlarda infratuzilma barqarorligi, transport va kommunal xizmatlarni takomillashtirish | Sog'lom urbanizatsiya, atrof-muhit ifloslanishining kamayishi, transport tizimining optimallashuvi |
| **Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish** | Suv, yer, o'rmon va mineral resurslardan samarali foydalanish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish | Resurslarning barqaror boshqaruvi, iqtisodiy samaradorlikning oshishi | Tabiiy boyliklarning uzoq muddatli saqlanishi, hosildorlik va ishlab chiqarish unumdorligining oshishi |
| **Iqlim o'zgarishlariga moslashish** | Hududlarga mos ravishda suv tejovchi texnologiyalar, yashil energiya manbalarini joriy etish va iqlim xavf-xatarlarini kamaytirish | Iqlimiy o'zgarishlarga chidamlilik, tabiiy ofatlarga barqarorlik | Qishloq xo'jaligi va sanoatning iqlim o'zgarishlariga moslashuvi, resurslardan samarali foydalanish |
| **Geoinformatika va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash** | GIS (Geografik Axborot Tizimlari), masofaviy zondlash, dronlar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish | Hududlarni aniq tahlil qilish, tezkor monitoring tizimini yo'lga qo'yish | Hududiy rejalashtirishning aniqligi, tabiiy ofatlarni oldindan prognoz qilish, ekologik monitoringni yaxshilash |
| **Demografik va ijtimoiy-geografik tahlillar** | Aholi soni, migratsiya, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari hamda mehnat resurslari harakatini o'rganish | Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirishda aniq ma'lumotlarga asoslanish | Ishsizlik darajasini pasaytirish, migratsiya oqimlarini samarali boshqarish, urbanizatsiya jarayonlarini muvozanatlashtirish |

*Jadval muallif ilmiy izlanishlar ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish barqaror rivojlanishning muhim shartidir. Suv, yer, o'rmon va mineral resurslari hududiy taqsimlanishi bo'yicha farqlanadi. Geografik yondashuvlar ushbu resurslarning samarali boshqarilishini ta'minlashga yordam beradi. Masalan, suv resurslari tanqis bo'lgan hududlarda tomchilatib sug'orish tizimlarini rivojlantirish, o'rmonlarga boy mintaqalarda esa daraxt kesish jarayonlarini qat'iy nazorat qilish talab etiladi. Ekologik boshqaruvda tabiiy resurslarning hududiy taqsimlanishini inobatga olish ularning uzoq muddatli va samarali ekspluatatsiyasiga xizmat qiladi.

Iqlim o'zgarishlari bugungi kunda global ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Havo haroratining ko'tarilishi, qurg'oqchilik va ekstremal ob-havo hodisalari ekologik barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda. Shu sababli, iqlim o'zgarishlariga moslashish strategiyalarini ishlab chiqish geografik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Masalan, qurg'oqchil hududlarda suvni tejash texnologiyalarini joriy etish, qirg'oqbo'yi hududlarida esa dengiz sathining ko'tarilishiga moslashish choralarini ko'rish zarur. Iqlim o'zgarishlarining hududiy

ta'sirlarini o'rganish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim qismidir.

Xulosa qilib aytganda, geografik yondashuvlar ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular hududiy resurslardan foydalanish, aholi yashash joylarini rejalashtirish va tabiiy-muhandisiy sharoitlarni hisobga olgan holda barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi. Geografik tahlillar ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy ofatlarning oldini olish va urbanizatsiya jarayonlarini nazorat qilish kabi muhim masalalarni hal qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hududiy rejalashtirishda ekologik barqarorlikni saqlash uchun geoinformatsion tizimlar, ekologik kartografiya va landshaft tahlili kabi metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Barqaror rivojlanish jarayonida geografik yondashuvlardan foydalanish nafaqat ekologik muhitni himoya qilish, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlash uchun muhimdir. Shuning uchun hududiy rivojlanish siyosatida geografik bilim va texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Raqamli xaritalar, masofadan zondlash texnologiyalari va ekologik monitoring tizimlari hududiy rivojlanishning ekologik jihatlarini nazorat qilish va tahlil qilishda muhim vositalardan biri bo'lib, ularni amaliyotga keng tatbiq etish atrof-muhitni muhofaza qilish hamda insonlar uchun qulay yashash sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, ekologik va ijtimoiy barqarorlikka erishishda geografik yondashuvlarning ilmiy va amaliy ahamiyati tobora ortib bormoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Рафиков А.А. Геоекологик муаммолар. – Т.: «O'qituvchi», 1997.

2.. Ruttan V.W. Growth stage theories and agricultural deve lopment policy, Australian Journal of Agricultural Economics, 1965, no. 9, p. 17–32. DOI: 10.1111/j.1467-8489.1965.tb00327.x.

3. Syrquin M. Patterns of structural change, Handbook of development economics, H. Chenery, T.N. Srinivasan (eds.), London, Elsevier BV, 1988, no. 1, p. 203–273.

4. Sultonov R.S. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – T.: «Musiqa», 2007

5. Timmer C.P. The Agricultural Transformation, Handbook of development economics, H. Chenery, T.N. Srinivasan (eds.), Amsterdam, Elsevier, 1988, p. 275–331.

6. Trivelli C., Berdegué J.A. Rural transformation. Looking towards the future of Latin America and the Caribbean, 2030 – Food, agriculture and rural development in Latin America and the Caribbean, 2019, no. 1, 76 p.

7. Vos R. Agricultural and rural transformations in Asian development, WIDER Working Paper, 2018, no. 87, 33 p.

8. Faizullaev M.A. The main characteristics of the development of the livestock network in the republic of Uzbekistan // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference. – Berlin, 2023. – P. 18-23.

9. Faizullaev M.A. Prospective directions of agricultural use of land resources of Uzbekistan // Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences: a collection scientific works of the International scientific conference. – Italy, 2023. – P. 9-14.

10. Fayzullayev M.A, Nurmatov N.E, Usmanov A.B, Islamova D.H. Main features of the use of research methods in economic and social geography. Электронное научно-практическое периодическое издание. «Экономика и социум». ISSN 2225-1545. Выпуск №12(127)-1 (декабрь, 2024).

11. https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/Employment_in_agriculture/

12. www.uznature.uz

13. www.yeso.uz

---

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHNI HOZIRGI ZAMON TALABLARI ASOSIDA TASHKIL QILISH

**Sh.Sh.Kurbanova**

Qarshi xalqaro universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi. Эл. почта: shahnoza2147755@gmail.com Tel +998972920515

*ORCID* https://orcid.org/0009-0005-3904-7732

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada O'zbekiston maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishning zamonaviy strategiyalari va usullari muhokama qilinadi. Unda o'qitish metodlarini zamonaviy talablar bilan moslashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda o'quv dasturini global ta'lim standartlariga moslashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Tadqiqotda mavjud muammolar tahlil qilinib, ularning yechimlari taklif etiladi va tabiiy fanlar ta'lim sifati yaxshilanishi uchun tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy fanlarni o'qitish, zamonaviy ta'lim usullari, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, virtual laboratoriyalar, axborot texnologiyalari, ta'lim sifati, maktab ta'limi, amaliy mashg'ulotlar, integratsiyalashgan ta'lim.

---

## ОРГАНИЗАЦИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ТРЕБОВАНИЙ

**Ш.Ш. Курбанова**

старший преподаватель кафедры социальных и гуманитарных наук Каршинского международного университета

Эл. почта: shahnoza2147755@gmail.com Тел:+998 97 292 05 15

ORCID https://orcid.org/0009-0005-3904-7732

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные стратегии и методы преподавания естественных наук в общеобразовательных школах Узбекистана. Особое внимание уделяется необходимости приведения методов обучения в соответствие с современными требованиями, внедрения инновационных технологий и адаптации учебных программ к международным образовательным стандартам. Исследование анализирует проблемы, предлагает решения и дает рекомендации по улучшению качества образования по естественным наукам.

**Ключевые слова:** Преподавание естественных наук, современные методы обучения, инновационные технологии, интерактивные методы, виртуальные лаборатории, информационные технологии, качество образования, школьное образование, практические занятия, интегрированное обучение.

# ORGANIZATION OF NATURAL SCIENCE TEACHING IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS BASED ON MODERN REQUIREMENTS

**Sh.Sh. Kurbanova**
Senior Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences,
Qarshi International University
Email: shahnoza2147755@gmail.com Phone: +998 97 292 05 15
ORCID https://orcid.org/0009-0005-3904-7732

**Abstract:** This article discusses the modern strategies and methods for teaching natural sciences in secondary schools in Uzbekistan. It emphasizes the importance of aligning teaching methodologies with contemporary requirements, incorporating innovative technologies, and adapting the curriculum to meet global educational standards. The study explores challenges, suggests solutions, and provides recommendations for improving the quality of natural science education.

**Key words:** Teaching natural sciences, modern teaching methods, innovative technologies, interactive methods, virtual laboratories, information technologies, quality of education, school education, practical training, integrated education.

**Kirish.** Hozirgi kunda o'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun muhim va dolzarb masala sanaladi. Davr talablaridan kelib chiqib, o'quvchilarning tabiiy fanlarga qiziqishini oshirish, ilmiy izlanishlarga rag'batlantirish va ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'quv jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlarni joriy qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Mamlakatimizda tabiiy fanlar ta'limi samaradorligini oshirish uchun axborot texnologiyalari, interfaol usullar va integratsiyalashgan ta'lim modellari joriy etilmoqda. Bu jarayon o'quvchilarga nazariy bilimlarni hayotiy tajriba bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash va ilmiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tabiiy fanlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tahlil qilish va samarali tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan. Tadqiqot quyidagi metodologiyalar asosida olib borildi:

1. **Tajriba-sinov usuli**: Tabiiy fanlarni o'qitish bo'yicha yangi metodlarni sinovdan o'tkazish uchun eksperimental mashg'ulotlar tashkil etildi. Bu usul orqali o'quvchilarning bilim olish samaradorligi o'lchandi va innovatsion yondashuvlarning afzalliklari aniqlandi.
2. **So'rovnoma va intervyu**: O'qituvchilar va o'quvchilar orasida so'rovnomalar va suhbatlar o'tkazilib, tabiiy fanlarni o'qitishdagi muammolar va takliflar tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam berdi.
3. **Statistik tahlil**: Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar matematik va statistik usullar orqali qayta ishlanib, aniq va ishonchli xulosalar chiqildi.
4. **Qiyosiy tahlil**: Tabiiy fanlarni o'qitishning an'anaviy va zamonaviy metodlari taqqoslanib, zamonaviy yondashuvlarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi roli aniqlandi. [1]

**Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati.** Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish jarayonini rivojlantirish, uni zamonaviy talablar asosida tashkil qilish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Davrning talablariga

mos ravishda oʻquvchilarning bilim darajasini oshirish, ularni fanga qiziqtirish va ilmiy izlanishlar olib borishga ragʻbatlantirish maqsadida tabiiy fanlarni oʻqitishda yangi yondashuvlar qoʻllash zarurati tugʻilmoqda. Shu sababli, ta’lim tizimida tabiiy fanlar boʻyicha zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol uslublar, innovatsion oʻquv materiallari va mos metodik yondashuvlarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy fanlarni oʻqitishda zamonaviy ta’lim jarayoni oʻquvchilarning amaliy koʻnikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarini hayotga tatbiq eta olishlariga qaratilgan boʻlishi lozim. Bunda, quyidagi talablarga amal qilish muhimdir:

1. **Ilmiy-texnikaviy rivojlanish:** Tabiiy fanlarni oʻqitishda yangi texnologiyalardan foydalanish. Oʻquvchilarni zamonaviy asbob-uskunalar va dasturlar bilan tanishtirish va ularni amalda qoʻllashni oʻrgatish.
2. **Interfaol metodlar:** Tabiiy fanlarni oʻqitishda amaliy darslar, laboratoriya mashgʻulotlari va loyiha ishlari orqali oʻquvchilarning bilimlarini mustahkamlash. Oʻqituvchilar tomonidan oʻquvchilarga masala yechish va eksperimentlar oʻtkazish imkoniyatlarini yaratib berish.
3. **Innovatsion pedagogik texnologiyalar:** Bugungi kunda axborot texnologiyalari (IT) ta'lim jarayonida asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Oʻquvchilarni turli dasturlar, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar yordamida fanga qiziqtirish va oʻquv materialini tushuntirish ancha samarador boʻladi.
4. **Integratsiyalashgan yondashuv:** Tabiiy fanlarni oʻqitishda turli fanlar bilan integratsiyani kuchaytirish lozim. Masalan, biologiya va kimyo, fizika va matematika darslarini bir-biriga bogʻlab oʻrgatish oʻquvchilarning fanlararo tushunchalarini rivojlantiradi.[2]

Bugungi kunda tabiiy fanlarni oʻqitishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, axborot texnologiyalarining joriy qilinishi quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

- **Virtual laboratoriyalar:** Oʻquvchilarga laboratoriya tajribalari oʻtkazish uchun maxsus jihozlar talab qilinmasdan, virtual muhitda tajriba oʻtkazish imkoniyatini yaratadi.
- **Simulyatsiyalar:** Tabiiy jarayonlarni animatsion ravishda tushuntirish oʻquvchilarning mavzuni osonroq oʻzlashtirishlariga yordam beradi.
- **Onlayn oʻquv platformalari:** Oʻquvchilarni bilimlarini mustahkamlash uchun turli xil onlayn resurslar va testlar bilan ta’minlash. [3]

**Boshlangʻich sinflarda tabiiy fanlarni oʻqitishning muammolari va uning yechimlari.** Boshlangʻich ta’lim bosqichida tabiiy fanlar oʻquvchilarga dunyoqarashni shakllantirish, atrof-muhit bilan tanishtirish, ilmiy tafakkur va kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim rol oʻynaydi. Shuning uchun tabiiy fanlar maktabning dastlabki yillaridan boshlab puxta oʻrgatilishi zarur. Ammo, aynan boshlangʻich sinflarda tabiiy fanlarni oʻqitishda bir qator muammolar mavjud boʻlib, ularni hal qilish oʻquv jarayonining sifatini oshirish uchun zarurdir. Ushbu maqolada tabiiy fanlarni boshlangʻich sinflarda oʻqitishda duch kelinayotgan asosiy muammolar va ularning yechimlari haqida batafsil soʻz yuritiladi.

Yoshga mos oʻquv materiallari yetishmasligi: Boshlangʻich sinflar uchun tabiiy fanlarga oid darsliklar koʻpincha murakkab va ilmiy jihatdan ogʻir boʻlib,

o‘quvchilarning yoshiga mos kelmaydi. Ko‘pgina darsliklar o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olmasdan yozilgan, bu esa fanga bo‘lgan qiziqishni kamaytiradi va ta’lim jarayonini qiyinlashtiradi.

Amaliy mashg‘ulotlarning kamligi: Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar nazariy tarzda o‘tilishi ko‘p uchraydigan holatlardan biridir. O‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinsa, ularning kuzatish, tajriba qilish orqali fanga qiziqishlari ko‘proq bo‘ladi. Biroq amaliy mashg‘ulotlar va tajribalar yetarli darajada o‘tkazilmaydi, bu esa fanni amaliy jihatdan tushunishga to‘sqinlik qiladi.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmaslik: Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda, ammo ko‘p maktablarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zamonaviy texnologiyalar va interfaol uslublarni tabiiy fanlarni o‘qitishda yetarlicha qo‘llay olmaydilar. Bu o‘quv jarayonini kam samarador qiladi va o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishni qiyinlashtiradi.

O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ko‘p hollarda bir necha fanlarni bir vaqtning o‘zida o‘qitadilar, bu esa ulardan keng qamrovli bilim va ko‘nikmalar talab qiladi. Shu bilan birga, tabiiy fanlarni o‘qitishga ixtisoslashmagan o‘qituvchilar ushbu fanni o‘rgatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa dars sifatini pasaytirishi mumkin.

Laboratoriya va o‘quv qurollarining yetishmasligi: Ko‘plab maktablarda tabiiy fanlar uchun zarur bo‘lgan laboratoriya jihozlari, tajriba o‘tkazish uchun asbob-uskunalar va boshqa qo‘shimcha o‘quv qurollari yetarli emas. Bu holat amaliy mashg‘ulotlarning yetarli darajada olib borilmasligiga va o‘quvchilarning fanlarga qiziqishini pasayishiga sabab bo‘ladi. [4]

**Muammolarni hal qilish bo‘yicha yechimlar.** Yoshga mos va qiziqarli o‘quv materiallarini ishlab chiqish: Boshlang‘ich sinflar uchun tabiiy fan darsliklarini yosh bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ishlab chiqish lozim. Darsliklar sodda va tushunarli bo‘lishi, ko‘plab rang-barang suratlar, diqqatni jalb qiluvchi misollar va amaliy topshiriqlar bilan boyitilgan bo‘lishi kerak. Shu orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi va o‘quv jarayoni samarali bo‘ladi.

Amaliy va eksperimental darslarni ko‘paytirish: Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlar va tajribalar o‘tkazish o‘quvchilarning fanni amaliy jihatdan o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bunda oddiy, oson amalga oshiriladigan tajriba mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarni tabiiy fanlarga qiziqtirish mumkin. Masalan, suvning bug‘lanishi, o‘simliklarning o‘sishi kabi oddiy jarayonlarni kuzatish o‘quvchilarda ilmiy izlanish ruhini uyg‘otadi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini interfaol va qiziqarli qiladi. Elektron darsliklar, taqdimotlar, animatsiyalar va o‘yinlar orqali bolalarning diqqatini jalb qilish va fanga qiziqishini oshirish mumkin. Shuningdek, turli videodarslar va onlayn resurslardan foydalanish tabiiy fanlarni o‘rgatishning samaradorligini oshiradi.

O‘qituvchilar malakasini oshirish: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun maxsus tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil

etish zarur. Ushbu kurslar orqali oʻqituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni oʻzlashtiradilar, darslarni interfaol va samarali oʻtkazish boʻyicha tajribaga ega boʻladilar. Shuningdek, ularni zamonaviy dars berish uslublari va oʻquv materiallari bilan tanishtirish zarur.

Laboratoriya va oʻquv qurollari bilan taʼminlash: Maktablar tabiiy fanlarni oʻqitish uchun zarur boʻlgan laboratoriya jihozlari va oʻquv qurollari bilan taʼminlanishi lozim. Bu orqali oʻquvchilarga amaliy tajribalarni oʻtkazish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, oʻqituvchilar uchun oddiy tajriba qurollarini tayyorlash boʻyicha tavsiyalar va qoʻllanmalar ishlab chiqish ham foydali boʻladi.[5]

Boshlangʻich sinflarda tabiiy fanlarni oʻqitish jarayonida uchraydigan muammolarni hal etish uchun darsliklarni yangilash, amaliy mashgʻulotlarni koʻpaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va oʻqituvchilar malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, maktablarni zamonaviy oʻquv qurollari va laboratoriya jihozlari bilan taʼminlash orqali tabiiy fanlarni oʻqitish samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, bu saʼy-harakatlar oʻquvchilarning tabiiy fanlarga qiziqishini oshirish va ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish uchun muhim asos boʻlib xizmat qiladi.

**Xulosa** qilib aytadigan boʻlsak, tabiiy fanlarni oʻqitishni zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil qilish oʻquvchilarning kelgusidagi muvaffaqiyatlari uchun zamin yaratadi. Taʼlim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish, amaliyotga yoʻnaltirilgan yondashuvlarni qoʻllash va oʻqituvchilar malakasini oshirish orqali tabiiy fanlarni oʻqitish samaradorligini oshirish mumkin. Shu sababli, maktablarda tabiiy fanlarni oʻqitishning yangi strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish zamonaviy taʼlimning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov A. Tabiiy fanlarni oʻqitishda yangi pedagogik texnologiyalarning oʻrni. Ta'lim va fan rivoji jurnali. – Toshkent, 2021 – 47 b.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy oʻrta ta'limda tabiiy fanlar darsliklarini yangilash dasturi. – Toshkent, 2020 – 22 b.
3. Hasanov I. Oʻquvchilarda tabiiy fanlarga qiziqishni oshirishning zamonaviy usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019 – 173 b.
4. Soliyev B. IT vositalaridan foydalanish orqali tabiiy fanlarni oʻqitish samaradorligini oshirish. Innovatsion taʼlim jurnali. 3-son – Toshkent: 2022
5. Axmedov B. Taʼlimda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019. – 65 b.

# SULFAT TIKLANUVCHI BAKTERIYALAR FAOLIYATINING NEFT KONLARI QUVUR TIZIMLARIGA KORROZIYAVIY TAʼSIRI VA ULARNI OLDINI OLISH USULLARI

**Rustamov Mirzoxid Mansur oʻgʻli**
Qarshi xalqaro universiteti, katta oʻqituvchi
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-9626-3351
Email: mirzoxidrustamov406@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada sulfat tiklanuvchi bakteriyalar (STB) faoliyatining neft konlari quvur tizimlarida yuzaga keltiradigan korroziyaviy holatlari oʻrganiladi. Tadqiqotda STBlar tufayli*

*yuzaga keladigan mikrobiologik korroziya holatlari, ularning quvur ichki devorlariga koʻrsatadigan ta'siri va STBning rivojlanishini ragʻbatlantiruvchi omillar tahlil qilingan. Shimoliy Urtabuloq konidagi amaliy kuzatuv natijalari asosida STB bilan bogʻliq muammolar va ularni bartaraf etishdagi biotsid ishlatish usullari tavsiflangan. Maqolada zamonaviy profilaktik va kimyoviy choralar, jumladan, SUMONO-BBK biotsidining samaradorligi baholangan.*

***Kalit soʻzlar:*** *sulfat tiklanuvchi bakteriyalar, mikrobiologik korroziya, SUMONO-BBK, neft koni, quvur tizimi, biotsid, xavfsizlik.*

## КОРРОЗИОННОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ СУЛЬФАТВОССТАНАВЛИВАЮЩИХ БАКТЕРИЙ НА ТРУБОПРОВОДНЫЕ СИСТЕМЫ НЕФТЯНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ И МЕТОДЫ ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

**Рустамов Мирзохид Мансур угли**
старший преподаватель Каршинского международного университета
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-9626-3351
Эл. почта: mirzoxidrustamov406@gmail.com

***Аннотация:*** *В статье рассматривается коррозионное воздействие сульфатвосстанавливающих бактерий (СВБ) на трубопроводные системы нефтяных месторождений. Проанализированы случаи микробиологической коррозии, вызванной СВБ, их влияние на внутренние стенки труб и условия, способствующие их активности. На основе наблюдений на месторождении Северный Уртобулак описаны основные проблемы и методы их устранения с использованием биоцидов, в частности эффективность препарата SUMONO-BBK.*

***Ключевые слова:*** *сульфатвосстанавливающие бактерии, микробиологическая коррозия, SUMONO-BBK, нефтяное месторождение, трубопровод, биоцид, безопасность*

## THE CORROSIVE IMPACT OF SULFATE-REDUCING BACTERIA ON OILFIELD PIPELINE SYSTEMS AND MITIGATION APPROACHES

**Rustamov Mirzoxid Mansur ogli**
Senior Lecturer, Qarshi International University
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-9626-3351
Email: mirzoxidrustamov406@gmail.com

***Abstract:*** *This article investigates the corrosive effects of sulfate-reducing bacteria (SRB) on pipeline systems in oil fields. The study analyzes microbiologically induced corrosion (MIC) caused by SRBs, their impact on internal pipeline surfaces, and the environmental conditions that facilitate their activity. Based on empirical observations from the North Urtabuloq oil field, the article describes common problems associated with SRB contamination and the use of biocidal treatments. Particular focus is given to the effectiveness of the SUMONO-BBK biocide.*

***Keywords:*** *sulfate-reducing bacteria, microbiologically induced corrosion, SUMONO-BBK, oilfield, pipeline system, biocide, safety*

**Kirish.**Neft sanoatida quvur tizimlarining mustahkamligi va ishonchliligi butun ishlab chiqarish zanjirining uzluksiz ishlashi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi hal qiluvchi omillardan biridir. Texnologik jarayonlarning har bir bosqichi — quduqdan neftni chiqarish, yigʻish, transport qilish va qayta ishlashgacha boʻlgan yoʻnalishda quvurlar asosiy infratuzilma elementi hisoblanadi. Shu sababli quvur tizimlarining barqarorligi neft sanoati tarmoqlari faoliyatining yuragi sifatida koʻriladi.

Biroq, ushbu tizimlarning ishdan chiqishiga sabab boʻluvchi omillar orasida **mikrobiologik korroziya (MIC)** soʻnggi yillarda tobora koʻproq e'tiborni tortmoqda. Ayniqsa, **sulfat tiklanuvchi bakteriyalar (STB)** bu jarayonning asosiy agentlaridan

biri sifatida aniqlangan. Ular anaerob muhitda yashab, sulfatni vodorod sulfidga ($H_2S$) aylantiradi va bu modda metallarga bevosita ta'sir etib, ularni tez yemiradi. STBlarning faoliyati natijasida hosil bo'ladigan Biomassalar quvur devorlarida qalin qoplama hosil qilib, korroziya tezligini bir necha barobarga oshiradi. Bu holat nafaqat texnik yo'qotishlarga, balki ekologik xavf-xatarlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi.

Mikrobiologik korroziya natijasida O'zbekistondagi ba'zi neft konlarida ishlab chiqarish quvurlarining xizmat muddati keskin kamaygan, ayrim hollarda esa yillik texnologik nosozliklar soni ikki barobarga ortgan. Bu esa energetika xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu muammo dolzarbligini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida xavfsizlik, energiya tejamkorligi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhimligini qayta-qayta ta'kidlab kelmoqda. Ayniqsa, sanoat infratuzilmasini modernizatsiyalash va korroziyaga qarshi innovatsion himoya choralarini ko'rish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqola aynan shu dolzarb muammoni — neft konlaridagi STB faoliyatining korroziyaviy oqibatlarini o'rganish, ularning ta'sir mexanizmini aniqlash va oldini olish bo'yicha zamonaviy biotsid vositalarini baholashga qaratilgan. Shimoliy Urtabuloq neft konida olib borilgan tajriba asosida mikrobiologik ifloslanishning texnologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi hamda korroziya nazorati bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Sulfat tiklanuvchi bakteriyalar (STB) ishtirokidagi mikrobiologik korroziya (MIC) zamonaviy neft sanoatida eng murakkab va barqaror nazoratga olinishi lozim bo'lgan ekologik-texnologik muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro miqyosda ushbu bakteriyalar faoliyatini o'rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar 1970-yillardan boshlab shakllana boshlagan bo'lsa-da, ularning sanoat infratuzilmasiga real ta'siri, ayniqsa, quvur tizimlarida korroziya chaqiruvchi roli, so'nggi yillarda yanada keng qamrovli ilmiy izlanishlar ob'ektiga aylandi.

Valekzhanin (2024) o'zining «Microbiological contamination of oil fields» nomli ishida STBning neft konlarida qanday tarzda faollashishi, ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar, xususan, anaerob muhit, karbon birikmalari mavjudligi va nisbatan past haroratli sharoitlar asosiy faktorlar sifatida ko'rsatadi[1]. Bu tadqiqotda biotsid vositalarning STBga qarshi selektiv samaradorligini tahlil qilish orqali texnologik vositalarning moslashtirilgan yondashuvini ishlab chiqish taklif etiladi.

Shuningdek, Keasler va hamkorlar (2017) tomonidan chop etilgan monografiyada STBga qarshi kurashda ishlatiladigan kimyoviy vositalar — formaldegid, izotiazolin, glutaraldegid kabi moddalar tahlil qilinadi[2]. Ularning samaradorligi, ta'sir mexanizmi, ekologik xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligi bo'yicha qiyosiy tahlil berilgan. Tadqiqotda muhim jihatlardan biri — kimyoviy vositalarning bakterial jamoalarda qarshilik (rezistentlik) shakllanishiga olib kelishi mumkinligi qayd etiladi. Bu esa uzoq muddatli foydalanishda biotsidlar samaradorligining pasayishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

Oh va boshqalar (2013) tomonidan metagenomik yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar STB jamoalarining quaternary ammonium tuzlariga qanday qilib adaptatsiyalashishini molekulyar darajada koʻrsatib bergan[3]. Bu yondashuv hozirgi kunda mikrobiologik monitoring vositasi sifatida qabul qilinmoqda. STB turlarining genetik xilma-xilligi va ularning Biomassa hosil qilish xususiyatlarini aniqlash orqali yanada samarali nazorat usullari ishlab chiqilishi mumkin.

Grant va Bott (2003) STB tomonidan shakllantirilgan Biomassa strukturasiga qarshi qaratilgan biotsid dozalash strategiyalarini ishlab chiqqan[4]. Ularning tadqiqoti STBga qarshi doimiy, lekin past kontsentratsiyali biotsid dozalash strategiyasining pulsli yoki intensiv usullarga nisbatan samaraliroq ekanini koʻrsatadi. Bunday strategiya quvur tizimlarida uzoq muddatli himoyani ta'minlashi mumkin.

Mahalliy manbalar orasida Rustamov (2024) tomonidan Shimoliy Urtabuloq konida olib borilgan kuzatuvlar STBning texnologik qurilmalarga bevosita ta'sirini tasdiqlovchi dalillarni beradi[5]. Xususan, konlarda ishlatilayotgan quvurlarda korroziya tezligi yuqori boʻlgan joylarda bakterial kontaminatsiya holati ham yuqori boʻlgani aniqlangan. Rustamov oʻz tadqiqotida SUMONO-BBK biotsidining lokal sharoitda qoʻllanilish natijalarini statistik jihatdan asoslab bergan.

Shu bilan birga, xalqaro standartlarda (ISO 11463, ANSI/NACE MR0175) STBga qarshi metall tanlash strategiyalari, passiv qoplamalarning ishlatilishi, va mikrobial monitoring tizimlarining joriy etilishi taklif etilgan boʻlsa-da, ularning Oʻzbekiston sharoitida qoʻllanishi hanuz sust darajada boʻlib, STBga qarshi kompleks yondashuvlar yetarli darajada amaliyotga tatbiq etilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot sulfat tiklanuvchi bakteriyalar (STB) ishtirokida yuzaga keladigan mikrobiologik korroziya (MIC) holatlarini amaliy jihatdan oʻrganish va ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot falsafasi sifatida pragmatik va induktiv yondashuv tanlandi. Bu yondashuv mavjud real muammolarni aniqlash, ularni eksperimental tahlil qilish va amaliy yechimlar taklif qilish imkonini beradi. Tadqiqot dizayni kuzatuv, laboratoriya sinovlari va statistik tahlil elementlarini oʻz ichiga olgan kompleks yondashuvga asoslandi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Shimoliy Urtabuloq neft koni tanlandi. Bu kon texnologik infratuzilmasida STB bilan bogʻliq muammolar avvalgi yillarda aniqlangan boʻlib, hozirgi kunda ham korroziyaviy tahdidlar mavjud. Tanlovli ehtimollik usuli asosida 5 ta faol quduq va 3 ta quvur liniyasidan namunalar olindi. Har bir namunada STB soni (koloniya tashkil etuvchi birliklar – CFU/ml), vodorod sulfid ($H_2S$) miqdori (mg/l), pH darajasi va korroziya tezligi (mm/yil) aniqlandi. Biomassa mavjudligi mikroskopik va vizual usullar yordamida baholandi [1], [2].

Mikrobiologik tahlillar klassik laboratoriya usullari asosida olib borildi. Bakteriyalar oʻstirilgan maxsus muhitlarda ($FeSO_4$ ozuqa muhitlari, anaerob sharoitlar) inkubatsiya qilindi, Gram boʻyash orqali morfologik identifikatsiya amalga oshirildi. STB koloniyalarining soni CFU/ml birlikda hisoblandi. Kimyoviy tahlillar esa kolorimetrik va titrimetriyaviy metodlar asosida bajarildi. $H_2S$ aniqlashda metilen koʻk indikatoridan foydalanildi, pH darajasi va ionlar miqdori elektroanalitik usulda oʻlchandi [3].

Korroziya darajasini baholash uchun po‘latdan tayyorlangan silliq yuzali test kuponlar (namunaviy plastinkalar) foydalanildi. Ular laboratoriya sharoitida bakteriyalar mavjud bo‘lgan muhitda 7 kun davomida inkubatsiya qilindi. Oldingi va keyingi massasidagi farq asosida yillik korroziya tezligi (mm/yil) hisoblandi. Ushbu usul xalqaro GOST R 52705-2006 va ISO 11463:1995 standartlariga moslashtirilgan [4], [5].

Tadqiqotning asosiy bosqichlaridan biri biotsid sinovi bo‘ldi. Bu bosqichda sanoatda qo‘llanilayotgan va mahalliy sharoitda mos deb topilgan **SUMONO-BBK** biotsidi sinovdan o‘tkazildi. Biotsid turli konsentratsiyalarda (10, 20 va 40 ppm) STB bilan zararlangan muhitga qo‘shildi. 24, 48 va 72 soatlik davrda bakteriyalar soni qayta hisoblab chiqildi. Qiyoslash uchun biotsid qo‘llanilmagan nazorat guruhi ham tashkil qilindi. Biotsid ta’siri nafaqat mikroorganizmlar sonining kamayishi, balki korroziya tezligining pasayishi orqali ham baholandi [6].

Topilgan ma’lumotlar statistik jihatdan tahlil qilindi. STB sonining kamayishi va korroziya tezligining o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil asosida aniqlandi. T-test va ANOVA yordamida farqlar statistik ishonchlilik darajasida tasdiqlandi. Natijalarning ishonchliligi (reliability) va aniqliligi (validity)ni ta’minlash uchun barcha sinovlar kamida uch marta takrorlandi [7].

Tadqiqot davomida xavfsizlik va bioetika talablari to‘liq rioya qilindi. Biotsidlar ishlatilgan barcha namunalar zararsizlantirildi, laboratoriya chiqindilari sanitariya talablari asosida utilizatsiya qilindi. Hech bir bosqichda inson salomatligiga yoki atrof-muhitga zarar yetkazilmadi.

Shunday qilib, tadqiqotning metodologik asoslari korroziya xavfini ilmiy asosda baholash, STB faolligini aniqlash va samarali nazorat usullarini amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazishga xizmat qildi.

## Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida Shimoliy Urtabuloq neft konining 5 ta faol qudug‘idan va 3 ta transport quvur liniyasidan olingan namunalar mikrobiologik va kimyoviy tahlil qilindi. Tahlillar asosiy e’tiborni sulfat tiklanuvchi bakteriyalar (STB) soni, ularning faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan $H_2S$ gazining miqdori, muhitning pH darajasi va shu sharoitlarda quvur devorlarida yuzaga kelgan korroziya tezligiga qaratdi.

Birinchi bosqichda olingan ma’lumotlar asosida STB mavjud bo‘lgan har bir quduq va quvur bo‘lagi bo‘yicha bakterial kontaminatsiya va uning oqibatlari aniqlashtirildi. Quyidagi **1-jadval**da ushbu parametrlarning asosiy statistik ko‘rsatkichlari keltirilgan:

**Jadval 1. STB soni va texnologik muhit ko‘rsatkichlari (2024 yil kuzatuvlari asosida)**

| Quduq raqami | STB soni (CFU/ml) | Korroziya tezligi (mm/yil) | pH | $H_2S$ (mg/l) |
|---|---|---|---|---|
| Q-17 | $8.1 \times 10^5$ | 0.18 | 6.7 | 12.5 |
| Q-21 | $6.5 \times 10^5$ | 0.15 | 6.9 | 9.8 |
| Q-34 | $9.3 \times 10^5$ | 0.22 | 6.6 | 14.1 |
| QV-3 | $7.2 \times 10^5$ | 0.19 | 6.5 | 11.3 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| QV-4 | $5.8 \times 10^5$ | 0.16 | 6.8 | 10.2 |

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, STB soni yuqori bo'lgan muhitlarda $H_2S$ miqdori keskin ortgan bo'lib, bu esa o'z navbatida quvurlar devorlarida **korroziya chuqurligining oshishiga** olib kelgan. Korrelatsion tahlil (Pearson koeffitsienti) shuni ko'rsatdi:

- STB soni va $H_2S$ miqdori o'rtasidagi bog'liqlik: **r = 0.89**
- STB soni va korroziya tezligi o'rtasidagi bog'liqlik: **r = 0.83**

Bu raqamlar mikrobiologik faoliyatning quvur tizimlarida metall yemirilishi bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi bosqichda **SUMONO-BBK biotsidi** sinovdan o'tkazildi. Ushbu biotsid STB faolligini pasaytirish maqsadida 10 ppm, 20 ppm va 40 ppm konsentratsiyalarda eksperimental muhitga qo'shildi. 72 soatlik kuzatuv davomida bakteriyalar sonining kamayishi va korroziya tezligining pasayishi kuzatildi. Quyidagi **2-jadval**da bu natijalar aks ettirilgan:

**Jadval 2. SUMONO-BBK biotsidining samaradorligi (eksperimental ma'lumotlar asosida)**

| Biotsid dozalash (ppm) | STB kamayish foizi (%) | Korroziya tezligi (mm/yil) | Biomassa yo'qolish darajasi |
|---|---|---|---|
| 10 | 65% | 0.13 | Qisman |
| 20 | 81% | 0.09 | Devor yuzasining 70% |
| 40 | 92% | 0.06 | Devor yuzasining 95% |
| 0 (nazorat guruhi) | 0% | 0.22 | Biomassa saqlangan |

Eng yuqori samaradorlik 40 ppm dozada kuzatildi. Ushbu holatda STB soni dastlabki miqdorga nisbatan 92% ga kamaydi, korroziya tezligi esa 0.22 mm/yildan 0.06 mm/yilga pasaydi. Shuningdek, quvur yuzalarida mavjud Biomassa strukturalari deyarli to'liq parchalangani mikroskopik kuzatuvlar orqali tasdiqlandi.

Statistik tahlillar orqali biotsid ta'sirining ishonchliligi ($p < 0.01$) darajasida tasdiqlandi. Har bir sinov 3 martadan takrorlanib, o'rtacha ko'rsatkichlar va ishonch oraliqlari hisoblandi.

Umuman olganda, eksperimentlar shuni ko'rsatdiki:

- STB faoliyati korroziya tezligi bilan yuqori darajada bog'liq;
- SUMONO-BBK biotsidi ularning sonini samarali kamaytiradi;
- Biotsid ta'sirida korroziya jarayoni sezilarli darajada susayadi.

Bu esa sanoat miqyosida ushbu biotsidni oldini olish vositasi sifatida qo'llashni tavsiya etish uchun asos bo'la oladi.

**Xulosa va takliflar**

Olib borilgan kompleks tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sulfat tiklanuvchi bakteriyalar (STB) faoliyati neft konlarida quvur tizimlariga sezilarli korroziyaviy zarar yetkazmoqda. Mikrobiologik korroziya (MIC) STB ishtirokida yuzaga kelib,

ayniqsa anaerob sharoitlarda tez rivojlanadi, biofilm hosil qilish orqali metall sirtlarni himoyasiz holatga keltiradi va quvurlarning ishlash muddatini keskin kamaytiradi.

Tadqiqot Shimoliy Urtabuloq neft koni misolida olib borildi. Amaliy kuzatuvlar va laboratoriya tahlillari shuni tasdiqladiki:

- STB sonining ortishi bilan birga vodorod sulfid ($H_2S$) miqdori ham koʻpayadi;
- $H_2S$ konsentratsiyasi oshgani sari metall sirtlarida korroziya chuqurlashadi va quvurlar yemiriladi;
- SUMONO-BBK biotsididan foydalanish 72 soat ichida bakteriyalar sonini 90% dan ortiq kamaytirishga, korroziya tezligini 3-4 baravarga pasaytirishga xizmat qiladi;
- Biofilm qoplamalari sezilarli darajada kamayadi va quvur ichki yuzalari tozalangan holatga yaqinlashadi.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati** shundaki, u STB faoliyati va korroziya jarayoni oʻrtasidagi bevosita bogʻliqlikni statistik jihatdan asoslab berdi, mikroorganizmlarning texnologik infratuzilmaga ta’sirini aniq koʻrsatdi va mahalliy kon sharoitida ularni nazorat qilish boʻyicha ilmiy asoslangan metodikani ishlab chiqdi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** esa quyidagicha ifodalanadi:

- Biotsid ishlatish protokoli taklif qilindi (optimal konsentratsiya: 20–40 ppm, ekspozitsiya vaqti: ≥72 soat);
- STB monitoringi uchun tavsiya etiladigan analiz parametrlari (pH, $H_2S$, CFU/ml) aniqlashtirildi;
- Korroziya xavfini baholash uchun statistik model asosida qaror qabul qilish imkoniyati shakllantirildi.

**Tavsiya va takliflar:**

1. **Mikrobiologik monitoring tizimini joriy etish:** Har chorakda quvur tizimlarida STB sonini, pH, $H_2S$ miqdorini oʻlchab borish, natijalarni monitoring jadvalida tahlil qilish lozim.
2. **Biotsid profilaktikasini tizimli yoʻlga qoʻyish:** Doimiy past konsentratsiyali (20 ppm) SUMONO-BBK ishlatish strategiyasi korroziyaning oldini olishda yuqori samaradorlikka ega.
3. **Biomassaga qarshi kurash strategiyasini ishlab chiqish:** Biofilmni mexanik va kimyoviy usullar yordamida birgalikda yoʻq qilish amaliyotini ishlab chiqish zarur.
4. **Texnologik risk xaritasini yaratish:** STB faoliyati yuqori boʻlgan quduqlarni aniqlash va ularni alohida risk zonasi sifatida nazoratga olish mexanizmini yoʻlga qoʻyish.
5. **Milliy miqyosda mikrobiologik korroziya boʻyicha reglament va standartlar ishlab chiqish:**

Oʻzbekiston neft va gaz sohasida korroziya profilaktikasi boʻyicha xalqaro tajribalarni joriy qilish, ISO va NACE standartlarini moslashtirish kerak.

Tadqiqot natijalari sanoat amaliyotida qoʻllanishi mumkin boʻlgan aniq tavsiyalarni beradi va shu yoʻnalishda yangi ilmiy tadqiqotlar uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Kelajakdagi izlanishlarda esa STB turlarining genetik diversifikatsiyasi,

qarshilik (rezistentlik) mexanizmlari va biotsidlar bilan kombinatsiyalangan yondashuvlar oʻrganilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar (faqat metodologiyaga tegishli)**

1.Valekzhanin I.V. (2024). *Microbiological contamination of oil fields. Part 1*. Exposition Oil Gas, Issue 5, 58–67.

2.Keasler V., De Paula R.M., Nilsen G. et al. (2017). *Biocides overview and applications in petroleum microbiology*. In: *Trends in Oil and Gas Corrosion Research and Technologies*. Woodhead Publishing, 539–562.

3.Oh S., Tandukar M., Pavlostathis S.G. et al. (2013). *Microbial community adaptation to quaternary ammonium biocides*. Environmental Microbiology, 15(10), 2850–2864.

4.GOST R 52705-2006. *Neft va gaz sanoatida korroziyaga qarshi himoya standartlari*.

5.ISO 11463:1995. *Petroleum and natural gas industries – Corrosion-resistant materials*.

6.Rustamov M.M. (2024). *Shimoliy Urtabuloqdagi STB tahlili va SUMONO-BBK boʻyicha amaliy kuzatuv*. Qarshi: KIU.

7.Grant D.M., Bott T.R. (2003). *Biocide dosing strategies for biofilm*. Proceedings of Engineering Conferences International, Santa Fe, NM, May 18–22.

---

**UOʻK. 338.24**

## BUTUN DUNYODA OZIQ-OVQAT ISROF QILINISHINING SABABLARI VA UNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA KOʻRSATGAN TA'SIRI

**Maftuna Ochilova**
Qarshi Xalqaro Universiteti oʻqituvchisi
Qarshi Davlat Texnika Universiteti doktaranti
E-pochta: mochilova53@gmail.com
ORCID: 0009-0001-8866-9133

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada global miqyosda oziq-ovqat isrofi masalasining dolzarbligi, uning asosiy sabablari va ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik oqibatlari tahlil etiladi. FAO va boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma'lumotlari asosida har yili isrof qilinayotgan oziq-ovqat miqdori, yetkazilayotgan iqtisodiy zarar va resurslar isrofi yoritilgan. Tadqiqotda oziq-ovqat isrofining ishlab chiqarish, saqlash, yetkazib berish, savdo va iste'mol bosqichlarida yuzaga keladigan omillari tizimli tarzda bayon qilingan. Shuningdek, iste'molchilarning notoʻgʻri xulq-atvori, marketing siyosatidagi nomutanosibliklar va infratuzilma zaifliklari asosiy sabab sifatida koʻrsatilgan. Muallif isroflarning oldini olish boʻyicha raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va ta'lim dasturlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqola yakunida global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun samarali va kompleks yondashuv zarurligi asoslab beriladi.*

**Kalit soʻzlar:** *oziq-ovqat isrofi, global oziq-ovqat xavfsizligi, resurslardan oqilona foydalanish, ta'minot zanjiri, iste'molchi xulq-atvori, raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish*

---

**УДК. 338.24**

## ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ПРОДОВОЛЬСТВЕННЫХ ПОТЕРЬ В МИРЕ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ГЛОБАЛЬНУЮ ПРОДОВОЛЬСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ

**Мафтуна Очилова**
Преподаватель Каршинского Международного Университета
Докторант Каршинского Государственного Технического Университета

mochilova53@gmail.com
ORCID: 0009-0001-8866-9133

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается глобальная проблема пищевых потерь, её актуальность, основные причины и социально-экономические и экологические последствия. На основе официальных данных ФАО и других международных организаций приводятся сведения о ежегодных объёмах утилизируемых пищевых продуктов, связанных с этим экономических убытках и нерациональном использовании ресурсов. В исследовании систематически раскрываются причины пищевых потерь на всех этапах — от производства до потребления. Особое внимание уделено потребительскому поведению, несоответствиям в маркетинговой политике и инфраструктурным недостаткам. Автор подчёркивает важность применения цифровых технологий, информационно-коммуникационных средств и образовательных программ в сокращении пищевых потерь. В заключение обосновывается необходимость комплексного и эффективного подхода к обеспечению глобальной продовольственной безопасности через предотвращение потерь.*

**Ключевые:** *пищевые потери, глобальная продовольственная безопасность, рациональное использование ресурсов, цепочка поставок, поведение потребителей, цифровые технологии, устойчивое развитие*

**UDC. 338.24**

# KEY FACTORS OF FOOD WASTE WORLDWIDE AND THEIR IMPACT ON GLOBAL FOOD SECURITY

**Maftuna Ochilova**
Teacher at Karshi International University
Doctoral Student at Qarshi State Technical University
mochilova53@gmail.com
ORCID: 0009-0001-8866-9133

***Abstract.*** *This article examines the global issue of food waste, highlighting its relevance, root causes, and socio-economic and environmental consequences. Based on official data from FAO and other international organizations, the paper discusses the amount of food wasted annually, associated economic losses, and the misuse of vital resources. The analysis systematically outlines the factors contributing to food waste across the production, storage, distribution, retail, and consumption stages. Special attention is given to consumer behavior, mismatches in marketing policies, and infrastructural deficiencies. The author emphasizes the role of digital technologies, information and communication tools, and educational programs in reducing food waste. In conclusion, the article argues for a comprehensive and efficient approach to ensuring global food security through waste prevention.*

**Keywords:** *food waste, global food security, efficient resource use, supply chain, consumer behavior, digital technologies, sustainable development*

## KIRISH.

Global miqyosda aholini oziq-ovqat bilan barqaror ta'minlash masalasi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri sanaladi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb 1,3 milliard tonnasi, ya'ni umumiy hajmning 30 foizdan ortig'i, isrof bo'lmoqda. [1] Bu miqdor, taxminan 2 milliard kishini to'liq oziqlantirish imkonini beradigan darajada hisoblanadi.

Oziq-ovqat isrof qilinishi nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy va ekologik jihatdan ham jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Jumladan, bu holat tufayli global miqyosda yiliga 940 milliard AQSh dollariga teng iqtisodiy zarar yuzaga kelmoqda. Ekologik tomondan qaralganda esa, ishlab chiqarilgan, lekin iste'mol qilinmagan

mahsulotlarni yetishtirish, saqlash va tashishda sarflangan tabiiy resurslar — suv, yer va energiya — behuda isrof qilinadi. FAO hisob-kitoblariga ko‘ra, bunday isrof natijasida global issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 8 foizi yuzaga keladi.[2]

**ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Oziq-ovqat isrofi muammosi xalqaro miqyosdagi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilib kelinayotgan, murakkab va ko‘p omilli masalalardan biri hisoblanadi. FAO tomonidan 2011-yilda e’lon qilingan hisobotga ko‘ra, har yili global miqyosda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi, ya’ni taxminan 1,3 milliard tonnasi, iste’molga yetmasdan isrof qilinadi. Bunday holat nafaqat oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘diradi, balki iqtisodiy resurslarning samarasiz ishlatilishi va ekologik zararlarning ortishiga sabab bo‘ladi.

Barilla Oziq-ovqat va Oziqlanish Markazi (2016) olib borgan tadqiqotda ta’kidlanishicha, oziq-ovqat isrofi asosan uch bosqichda – ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol jarayonlarida sodir bo‘ladi. Har bir bosqichda isrofgarchilikka olib keluvchi sabablar farqlanadi: rivojlanayotgan davlatlarda bu holat, odatda, logistika tizimi va mahsulotlarni saqlash sharoitlarining yetarli emasligi bilan bog‘liq bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda esa iste’molchilarning noto‘g‘ri iste’mol odatlari hamda tijorat marketingining o‘rni yuqori bo‘ladi. [3]

HLPE (2014) tomonidan tayyorlangan hisobotda oziq-ovqat isrofini kamaytirishga doir davlat siyosatlari, huquqiy mexanizmlar va ijtimoiy xulq-atvorga ta’sir etuvchi dasturlar tahlil qilingan. Hisobotda ijtimoiy ongni oshirish, “qayta ishlash” madaniyatini shakllantirish va yaroqlilik muddatini belgilash tizimini isloh qilish kabi chora-tadbirlar taklif etiladi.[4]

UNEP (2021) “Food Waste Index” hisobotida uy xo‘jaliklarida ro‘y berayotgan isrofga alohida e’tibor qaratilgan. Dunyo bo‘yicha eng katta isrof aynan yakuniy iste’molchilar tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning (mobil ilovalar, sun’iy intellekt, ta’minot zanjiri monitoringi) qo‘llanilishi isrofga qarshi samarali vosita sifatida e’tirof etiladi [5]

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mavjud adabiyotlar oziq-ovqat isrofi masalasini kompleks tarzda yoritadi va uni kamaytirish uchun global, milliy va lokal darajada integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi va Markaziy Osiyo kontekstiga mos tadqiqotlar yetarli emasligi bu sohada ilmiy izlanishlarni kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Ushbu tadqiqotda oziq-ovqat isrofi muammosining global miqyosdagi sabablari, oqibatlari va ularni kamaytirish yo‘nalishlari tizimli ravishda o‘rganildi. Maqola sifatida tayyorlangan ushbu ilmiy ishda **deskriptiv (ta’riflovchi)** va **analitik** tadqiqot yondashuvlari asos sifatida tanlandi. Asosiy e’tibor mavjud statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida xulosalar chiqarish va islohotlarga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.**

Aholi soning ortishi, urbanizatsiya jarayoning jadallashuvi va iqlim o‘zgarishlari sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda isroflarning oldini olish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu maqsadga erishish uchun oziq-ovqat ta’minoti

zanjirining barcha bosqichlarida — mahsulot yetishtirishdan tortib, yakuniy iste'molga qadar — samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash zarur. Oziq-ovqat isrofini kamaytirish orqali mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish hamda global oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining isrofi bugungi kunda global miqyosda jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. FAO — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi agentligi — ma'lumotlariga ko'ra, har yili ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi, ya'ni taxminan 1,3 milliard tonna miqdoridagi mahsulot isrof qilinmoqda. Bu holat resurslarning samarasiz ishlatilishiga, ochlik muammosining chuqurlashishiga, ekologik ifloslanish darajasining ortishiga va iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Isrofgarchilikka sabab bo'luvchi omillar esa bir nechta asosiy guruhlarga ajratilishi mumkin.

**Ishlab chiqarish va yetishtirish bosqichidagi muammolar.** Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi infratuzilmasining zaifligi, texnologik resurslarning etishmasligi va agrotexnika qoidalariga rioya qilinmasligi natijasida hosilning bir qismi yig'ib olinmaydi yoki sifatsiz holga keladi. Shuningdek, ob-havo sharoitlariga bog'liq risklar, zararkunandalar va kasalliklar ham mahsulot yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

**Saqlash va logistika tizimidagi zaifliklar.** Mahsulotlarni saqlash uchun zarur infratuzilma (sovutkichlar, omborlar, ventilyatsiya tizimlari) yetarli emasligi sababli, ayniqsa issiq iqlimli hududlarda meva-sabzavotlar, sut mahsulotlari kabi tez buziladigan mahsulotlar yaroqsiz holatga kelib qoladi. Transport vositalarining sifatsizligi yoki kechikishlar ham logistika isrofiga olib keladi.

**Qadoqlash va standartlarga mos kelmaslik.** Ko'plab davlatlarda mahsulotlarning tashqi ko'rinishiga, hajmiga yoki rangiga nisbatan yuqori talablar mavjud. Rivojlangan mamlakatlarda supermarketlar standartdan biroz chetga chiqqan mahsulotlarni sotuvga qo'ymasliklari sababli, ularni yo'q qilishadi yoki chiqindiga chiqarishadi. Bu esa mukammallik illuziyasiga asoslangan isrofdir.

**Chakana savdo va marketing siyosatining salbiy ta'siri.** Savdo nuqtalarida talabni noto'g'ri prognoz qilish, haddan tashqari ko'p mahsulot buyurtma qilish, yaroqlilik muddati yaqinlashgan mahsulotlarni chetga chiqarish orqali katta miqdorda isrof yuz beradi. Shuningdek, «1 ol, 1 bepul» kabi aksiyalar ham ortiqcha xarid va uyda isrofga sabab bo'ladi.

**Iste'molchilarning xulq-atvori va bilim yetishmasligi.** Uy sharoitida oziq-ovqatni noto'g'ri saqlash, ortiqcha xarid qilish, iste'mol muddatini noto'g'ri talqin qilish yoki qoldiqlarni qayta ishlamaslik orqali isrof ko'p kuzatiladi. Bu esa ko'pincha iste'molchilarning oziq-ovqatga nisbatan ongli yondashmasligi bilan bog'liq.

Shu munosabat bilan, oziq-ovqat isrofining asosiy omillarini bartaraf etish uchun ta'minot zanjirining barcha bo'g'inlarida kompleks yondashuvni qo'llash, raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta'lim-tarbiyaviy dasturlarni joriy etish hamda samarali siyosiy choralarni amalga oshirish zarur. Har bir bosqichda samaradorlikni oshirish

orqali global miqyosda oziq-ovqat yo‘qotishlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Zamonaviy raqamli vositalar — xususan, onlayn platformalar — oziq-ovqat isrofigining oldini olishda tobora muhim rol o‘ynay boshladi. Bugungi raqamli muhitda turli mobil ilovalar va veb-saytlar orqali ishlab chiqaruvchilar, chakana savdo subyektlari va iste’molchilar o‘rtasida samarali hamkorlik aloqalari shakllanmoqda. Masalan, foydalanish muddati tugash arafasida turgan mahsulotlarni chegirmali narxlarda taklif qiluvchi platformalar orqali ularni tezda realizatsiya qilish mumkin bo‘ladi, bu esa isrof darajasining kamayishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ayrim onlayn ilovalar orqali ortib qolgan oziq-ovqat mahsulotlarini xayriya tashkilotlariga yetkazish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu bir tomondan resurslarning isrof bo‘lishining oldini olsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarga yordam ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bunday platformalar foydalanuvchilarga mahsulotlarni to‘g‘ri saqlash, qayta ishlash va ehtiyoj asosida rejalashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berib boradi. Xulosa qilib aytganda, raqamli onlayn platformalar oziq-ovqat isrofiga qarshi kurashishda innovatsion, samarali va barqaror yechimlar taqdim etmoqda.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.**

Dunyo miqyosida oziq-ovqat isrofi muammosi global oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Turli tadqiqotlar shuni tasdiqlamoqdaki, isrof qilinayotgan oziq-ovqat miqdori nafaqat salmoqli iqtisodiy yo‘qotishlarga, balki ekologik yuklamaning ortishiga hamda millionlab insonlarning yetarli ovqatlanmasligiga olib kelmoqda. Bu muammo oziq-ovqat ta’minot zanjirining barcha bosqichlarida – xomashyo yetishtirishdan to yakuniy iste’molgacha – mavjud bo‘lib, uni hal etish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur hisoblanadi.

Oziq-ovqat isrofini kamaytirish uchun bir necha asosiy yo‘nalishlarda ishlash zarur:

- Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, hosilni yig‘ib olish va saqlash texnologiyalarini takomillashtirish orqali yetkazib beruvchi bosqichdagi yo‘qotishlar kamaytirilishi mumkin.
- Logistika va sovitish tizimlarini rivojlantirish mahsulotlarning yaroqlilik muddatini uzaytirib, saqlashdagi isroflarni cheklaydi.
- Chakana savdo siyosatida yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, ayniqsa estetik me'yorlarga asoslangan mahsulot tanlovini yumshatish kerak.
- Iste’molchilar o‘rtasida ongli xarid va iste’mol madaniyatini shakllantirish uchun ta’lim va targ‘ibot dasturlarini kuchaytirish zarur.
- Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalanish ortiqcha mahsulotlarni qayta taqsimlash va xayriya tarmoqlari orqali tarqatishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat isrofi muammosiga qarshi kurashish nafaqat global resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, balki barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) erishish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi. Shu bois, barcha manfaatdor tomonlar — davlatlar, biznes subyektlari va aholi — birgalikda harakat qilishi zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Food and Agriculture Organization. (2011). *Global food losses and food waste – Extent, causes and prevention*. Rome: FAO. http://www.fao.org/3/i2697e/i2697e.pdf

2. Gustavsson, J., Cederberg, C., Sonesson, U., van Otterdijk, R., & Meybeck, A. (2011). *Global food losses and food waste: Extent, causes and prevention*. Rome: FAO. http://www.fao.org/3/mb060e/mb060e.pdf

3. Barilla Center for Food & Nutrition. (2016). *Fixing food: Towards a more sustainable food system*. BCFN Foundation. https://www.barillacfn.com

4. High Level Panel of Experts on Food Security and Nutrition (HLPE). (2014). *Food losses and waste in the context of sustainable food systems*. A report by the HLPE of the Committee on World Food Security. Rome.https://www.fao.org/3/i3901e/i3901e.pdf

5. United Nations Environment Programme. (2021). *UNEP Food Waste Index Report 2021*. Nairobi: UNEP. https://www.unep.org/resources/report/unep-food-waste-index-report-2021

# DECISION TREE ALGORITMI ASOSIDA KREDIT RISKINI BAHOLASH MODELI

**Aliqulov Abbos Baxtiyor o'g'li**
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi-
ORCID: 0009-0003-6121-1119 abbosaliqulov1253@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada kredit riskini baholashda qaror daraxti (Decision Tree) algoritmidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ma'lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qilish, qaror qabul qilishni tezlashtirish va inson xatolarini kamaytirish uchun kredit riskini baholovchi model ishlab chiqilgan. Model yaratishda ochiq manbadagi kredit ma'lumotlar bazasidan foydalanildi. Algoritmning samaradorligi aniqlik (accuracy), aniq chaqirish (precision), sezuvchanlik (recall) kabi mezonlar yordamida baholandi. Tadqiqot natijalari Decision Tree algoritmi oddiy va tushunarli bo'lgan samarali vosita ekanligini ko'rsatdi.*

***Kalit so'zlar:*** *kredit riski, Decision Tree algoritmi, tasniflash, ma'lumotlarni tahlil qilish, modellashtirish, aniqlik, ma'lumotlar to'plami, qaror qabul qilish.*

# РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ ОЦЕНКИ КРЕДИТНОГО РИСКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АЛГОРИТМА ДЕРЕВА РЕШЕНИЙ

**Аликулов Аббос Бахтиёр угли**
Преподаватель Каршинского международного университета
ORCID: 0009-0003-6121-1119 abbosaliqulov1253@gmail.com

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается возможность использования алгоритма дерева решений (Decision Tree) для оценки кредитного риска. Для автоматического анализа данных и ускорения процесса принятия решений разработана модель оценки кредитного риска. В качестве исходных данных использовалась открытая база кредитных данных. Эффективность модели оценивалась с использованием метрик, таких как точность, полнота и точность прогнозов. Результаты исследования показали, что алгоритм дерева решений является эффективным и легко интерпретируемым инструментом для подобных задач.*

***Ключевые слова:*** *Кредитный риск, алгоритм дерева решений, классификация, анализ данных, моделирование, точность, набор данных, принятие решений.*

# DEVELOPMENT OF A CREDIT RISK EVALUATION MODEL USING THE DECISION TREE ALGORITHM

**Abbos Bakhtiyorovich Alikulov**

Lecturer at Karshi International University
ORCID: 0009-0003-6121-1119 abbosaliqulov1253@gmail.com

**Abstract:** This article explores the use of the Decision Tree algorithm for credit risk assessment. A credit risk evaluation model is developed to automate data analysis, accelerate decision-making, and reduce human errors. An open-source credit dataset was used for model training and testing. The performance of the model was evaluated using metrics such as accuracy, precision, and recall. The results demonstrate that the Decision Tree algorithm is an effective and interpretable tool for credit risk prediction tasks.

**Keywords:** Credit risk, Decision Tree algorithm, classification, data analysis, modeling, accuracy, dataset, decision-making.

---

**Kirish.**

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ayniqsa, tijorat banklarida kredit siyosatini samarali yuritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kredit riskini aniq baholash esa bank tizimida qaror qabul qilish sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy yondashuvlarda inson omiliga haddan ziyod tayanilgan bo'lib, bu ko'pincha subyektiv xatolar, hujjatlashtirishdagi noaniqliklar va kechikkan qarorlar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois, bugungi kunda bu jarayonlarga sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish (machine learning) texnologiyalarini joriy qilish tobora ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining siyosiy nutq va asarlarida raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi va iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish zamonaviy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda [1]. Xususan, moliya va bank sektorida bu kabi texnologiyalarni tatbiq etish orqali kredit siyosatini samarali olib borish, qaror qabul qilishda aniqlik va tezkorlikni oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Ushbu tadqiqot aynan shu dolzarb muammoga yechim sifatida qaraladi. Tadqiqotning maqsadi - Decision Tree (qaror daraxti) algoritmiga asoslangan holda kredit riskini avtomatik baholovchi model ishlab chiqishdan iborat. Ushbu yondashuv kredit so'rovlarini tez, xolis va aniq ko'rib chiqish imkonini beradi, hamda bank tizimidagi subyektiv qaror qabul qilish muammosini sezilarli darajada kamaytiradi.

Tadqiqot doirasida qaror daraxti algoritmining nazariy asoslari o'rganilib, ochiq ma'lumotlar to'plami asosida amaliy model yaratildi va u baholash mezonlari orqali sinovdan o'tkazildi. Natijalar mazkur algoritm kredit riskini baholashda samarali vosita bo'la olishini ko'rsatmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.**

So'nggi yillarda kredit riskini baholash jarayonlarida sun'iy intellekt (AI) va mashinaviy o'rganish (ML) algoritmlaridan foydalanish moliyaviy texnologiyalar sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu yondashuvlar an'anaviy statistik metodlardan ustun bo'lib, xususan, katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, yuqori aniqlikda bashorat qilish va qaror qabul qilishda inson omiliga bog'liqlikni kamaytirish kabi afzalliklarga ega. Kredit riskini baholashda ilgari keng qo'llanilgan logistik regressiya, diskriminant tahlil, ball tizimlari kabi usullar asosan chiziqli bog'lanishlarga asoslangan bo'lib, murakkab nolinear munosabatlarni aniqlashda cheklovlarga ega ekanligi aniqlangan.

Zamonaviy tadqiqotlar bu borada Decision Tree algoritmi (qaror daraxti) singari intuitiv, tushunarli va modellashtirishga qulay vositalarning ustunliklarini ochib bermoqda. Xususan, Thomas, Edelman va Crook tomonidan kredit skor tizimlari boʻyicha olib borilgan fundamental tadqiqotda qaror daraxti algoritmi kredit riskini baholashda samarali vosita sifatida taqdim etilgan, uning ifodaviy tuzilmasi va qat'iy mantiqiy qaror qabul qilish imkoniyati muhim jihat sifatida koʻrsatib oʻtilgan [2].

Shuningdek, Baesens va uning hamkorlari oʻz izlanishlarida bank sektorida qaror daraxti, neyron tarmoqlar va qoʻllab-quvvatlovchi vektor mashinalari (SVM) kabi klassifikatsiya algoritmlarini taqqoslab tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, Decision Tree algoritmi oʻrganilayotgan atributlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni soddaligi bilan aniqlab bera olishi, shuningdek, foydalanuvchilar uchun tushunarli va izchil qarorlar tuzishi bilan ajralib turadi. Biroq ular overfitting (modelning ortiqcha moslashuvi) xavfini cheklash maqsadida chuqurlik va bogʻlanish sonini nazorat ostida ushlashni tavsiya etadi [3].

Amaliy jihatdan esa, German Credit Data kabi ochiq kredit ma'lumotlar toʻplami ustida olib borilgan eksperimentlarda qaror daraxti algoritmi 70–80% oraligʻida aniqlik (accuracy) koʻrsatgani qayd etilgan [4]. Ushbu tajribalarda faqatgina aniqlik emas, balki precision (aniq chaqirish), recall (sezuvchanlik) va F1-score kabi mezonlar ham model samaradorligini koʻrsatishda muhim indikator sifatida qoʻllanilgan [5]. Bu mezonlar ayniqsa, kredit qarorlarining ijobiy va salbiy sinflari oʻrtasida balansni ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Model qurish va uni tahlil qilishda Python dasturlash tilining keng imkoniyatlari, ayniqsa, Scikit-learn kutubxonasi yordamida algoritmlarni osongina tatbiq qilish, vizualizatsiya qilish va baholash koʻrsatkichlarini hisoblash jarayonini sezilarli darajada soddalashtirgani ta'kidlangan [6]. Bu esa, qaror daraxti algoritmini nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham qulay vosita sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Oʻzbekiston olimlari tomonidan ham ushbu yoʻnalishda dastlabki izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Toʻxtayev A. oʻz ilmiy ishlarida moliyaviy prognozlash sohasida mashinaviy oʻrganish algoritmlarining, shu jumladan qaror daraxti algoritmining afzalliklari, kredit soʻrovlarini tahlil qilishdagi aniqlik darajasi va samaradorlik jihatlarini tahlil qilgan [7].

Shunga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, aynan qaror daraxti algoritmiga asoslangan kredit riskini baholovchi modellar Oʻzbekiston sharoitida hali yetarli darajada chuqur oʻrganilmagan. Bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi..

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqot deduksion yondashuv asosida tashkil etilgan boʻlib, kredit riskini baholashga oid mavjud nazariyalar asosida amaliy model ishlab chiqildi. Tadqiqot strategiyasi sifatida eksperiment va kuzatuv yondashuvlari uygʻunlashtirildi. Ikkilamchi ma'lumot manbai sifatida German Credit Data ochiq toʻplamidan foydalanildi. Ma'lumotlar 80/20 nisbatda oʻquv va test toʻplamlariga ajratilib, Decision Tree algoritmi asosida model qurildi. Model Python dasturlash tilida scikit-learn kutubxonasi yordamida amalga oshirildi. Baholash mezonlari sifatida aniqlik, aniq chaqirish, sezuvchanlik va F1-score koʻrsatkichlari tanlandi. Tadqiqotda foydalanilgan

barcha ma'lumotlar ochiq va shaxsiy ma'lumotlardan holi bo'lib, etik talablarga to'liq mos keladi.

**Tahlil va natijalar.**

Ushbu tadqiqotda qaror daraxti (Decision Tree) algoritmi asosida kredit riskini baholovchi model ishlab chiqildi. Maqsad – mijozlar haqidagi mavjud axborotlar asosida kreditga yaroqlilik holatini bashorat qilishdan iborat bo'ldi. Tahlil ishlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi: ma'lumotlar tayyorlandi, model o'qitildi, test qilindi va baholash ko'rsatkichlari orqali tahlil qilindi. Tahlil uchun German Credit Data [8] ochiq to'plamidan foydalanildi. Ushbu to'plam 1000 ta mijozga oid yozuvlardan iborat bo'lib, har bir yozuv quyidagi asosiy atributlarni o'z ichiga oladi: kredit maqsadi, miqdori, kredit tarixi, mijoz yoshi, ish staji, daromad, kafolat mavjudligi va kredit qarori.

**1-jadval. German credit data namunaviy yozuvlari (dastlabki satrlari)**

| ID | Maqsad | Miqdor | Yoshi | Staj | Tarix | Kafolat | Baho |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | *Maishiy texnika* | *1169* | *67* | *>7 yil* | *yaxshi* | *Ha* | *Yaxshi* |
| 2 | *Avtomobil* | *5951* | *22* | *1–4 yil* | *o'rtacha* | *Yo'q* | *Yomon* |
| 3 | *Ta'lim* | *2096* | *49* | *4–7 yil* | *yomon* | *Ha* | *Yaxshi* |
| 4 | *Remont* | *7882* | *45* | *>7 yil* | *yaxshi* | *Yo'q* | *Yomon* |
| … | … | … | … | … | … | … | … |

Tahlil uchun ma'lumotlar 80% o'quv, 20% test to'plamlariga bo'lindi. Maqsadli atribut sifatida kredit bahosi (class) tanlandi. Model Python dasturlash tilida, scikit-learn kutubxonasi yordamida tuzildi. DecisionTreeClassifier sinfi orqali model o'qitildi va asosiy parametrlar chuqurlik *(max_depth=5)* va minimal barg soni orqali boshqarildi. Model sinov ma'lumotlarida ishlash ko'rsatkichlarini baholash uchun quyidagi formulalardan foydalanildi:

Aniqlik (Accuracy)

$$Accuracy = \frac{TP + TN}{TP + TN + FP + FN}$$

Precision

$$Precision = \frac{TP}{TP + FP}$$

Recall

$$Recall = \frac{TP}{TP + FN}$$

F1-score

$$F1 = 2\frac{Precision * Recall}{Precision + Recall}$$

Model quyidagi natijalarni berdi:

**2-jadval. Model baholash mezonlari**

| Ko'rsatkich | Qiymat (%) |
|---|---|
| *Accuracy* | *76* |
| *Precision* | *78* |
| *Recall* | *72* |
| *F1-score* | *75* |

Mazkur natijalar model kredit bahosini nisbatan ishonchli aniqlay olganini ko‘rsatadi. Modelning aniqligi quyidagi confusion matrix orqali tahlil qilindi:

**3-jadval. Confusion matrix**

| | Haqiqiy ijobiy | Haqiqiy manfiy |
|---|---|---|
| *Model ijobiy* | *68 (TP)* | *19 (FP)* |
| *Model manfiy* | *26 (FN)* | *87 (TN)* |

Bu yerda model to‘g‘ri ijobiy (TP) holatni 68 ta, noto‘g‘ri ijobiy (FP) holatni 19 ta aniqlagan. Model tomonidan eng muhim deb topilgan atributlar quyidagicha bo‘ldi:

**4-jadval. Atributlar ahamiyati (feature importance)**

| Atribut | Ahamiyat (%) |
|---|---|
| *Kredit maqsadi* | *29* |
| *Kredit tarixi* | *24* |
| *Daromad* | *19* |
| *Ish bilan bandlik* | *13* |
| *Avvalgi kreditlar* | *10* |
| *Oilaviy holat* | *5* |

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, mijozning kredit maqsadi va to‘lov tarixi qaror chiqarishda asosiy omillar hisoblanadi.




**1-rasm. Baholash me’zonlari bo‘yicha chiziqli grafik**

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, qaror daraxti algoritmi kredit riskini baholashda nisbatan ishonchli, tushunarli va interpretatsiya qilishga qulay model bo‘lib xizmat qildi. Ushbu yondashuv banklar va moliya tashkilotlarida kredit xavfini avtomatik aniqlash va qaror chiqarish tizimlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**Xulosa va takliflar.**

Ushbu tadqiqotda qaror daraxti (Decision Tree) algoritmi asosida kredit riskini baholovchi model ishlab chiqildi va German Credit Data ma'lumotlari asosida sinovdan o'tkazildi. Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur model kredit bahosini bashorat qilishda 76% aniqlik ko'rsatib, qaror qabul qilishning shaffof va tushunarli vositasi sifatida samarali ishladi.

Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

Kredit riskini baholashda qaror daraxti algoritmi oddiy, tezkor va interpretatsiyasi qulay bo'lgan yondashuv bo'lib, u kredit qarorlarini avtomatlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Kredit maqsadi, mijozning kredit tarixi va daromadi kabi atributlar modelning qaror chiqarishida asosiy omillar sifatida belgilandi.

Model real amaliyotda qo'llash uchun yetarlicha ishonchli natijalarni berdi, ayniqsa, mijozni kreditga yaroqli yoki yaroqsiz deb baholashda sezilarli aniqlikka erishildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Banklar va moliya tashkilotlari kredit riskini baholashda qaror daraxti kabi sun'iy intellekt yondashuvlarini amaliyotga joriy etishlari zarur. Bu qarorlarni tezlashtiradi, inson omiliga bog'liqlikni kamaytiradi va mijozlar uchun shaffof muhit yaratadi.

Kredit arizalarini ko'rib chiqishda ma'lumotlar tahliliga asoslangan yondashuv yo'lga qo'yilishi lozim. Ayniqsa, mijozlarning tarixiy ma'lumotlari, daromad manbalari va qarz to'lash intizomi muntazam ravishda tahlil qilinishi tavsiya etiladi.

Modelning aniqligini oshirish uchun yangi atributlar (masalan, joylashuv, ta'lim darajasi, oilaviy yuklamalar) qo'shish va boshqa algoritmlar (Random Forest, Gradient Boosting) bilan taqqoslash orqali keyingi tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiq.

Kredit baholash modellarining etik jihatlari ham hisobga olinishi lozim, ya'ni ma'lumotlar maxfiyligi, noto'g'ri baholash xavfini minimallashtirish va ijtimoiy adolat mezonlari e'tiborga olinishi zarur.

Tadqiqot natijalari moliyaviy tashkilotlarda xavflarni boshqarish strategiyasini optimallashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni tatbiq etishda foydali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu model asosida turli sohalarda (sug'urta, lizing, iste'mol kreditlari) ham xuddi shunday tahlillarni olib borish imkoniyati mavjud.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston - taraqqiyot va bunyodkorlik yo'li. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 320 b.

2. Thomas, L. C., Edelman, D. B., & Crook, J. N. (2002). Credit Scoring and Its Applications. SIAM.

3. Baesens, B., Van Gestel, T., Stepanova, M., Suykens, J., & Vanthienen, J. (2003). "Benchmarking state-of-the-art classification algorithms for credit scoring". Journal of the Operational Research Society, 54(6), 627–635.

4. UCI Machine Learning Repository. (1994). Statlog (German Credit Data). https://archive.ics.uci.edu/ml/datasets/statlog+(german+credit+data)

5. Moro, S., Laureano, R., & Cortez, P. (2015). "Using data mining for bank direct marketing: An application of the CRISP-DM methodology". Expert Systems with Applications, 39(11), 9290–9296.

6. Pedregosa, F., Varoquaux, G., Gramfort, A., et al. (2011). "Scikit-learn: Machine Learning in Python". Journal of Machine Learning Research, 12, 2825–2830.

7. To'xtayev, A. (2021). "Bank tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning zamonaviy yondashuvlari". Innovatsion rivojlanish muammolari, №2, 45–49.

8. https://archive.ics.uci.edu/ml/datasets/statlog+(german+credit+data)

9. Hand, D. J., & Henley, W. E. (1997). Statistical classification methods in consumer credit scoring: a review. Journal of the Royal Statistical Society: Series A, 160(3), 523–541.

10. Lessmann, S., Baesens, B., Seow, H.-V., & Thomas, L. C. (2015). Benchmarking state-of-the-art classification algorithms for credit scoring: An update of research. European Journal of Operational Research, 247(1), 124–136.

11. Bellotti, T., & Crook, J. (2009). Support vector machines for credit scoring and discovery of significant features. Expert Systems with Applications, 36(2), 3302–3308.

12. Chen, M., Mao, S., & Liu, Y. (2014). Big Data: A survey. Mobile Networks and Applications, 19(2), 171–209.

---

# AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YUKLARNI TASHISH HOLATINING KORRELYATSIYA-REGRESSIYA TAHLILI

**Muratov Abobakr Xolikberdiyevich**[1] [1]
Termiz davlat universiteti, Termiz, O'zbekiston.

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada avtomobil transportida yuklarni tashish holatining korrelatsiya-regressiya tahlili ko'rib chiqiladi. Tahlil jarayoni yuk og'irligi, tashish masofasi, xarajatlar va vaqt kabi o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga qaratilgan. Maqola, transport tizimlarining samaradorligini oshirish va resurslardan foydalanishni yaxshilash uchun korrelatsiya-regressiya tahlilining ahamiyatini ta'kidlaydi.*

*Natijalar, yuk tashish jarayonida ko'plab omillar o'zaro bog'liqligini va ularning bir-biriga ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu tahlil, transport kompaniyalariga o'z strategiyalarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish imkoniyatini beradi. Maqola, transport sohasida ilmiy tadqiqotlar va amaliyotlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'ynab, kelajakda innovatsion yechimlar ishlab chiqishga yordam berishi kutilmoqda. Korrelatsiya-regressiya tahlili, avtomobil transportida yuklarni tashish jarayonlarini yaxshilash uchun zaruriy vosita sifatida xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *avtomobil, yuklash-tushirish, yuk, tashish, korrelatsiya, regressiya, tahlil, samaradorlik, ish unumdorligi.*

---

# КОРРЕЛЯЦИОННО-РЕГРЕССИОННЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОЗКИ ГРУЗОВ АВТОМОБИЛЬНЫМ ТРАНСПОРТОМ

**Мурадов Абобакр Халикбердиевич**
Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается корреляционно-регрессионный анализ состояния перевозки грузов автомобильным транспортом. Процесс анализа направлен на выявление взаимосвязей между такими переменными, как масса груза, расстояние перевозки, затраты и время. Статья подчеркивает значимость корреляционно-регрессионного анализа*

[1] https://orcid.org/0000-0002-4450-2892

*для повышения эффективности транспортных систем и рационального использования ресурсов.*

*Результаты показывают взаимозависимость множества факторов в процессе грузоперевозок и их влияние друг на друга. Проведённый анализ предоставляет транспортным компаниям возможность оптимизировать стратегии, снизить издержки и повысить качество обслуживания. Ожидается, что статья станет мостом между научными исследованиями и практикой в сфере транспорта, способствуя разработке инновационных решений. Корреляционно-регрессионный анализ представлен как необходимый инструмент для совершенствования процессов перевозки грузов автомобильным транспортом.*

***Ключевые слова:*** *автомобиль, погрузка-разгрузка, груз, перевозка, корреляция, регрессия, анализ, эффективность, производительность.*

# CORRELATION AND REGRESSION ANALYSIS OF THE STATE OF CARGO TRANSPORTATION IN AUTOMOBILE TRANSPORT

**Muratov Abobakr Kholikberdievich**[1][a]

[1]*Termez State University, Termez, Uzbekistan.*

***Annotation:*** *this article will consider the correlation-regression analysis of the state of cargo transportation in automobile transport. The analysis process aims to determine the correlations between variables such as load weight, transport distance, cost and time. The article highlights the importance of correlation-regression analysis to improve the efficiency of transportation systems and improve resource utilization.*

*The results show that many factors are interrelated in the process of shipping and their influence on each other. This analysis provides transportation companies with the opportunity to optimize their strategies, reduce costs and improve the quality of Service. The article is expected to help develop innovative solutions in the future, playing the role of a bridge between scientific research and practice in the field of transport. Correlation-regression analysis serves as a necessary tool to improve the processes of transportation of goods in road transport.*

***Keywords:*** *automobile, loading-unloading, shipping, transportation, correlation, regression, analysis, efficiency, productivity.*

**Kirish.** Avtomobil transporti, zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, yuklarni tashish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Yuk tashishning samaradorligi va xavfsizligi, iqtisodiy o'sish va rivojlanishda katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni optimallashtirish uchun transport tizimlarining ishini chuqur tahlil qilish zarur. Korrelatsiya-regressiya tahlili, yuklarni tashish jarayonidagi turli omillar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish va ularni matematik model orqali ifodalash imkonini beradi.

Maqolada avtomobil transportida yuklarni tashish holatining korrelatsiya-regressiya tahlili keltiriladi. Ushbu tahlil yordamida yuk og'irligi, tashish masofasi, transport xarajatlari va vaqt kabi o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar aniqlanadi. Shuningdek, olingan natijalar asosida tashish jarayonini optimallashtirish strategiyalari ishlab chiqiladi. Natijada, transport tizimlarining samaradorligini oshirish va resurslardan foydalanishni yaxshilashga erishish mumkin [1, 2].

Ushbu tahlil nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham keng qo'llanilishi mumkin, chunki u yuk tashish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish uchun muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Maqola davomida korrelatsiya-regressiya tahlilining asosiy bosqichlari va natijalari batafsil ko'rib chiqiladi [4, 5].

Avtomobil transporti vositalari ish unumi va ekspluatatsion ko'rsatkichlarining o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish uchun korrelyatsiya-regressiya tahlil modeli

keltirilgan. Tadqiqot uchun avtomobil transporti vositalari ish unumi $Q_j$ qabul qilingan. Avtomobil transporti vositalari ish unumini oshirishga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar qabul qilindi:

$M_1$ – avtomobil transporti vositasining yuklash va tushirishda turish vaqtlari, soat;

$M_2$ – avtomobil transporti vositasining yuk ko'tarish qobiliyati, tonna;

$M_3$ – avtomobil transporti vositasining yuk tashish masofasi, km;

$M_4$ – avtomobil transporti vositasining ishda bo'lish vaqti, soat;

$M_5$ – avtomobil transporti vositasining o'rtacha texnik tezligi, km/soat;

$M_6$ – avtomobilning yo'ldan foydalanish koeffitsienti.

Tadqiq etilayotgan ko'rsatkichlar tahlil etish uchun korrelyatsiya-regressiya tenglamasidan foydalanildi. Tenglamaning umumiy ko'rinishi quyidagicha [3];

$$y = a_0 + a_1 \cdot x \tag{1}$$

bu yerda $y$ -izlanayotgan ko'rsatkichlar ($M_1, M_2, M_3, M_4, M_5, M_6$); $x$ -avtomobil transporti vositalari ish unumi, tonna; $a_0, a_1$-regressiya koeffitsientlari.

$a_0$ *ва* $a_1$ koeffitsientlarini kichik kvadratlar usulidan foydalanib baholaymiz[3].

$$\bar{a}_o = \frac{\sum_{i=1}^{n} y_i - \bar{a}_i \sum_{i=1}^{n} x_i}{n} \tag{2}$$

$$\bar{a}_i = \frac{\sum_{i=1}^{n}(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sum_{i=1}^{n}(x_i - y_i)^2} \tag{3}$$

Tadqiq etilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasida mavjud aloqani sonli baholash uchun korrelyatsiya koeffitsienti hisoblanadi [3].

$$r_{yx} = \frac{\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(x_i - x)(y_i - y)}{\sqrt{\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(x_i - x)^2 \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(y_i - y)^2}} \tag{4}$$

bu yerda $\bar{x}$ va $\bar{y}$ -o'rtacha miqdor; $n$ -o'zgaruvchi.

Aniqlangan korrelyatsiya koeffitsienti asosida tadqiq etilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasida mavjud aloqani sifat va sonli baholash mumkin. Buning uchun Cheddok shkalasidan foydalaniladi (1-jadval) [3].

1-jadval

| Juftlik korrelyatsiya koeffitsienti miqdori | Bog'liqlik tavsifi |
|---|---|
| 0,3 gacha | Amalda mavjud emas |
| 0,3-0,5 | Kuchsiz |
| 0,5-0,7 | Sezilarli |
| 0,7-0,9 | Kuchli |
| 0,9-0,99 | Juda kuchli |

Korrelyatsiya, Fisher va determinatsiya koeffitsientlarini aniqlash Excel dasturiy ta’minotida amalga oshirildi.

Avtomobil transporti vositalari ish unumi $Q_j$ korrelyatsiya omili natijaviy ko‘rsatkichlari $M_1$ da $r_{hisob} = -0{,}988$ , $M_2$ da $r_{hisob} = 0{,}9997$ , $M_3$ da $r_{hisob} = -0{,}8567$ , $M_4$ da $r_{hisob} = 0{,}999$ , $M_5$ da $r_{hisob} = 0{,}9991$ , $M_6$ da $r_{hisob} = 0{,}9905$ ni tashkil etadi, bu Cheddok shkalasi bo‘yicha o‘rganilayotgan omillar o‘rtasida kuchli bog‘liqlikni tavsiflaydi [3].

Nochiziqli shaklli bog‘liqlik uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalanildi va har bir ko‘rsatkich uchun quyidagi regressiya tenglamasi olindi:

$$y_1 = 136{,}99x^2 - 243{,}48x + 237{,}25 \quad (5)$$

$$y_2 = -0{,}0003x^2 + 7{,}7561x - 0{,}1 \quad (6)$$

$$y_3 = 0{,}2051x^2 - 16{,}2x + 362{,}22 \quad (7)$$

$$y_4 = -0{,}0038x^2 + 24{,}304x - 0{,}6409 \quad (8)$$

$$y_5 = -0{,}0502x^2 + 8{,}9216x + 8{,}3848 \quad (9)$$

$$y_6 = -117{,}8x^2 + 435{,}95x + 4{,}8833 \quad (10)$$

Yuqorida olingan nochiziqli regressiya tenglamalarining adekvatligi haqidagi gipotezaning miqdoriy tekshiruvi shuni ko‘rsatadiki, *F* mezoni (Fisher mezoni)ning haqiqiy qiymatlari $F_{amal\,(1)} = 7{,}13$ , $F_{amal\,(2)} = 249{,}931$ , $F_{amal\,(3)} = 22{,}086$ , $F_{amal\,(4)} = 515355{,}2$ , $F_{amal\,(5)} = 4856{,}243$ , $F_{amal\,(6)} = 836{,}337$ jadval qiymati esa mos ravishda $F^{1,\ldots,6}_{jadv\,(0,05;1;8)} = 5{,}318$ ga teng. Determinatsiya koeffitsentlari (1-a, b, v, g, d, e-rasmda) keltirilgan, sonli qiymatlari esa quyidagicha: $R^2_{amal\,(1)} = 0{,}9888$ , $R^2_{amal\,(2)} = 1{,}0$ , $R^2_{amal\,(3)} = 0{,}7341$ , $R^2_{amal\,(4)} = 1{,}0$ , $R^2_{amal\,(5)} = 0{,}9984$ , $R^2_{amal\,(6)} = 0{,}9905$ . Fisher mezoni uchun $F_{amal} > F_{jadv}$ va determinatsiya koeffitsienti uchun $R^2_{amal} > R^2_{jadv}$ shart bajarilyapti.

Demak, 95% ehtimollik bilan o‘rganilayotgan ko‘rsatkich $Q_j$ omili bilan yetarli darajada ijobiy ifodalandi.

Keltirilgan TEKlarning korrelyatsiya bog‘lanishlarini quramiz.




v. Yuk tashish hajmining yuk tashish masofasiga bog‘liqligi grafigi




g. Yuk tashish hajmining ish vaqtiga bog‘liqligi grafigi




d. Yuk tashish hajmining o‘rtacha texnik tezligiga bog‘liqligi grafigi




e. Yuk tashish hajmining yo‘ldan foydalanish koeffitsientiga bog‘liqligi grafigi

**1-rasm. Tahlil etilayotgan ko‘rsatkichlarning** $(M_1, M_2, M_3, M_4, M_5, M_6)$ **yuk tashish hajmiga bog‘liqligi grafigi**

**Xulosa.** Avtomobil transportida yuklarni tashish holatining korrelatsiya-regressiya tahlili, transport jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil orqali yuk og‘irligi, tashish masofasi, xarajatlar va vaqt kabi o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlanib, transport tizimlarining ishini yanada optimallashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yuk tashish jarayonida ko‘plab omillar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Masalan, yuk og‘irligi oshgan sari xarajatlar va tashish vaqti ham ortadi. Ushbu tahlil yordamida transport kompaniyalari o‘z strategiyalarini yangilab, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Shuningdek, korrelatsiya-regressiya tahlili, transport sohasida ilmiy tadqiqotlar va amaliyotlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘ynaydi. Kelajakda bu tahlil metodologiyasi, avtomobil transporti sohasida innovatsion yechimlar ishlab chiqishga yordam berishi va yuklarni tashish jarayonlarini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Umuman olganda, korrelatsiya-regressiya tahlili, avtomobil transportida yuklarni tashish jarayonlarini yaxshilash uchun zaruriy vosita sifatida xizmat qiladi va bu sohadagi tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlarni ochadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR/ REFERENCES

1. Muratov A.Kh., Kuziev A.U. Application Of Logistical Principles In The Development Of Directions In The Region // The American Journal of Engineering and Technology (ISSN – 2689-0984). Volume-03 Issue-05. May 31, 2021. pp 143-149

2. Kuziev A.U., Muratov A.Kh. Improving the method of delivery of construction cargo in autotransport. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN:2249-7137 Vol. 11, Issue 8, August 2021. 207-216 pp. https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.01801.2 https://www.mendeley.com/catalogue/f81d31e3-996a-3b33-b7e2-7c971d2167bf/

3. Чернова Т.В. Экономическая статистика: учеб. пособие // Таганрог, ТРТУ, 1999. –265 с.

4. Kuziev A.U., Muratov A.Kh. Mutual Coordination of Logistic Activities of Vehicles and Shippers Servicing Them // International Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology. Volume 7, Issue 8, August 2020. 14656-14662 pp. http://ijarset.com/upload/2020/august/14-abdulatif-35.pdf

5. Muratov A.X., Kuziev A.U. Sochiluvchan yuklarni avtotransportda yetkazib berish samaradorligini oshirish // "Surxondaryo: ilm va taffakur" ilmiy jurnali. –2021. №3, –12-19 b.

# СТРУКТУРЫ ДАННЫХ И АЛГОРИТМЫ: ОСНОВА ЭФФЕКТИВНОГО ПРОГРАММИРОВАНИЯ

***Рашидов А.В.***
ассистент Каршинского Международного Университета
e-mail: azizvohidovich@gmail.com
ORCID: 0009-0008-2281-3463, Тел:+998919643548

***Аннотация :*** *В статье рассматривается фундаментальная роль структур данных и алгоритмов в разработке программного обеспечения. Приводится классификация основных структур данных, описываются популярные алгоритмы и их области применения. Особое внимание уделяется критериям выбора оптимальных структур и алгоритмов в зависимости от решаемых задач. Также обсуждаются современные тенденции в развитии алгоритмической теории и практическом программировании.*

***Ключевые слова:*** *структуры данных, алгоритмы, эффективность программ, сложность алгоритмов, оптимизация, разработка.*

# MA'LUMOTLAR TUZILMALARI VA ALGORITMLAR SAMARALI DASTURLASHNING ASOSI

***Rashidov A.V***
Qarshi Xalqaro Universiteti assistenti
*e-mail: azizvohidovich@gmail.com*
*ORCID: 0009-0008-2281-3463, Tel: +998919643548*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ma'lumotlar tuzilmalari va algoritmlarning zamonaviy dasturiy ta'minot yaratishdagi asosiy o'rni tahlil qilinadi. Asosiy ma'lumotlar tuzilmalari va algoritmlar tasnifi keltiriladi, ularning samaradorligi, amaliy ahamiyati va qo'llash sohalari ko'rib chiqiladi. Samarali dasturlashni ta'minlash uchun algoritmlar va ma'lumotlar tuzilmalarini tanlash mezonlari asoslab beriladi. Maqolada shuningdek, algoritmik nazariya va uning amaliy qo'llanilishidagi zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *ma'lumotlar tuzilmalari, algoritmlar, algoritm murakkabligi, optimallashtirish, dasturiy ta'minot samaradorligi, ma'lumotlar qayta ishlash*

# DATA STRUCTURES AND ALGORITHMS: THE FOUNDATION OF EFFICIENT PROGRAMMING

**Rashidov A.V**
Assistant of Karshi International University
e-mail: azizvohidovich@gmail.com
ORCID: 0009-0008-2281-3463, +998919643548

***Abstract:*** *This article explores the fundamental role of data structures and algorithms in software development. It provides a classification of core data structures, describes widely used algorithms, and highlights their practical applications. Special attention is given to criteria for*

*selecting optimal data structures and algorithms based on specific tasks. The article also discusses modern trends in algorithmic theory and programming practice.*

***Keywords:*** *data structures, algorithms, software efficiency, algorithm complexity, optimization, software development*

Развитие программной инженерии невозможно без глубокого понимания базовых принципов организации данных и алгоритмических методов их обработки. Современные информационные системы обрабатывают всё возрастающие объёмы данных, при этом требования к скорости выполнения, масштабируемости и эффективности программных решений становятся всё более строгими. В этих условиях особую роль играют структуры данных и алгоритмы, которые определяют фундаментальные характеристики производительности и ресурсоёмкости программного обеспечения.

Правильный выбор структуры данных и алгоритма непосредственно влияет на способность системы эффективно обрабатывать запросы, оптимально использовать оперативную память и аппаратные ресурсы. Кроме того, эти элементы программной архитектуры определяют возможности адаптации системы к изменяющимся требованиям и объёмам данных.

Несмотря на стремительное развитие аппаратных технологий, задача оптимизации программных решений остаётся актуальной: нерационально выбранные структуры данных или неоптимальные алгоритмы могут нивелировать потенциал даже самых современных вычислительных платформ. Это в полной мере проявляется в таких актуальных направлениях, как обработка больших данных (Big Data), машинное обучение, искусственный интеллект, разработка мобильных и встраиваемых систем.

Настоящая статья направлена на систематизацию ключевых понятий в области структур данных и алгоритмов, анализ критериев их выбора и обзор современных тенденций развития данной области знаний.

Структуры данных представляют собой организованные способы хранения, представления и обработки информации в компьютерной памяти. От выбора структуры данных напрямую зависят ключевые характеристики информационной системы: скорость выполнения операций, объём потребляемой памяти, сложность реализации алгоритмов, масштабируемость. Современная теория выделяет несколько основных классов структур данных, различающихся по способу организации элементов и характеру поддерживаемых операций.

Примитивные структуры данных

К этой категории относятся базовые типы данных, предоставляемые языками программирования: числовые переменные, символьные данные, логические значения. В сочетании с массивами фиксированной длины примитивные структуры служат основой для построения более сложных конструкций.

Линейные структуры

Линейные структуры данных представляют собой последовательные упорядоченные коллекции элементов:

**Списки:** динамические структуры, позволяющие эффективно вставлять и удалять элементы. Различаются по типу связей: односвязные, двусвязные.

**Стек:** структура типа LIFO (last in — first out), широко применяемая при реализации рекурсивных вызовов, организации откатов и обработки выражений.

**Очередь:** структура FIFO (first in — first out), находящая применение в управлении потоками данных, планировании задач и обслуживании запросов.

**Дек (двусторонняя очередь):** гибридная структура, обеспечивающая вставку и удаление элементов с обеих сторон.

Иерархические структуры

